Respublika
ta’lim markazi

www.sadikov.uz veb sayti

@edurtm_uz

ADABIYOT

7

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik

www.sadikov.uz veb sayti

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr

Toshkent – 2022

Respublika
ta’lim markazi

www.sadikov.uz veb sayti

@edurtm_uz

UO‘K 821.512.133(075.3)
KBK 83.3(O‘zb)ya72
M 54

Tuzuvchilar:

Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov

Mas’ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU rektori, filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Safo Matchonov – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori, pedagogika fanlari doktori.

Ravshanbek Egamberdiyev – Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi 22-maktab ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Adabiyot 7 [Matn]: 7-sinf uchun darslik / Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

Original maket va dizayn konsepsiyasi Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.

ISBN 978-9943-8352-6-9

© Respublika ta’lim markazi, 2022

KIRISH. BADIIY TAHLIL ASOSLARI

Bu mavzuda biz:
– badiiy matn tahliliga xos xususiyatlarni o'rganamiz.

Amerikalik mashhur yozuvchilardan biri Ernest Heminguey: "Badiiy asarning yozilgan qismidan yozilmagani muhimroq", – degan edi.

O'ylab ko'ring-chi, badiiy asarning "yozilmagan qismi" deganda nimani tushunasiz? Nega Heminguey uni yozilgan qismdan muhimroq, demoqda?

Badiiy matnning muhim xususiyati – uning qator **tagma'nolarga** egaligi. Muallif odatda eng muhim g'oyalari, ahamiyatga molik fikrlarini ochiq-oydin aytmaydi. Biz asarning "yozilgan" qismi – asar matni, undagi obrazlar tasviri, voqealar bayoni, muallif qo'llagan badiiy tasvir vositalarini tahlil qilish orqali uning "yozilmagan" qismlarini kashf qilishni, undan xulosalar chiqarishni o'rganamiz.

Badiiy matnni tushunish uchun dastlab uning **sarlavhasiga** e'tibor beramiz.

Shodiqul Hamro

HOVLIDAGI DARAXT

Asar sarlavhasiga e'tibor bering. Sizningcha, asar nima uchun "Hovlidagi daraxt" deb nomlangan? Unda nima haqida hikoya qilinadi deb o'ylaysiz?

Bu savolga javob topish uchun, avvalo, "hovli" va "daraxt" so'zlariga e'tibor beramiz. Odatda hovli biz tug'ilib o'sgan joy, kichik vatan sifatida tasavvur uyg'otadi. Daraxt esa uzoq umr ko'radi, tabiatning barcha injiqliklariga qaramay, qaytadan kurtak ochib meva beradi. Daraxtning shu xususiyatlaridan kelib chiqib, mualliflar ko'p holatlarda undan badiiy adabiyotda sabr-matonat, oila boshlig'i, millat, jamiyatga oid g'oyalar tas-

virida foydalanadilar, ildizini ota-onaga, yashnab turgan yaproqlarini farzandlarga o‘xshatadilar. Demak, badiiy asarda obraz sifatida ishlatilgan obyektning matndagi vazifasini tushunish uchun uning o‘ziga xos xususiyatlariga ham e’tibor berishimiz lozim.

Asarni o‘qiy boshlar ekanmiz, uning **dastlabki satrlariga** diqqatimizni qaratamiz. Asar turlicha boshlanishi mumkin: tabiat tasviri, joy tasviri, obraz tasviri, biror muammoli vaziyat bayoni va hokazo. Ko‘p holatlarda asar voqealarining keyingi rivoji va muallif aytmoqchi bo‘lgan g‘oya (yoki g‘oyalar) mana shu ilk tasvirlarda ma’lum darajada aks etgan bo‘ladi. Bu g‘oyalar mazmunini anglashda matndagi muhim (“kalit”) so‘zlar ham asosiy o‘rinni egallaydi.

Asarni o‘qiymiz. Asar nima uchun hovlidagi daraxt tasviri bilan boshlanmoqda?

Shodiqul Hamro

HOVLIDAGI DARAXT

Hovlimizdan oqib o‘tadigan ariq labidagi bu daraxt qishlog‘imizda yagona hisoblanardi. Daraxtning bo‘yi uyimiz tomi bilan teng edi. U eniga uncha tarvaqaylab ketmagan, xuddi butalganday qaddi tik, tanasi va shoxlari esa rahmatli bobomning hassasiday sip-silliq edi. Daraxtning kishini hayratga soladigan bir jihati bor edi. U yilda ikki marta – bahor bilan kuz boshlarida gullar, biroq meva tugmas edi.

Bahorda daraxtning bikarang g‘uj-g‘uj g‘unchalari hovlimizga o‘zgacha fayz baxsh etar, uning shoxidan qushlar arimas edi.

Kuzning boshlarida gullashi chindan ham hayratomuz edi, odamlar bunday paytda uning atrofida o‘ralashib: “Nahotki, daraxt ham kuzda gullasa”, – deya ko‘zlariga ishonmay, qo‘llari bilan nafis g‘unchalarni ushlab-ushlab ko‘rishar edi.

Yana shunisi qiziqki, hech kim, hatto otam ham uning qanaqa daraxt ekanini bilmas edi. Biz – bolalar uning ensiz kichik barglariga, tekis shoxlariga qarab gilosga o‘xshatardik va o‘zimizcha uni gilos deb atardik. Aslida gilos emasligini bilardik... Daraxt otamga bobomeros yodgorlik hisoblanar, shu sababli uni nihoyatda avaylardi. Va bizdan ham shuni qattiq talab qilardi.

Muallif daraxtning yagonaligi, bir yilda ikki marta gullashi-yu, ammo meva bermasligi, g‘unchalarining nafisligi bilan nima demoqchi? Nega daraxt tanasini bobosining hassasiga o‘xshatmoqda? Daraxt, bobosi va bobosiga tegishli hassa o‘rtasida qanday bog‘liqliklar bo‘lishi mumkin? Shu kabi savollarga javoblar asarning tagma’nolarini tushunishga, yozilmagan qismlarini yuzaga chiqarishga yordam beradi.

Bundan tashqari, tahlil jarayonida quyidagi savollarning qo‘yilishi ham asarning muhim jihatlarini anglash, uning turli xil talqinlarini yaratish imkonini beradi.

– Asar qaysi shaxs tomonidan bayon qilinmoqda: voqea ishtirokchilaridan biri (birinchi shaxs) nomidanmi yoki “begona ko‘z” (uchinchi shaxs) nomidan?

– Asardagi voqealar qanday ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar asosida rivojlanmoqda?

– Asar qahramonlari nutqi, ular o‘rtasidagi suhbatlar, ularning xatti-harakatlari voqealar rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatmoqda?

– Voqealar ketma-ketlikda bayon qilinmoqdami yoki muallif “tarixga” qaytgan o‘rinlar ham bormi?

– Muallif matnda qanday tasvir vositalarini (sifatlash, o‘xshatish, metafora, jonlantirish va hokazo) qo‘llamoqda va ularning asar umumiy g‘oyasini ochishdagi o‘rni qanday?

Asarning davomini o‘qing. Voqea qaysi shaxs tomonidan bayon qilinmoqda?

Yozning o‘rtalari edi. Onam singlim va akamni ergashtirib qo‘shni qishloqda yashovchi bobomnikiga mehmonga ketishdi. Uyda otam bilan men yolg‘iz qoldik. Supada yonboshlab yotgan otam botayotgan quyoshning alvon shafaqlarida tovlanib turgan daraxtimizga xayolga cho‘mgancha tikilib turardi. Shunda men:

– Ota, nega daraxtimiz hech meva tugmaydi? – deb so‘radim. Savolimdan otam ajablandilar, shekilli, ancha vaqt xuddi nimadir qidirganday yuzimga tikilib qoldilar, so‘ng dedilar: “Mevami? Tugadi, o‘g‘lim. Mana, men, sen, onang, singling va akang shu daraxtning mevalarimiz...”

Tabiiyki, men otamning gaplarini unchalik tushunmadim, buni o‘zi ham sezdi, shekilli, qo‘li bilan boshimni silab: “Bu gaplarning ma’nosini katta bo‘lganingda tushunib olarsan”, – dedi va boshqa bu haqda og‘iz ochmadi.

Otam nafaqat bu yolg‘iz daraxtni, umuman yashillikni sevar edi.

“Uyda otam bilan men yolg‘iz qoldik”. Asar birinchi shaxs – bola nomidan bayon qilinmoqda, ya’ni biz voqealarni uning “ko‘zi” bilan ko‘ramiz. Demak, aynan shu ishtirokchining nuqtayi nazari, subyektiv fikri, kechinmalari, voqealar va asar qahramonlariga bahosi o‘quvchi idrokiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Misol uchun, daraxtning nega meva tugmasligi haqidagi savolga otaning bergan javobini bola tushunmadi – javobning ma’nosi o‘quvchi uchun ham mavhum bo‘lib qoldi.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Asarning davomini o‘qing. Unda bayon qilinayotgan voqealar qachon sodir bo‘lgan: asar boshida bayon qilingan voqealardan keyinmi yoki oldin?

Bizning avloddan avlodga o‘tib kelayotgan yagona yodgorligimiz, otamning aytishicha, hovlimizdagi mana shu yilda ikki marta gullaydigan daraxt ekan. Bobomning bobosimi, balkim uning ham bobosimi, xullas, kunlardan bir kuni shom mahali qo‘lidagi hassasini ariq labiga suqib, o‘zi tahorat olgani o‘tiribdi. Tahoratni olib, hassaga qo‘l uzatmoqchi ekan, shu payt mo‘jiza yuz berganini ko‘rib, hayratdan yoqa ushlab qolibdi: ariq labiga suqilgan hassa nish otib ko‘karayotgan emish... Shu zahotiyoq bobom: “Ey jonivor, sening taningda namlik bor ekan-u, men shuncha vaqt gunohga botib seni sudrab yuribman... Mayli, unib-o‘sgin”, – deya hassasini shu yerda qoldiribdi. Shu-shu to dunyodan ko‘z yumgunicha hassaga ehtiyoj sezmabdi. O‘lim to‘shagida yotganda esa o‘g‘illariga: “Mening hassamdan ko‘kargan ana u daraxt ko‘p xosiyatli. Uni sizlarga qoldiraman, ko‘z qorachiqlaringday asranglar... Quloqlaringda bo‘lsin: kimki bu daraxtni xor qilsa, o‘zi ham dunyodan xor-zor bo‘lib o‘tadi”, – deb vasiyat qilib, oq fotiha bergan ekan.

Daraxtimizning o‘tmishi haqidagi bu gaplar biz – bolalarga xuddi ertakka o‘xshab tuyular, unga ishonish-ishonmasligimizni bilmasdik.

Bir kuni otamga: “Nega daraxtimiz boshqa daraxtlarga o‘xshab tomiridan ko‘paymaydi? Agar ko‘payganda, ko‘chatlarini kovlab olib, hovlimizning boshqa yerlariga ham o‘tqazar edik”, – dedim.

– Ko‘paymaganiga sabab, – dedi otam, – bu daraxtning tomiri boshqa daraxtlar singari yonboshga emas, yer qa’riga tik o‘sadi... Buning yana bir ajoyib xususiyati – boshqa daraxt ildizlari bilan chatishmaydi hamda o‘ziga kerakli ozuqani o‘zi topib, yer ustidagi tanasini toza va mustahkam saqlaydi.

Bu o‘rinda daraxtning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq voqeani eslash orqali bola daraxtning oilasi uchun ahamiyatini, qadr-qimmatini ko‘rsatmoqda. Bola: “Bu gaplar biz – bolalarga xuddi ertakka o‘xshab tuyular...” – deyishi bilan daraxtga oid gaplarning ancha qadimiyligiga, avloddan avlodga o‘tib kelayotganiga ishora qilmoqda.

Asarning davomini o‘qing. Muhojir va ota o‘rtasidagi ziddiyatga e’tibor bering. Bu ziddiyat asar g‘oyasini ochishda qanday ahamiyatga ega?

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

Otam daraxtga bolta yo qaychi urishga sira-sira ruxsat bermas, buni u og‘ir gunoh, shafqatsizlik deb bilar edi. Bizdan sal uzoqroqda yashaydigan, doimo soyabonli kepka kiyib yuradigan Muhojir laqabli kishi bilan otam o‘rtasida nifoq ana shu daraxt tufayli kelib chiqdi. Muhojir qishlog‘imizga chetdan kelib qolgan, uning nasl-nasabini, kimligini, yurtini qishloqda birov bilmas, bu haqda o‘zi ham gapirmas edi. Muhojir degan nomni unga qishloqdagilar qo‘ygandi. Balki bir paytlar bu nom unga og‘ir botgandir, lekin keyin u bunga shu qadar o‘rganib ketgandiki, xuddi ota-onasi qo‘yib ketgan ismday ardoqli bo‘lib qolgandi. Shu Muhojir bir kuni hovlimizga qaychi ko‘tarib kirib keldi-da, otamdan: “Ana shu daraxtingizdan payvandlik bersangiz?” deb so‘radi.

– Payvand solganingiz bilan, baribir, uni ko‘kartirolmaysiz, – dedi otam uncha xushlamay.

– Siz payvandlik beravering, u yog‘i o‘zimning ishim, – dedi Muhojir bilag‘onlik bilan.

– Payvand qilishdan maqsad nima? Axir bu daraxt meva bermasa... – dedi otam daraxtga tig‘ urdirgisi kelmay.

– Shunchaki bir havas-da... Nima, bizning hovlida ham bitta shunaqa daraxt o‘ssa, yomonmi? – dedi Muhojir.

– Bu sizga... – dedi otam jahl bilan, – havasga o‘stiradigan daraxt emas! Undan keyin, ovora bo‘lmang, baribir, payvandlik bermayman!

Shunday deya otam indamay nari ketdi.

Muhojirning g‘ayirligi qo‘zidi, lekin hech narsa demay, ko‘zlarini ayyorona qisdi-da, bir otamga, bir daraxtga qaragancha hovlimizdan chiqib ketdi. O‘sha kuni borliq tun ko‘rpasiga burkanguncha otam daraxt yonidan ketmadi, shundan so‘ng ikki-uch kun ta’bi xira tortib yurdi. Muhojir bilan esa butunlay gaplashmay qo‘ydi.

Odatda asardagi voqealar ma’lum bir ziddiyatlar asosida rivojlanadi. Bu parchada Muhojir va ota o‘rtasidagi ziddiyat ularning daraxtga bo‘lgan turli xil munosabatini, bu munosabat orqali esa muallifning badiiy-g‘oyaviy maqsadini oydinlashtirishga xizmat qilmoqda. Ota uchun daraxt qadrli, ajdodlaridan qolgan yodgorlik. Bu yodgorlikni keyingi avlodlarga beshikast yetkazish vazifasi uning zimmasiga yuklangan. Muhojir uchun esa bunday qadriyatlarning ahamiyati yo‘q. U shunchaki “havasga” daraxt o‘stirish uchun unga tig‘ urmoqchi. Shuning uchun ham ota “xushlamay”, “jahl bilan” gapirmoqda. Muhojir esa “bilag‘onlik bilan” gapiradi, ko‘zlarini “ayyorona” qisadi. Bu so‘zlar bizga bolaning Muhojirga munosabatini ham tushunishga yordam beradi.

Ko‘p holatlarda badiiy asarda ismlar ham muallif aytmoqchi bo‘lgan fikrni, g‘oyani ochib berishga xizmat qiladi. Masalan, “muhojir” so‘ziga e’tibor beraylik. Asarda bu qishloqqa boshqa joydan kelgan, o‘z ismi va nasl-nasabi ham unutilgan kishini “Muhojir”

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

laqabi bilan atashadi. Muhojirning kiyinishi ham uning bu yurtga begonaligini ko‘rsatadi: u soyabonli kepka kiyib yuradi, qishloqlarda esa odatda bunday bosh kiyim kiyilmaydi. Laqabi uning nomi-nishoniga (ismiga) aylangan – Muhojir bu qishloqqa, uning qadriyatlariga, xususan, ota uchun qadrli bo‘lgan daraxtga begona. Shuning uchun u otaning daraxtni avaylab-asrash bilan bog‘liq tuyg‘ularini his qilmaydi.

Asarning keyingi qismida tabiat tasviriga e’tibor bering. Parchadagi badiiy tasvir vositalari nimaga xizmat qilmoqda?

Yerdan qor va zax ketib, o‘rniga quyoshning hovuri endi inayotgan payt borliqda uzilish, o‘lik davr hukm suradi. Chor-atrof qip-yalang‘och, sholday ruhsiz. Bunday paytda odamda beparvolik, lanjlik paydo bo‘ladi. Ana shunday behalovat kunlarda otam: “Bolalarim, yana yigirma kuncha zerikasiz, so‘ng daraxtimiz barg yozib qoladi”, – deb dalda berardi.

... Otamning hisobi bo‘yicha shu kunlarda daraxt kurtak chiqarishi kerak edi. Lekin uning tanasida biron jonlanish bo‘lganini ko‘rmadik, u qishda qanday yalang‘och holda bo‘lsa, shundayligicha qaqqayib turardi... Bahor yarimlay deb qolganda ham daraxtimizda jonlanish sezilmadi...

– Daraxt tanasini ozroq til-chi! – dedi otam. Daraxt tanasidan chamasi bir payraha o‘rnicha kesdim. Otam... o‘tkir nigohini daraxtning kesilgan joyiga qadadi…

– Belkurakni olib kel, endi daraxtning ostini kovla! – dedi u shivirlab.

Men daraxt ostidan bir belkurak tuproq kovlab olgan edim, dimog‘imga qandaydir badbo‘y hid urildi, engashib tuproqqa yaxshiroq razm tashladim: unga qandaydir sarg‘ish narsa singib ketgan edi. Otam ming azob bilan, tipirchilay-tipirchilay o‘rnidan qo‘zg‘aldi va qaltiroq qo‘llari bilan men kovlagan tuproqdan bir siqim olib, ko‘ziga yaqin keltirdi-da:

– Ostiga dori sepishgan ekan, vahshiylar! – dedi ilonday vishillab va daraxt poyiga sudralib keldi-da, tuproqni sidirib, tomirlarini ushlab ko‘rdi. Tomirlarni daraxtlarning tiriklik belgisi – namlik butkul tark etmagan edi...

Otamning yuzida umid shu’lalandi...

– Oz bo‘lsa-da, hali vaqt bor ekan. Endi oyoqqa turishim kerak, – deb pichirladi u daraxt tomirlariga qarab...

Parchadagi sifatlashlarga e’tibor beramiz: “o‘lik”, “ruhsiz”, “behalovat”. Qahramonlar ruhida “lanjlik”. Ota bu holatdan qutulish uchun daraxtning barg yozishini kutmoqda, lekin daraxt qurigan, “yalang‘och”, “qaqqayib turibdi”. Daraxtning qurishi sababini tushungan

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

ota “ilonday vishilladi”. Bu o‘xshatish orqali darg‘azab ota qiyofasi ta’sirli, yorqin ifoda etilgan. Daraxt tomirlarini namlik hali butunlay tark etmaganini ko‘rgan ota uni avvalgi holiga qaytarish uchun o‘zida kuch topishi, “oyoqqa turishi” kerak bo‘ladi.

Demak, badiiy asarda muallif hamma fikrlarini, g‘oyalarini ochiq aytmaydi. Biz tasvirlangan voqealar asosida “Nima uchun?”, “Nega?” kabi savollarimizga javob topamiz va shu asosda muallifning g‘oyasini (g‘oyalarini), aytmoqchi bo‘lgan (lekin aytmagan) fikrlarini tushunishga harakat qilamiz. Badiiy matnning muhim xususiyati uning turli xil talqinlarga egaligi, undan har bir kitobxon o‘z tajribasi, dunyoqarashidan kelib chiqib xulosalar chiqarishi bilan bog‘liq. Zero, adabiyot bu – san’at, san’atni esa har bir kitobxon o‘z holicha tushunishi, har xil xulosalar chiqarishi tabiiy holdir. Asosiysi – bu xulosalar bizni go‘zallikka, yaxshilikka, insoniylikka chorlashidir.

Siz “Hovlidagi daraxt” asaridan qanday xulosa chiqardingiz? Hikoyadagi daraxt kim yoki nimaning ramzi? Muallif bu orqali qanday g‘oyani ilgari surmoqda?

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

1-fasl.
INSON, TABIAT, O‘ZLIK

Normurod Norqobilov. “Oqbo‘yin”
Zulfiya. “Sog‘inib”
Asqad Muxtor. “Oliy butunlik”
Ernest Seton-Tompson. “Lobo”
Ernest Heminguey. “Chol va dengiz”

Adabiy tushunchalar:
– syujet
– zidlantirish
– ramz
– muallif uslubi

Fanlararo aloqa:
adabiyot va tabiatshunoslik

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

NORMUROD NORQOBILOV. “OQBO‘YIN”

Bu mavzuda biz:
– “Oqbo‘yin” qissasida tasvirlangan hayvonlar dunyosini tahlil qilamiz;
– asar syujetining qahramon xarakterini ochishdagi o‘rnini tadqiq qilamiz.

MUALLIF BILAN TANISHAMIZ

Yozuvchi va madaniyat xodimi Normurod Norqobilov 1953-yili Qashqadaryo viloyatida tug‘ilgan. Adibning eslashicha, bolalik davrida “kitob topish qiyin bo‘lgan, topilganini ham birpasda o‘qib tashlashgan”. Uning onasi har oqshom qorachiroq nurida ertak aytib berar, ertak boshlanishi bilan “uy ichi kengayib, yorishib ketganday bo‘lardi”.

Onasining ertaklari ta’sirida bo‘lajak yozuvchida adabiyotga havas uyg‘ondi. Maktabdan keyin bir muddat turli joylarda ishlagach, Toshkent davlat universitetiga (hozirgi O‘zbekiston milliy universiteti) o‘qishga kirdi. Universitetni bitirib, avval gazetada, so‘ng televideniyeda faoliyat yuritdi. Televideniye uchun ko‘rsatuvlar tayyorlash jarayonida O‘zbekistonning ko‘plab joylariga sayohat qildi, hayvonot dunyosini o‘rgandi. Bu bilimlar keyinchalik hayvonlarga bag‘ishlangan asarlar yozilishiga turtki berdi.

Normurod Norqobilov ko‘p yillik xizmatlari uchun “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” unvoni va “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan.

ASARNI O‘QISHGA TAYYORLANAMIZ

Biz o‘qiydigan “Oqbo‘yin” qissasi bir it taqdiri haqida hikoya qiladi.

It – inson tomonidan qo‘lga o‘rgatilgan ilk hayvonlardan biri. Buning sababi nimada bo‘lishi mumkin? Itlarning inson hayotidagi ahamiyati nimada?

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

OQBO‘YIN
(qisqartirib olindi)

Oqbo‘yin notanish hidni darrov ilg‘adi. Parvo qilmadi. Tovuq patini o‘ynashda davom etdi. Patni ertalab topgan, nimaligiga aqli yetmay, boshi garang edi. In yonidagi chirik xashaklar ustida cho‘zilib yotgan ona it bezovta g‘ingshiganidan so‘nggina qadam tovushlari kelayotgan tomonga o‘girildi. Besh odimcha narida uy egasi – Sodiq aka bilan norg‘ul bir odam – Karim podachi, egnida yag‘iri chiqqan paxtalik, oyoqlarini kerib turardi. Undan go‘ng, pichan, silos va yana allambalolarning hidi anqirdi.

norg‘ul – baquvvat gavdali

silos – mol uchun ozuqa

Oqbo‘yin bu xil tashriflarga ko‘nikkan, har keldi-ketdidan so‘ng og‘a-inilaridan birortasi g‘oyib bo‘ladi, keyin onasi tuni bilan g‘ingshib chiqadi. Boshida ular o‘nta edi. Uchtasini, urg‘ochi ekan, birinchi haftadayoq gumdon qilishdi. Bu gal navbat qaysi biriga ekan?

Karim podachi oyoqlari ostida o‘ralashayotgan inisi – Oqto‘shni qo‘liga olib, obdan paypaslab ko‘rdi, panjalarini diqqat bilan ko‘zdan kechirdi. Yoqtirmadi. Oqto‘sh nari ketishni xayoliga ham keltirmay, tag‘in suykala boshlagandi, Karim podachi etigi uchi bilan turtib yubordi. Joni og‘rigan Oqto‘sh angillaganicha onasi tomon pildillab qochdi.

Inisi Oqbo‘yinga yoqmaydi, o‘lgudek yaltoq, ko‘ringan qoraga suykaladi. Akasi Malla esa tamomila aksi – tajang, salga zardasi qaynab darhol “yoqa bo‘g‘ishadi”. Hozir ham u in to‘riga biqinib olib, Karim podachiga adovatli tikilib turardi.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

– Anovi turqi sovuqni ober-chi, – dedi podachi Mallani ko‘rsatib.

Sodiq aka Mallani inidan tortib chiqardi-da, unga uzatdi. Karim podachi uni uzoq tutib turmay, darrov yerga qo‘ydi.

– Bunisi qopag‘on bo‘ladi, – dedi Malla tishlagan barmog‘iga puflab. Podachining ezg‘ilashlari Oqbo‘yinga yoqmadi. Ammo tabiatan bardoshli bo‘lgani uchun boshqalar kabi to‘polon qilmadi. Temirdek qattiq barmoqlarga tish botirishdan o‘zini tiyib, jimgina turib berdi.

sinchi – hayvonlarning zotini farqlay oladigan kishi

novvos – ikki-uch yashar buqa

arloni – sardor, yetakchi

Karim podachi – sinchi, itni farqlay biladi. Umri fermada o‘tgan bu odam itni ishqibozlik uchun emas, zarurat yuzasidan asraydi. Negaki, qish kezlari qir oshib keladigan bo‘rilardan kuygan – jondor desa, yetmish yetti tomiri tortishadi, bo‘rilarga yemish bo‘lgan tomday-tomday novvoslari ko‘z oldiga kelib, ichi-tashi baravar yonadi. Avvallari ahvol aytarli darajada yomon emasdi, salgina po‘pisa-yu qutqu bilan jondor zotini daf etmoq mumkin edi. Ammo uch yil burun Yoldor degan bir maxluq paydo bo‘ldi-yu, podachidan halovat ketdi. Arloni bo‘ri itlarni pisand qilmaganidek, miltiqqa ham osongina chap berardi. Tunlari bo‘ri poylayverib, biqinini shamollatib qo‘yganidan so‘ng, Karim podachi qopqon qo‘yib ko‘rdi. Biroq Yoldor qolib, qopqonga ferma tevaragida aylanib yuradigan daydi eshaklardan biri tushdi. Etni dorilab, yo‘lga tashladi. Yoldor emas, iti zaharlanib o‘ldi. Keyingi asragan iti esa g‘oyat keraksiz chiqdi. Yoldorning qorasini ilg‘ar-ilg‘amas eshik tirnab, g‘ingshigancha ichkariga intiladi, ba’zida qishloqqa qochib qolardi. Bu qish o‘rtasi bu hol yana takrorlangach, Karim podachi jahl ustida itni otib o‘ldirdi. Chunki Yoldor to‘dasi boshqa mol quriganday, uning tanasini bo‘g‘izlab ketgandi-da. Shundan buyon podachi yaxshi it qidirib yuradi. Xuddi shunday it hozir uning qo‘lida edi. Bu kuchuk arloni it naslidan. Bunaqasi mingtadan bitta chiqadi. Nasib etsa, uzog‘i bilan yana to‘rt-besh oydan so‘ng bu atrofda unga teng keladigani bo‘lmaydi. Jondor zoti borki, ovozini eshitishi bilan qir boshida mixlanib qolaveradi. Karim podachi ich-ichidan xuruj qilib kelayotgan quvonchini bazo‘r yutib, uy egasiga yuzlandi.

tana – bir-ikki yoshli buzoq

– Shunisini tanladik.

– Yo‘q. Bunisi o‘zimizda qoladi, – dedi Sodiq aka qat’iy bosh chayqab.

– Bir qo‘y ... qo‘zisi bilan.

Qishda bir chaksa qorni birovga ravo ko‘rmaydigan shunday bir odam qo‘y va’da qilyaptimi, demak, bu kuchukda bir gap bor. Turishini qara, pinak buzmaydi-ya.

– Ana bor, ikkita qo‘y.

– Aka, bilasiz, men bitta gapiraman.

– Obbo, qo‘rang to‘la molmidiki, it asraysan.

– Yaxshi it hammagayam kerak.

– Buni asrab naf ko‘rmaysan. Rashkim yomon, birda bo‘lmasa, birda otib o‘ldiraman.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

– Yarashadigan gapni qiling, aka.

– Otmagan taqdirimdayam baribir Xidir xira otib ketadi.

– Otib koʻrsin....

Savdosi pishmagan Karim podachi itni yerga qoʻyarkan, zarda bilan biqiniga tepdi. Zarb kuchli boʻlmasa-da, bu xil muomala Oqboʻyinga yomon ta'sir qildi. Irillash barobarida akilladi. U oʻz qadr-qimmatini yaxshi bilardi. Bu jihatdan otasi Olaparga tortgan edi. Olapar qoʻshni qishloqlik Abdurayim ovchining iti. Kuzda u bu tomonlarga qadam qoʻyganda, uning haybatli, koʻrkam kelbatini koʻrib, butun qishloq lol qolgandi.

Hali hech kimdan bu xil muomalani koʻrmagan Oqboʻyin gʻazab va alamdan beixtiyor akillab yuborgandi. Akillagani sari izzat-nafsi allanechuk orom topib, ovozi oʻziga xush yoqdi. Karim podachi Mallani qoʻyniga solib, eshik ortida koʻzdan yoʻqolmaguncha u tinchimadi.

Karim podachi sizda qanday taassurot qoldirdi? Sodiq aka nega Oqboʻyinni unga bermadi?

Oqboʻyin dilxiralikni tez unutdi. Tagʻin tovuq pati bilan andarmon boʻldi. Ilgari bir nima bilan oʻynashganda irillardi, endi boʻlar-boʻlmasga akillashni odat qildi.

Chor atrofi baland devor bilan oʻralgan tor joyda uning aqli yetmaydigan ajoyibotlar toʻlib-toshib yotibdi. Eng qizigʻi devor boshida oʻqtin-oʻqtin koʻrinish beradigan babaq xoʻroz. U oʻziga hayratomuz tikilib turgan Oqboʻyinga boshini u yon-bu yon burib anchayin qarab qoʻyadi-da, qanotlarini tap-tap qoqqanicha birdan qichqirib qoladiki, shoʻrlik Oqtoʻsh qochaman deb oʻmbaloq oshib tushadi. Oqtoʻsh jur'atsizligiga yarasha oʻlgudek boʻshang – salga dodlaydi. Oqboʻyin xuddi mana shunisiga ishqiboz, uni yerga bosib ezgʻilashni yaxshi koʻradi. Onasining xotirjam boqishlarida oʻz qiligʻiga ragʻbat sezgani sayin gʻayrati yanayam joʻshadi, oqibatda, onasi oʻrtaga tushishga majbur boʻladi. Qilgʻiliqni Oqboʻyin qilib, gapni Oqtoʻsh eshitadi, boʻshashmay ket, lapashang!

babaq – xoʻrozning yirik turi

Gohida shu ish ustida uy egasining oʻrtancha oʻgʻli Rasul kelib qoladi. Ana unda koʻring tomoshani. Rasul ularni atay oʻchakishtiradi, ya'ni Oqboʻyinni Oqtoʻshni tagiga bosib gʻashiga tegadi. Bundan Oqboʻyinning gʻazabi shu qadar qoʻziydiki, tutqundan boʻshashi bilan sakrab turib, hech bir gunohi yoʻq inisini tishlab tortqilay ketadi. Natijada Oqtoʻsh tashqariga chiqolmay, soatlab biqinib oʻtiradi. Onasi in ogʻzida choʻzilib, intiqom oʻtida yonayotgan Oqboʻyinni ichkariga yoʻlatmaydi, hovuridan tushishini kutadi. Oqboʻyin alamidan Mallaga yopishadi. Ammo Malla boʻsh keladiganlar xilidan emas, "mushtga musht bilan" javob beradi. Ayniqsa, kechagi janjal yomon boʻldi. Rasulning qutqusi bilan u Mallani endi tagiga bosgan edi, kutilmaganda oʻng oyogʻi akasining jagʻlari orasiga tushib qoldi. Jagʻ emas, misoli qopqon, qani qoʻyvorsa. Angillab yubordi. Rasul uni yerdan koʻtarib bagʻriga bosdi. Lat yegan oyogʻini silab-siypadi. Mallani esa tepib haydadi.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Oqbo'yin, Oqto'sh va Malla o'rtasida qanday farqlarni kuzatdingiz? Muallif bu farqni ko'rsatishda qanday vositalardan foydalanmoqda?

Rasul boshidanoq Oqbo'yinga ayricha mehr qo'ygan. Oqbo'yin buni o'zicha his qilgani sayin tantiqligi ortadi. Aslida, eshikdan kirib keladiganlar orasida eng g'amxo'ri ham Rasul edi. Shu bois bolaning kelishini Oqbo'yin ilhaq kutadi. Kelavermasa, eshik yoniga borib, tashqariga mo'ralaydi. Tirqishdan keng hovlining bir burchagi – o'choq-boshi ko'rinadi, xolos. U yerdan kunda uch mahal yaloqqa to'kiladigan ovqat hidi keladi.

Tovuq pati joniga teggach, Oqbo'yin eshik yoniga bordi. Tirqishga tumshug'ini suqib g'ingshidi. Tanish hiddan darak yo'q, qadam tovushlari ham eshitilmaydi. Rasul kelmagunicha, u eshikdan nari ketmadi, goh g'ingshib, goh akillab uni yo'qlab turdi.

* * *

Nihoyat bu kech uning sabr kosasi to'lib toshdi. Ortiq bardosh berishga o'zida kuch topmadi. Supada uxlab yotgan bolani ko'zi qiyib-qiymay, devor oshib ko'chaga chiqdi. Ko'chadan dalaga. Katta ariq bo'yiga yetib bir zum to'xtadi. Ariqdan nariyog'i Mallaning tasarrufidagi yerlar. Xuddi shuni ta'kidlagandek fermaxona tomondan Malla hurdi. Ovozida yakka hokimlikka da'vat qorishiq. Aynan shu narsa Oqbo'yinni fermaxona tomonga tortardi.

Tun oydin. Malla qishloqdan uzilgan qorani uzoqdanoq payqadi. Ovoziga hayrat indi. Qiziq, uning yeriga qadam qo'ymoqqa jur'at etgan kim bo'ldi ekan? Azbaroyi tutaqqanidan bo'g'ilib qolayozdi. Quturib olg'a intilarkan, yarim yo'lga yetmay, beixtiyor to'xtadi. Qaysi ko'z bilan ko'rsinki, qarshisidan hov birda oyog'ini sindirgan bahaybat maxluq kelardi. Malla talvasada turib qoldi. Zora qaytib ketsa degan umidda Malla yer tirnab jon-jahdi bilan hurdi. Biroq raqibi pinak buzmadi, loaqal irillashni o'ziga ep ko'rmadi.

Malla nima qilarini bilmay, tahlika og'ushida turarkan, shu payt fermaxona tomondan eshikning g'ijirlab ochilib-yopilgani elas-elas eshitildi. Shunda u birdan yengil tortdi. Raqibi ko'ziga ortiq dahshatli ko'rinmay qo'ydi. Nima qilishini u endi yaxshi biladi. Oqbo'yinni chalg'itib, fermaxona biqinidagi uycha yaqiniga olib borsa bo'ldi, qolganini Karim podachi eplaydi. Hafta burun qo'shni qishloqdan uloqib kelib qolgan kattakon sariq itning kuni ham shu tariqa bitgan edi.

Malla kalta-kalta hurish bilan podachini voqeadan ogoh etganicha sekin-asta chekina bordi.

intiqom – qasos

Oqbo'yin – sodda, firibni sezmadi. Intiqom tuyg'usi vujudini shu qadar zabt etgan ediki, pastak eshikning qiya ochilganini ko'rsa-da, e'tibor bermadi. Mallani devorga siqib borarkan, odatdagidek, hamla oldidan bir zum to'xtadi. Shu dam eshik og'zida o't chaqnab, o'q ovozi qarsilladi. Yag'riniga cho'g'dek qadalgan zarbdan Oqbo'yin yiqildi. Dimog'iga o'sha tanish miltiqdori hidi urilishi bilan dahshatga tushib, sakrab turdi.

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

Og‘riqdan ham ko‘ra kutilmagan bu hodisadan qo‘rqib ketgan Oqbo‘yin raqibining ayovsiz talovlari ostida sharmandalarcha qochdi.

Badanidagi tish izlari tez bitib ketdi-yu, lekin o‘q teshgan jarohatiga qurt tushib, behad azob cheka boshladi. Ovqatga qaramay qo‘ydi. O‘n kun ichida avvalgi kelbatidan asar ham qolmadi.

Ota hali qaytmagan, onaning it bilan ishi yo‘q, yolg‘iz Rasulgina uning dardiga sherik, o‘zi bilganicha, qo‘lidan kelganicha muolaja qilardi. Oldiniga kul sepib yurdi, kul ham foyda beravermagach, allaqayerdan bir shisha quyuq qoramtir, qo‘lansa dori topib keldi. Ammo doriniyam yordami tegmadi. Itning ahvoli kundan kunga yomonlasha bordi. Oxir-oqibat Rasulning mol do‘xtiri – Salom pakanaga borib yalinishdan o‘zga chorasi qolmadi.

Salom do‘xtirni tomorqasidan topdi. U ikki ishyoqmas o‘g‘lini piyoz o‘toqqa qo‘yib, o‘zi kartoshka chopayotgan ekan. Otaning kayfi buzuq, bolalarining qovoqlari qizargan, kattarog‘ining yalang‘och sonida chiviq izlari shundoqqina ko‘zga tashlanib turardi.

chiviq – yangi, ingichka novda

Rasul yaqinroq borishga yuragi betlamay turganida Salom do‘xtir uni ko‘rib qoldi.

– Nima kerak?

Rasul qimtinibgina unga yaqinlashdi.

– Kuchugimiz o‘lyapti, – dedi tomog‘iga yig‘i tiqilib.

– Nima qilay shunga? – Salom do‘xtir hayron bo‘ldi.

– Tuzating. Tuzatib bering.

– A! – hayratdan Salom do‘xtirning qoshlari chimirildi. Bu bolaning esi joyidami o‘zi degan ma’noda unga boshdan oyoq tikildi. Shu damgacha unga hech kim itim kasal deb kelmagan. Allaqanday o‘laksa uloqchasi og‘riganda uning eshigiga tanda qo‘yadigan odamlar iti dardga chalinganda parvo qilishmas, nari borsa, joni qiynalmasin deya biror jar-parga chiqarib otib tashlashardi.

tanda qo‘yish – serqatnov bo‘lib qolish

– Agar xo‘p desangiz, evaziga piyozingizni o‘tab beraman, – dedi Rasul yalinchoqlik bilan.

Salom do‘xtir endi unga ayricha qiziqish bilan tikilarkan, dimog‘ida himm deb qo‘ydi.

– Tuzating, har kuni daladan sigiringizga o‘t yulib kelaman.

Salom do‘xtir ish desa, tom oshib qochadigan o‘g‘illaridan kuygan emasmi, bolaning bu gapi favqulodda mehrini qo‘zg‘atib yubordi.

– Anovilarga qarashib yubor-chi, keyin bir gap bo‘lar, – dedi kulimsirab.

pol – ekin maydoni qismi

Rasul hash-pash deguncha ikki pol piyozni o‘tab tashladi.

– Ana, ko‘rdilaringmi, qanaqa ishlash kerak, – dedi Salom do‘xtir o‘g‘illariga xo‘mrayib. Kimsan xola hayron: “Tavba, it molmidiki, do‘xtir ko‘rsa. Shu Salomniyam yosh bola fe’li bor-a”.

kulliklash – birlashtirib bog‘lash

Rasul do‘xtir aytganday qilib itning oyoqlarini kullikladi. Oqbo‘yin qarshilik ko‘rsatmadi, zero, bunga holi ham yo‘q edi. Taqdirga tan bergandek, bir alpozda g‘ingshib yotaverdi.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Salom do‘xtir itning tumshug‘ini tasma bilan sirib bog‘lagach, kattakon qora sumkasini ochdi. Boshda jarohatni obdan ko‘zdan kechirdi, so‘ngra qo‘lidagi yaltiroq tig‘ni shartta yaraga botirdi. Oqbo‘yin boshini ko‘tarib turmoqqa intildi.

– Lallaymay, boshidan tut! – deya buyurdi Salom do‘xtir. – Ustiga minib ol!

U imillagancha yaradagi qurt va sochma o‘qlarni bittalab terarkan, Oqbo‘yin ustidan Rasulni itqitib yubormoqqa intilar, to‘lg‘anar, ingrar, g‘ingshir, Salom do‘xtirga yeb-yutib qo‘ygudek tikilardi.

Nihoyat Salom do‘xtir jarohatni bog‘lab, o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Peshona terlarini bilagi bilan sidirarkan, chog‘roqqina shishadagi qoramtir dorini bolaga tutqazdi: “Kunda uch mahal surasan”.

Hafta o‘tib, jarohati xiyla bitgan Oqbo‘yin oz-ozdan ovqat yeydigan bo‘ldi.

Rasul sizda qanday taassurot qoldirdi? Salom do‘xtir uning itim kasal deb kelishidan, O‘qbo‘yinni davolatish uchun har qanday yumushga tayyorligidan nega hayron bo‘ldi?

Quvvatga kirgan sari o‘sha mash’um kecha xotirida tobora ravshanroq jonlana borib, Mallaga nisbatan adovati behad kuchaydi. Boz ustiga, keyingi vaqtlarda Malla battar haddidan oshgan, gohida uning ovozi shundoqqina qishloq yonidan, ko‘chalardan eshitilib qolardi. Shunisi qiziqki, uning sasi chiqishi bilan qishloq itlarining ovozi mayin tortar yoki butunlay o‘char, hatto yaltoqli akillashlarni ham eshitish mumkin edi.

Mallaga nisbatan zimdan kuch to‘play boshlagan Oqbo‘yin endigi uchrashuv so‘nggisi bo‘lishini ich-ichidan sezar va shu kunning kelishini betoqat kutardi.

U zoriqib kutgan vaqt yetib kelganida, barglar sarg‘ayib, havo salqin tortgandi. Endi Rasul hovlida emas, uyda uxlardi. Shunga qaramay, Oqbo‘yin tunlarini deraza ortida o‘tkazardi. Eski odatini hanuz tark etmagandi u. It bir nimaga odatlandimi, uni hech kanda qilmaydi.

Bugun u derazada shu’la so‘nishi bilan devor oshib ko‘chaga chiqdi. G‘o‘zapoya g‘arami yonida qo‘shni it – To‘rtko‘zga ro‘para keldi. To‘rtko‘z g‘ajib turgan suyagini tashlab, dumini likillatgancha uni do‘stona qarshiladi. Yaltoqlanib iskalandi. Oqbo‘yin uni yoqtirmasdi, ortidan ergashgandi, irillab berdi: yo‘qol ko‘zimdan! To‘rtko‘z g‘ingshib qoldi. Oqbo‘yin ariq bo‘yiga yetib cho‘nqaydi. Muzdek yelga yuz tutib, hid oldi. Mallaning makkorligi esida. To‘g‘ri bosib borishga yuragi chopmadi. Tadbir qidirdi. Ammo ming bosh qotirmasin, miyasiga jo‘yali bir fikr kelmadi. Alamidan uvlab yubordi. Uzoqdan Malla hurdi. Shundan so‘ng Oqbo‘yin tavakkaliga olg‘a yurdi. Saldan keyin o‘zi tomon chiqib kelayotgan Mallani ilg‘adi. Vujudi g‘azabga to‘lib, qadamini tezlatdi. Biroq Malla yugurib kelayotgan joyida taqa-taq to‘xtadi. Oqbo‘yin il-

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

damroq harakat qilgandi, u shartta iziga burildi-da, qocha boshladi. Oqbo'yin xatosini tezda fahmlay qolmadi. Qachonki, Malla o'tgan galdagidek kalta-kalta hurganicha kimnidir ko'makka chaqirayotganini anglagachgina, yana firib ishlatayotganini payqadi. To'xtadi. Malla esa yer tirnab hurgancha jig'iga tegishda davom etdi. Oqbo'yin ilgari borishga yuragi betlamay, birpas hardamxayol turarkan, noiloj iziga qayrildi. Shunda malla to'satdan tashlanib qoldi. Oqbo'yin o'girilishi bilan yana ura qochdi. Quvib yetolmasligiga ko'zi yetgach, Oqbo'yin qishloq tomon yurdi.

Malla ketidan qolmadi, chotidan olgudek bir vajohatda ergashib kelaverdi. Shunda Oqbo'yinning ko'ngliga shumlik oraladi. Avvaliga lo'killadi, so'ng chinakamiga qochgan bo'ldi. Ariqqa yuz odimcha qolganda, Oqbo'yin shartta iziga burildi-da, yashin tezligida unga tashlandi. Malla o'zini o'nglaguncha bo'lmay, Oqbo'yinning o'tkir tishlari bo'g'ziga qadaldi. Qaynoq qon hididan quturib ketgan Oqbo'yin zumda uni g'ajib tashladi. Keyin sal chetlanib, raqibining jon talvasasida to'lg'anishlarini g'olibona kuzatib turdi. Mallaning so'nggi nolasi qanchalik ayanchli bo'lmasin, ko'nglida unga nisbatan tariqcha shafqat sezmadi. Qaytanga g'alabadan sarmast holda jasad atrofini uch qur aylanib chiqdi. So'ngra qishloqni boshiga ko'tarayotgan ariq bo'yidagi itlar to'dasiga e'tibor bermay, bir-bir bosgancha tepalik sari yurdi.

Oqbo'yin yo'lni to'g'ri Sariqtepaga soldi. Osmon to'la yulduzlarga boqqanicha o'zga ohangda uvullab yubordi. Pastda qorayib turgan qishloqdagi itlarning uni o'chdi. Loaqal birortasi po'pisaga hurmadi. To'rtinchi yo beshinchi ulishidan so'nggina To'rtko'z yaltoqlanib javob qaytardi. Keyin unga boshqa itlar qo'shildi. Go'yo ular yangi "hukmdor"ni olqishlashar edi.

* * *

... Uzoq cho'zilgan qorasovuqdan so'ng yerga birinchi qor tushdi.

Oqbo'yin yomg'ir nimaligini biladi, tumanni ko'rgan, lekin bunisiga aqli yetmadi. Iskab ko'rdi, yalab ko'rdi... keyin ko'nikdi. Ilk qor quvonchidan u ham bebahra qolmadi. Hovlida Rasul bilan rosa to'polon qildi.

Kechki ovqatdan keyin Oqbo'yin odatdagi joyiga – deraza tagiga uzala tushdi. Qor yumshoq, havo iliq edi. Oqbo'yin ko'zlarini bir nuqtaga tikkancha, ichkaridan eshitilayotgan shovurga quloq tutib yotarkan, birdan sergak tortdi. Ustiga qo'ngan qorni silkib tashlab, oyoqqa qalqidi. Nafasini ichiga yutib, quloqlarini ding qildi: ko'p o'tmay, cho'ziq ulish ovozi yana takrorlandi. Oqbo'yin itnikiga o'xshab-o'xshamay ketadigan bu nido zamirida yurakka vahima soluvchi nimadir borligini ilg'ar-ilg'amas, qishloq itlari jazavaga tushib qolishdi. Oqbo'yin boshini bir yon qiyshaytirib, itlar ovoziga diqqat qilarkan, ularning ovozida bezovtalik sezdi. Bunga sari goh aniq, goh elas-elas eshitilayotgan ovoz egasi tasavvurida g'aroyib va dahshatli maxluqqa aylana bordi. Qo'rquv bilmas yuragiga qiziqish oraladi. Shu qiziqish

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

halpida devor oshdi. Ko‘cha va daladan o‘qdek uchib o‘tib, tepalikka intildi. Chor atrofga alanglab, havoni iskadi. Qor hididan bo‘lak hidni tuymay, norozi g‘ingshidi. Shu dam hazin ulish yana qaytarildi. Oqbo‘yin uning qaysi tarafdan kelayotganini anglab ulgurmay, kun botish tomondan yana biri quloqqa chalindi. Dasht oppoq qor, Oqbo‘yin ikki qishloq oralig‘idagi do‘ngda qorayib turgan sharpani bazo‘r ilg‘adi.

U o‘sha tomonga yugurmoqchi bo‘lgan joyida beixtiyor to‘xtadi. Qorani Olapar deb o‘yladi, shuningdek, dov to‘kib borishga o‘zini haqsiz sezdi. Nimaga deganda, do‘nglikdan nariyog‘i Olaparga daxldor. Bu haqda Olapar o‘tgan gal o‘ta jiddiy bir tarzda ogohlantirganki, uning o‘sha paytdagi holati hanuz Oqbo‘yinning ko‘z o‘ngida, eslasa eti junjikadi...

ASARNING DAVOMINI MUSTAQIL O‘QING.

Asardagi ayrim so‘zlar izohi

shiptir – siydik
qo‘ton – qo‘yxona
nishxo‘rd – yem qoldig‘i
sur – bez, surbet
juvoz – o‘simlik urug‘idan moy chiqaradigan qurilma

Asarning to‘liq matni havolasi

MUHOKAMA QILAMIZ

1. Oqbo‘yin va Olapar o‘rtasidagi “kelishuv” tasviriga e’tibor bering. Itlar orasida bunday holatni hech kuzatganmisiz? Muallif bu lavhani asarga nima maqsadda kiritgan deb o‘ylaysiz?

2. Sizningcha, Oqbo‘yin Olaparsiz ham bo‘rilarga bas kela olarmidi? Nima uchun?

3. Karim podachi Oqbo‘yindagi ko‘rk va mahobatni ko‘rib ham unga o‘q uzganini qanday izohlaysiz?

4. Asar nima bilan tugaydi? Muallif asarni nega aynan shunday yakunlagan deb o‘ylaysiz? Uni boshqacha ham yakunlash mumkinmidi?

5. Karim podachi obraziga ta’rif bering. Uning Oqbo‘yinga nisbatan bu qadar nafrati sababi nimada? Sizningcha, Sodiq aka u so‘raganday, Oqbo‘yinni unga berib yuborganida, fojia sodir bo‘lmasligi mumkin edimi?

6. Hayvonlar dunyosi, xatti-harakatlari, o‘zaro va insonlar bilan munosabatlari real tasvirlangan o‘rinlarni matn asosida izohlang.

7. Yozuvchi o‘z maqolalaridan birida: “Bu dunyoda barcha narsa tabiiy uyg‘unlik asosiga qurilgani va tabiatga ozor beruvchi yolg‘iz jon odam bolasi ekanini favqulodda anglab yetgandim”, – deb yozadi. Siz bu fikrga qay darajada qo‘shilasiz? Biz o‘qigan “Oqbo‘yin” qissasi ham adibning ushbu fikrini asoslaydi, deyish mumkinmi?

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

BADIIY TAHLIL ASOSLARINI O‘RGANAMIZ: SYUJET

Badiiy asarda bayon qilingan voqealar **syujet** deyiladi. Syujet qahramonlar xarakterini, ularning xatti-harakatlari sabablari va oqibatlarini, muallif aytmoqchi bo‘lgan fikrlarni tushunishga yordam beradi.

“Oqbo‘yin” qissasidagi voqealar orqali Oqbo‘yinga xos qanday xususiyatlar ochib berilgan? Jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

Oqbo‘yinga xos xususiyat	Ushbu xususiyatni ochib berishga xizmat qilgan voqea

Ba’zan muallif asar voqealarini bayon qilishda ularning xronologik (vaqt bo‘yicha) tartibini buzishi – voqea davomida oldinroq bo‘lib o‘tgan hodisalarga qaytishi mumkin. Bu usul **retrospektiva** deyiladi. Misol uchun, “Oqbo‘yin” qissasida Karim podachi Mallani olib ketganidan keyin Oqbo‘yin Malla bilan o‘ynaganlarini eslaydi.

Voqealarning xronologik tartibi:

Oqbo‘yin Malla bilan o‘ynaydi. → Karim podachi Mallani olib ketadi.

Voqealarning asarda bayon qilinishi:

Karim podachi Mallani olib ketadi. → Oqbo‘yin Malla bilan o‘ynaydi.

“Oqbo‘yin” qissasining yana qaysi o‘rinlarida muallif retrospektiva usuliga murojaat qilgan? O‘ylab ko‘ring-chi, muallif nega voqealarni bayon qilishning bunday usulini tanlagan bo‘lishi mumkin?

MUSTAQIL O‘QISH UCHUN

Normurod Norqobilovning inson va tabiat haqida hikoya qiluvchi yana bir asari – “Kapalak” hikoyasini o‘qib chiqishingizni tavsiya qilamiz.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

ZULFIYA. “SOG‘INIB”
ASQAD MUXTOR. “OLIY BUTUNLIK”

Bu mavzuda biz:
– “Sog‘inib” va “Oliy butunlik” she’rlaridagi g‘oyalarni qiyoslaymiz;
– badiiy matnda zidlantirishning vazifasini tahlil qilamiz;
– she’rlardagi lirik qahramon kechinmalarini qiyoslaymiz.

MUALLIFLAR BILAN TANISHAMIZ

Zulfiya (1915–1996)

Zulfiya (Zulfiya Isroilova) Toshkent shahrida temirchi oilasida tavallud topgan. Dastlab o‘rta maktabda, keyinchalik qizlar bilim yurtida tahsil olgan. Ijodiy faoliyatini juda erta boshlagan, ko‘p yillar jurnalistika va nashriyot sohasida ishlagan. Ko‘plab she’riy asarlar, tarjimalar muallifi. Taniqli o‘zbek shoiri Hamid Olimjonning rafiqasi. Turli xil davlat mukofotlari bilan taqdirlangan. Yurtimizda Zulfiya nomidagi davlat mukofoti ta’sis etilgan. Mazkur mukofot turli xil sohalarda katta muvaffaqiyatlarga erishgan iqtidorli qizlarga beriladi.

Asqad Muxtor (1920–1997)

Asqad Muxtor Farg‘ona shahrida oddiy xizmatchi oilasida tug‘ildi. Juda erta, o‘n bir yoshida otasidan ayrilgach, bolalar uyida tarbiyalanishga majbur bo‘ldi. O‘rta maktabni tamomlab, O‘rta Osiyo davlat universitetida (hozirgi O‘zbekiston milliy universiteti) tahsil oldi. Turli xil mas’ul lavozimlarda, gazeta va jurnallarda ishlagan. U shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon sifatida o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan. Asqad Muxtor qator davlat mukofotlari bilan taqdirlangan.

MUTOLAAGA TAYYORLANAMIZ

“Tabiat” deganda ko‘z o‘ngingizda nimalar gavdalanadi? Insonlarning tabiatni yaxshi ko‘rishi sabablari haqida o‘ylab ko‘rganmisiz? Inson va tabiat o‘rtasida qanday bog‘liqlik bo‘lishi mumkin?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

SOG‘INIB

Zulfiya

Shu kunlarda bahorga zorman,
Navjuvonlik o‘ti tanda yo‘q.
Kuz singari za’far ruxsorman,
Mevalar ham shoxlardan uzuq.

Shu kunlarda bahorga zorman,
Tanxastalik ezadi ruhim.
Tanho emas, qatorda borman,
Yana neni izlaydi suqim?

suq – havas

Shu kunlarda bahorga zorman,
Shaffof, yorqin kuy tilar ko‘ngul.
Yaxshiyamki, qalamga yorman,
So‘zlab turar bor dilimni ul.

Shu kunlarda bahorga zorman,
O‘z bahorim kabi bemisol.
Bahor qaytmas, yonuvchi qorman,
Yo no‘noq qo‘l butagan nihol.

Shu kunlarda bahorga zorman...

MUHOKAMA QILAMIZ

1. Sizningcha, she’rda qanday g‘oya ilgari surilmoqda?
2. Lirik qahramon nima uchun bahorga intiq? U “shu kunlar” deganda qanday kunlarni nazarda tutmoqda?
3. She’rdagi “o‘z bahorim kabi bemisol” jumlasidan nimani anglash mumkin? Siz lirik qahramonning bahorini qanday tasavvur qilyapsiz?
4. Sizningcha, lirik qahramon sog‘inchi kimga yoki nimaga nisbatan bo‘lishi mumkin?

BADIIY TAHLIL ASOSLARINI O‘RGANAMIZ: ZIDLANTIRISH

Badiiy asarda bir-biriga zid obraz yoki tushunchalarning qarama-qarshi qo‘yilishi **zidlantirish (antiteza, tazod)** deyiladi.

Topmoq – yo‘qotmoqdir,
Yo‘qotmoq – topmoq,
Sen so‘lib,
Men yashab,
To‘lishimga boq. (Muhammad Yusuf, “Onajon” she’ridan)

“Sog‘inib” she’ridan lirik qahramonning tushkun kayfiyatini aks ettiruvchi va unga zid tasvirlarni toping. Shoiraning badiiy va g‘oyaviy maqsadini ochib berishda mazkur ziddiyatning ahamiyatini matn asosida dalillang.

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

OLIY BUTUNLIK

Asqad Muxtor

yak sonman –
birman

O, ona tabiat!
Sen bilan yak sonman,
Sen mening erkimsan, mening qafasim.
Jonim shirinligi, tirikligim sendan,
Sof havodan olgan nafasim.

Tug‘ishganlik hissi yo‘l qo‘ymaydimi,
Odatmas quyoshga aytmoq tashakkur.
Har tong qarshisida tiz cho‘ksam arzirdi,
Yorug‘ dunyom mening, ko‘zimdagi nur.

Sezaman ekinlar tanasidagi
Sharbat bo‘lib oqqan rizqimni.
Naykamalak, gullar – mening hislarim,
Bahor yangilaydi hayot ishqimni.

Yer issiq, yer yumshoq, o‘zim ham yerdan,
U ko‘rinmas menga bir marrasimon.
Yo‘q, men abadiyman.
Menga o‘lim yo‘q.
Tirik tabiatning bir zarrasiman.

O, hayotning oliy butunligi!
Insonga ufqlarni kengroq och,
Jamiki dardlarga malham o‘zingsan,
Azobli o‘ylarga yog‘du soch.
Azobli o‘ylarga yog‘du soch...

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

MUHOKAMA QILAMIZ

1. “Oliy butunlik” she’rining g‘oyaviy asosi haqida nimalar deyish mumkin? Nega she’r “Oliy butunlik” deb nomlangan? Fikrlaringizni matn asosida dalillang.

2. Qanday qilib ona tabiat inson uchun bir vaqtning o‘zida ham erkinlik va ham tutqunlik (qafas) bo‘lishi mumkin? Nima uchun shoir bu so‘zlarni tabiatga nisbatan qo‘llamoqda?

3. “Har tong qarshisida tiz cho‘ksam arzirdi” satrida lirik qahramon nimaga ishora qilmoqda? Tongning inson hayotidagi qimmati nimalarda aks etadi?

4. Qanday qilib bahor insonlardagi hayot ishqini yangilashi mumkin? Bunday fikrni boshqa faslga nisbatan ham qo‘llash mumkinmi? Nima uchun?

5. She’rda ishlatilgan badiiy tasvir vositalarini toping. Ularning she’r badiiy va g‘oyaviy qimmatini oshirishdagi ahamiyatini matn asosida izohlang.

SOLISHTIRAMIZ

1. “Sog‘inib” va “Oliy butunlik” she’rlariga xos qanday umumiy tushunchalarni kuzatish mumkin? Bahor badiiy adabiyotda, jumladan, mazkur ijod namunalarida nimaning ramzi sifatida qo‘llangan?

2. Eslang: lirik qahramon kim? Har ikki she’rning lirik qahramoni qaysi jihatlari bilan bir-biriga o‘xshaydi va qaysi jihatlari bilan farq qiladi? Jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

“Sog‘inib” she’ri lirik qahramoniga xos xususiyatlar	Har ikkala she’r lirik qahramoniga xos xususiyatlar	“Oliy butunlik” she’ri lirik qahramoniga xos xususiyatlar

3. Agar sizda to‘rt fasldan biriga tuyg‘ularingizni bayon etish imkoni tug‘ilsa, qaysi faslni tanlagan bo‘lardingiz? Nega?

**“O‘rik gullayapti”.
O‘zbekiston xalq rassomi
Rahim Ahmedov ishlagan surat**

Respublika ta'lim markazi
@edurtm_uz

MUSTAQIL MUTOLAA VA TAHLIL UCHUN

Quyida berilgan she'rlar asosida Zulfiya va Asqad Muxtor she'riyatiga xos xususiyatlarni tahlil qiling. Bunda quyidagilarga e'tibor bering:

– she'rlarda ilgari surilgan g'oyalar;
– lirik qahramonning kechinmalari;
– she'rlarda ishlatilgan badiiy tasvir vositalari.

Zulfiya

BAHOR KELDI SENI SO'ROQLAB

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor.

Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,
O'rik gullarining eding maftuni.
Har uyg'ongan kurtak, hayot bergan kabi
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.

Mana qimmatligim, yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.
Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,
Ul ham yosh to'kdi-yu, chekildi nari.

Seni izlar ekan, bo'lib shabboda,
Sen yurgan bog'larni qidirib chiqdi.
Yozib ko'rsatay deb husn-ko'rkini,
Yashil qirg'oqlarni qidirib chiqdi.

Topmay, sabri tugab bo'ron bo'ldi-yu,
Jarliklarga olib ketdi boshini.
Farhod tog'laridan daraging izlab,
Soylarga qulatdi tog'ning toshini.

So'ngra jilo bo'lib kirdi yotog'imga,
Hulkar va Omonning o'pdi yuzidan.
Singib yosh kuydirgan zafar yonog'imga
Sekin xabar berdi menga o'zidan.

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

Lekin yotog‘imda seni topolmay,
Bir nuqtada qoldi uzoq tikilib.
Yana yel bo‘ldi-yu, kezib sarsari,
Mendan so‘ray ketdi qalbimni tilib:

“Qani men kelganda kulib qarshilab,
Qo‘shig‘i mavjlanib bir daryo oqqan?
“Baxtim bormi?” deya yakkash so‘roqlab,
Meni she’rga o‘rab suqlanib boqqan?

to‘nmoq – tikilmoq

O‘rik gullariga to‘nmaydi nega
Yelda hilpiratib jingala sochin?
Nega men keltirgan sho‘x nashidaga
Peshvoz chiqmaydi u yozib qulochin?

Qani o‘sha kuychi, xayolchan yigit?
Nechun ko‘zingda yosh, turib qolding lol?
Nechun qora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko‘klamda sen parishonhol?”

bar – kiyim etagi

Qanday javob aytay, loldir tillarim,
Baridan tutdim-u, ketdim qoshingga.
U ham g‘aming bilan kezdi aftoda,
Boqib turolmayin qabring toshiga.

Alamdan tutaqib daraxtga ko‘chdi,
Kurtakni uyg‘otib so‘yladi g‘amnok.
Sening yoding bilan yelib beqaror,
Gullar g‘unchasini etdi chok-chok.

Gul-u rayhonlarning taraldi atri,
Samoni qopladi mayin bir qo‘shiq.
Bu qo‘shiq naqadar oshno, yaqin,
Naqadar hayotbaxsh, otashga to‘liq.

Bahorga burkangan sen sevgan elda
Ovozing yangradi jo‘shqin, zabardast.
O‘lmagan ekansan, jonim, sen – hayot,
Men ham hali sensiz olmadim nafas.

Hijroning qalbimda, sozing qo‘limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam.
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

DARAXT

Bir daraxt turardi yo‘l chekkasida,
Shamol urar edi uni muttasil.
Avval ko‘k, so‘ng za’far xazon tusida,
Ko‘rkini yo‘qotdi... hamon urar yel.

Qurg‘adi, bukchaydi kurashda tanho,
Zilol qonlaridan qolmadi zarra.
Shamol, shamol savab qo‘ymadi ammo,
Ildiz-la yiqildi oxir bir zarbdan.

Endi yel bo‘shliqda kezar darbadar,
Tanho qurbonining qaqshashin izlab...
Bilaman, daraxtday qulasam agar,
Mening hayot bog‘im qolmas huvullab.

Asqad Muxtor

“Hayot daraxti qo‘shig‘i”. Rassom Fuqat Bozorov ishlagan surat

NIHOL

Gursillab yiqildi keksa qayrag‘och,
Cho‘chib milt-milt etdi tunda yulduzlar.
Tarvaqaylab yotar yo‘g‘on, yalang‘och,
Tuproqni o‘pirib chiqqan ildizlar...

Atay borib ko‘rdim ertasi kuni.
Go‘yo – chol, yonboshlab yotardi behol.
Tagida egilib, go‘yoki uni
Suyab turar edi zaif bir nihol.

Xuddi yosh barglari shivirlar sekin:
“Kiftimga tashlayver keksa gavdangni”.
Bu gap bir cho‘pchakka o‘xshaydi, lekin
Ishongisi kelar odamning...

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

SOG‘INISH

Sharqirab hovlimdan o‘tardi anhor.
Yolg‘iz tol o‘sardi anhor bo‘yida,
Bulbul sayrar edi bargida bahor,
Belanchak o‘ynardi qizlar quyida.
Sog‘inchim ortadi yodlasam uni,
Tug‘ishgan singilday mehribon shu tol.
Bunday sog‘inmasdim balki sarvini,
Nega yuragimga qadrdon shu tol?
Nega ko‘z oldimda jimirlar hamon
Tanga-tanga tushgan uning soyasi?
Bargi qulog‘imda shivirlar hamon,
Orta borgan sari tuplar sadosi?
Kurtak chiqargandir bu yil hisobsiz,
Kelgan qushchalarni yana shod etib.
Suvga o‘tganida tanish qo‘shni qiz
Balki tikilgandir meni yod etib.
Bolalar kelgandir o‘ynab tagiga,
O‘yib yozgan ismim ko‘rgandir.
Qizchalar bahorgi mayin bargakni
Mayda sochlariga qo‘shib o‘rgandir.
Sog‘inchim ortadi yodlasam uni,
Shu tolning qaddini ko‘rarmikinman?
Tolim-tolim o‘sgan yashil bargini
Lablarimga bosib so‘rarmikinman?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

ERNEST SETON-TOMPSON. "LOBO"

Bu mavzuda biz:
– hikoyada peyzajning ahamiyatini aniqlaymiz;
– muallifning hikoya qahramoniga munosabatini tahlil qilamiz.

MUALLIF BILAN TANISHAMIZ

Mashhur yozuvchi, rassom va tabiatshunos olim Ernest Seton-Tompson (1860–1946) Angliyadagi kichik shaharlardan birida tug'ilgan. Ernest olti yoshligida oilasi Kanadaga ko'chib o'tadi va shundan so'ng uning butun hayoti Shimoliy Amerika o'rmon va adirlarida kechadi.

Ernest Seton-Tompson bolaligidan tabiatga mehr qo'ydi, hayvonlarni kuzatib, ularni o'rgandi. Keyinchalik tabiat va hayvonlar haqida yozgan badiiy va ilmiy asarlari, ularga chizgan rasmlari unga shuhrat keltirdi. U asos solgan "Amerika skautlari" dasturi bolalar va o'smirlarni tabiat bilan tanishtirishga katta hissa qo'shdi.

ASARNI O'QISHGA TAYYORLANAMIZ

Siz bilan Ernest Seton-Tompson qalamiga mansub "Lobo" hikoyasini o'qiymiz. Unda bo'rilar to'dasi sardorining hayoti haqida hikoya qilinadi.

Bo'rilar haqidagi qanday asarlarni o'qigansiz yoki tomosha qilgansiz? Bu asarlarda bo'rilar qanday tasvirlangan?

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

“Bolalar ensiklopediyasi”dan olingan ma’lumotni o‘qib chiqing.

Bo‘ri zararlimi yoki foydalimi? Aslida bunday savol berish noto‘g‘ri, chunki ko‘pgina hayvonlar bir vaqtning o‘zida ham foydali, ham zararli bo‘lishi mumkin. Uy hayvonlariga hujum qiladigan bo‘ri odamlarga ziyon yetkazadi. Xuddi mana shu bo‘ri o‘rmonda yoki tundrada ko‘pincha nimjon, kasalmand hayvonlarga hujum qiladi, chunki bunday hayvonlarni tutib olish oson-da. Kasal hayvonlarni qirishi natijasida bo‘ri o‘rmon va unda yashaydigan jonivorlarga foyda keltiradi. Uni mana shu xizmatlari uchun “o‘rmon sanitari” deb atashadi. Bo‘rilar o‘rmonda hayvonlarning haddan ziyod ko‘payib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Bo‘ri nihoyatda ayyor va aqlli hayvon. U o‘zi ta’qib qilinayotganini darhol sezib, xatarli joyni uzoq vaqtga tark etadi. Shuning uchun ba’zida bo‘rini yaxshilab qo‘rqitib qo‘yishning o‘zi yetarli bo‘ladi.

Bo‘ri yashirinishga usta, juda ehtiyotkor hayvon. Ba’zan hatto eng tajribali ovchilar ham bolalarini katta qilayotgan urg‘ochi bo‘ri uyasini topa olmaydilar. Xavf-xatarni sezgan bo‘ri o‘z bolalarini boshqa joyga ko‘chirib, yaxshilab yashirib qo‘yadi. Kuzga borib, bo‘ri bolalari voyaga yetadi va ota-onasi bilan birgalikda qishki safarga otlanadi. Ovchilar qordagi izlardan bo‘ri to‘dasi bu yerdan qachon o‘tganini darrov aniqlashadi, lekin tezkor va ehtiyotkor to‘dani qidirib topish oson bo‘lmaydi. Qishda bo‘rilar odamlardan chetroqda yuradi, qopqon qo‘yilgan va xatarli joylardan aylanib o‘tadi. Ko‘pincha ular to‘satdan paydo bo‘lib, odamlarni esankiratib qo‘yadi va qo‘tondagi qo‘yni olib qochadi.

Bo‘rilarning siz o‘qigan yoki ko‘rgan asarlardagi tasvirini yuqoridagi ma’lumot bilan solishtiring.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

LOBO
(qisqartirib olindi)

Lobo (ispancha) – bo‘ri

Yangi Meksika shimolidagi ulkan chorva yaylovi Kurrumpo deb ataladi. Yaylovning o‘rkach-o‘rkach adirlari bor, sero‘t-sero‘t o‘tloqlari bor, poda-poda mollari bor, soylarida zilol-zilol suvlari bor. Zilol suvlari oqib borib-borib, Kurrumpo daryosiga quyiladi, shu boisdan ham yaylov ana shu daryo nomi bilan ataladi. Yaylovda Lobo degan bir qari bo‘ri hukm suradi.

arloni – yetakchi, sardor

Qari Lobo arloni bo‘ri, olis yillardan buyon Kurrumpo vodiysi mollarini qiyratib kelayotgan kulrang bo‘rilar galasining arlonisi. Vodiy cho‘pon-cho‘liqlari Loboning kimligini yaxshi biladi, darhaqiqat, Lobo galasi doxil bo‘lgan makon qiyomat-qoyim bo‘lib, podachilarni zir qaqshatadi. Qari Lobo bahaybat bo‘ri, ayyor, ham kuch-qudratli bo‘ri. Tunlari uvullaganda vodiyliklar uni ovozidan bilib oladi. Boshqa bo‘rilar podachilar manzilgohi tevaragida soatlab uvullasa ham podachilarning parvoyiga kelmaydi, ammo darada qari Lobo uvullashi yangrasa, podachilar tahlikaga tushib qoladi, biladilar, ertalab mollari kamayib qoladi.

Loboning galasi unchalik katta emas. Nimaga katta emasligini o‘ylab, o‘yimga yetolmadim. Odatda Loboday qudratli bo‘ri tevaragiga bo‘rilar ko‘p yig‘iladi. Kim biladi, ehtimol, Loboning o‘zi galasining ko‘payishini xohlamas, ehtimol, tabiatidagi jahldorlik boshqa bo‘rilarning galaga kelib qo‘shilishiga yo‘l bermayotgandir. Nimagaligini aniq bilolmadim, ammo bir narsani yaxshi bildimki, Loboning umri so‘ngida uning galasida bor-yo‘g‘i beshta bo‘ri qoldi. Ammo beshtasiyam shon-shuhrat qozongan, kuch-qudratli bo‘ri, oz bo‘lsayam, soz bo‘ri. Ayniqsa, Loboning o‘ng qo‘li bo‘lmish birovi ulkandan-ulkan bo‘ri.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Ammo uyam kuch-qudrat, ham ayyorlik bobida arloni Lobo oldidan o‘taversin.

Galadagi har bir bo‘rining o‘z fe’l-atvori, rang-ro‘yi bor. Birovi o‘ta go‘zal, oppoq tanli bo‘lib, meksikaliklar buni Loboning jufti haloli deya o‘ylab, Blanka deb ataydi. Yana bir sariqrog‘i o‘ta uchqur bo‘lib, aytishlaricha, jayronlarni ham quvib yetib oladi.

Blanka (ispancha) – oq

Bo‘rilar taqdir-mamoti podachilar qo‘lida qoldi, podachilar bo‘lsa, ularning ertaroq gumdon bo‘lishini orziqib poyladi, bitta bo‘ri terisini olib kelgan odamga podasidagi manaman degan g‘unajinlarni berib yubormoqchi bo‘ldi. Ammo hech kim bo‘ri terisini olib kelolmadi. Bo‘rilar ovchilarni xuddi mazax qilayotganday, ular qo‘ygan zaharli go‘shtlarni aylanib o‘tib, yo‘llarida davom etdi. Besh yil mobaynida Kurrumpo podachilarining har kuni bittadan molini yeb, jami ikki mingdan ziyod molni yo‘q qildi, yana eng sara mollarni nobud qildi.

g‘unajin – urg‘ochi qoramol

Lobo va uning galasi tasviriga e’tibor bering. Muallif bo‘rilarga xos xususiyatlarni ochib berishda qanday vositalardan foydalangan?

Bo‘rilar galasining talon-torojchilik sarguzashtlari haqida ko‘p gaplarni gapirib berishim mumkin. Ularni qirib tashlash uchun har yili turli-tuman chora-tadbirlar ko‘rildi, ammo bo‘rilar o‘z ta’qibchilarining barcha hiyla-nayranglariga, yugurib-yelishlariga chap berib, rohat-farog‘atda yashadi.

Kunlarning birida bir podachi qari Loboning tanimol bo‘lib qolgan uvullashini eshitib, ovoz kelayotgan yoqqa pisib bordi, shunda bo‘rilar galasi bir to‘da molni o‘rab turganini ko‘rdi.

tanimol – tanish

Lobo chetroqdagi do‘nglikda o‘tiribdi, Blanka esa galani olg‘a undab, bir g‘unajinni tushlik uchun chetga haydab olib chiqishga urindi. Ammo mollar bir yerga to‘p bo‘lib, bo‘rilarni shoxlash uchun shaylandi.

Arloni bo‘rining toqati toq bo‘ldi, xirillab, irillab, mollarga yopishdi.

Mollar qo‘rqib ketib, o‘zlarini chetga oldi, Lobo bundan foydalanib, to‘da o‘rtasiga yorib kirdi. Mollar bomba parchalari misol tevarakka otildi. Tushlik uchun mo‘ljallangan g‘unajin ham qochib qolmoqchi bo‘ldi, ammo u yigirma besh qadam bosmasidanoq izidan Lobo yetib bordi. Lobo g‘unajinning bo‘ynidan olib, bor kuchini yig‘ib to‘xtadi, shunda g‘unajin yerga gurs etib tushdi. Lobo shunday shiddat bilan hamla qildiki, g‘unajin oyog‘i osmondan kelib yerga tushdi. To‘g‘ri, Lobo ham yiqilib tushdi, ammo u darhol o‘zini o‘nglab oldi. Bo‘rilar galasi g‘unajinga yopishib, uni birpasda saranjom-sarishta qildi. Lobo galaga qo‘shilmay, ularga qarab turdi. Go‘yo: “Bekordan bekor vaqtni o‘tkazgandan ko‘ra birortalaring oldinroq shunday qilsalaring bo‘lardi-ku?” – deyayotganday bo‘ldi.

Podachi barchasini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, bo‘rilar ustiga ot qo‘ydi. Bo‘rilar qochib qoldi. Podachi bildiki, bo‘rilar hali o‘z o‘ljasi oldiga qaytib keladi, shu sababliyam g‘unajin go‘shtining uch joyiga shishadagi

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

strixnin – zararkunandalarni o'ldirish uchun ishlatiladigan zaharli modda

strixnin doridan sepib keldi. Ertasiga bo'rilar murdasini ko'rgani kelib, hayron bo'lib qoldi. Bo'rilar g'unajinni pok-pokiza yeb, zahar sepilgan joylarini avaylab olib tashlabdi.

Arloni bo'ri podachilar ko'ngliga dahshat solgandan-dahshat soldi, oqibat, uning terisi uchun qo'yilgan mukofot ham yil sayin qimmatlab bordi, borib-borib, Kurrumpoda hali-hozirgacha ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan bahoga – ming dollarga yetdi.

Lobo va uning galasi nega podachilar ko'ngliga dahshat soldi? Nega ularni tutish yoki yo'qotish mushkul edi?

Ovchilarning birovi o'z niyatini yangi o'ylab topilgan zaharni yangicha joylashtirib qo'llash bilan amalga oshirmoqchi bo'ldi. Kanadalik fransuz bo'lmish ikkinchi ovchi ham zahar qo'lladi, ammo zaharga duo-yu afsun qo'shib qo'lladi. Boisi, Lobo shunchaki oddiy bo'ri emas, yo'q, u alvasti, shunday ekan, uni shunchaki hiylayi nayranglar bilan qo'lga tushirib bo'lmaydi, deya o'yladi.

Ammo ustomonlik bilan qo'yilgan zaharlar ham, duo-yu afsunlar ham kulrang bo'rining korini qilolmadi. U o'z galasi bilan haftalab talon-torojchilik qilib, ayshini surib yuraverdi. Ovchilarning hafsalasi pir bo'lib, o'zga o'lkalarga ketib qoldi.

Kurrumpo daryosining kichkinagina bir irmog'i bo'yida, qoyalar oralig'idagi xushmanzara darada Jo Kalon deganning fermasi bor.

yard – 0,95 metr

Lobo o'z jufti haloli bilan fermadan bor-yo'g'i ming yardcha keladigan yerda in kovlab, bolalarini parvarishlash bilan mashg'ul bo'ldi.

dinamit – portlovchi modda

Bo'rilar yoz bo'yi shu yerda yashadi. Jo Kalonning qo'y, mollari-yu itlariga qiron keltirdi. Jo Kalonning tuzoqlari-yu zaharlarini ko'rib qolib, uning anoyilarcha ishlarini mayna qilib yashadi. G'orlar va qoyalar oralig'ida bexatar kun kechirdi. Jo bo'rilarni qanday qilib yo'q qilishni, bir ko'ngli dinamit qo'yib qirib tashlashni o'yladi. Bo'rilar hamon sog'-salomat, talon-toroj kun kechirishda davom etdi.

– Lobo yozda manavi yerda yashadi, – dedi Jo Kalon menga toshloq enishni ko'rsatib. – Unga hecham bas kelolmadim. Aksincha, u meni istagan ko'yiga solib o'ynatdi.

Men 1893-yilning kuzida bu abjir qaroqchini o'z ko'zim bilan ko'rib, boshqalardan ko'ra yaxshiroq bilib olmagunimcha podachilarning gapiga ishonmadim.

Dastlabki kunlar otda yurib, tevarak-atrofni o'rganib oldim. Menga tevarakni ko'rsatib yuruvchi odam ahyon-ahyonda oldimizdan chiqib qoladigan, hali junlari to'kilmagan mol suyaklarini ko'rsatib: "Ana, u qilgan ishlar!" – deya izoh berib bordi.

Yurib-yurib shu narsaga amin bo'ldimki, Loboni bu adir-u daralarda it va otlar bilan ta'qib etishdan foyda yo'q.

Loboning bag'oyat ziyrakligini bildiruvchi bir voqeani aytib beraman.

Bir keksa ovchining maslahatiga binoan bir tishlam pishloqni hozirgina so'yilgan buzoq buyragi moyida eritib oldim. So'ng, temir

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

hidi kelmasligi uchun pishloq-ni chinni idishda pishirib, suyak pichoq bilan qirqdim. Sovigach, bo‘lak-bo‘laklarga bo‘ldim. Har bir bo‘lakni teshib ichiga strixnin, sianid kaliy solingan hid chiqar-maydigan xaltachalarni joy-lashtirdim. Teshiklarni pishloq-ning o‘zi bilan bekitib qo‘ydim. Bu ishni buzoqning iliqqina qoniga botirib olingan qo‘lqoplarni kiyib amalga oshirdim, hatto pishloqqa nafasimni tekkizmaslikka urindim. Hammasi tayyor bo‘lgach, pishloq-ni buzoq qoni surtilgan teri xaltaga soldim, otlanib, yo‘lga tushdim. Buzoqning jigari bilan buyragini arqonga bog‘lab, sudrab boraverdim. Har to‘rt milda zahar solingan pishloqdan tashlab-tashlab, o‘n milcha yo‘l yurdim. Zahar tashlayotganimda unga qo‘limni tekkizmaslikka harakat qildim.

Nazarimda, Lobo bu yerlarda har haftaning boshida paydo bo‘lib, boshqa vaqtlari Syerra Grande tog‘lari etaklarida yursa kerak.

Taxminim to‘g‘ri chiqdi. Bir dushanba kuni oqshom vaqti bo‘ri uvullashi eshitildi. Biz bu mahal narsalarimizni saranjomlab, ketishga hozirlanayotgan edik. Podachilardan biri uvullashni eshitib dedi:

– Ana, nihoyat keldi: endi ertagacha oyoq ilib qaraymiz.

Men hiylayi nayranglarim samarasini tezroq bilish uchun sahar-mardondan otlandim. Xiyol o‘tmay, Lobo galasining izini oldim. Lobo-ning izi boshqa bo‘rilar izidan xiyla katta, shu boisdan ham uning izini olish oson bo‘ldi.

O‘zimcha, bo‘rilar galasi men arqonga bog‘lab sudrab yurgan pish-loq hidini olgan, Lobo dastlabki pishloqni iskab ko‘rib, yutib yuborgan, deya o‘yladim. Ich-ichimdan quvondim.

– Oxiri qo‘lga tushding-a! – dedim o‘zimcha. – Endi o‘lmaganing-niyam ko‘raman!

Loboning ulkan panjalari tuproqqa qoldirgan izlardan ko‘z uzmay, ot qo‘yib boraverdim. Izlar meni galdagi pishloq tashlangan joyga olib keldi. Qarasam, bu pishloq ham g‘oyib bo‘pti.

Shunday quvondim, shunday quvondim!

Mana, nihoyat u qo‘lga tushdi. Hademay galasidagi bo‘rilar ham qo‘lga tushsa, ajab emas. Ammo arloni bo‘rining ulkan izlari o‘z yo‘lida davom etdi. Men uzangida tik turib, tevarak-atrofga qaradim, ammo biron yerda bo‘ri jasadini ko‘rmadim.

Shunday bo‘lsa-da, izni olib boraverib, uchinchi pishloqning ham yo‘qolganini ko‘rdim. Izlar esa yo‘lida davom etib, to‘rtinchi pishloq tur-gan yerga qarab ketibdi. Shunda men Lobo pishloqlarni yemay, og‘zi-da bir joyga olib borib to‘plab, o‘zining tezagi bilan ko‘mib ketganini ko‘rdim. Bu, albatta, Loboning mening hiylayi nayrangimga nisbatan

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

bildirgan nafrati ifodasi edi. U ana shunday ish qilib, ko‘z qorachig‘iday asrayotgan galasini ergashtirib, boshqa yoqlarga qarab ketibdi...

Bo‘rilar izini kuzatib yurib, Loboning galasida favqulodda bir o‘zgarishlar ro‘y berayotganini payqab qoldim. Masalan, arloni bo‘rining ulkan izlari oldida ba’zan mayda-mayda bo‘ri izlari paydo bo‘ladigan bo‘lib qoldi. Nima gapligini bilolmay, hayron bo‘lib yurdim.

Shunda podachilardan biri aytib qoldi:

– Men bugun ularni ko‘rdim. Qarasam, Blanka baridan oldinda olchoqlik qilib borayotgan ekan.

Shundagina nima gapligini bildim:

– Tushunarli, demak, Blanka chindan ham urg‘ochi bo‘ri, bo‘lmasa, Lobo o‘zidan oldinda yuradigan bo‘rining kunini ko‘rsatib qo‘yardi.

Bu gapdan keyin menda yangi bir fikr paydo bo‘ldi. Bir buzoqni so‘yib, tanasi tevaragiga ikkita qopqonni ko‘zga ko‘rinarli qilib qo‘ydim. Bo‘rilar jonivor kallasini xush ko‘rmaydi, unga qayrilib ham qaramaydi. Shu sababliyam men buzoqning boshini kesib olib, sal nariroqqa olib borib qo‘ydim, oltita baquvvat po‘lat qopqonni har xil hidlardan forig‘ qilish uchun yaxshilab shamollatib, keyin buzoqning kallasi atrofiga yaxshilab yashirib qo‘ydim. Bu ishlarni qo‘llarim, poyabzallarim va asbob-anjomlarimga buzoq qonini surtib amalga oshirdim. Tevarak-atrofga, shuningdek, kallaning yon-veriga ham qon to‘kib chiqdim. Qopqonlarni ko‘mib, ustidan chiyabo‘ri terisini yurgizib oldim, tuproqqa chiyabo‘ri izlarini tushirdim. Buzoqning kallasi bilan butazor orasida torgina bir yo‘lak bo‘sh qoldi. Men xuddi ana shu yerga eng yaxshi qopqonlarimni o‘rnatib, buzoqning kallasiga matab qo‘ydim.

matamoq – birlashtirib bog‘lamoq

Ertasi kuni ertalab qopqonlarni ko‘zdan kechirish uchun bordik. O, qanday xushvaqt kun! Biz u yerda bo‘rilar izini ko‘rdik! Nimagadir buzoqning kallasi bilan qopqonlar ko‘rinmadi. Shoshib-surinib, izlarni ko‘zdan kechirib, Lobo chindan ham galasini tuzoqqa yaqin yo‘latmaganiga amin bo‘ldik. Ammo uncha katta bo‘lmagan bir bo‘ri buzoq kallasini hidlab ko‘raman deb, qopqonga tushib qolibdi.

Biz izni olib, bir chaqirimdan mo‘lroq yo‘l yurdik. Bilsak, bu sho‘rpeshona bo‘ri Blanka ekan. U bizni ko‘rib, qocha boshladi. Buzoqning kallasi og‘irlik qilayotgan bo‘lsa-da, piyoda bo‘lib quvayotgan yo‘ldoshimdan tezroq chopdi. Ammo buzoq kallasining shoxlari toshlarga ilinib qolib, biz unga qoyalar oldida yetib oldik.

Men chiroyli bo‘ri ko‘rib, Blankadayini ko‘rmagan edim. Blanka tep-tekis quyuq junli, oppoqdan kelgan bo‘ri edi.

Blanka bizga burilib, jangari qiyofada uvulladi. Uning uvullashi cho‘ziq, iltijoli nido bo‘ldi. Shunda olis adirlardan Loboning javob

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

nidosi eshitildi. Blanka so‘nggi marta uvulladi. Bu orada biz uning oldiga yetib keldik. U endi jon-jahdi bilan o‘zini o‘zi himoya qila boshladi.

Shunda yo‘ldoshim bilan mash’um bir ishga qo‘l urdik. Hali-hali eslab, seskanib ketaman. Sho‘rlik Blankaning bo‘yniga men bir yoqdan, yo‘ldoshim bir yoqdan, uchi sirtmoq arg‘amchi soldik. Blankaning ko‘zlari so‘nib, holsiz sulayib qoldi. Biz nihoyat Loboning galasiga dastlabki o‘lim zarbasini bera olganimizdan xursand bo‘lib, Blankaning jasadini olib qaytdik.

Vaqti-vaqti bilan Loboning uvullagan ovozi eshitilib turdi. Aftidan, u adirlarda tentirab, Blankani izladi. U Blankani tashlab ketgisi kelmadi. Endi Blankani qutqarib keta olmasligiga ham ko‘zi yetdi, boisi, u hamon miltiqdan qo‘rqardi.

Lobo uzun kun zorlanib uvulladi, uvullashini eshitib o‘tirib, bir podachiga:

– Blanka chindan ham Loboning jufti haloli ekan, – dedim.

Xufton vaqti Lobo biz turgan daraga yo‘l oldi shekilli, ovozi yaqin-yaqindan eshitila boshladi. Loboning ovozi mungli bo‘ldi. U avvalgidek qahr bilan emas, balki g‘am-anduh bilan uvulladi. U go‘yo jufti halolini yo‘qlab: “Blanka! Blanka!” – deyayotganday bo‘ldi. Aftidan, bizning izimizni olib, Blanka o‘ldirilgan joyni topib keldi shekilli, yurak-bag‘irni ezib, hazin-hazin uvullab qo‘yaverdi. Ko‘nglim o‘rtanib ketdi. Toshbag‘ir podachilarning-da ko‘ngli buzilib ketdi.

xufton – quyosh botgandan keyingi vaqt

Men Lobo Blankaning jasadini topmagunicha tinib-tinchimasligini yaxshi bilardim. Shu sababliyam uni qo‘lga tushirish uchun xuddi ana shu vaziyatdan foydalanmoqchi bo‘ldim. Ana shunda Blankani o‘ldirib, katta xatolikka yo‘l qo‘yganimni bildim. Blankani o‘ldirmay, undan tirik qopqon o‘rnida foydalanganimda, Loboni dastlabki kechadayoq qo‘lga tushirgan bo‘lardim. Afsus bilan jamiki qopqonlarimni yig‘dim. Hammasi bo‘lib bir yuz o‘ttizta po‘latdan yasalgan bo‘ri qopqon bo‘ldi. Qopqonlarni daraga boradigan so‘qmoqlarning har bittasiga to‘rttadan qo‘yib chiqdim.

Qopqonlarni qo‘yib bo‘lib, ular orasidan Blankaning jasadini sudrab o‘tdim. Bitta panjasini kesib olib, qopqonlar ustiga qator qilib iz qo‘yib chiqdim. Xullas, o‘zim bilgan bor hiylayi nayranglarimni qo‘llab, barcha ehtiyot choralarimni ko‘rib, kechroq kulbamga qaytdim. Kechasi Lobo uvullaganday bo‘ldi, ammo quloqlarimga ishonmadim. Ertasi kuni otlanib yo‘lga chiqdim, ammo shimoliy darani aylanib o‘tgunimcha bo‘lmay, kech bo‘lib qoldi, yana izimga qaytib keldim. Kech-

Qopqonga tushgan Blanka. 1894-yil

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

ki nonushta mahali podachilardan biri shunday deb qoldi:

– Bugun ertalab shimoliy daradagi mollar nimadandir bezovta bo‘ldi. Qopqonlarga biron nima tushdi, shekilli?

Ertasi kuni otlanib, podachi aytgan yerga kun qaytganda yetib bordim. Yaqinroq borib, kulrang tusli ulkan bir jonivor o‘rnidan turib, qochmoqchi bo‘layotganini ko‘rdim. Ne ko‘z bilan ko‘rayki, qarshimda butun Kurrumponi zir titratgan Lobo turardi. U endi qochib ketolmas, qopqonga boplab tushgan edi!

U ikki kecha-yu ikki kunduz qopqonda yotaverib, holdan toydi. Shunday bo‘lsada, men yaqin borishim bilan junlari hurpayib, o‘rnidan sapchib turdi, so‘nggi bor dara qoyalarini zir titratib, baland, uzib-uzib uvullab, galasini yordamga chaqirdi. Ammo bironta bo‘ri zoti nido bermadi. Shunda u yolg‘izlik alamidan jon-jahdi bilan menga yopishdi. Butun sa’y-harakatlari bekor ketdi!

– Ey mahobatli qari yirtqich! Behisob talon-torojchiliklar qahramoni! – deya murojaat qildim qari Loboga. – Sen yana bir necha daqiqadan keyin jonsiz jasadga aylanasan. Shunday qilishdan boshqa ilojim yo‘q.

Men shunday deya, unga uchi sirtmoq arqon otdim. Arqon boshlari uzra vizilladi. Bo‘lmadi, bo‘lmadi. U osonlikcha jon beradiganlardan emasdi. U arqonni bo‘yniga tushirmasdanoq tishi bilan ilib oldi, so‘ng shunday pishiq, yo‘g‘on arqonni g‘ajib-g‘ajib, oyoqlari ostiga tashladi.

Yelkamda miltig‘im bor edi, ammo uni ishga solib, Loboning ajoyib terisini buzgim kelmadi. Lagerimizga ot choptirib borib, bir podachi bilan yangi arqon olib keldim. Loboga bir payrahani otdik, u payrahani tishlari bilan ilib olib, yerga tashlagunicha, arqonimiz vizillab borib, bo‘yniga o‘raldi. Loboning qahr-g‘azabga to‘la ko‘zlari so‘na boshladi. Shunda men yordamchimga:

– Qo‘y, uni o‘ldirmaymiz! Uni lagerga tiriklayin olib boramiz! – deya qichqirdim.

Lobo juda charchadi. Biz bundan foydalanib, uning qoziq tishlari orasidan yo‘g‘on tayoqni o‘tkazib olib, jag‘larini pishiq arqon bilan shu tayoqqa tang‘ib bog‘ladik. Tayoq arqonni, arqon tayoqni ushlab turdi. U beziyon jonivor bo‘lib qoldi. Jag‘lari tortib bog‘langanini bilib, tipirchilamay qo‘ydi, ovoziyam o‘chdi.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Qo'lga tushganda nafrat va g'azabini namoyish qilgan Lobo keyin beziyon bo'lib qolgani sababini qanday izohlaysiz?

Ernest Seton-Tompson ishlagan surat. Siz bo'rining ko'zlarida nimalarni ko'rdingiz?

Biz fermaga omon-eson yetib keldik. Loboning bo'ynidagi arqonni bo'yin-bog' zanjir bilan almashtirib, o'tloqqa bog'lab qo'ydik.

Men Loboning oldiga go'sht bilan suv qo'ydim, ammo u qayrilib ham qaramadi. U bag'rini yerga berib, sariq ko'zlarini o'zi hukm surgan olis dasht-u daralarga tikib yotardi. Unga qo'limni tekkizib ko'rdim, u shundayam qimir etmadi. Quyosh botgandayam dashtlarga termilib yotdi.

Men kechasi Lobo o'zining galasini chaqirishini poylab yotdim. Ammo u qopqonga ilinib, g'arib bo'lib qolganida galasini yo'qlab uvullagan, o'shanda birontayam bo'ri nido bermagan edi. Shu sababliyam, endi uvullamadi.

Emishki, sher kuch-quvvatdan qolsa, burgut erkidan ajrasa, kaptar juftidan ayrilsa, yuragi yorilib o'lar ekan. Bu yirtqichning yuragi birvarakayiga uchta musibatni ko'tara olarmikin? U ham kuch-quvvatidan, ham erkidan, ham juftidan ayrildi. Ertalab qarasam, u hamon dam olayotganday osoyishtagina yotibdi. Ammo... jonsiz yotibdi...

Men uning bo'ynidan zanjirini yechib tashladim. Jasadini bir podachi bilan sudrab, Blankaning jasadi yotgan bostirma ostiga olib bordik. Loboning jasadini Blankaning yoniga qo'ydik. Podachi Loboga qarab, shunday dedi:

– Sen shuni izlab yurganmiding? Mana, nihoyat yana topishding!

Tog'ay Murod tarjimasi

MUHOKAMA QILAMIZ

1. Hikoyada qanday muhim masalalar ko'tarilgan? Undagi g'oyalarni matn asosida izohlang.

2. Asliyatda hikoya "Lobo – Kurrumpo qiroli" deb nomlanadi. Mazkur sarlavha hikoya g'oyasiga qay darajada mos? Siz hikoyaga qanday sarlavha qo'ygan bo'lardingiz? Nima uchun?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

3. Muallifning Lobo va uning galasiga munosabati aks etgan o‘rinlarni toping. Bu munosabatning asar so‘ngida o‘zgarishi sabablarini izohlang.

4. Loboni Blanka yordamida qo‘lga tushirish g‘oyasiga qanday baho berasiz? Sizningcha, ovchi kurashning halol yo‘lini tanladimi? Fikringizni asoslang.

5. Hikoyaning boshqacha yakuni bo‘lishi mumkinmidi? Insonlar va ularning chorvasiga qiron keltirayotgan bo‘rilar galasi o‘rtasidagi konflikt – to‘qnashuvga siz qanday yechim taklif qilgan bo‘lardingiz?

6. “Har bir jonli mavjudot – bebaho xazina, uni yo‘q qilishga, bolalarimizni bu xazinadan bebahra qoldirishga haqqimiz yo‘q”, – degan edi Ernest Seton-Tompson. Yozuvchining bu fikrini qanday tushundingiz? “Lobo” hikoyasi bu fikrga qay darajada mos?

BADIIY TAHLIL ASOSLARINI O‘RGANAMIZ: PEYZAJ

Badiiy asarda tabiat tasviri **peyzaj** deyiladi. Peyzaj asar voqealari sodir bo‘layotgan joyni tasavvur qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, peyzaj o‘quvchida ma’lum bir kayfiyat uyg‘otishi yoki qahramonlar ruhiy holatini tushunishga yordam berishi ham mumkin.

“Lobo” hikoyasida peyzaj qo‘llangan o‘rinni topib, qayta o‘qing. Bu tasvir o‘quvchida qanday kayfiyat uyg‘otadi? Tabiat tasviri va keyingi voqealar rivoji qay darajada bir-biriga uyg‘un (yoki uyg‘un emas)?

LOYIHA

O‘ylab ko‘ring-chi, asardagi voqealar obrazlar xarakterini ochishga qay darajada yordam beradi?

Muhammad Ochilning “Bo‘ri haqida ballada yoxud Loboning muhabbati” asaridan parchani o‘qing va Seton-Tompson hikoyasi bilan solishtiring. Muhammad Ochil talqinidagi Lobo Seton-Tompson tasvirlagan Lobodan qanday farq qiladi? Nima uchun? Quyidagi jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

Seton-Tompson talqinidagi Loboga xos xususiyat	Bu xususiyatni ochib beradigan voqea	Muhammad Ochil talqinidagi Loboga xos xususiyat	Bu xususiyatni ochib beradigan voqea

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

* * *

Rutubatli edi o‘shal tun. Birdan qora bulut bosdi, qopladi qurum va tutun. Oqsiyna va Lobo… bo‘lib hamma yog‘i shilta, shalabbo… Pisand etmas zulumotni. O‘ynashardi, quvlashardi, biri-birin suyib, erkalab.

Ehtiyot neligin, odamzot kimligin – unutdi ular. Turgan gap, bunday kez – qora qismat ustingdan kular. ... Oh, bu ne sitam, bu ne ko‘rgilik?! Ogoh etib ulgurmasdan Lobo, bo‘rivash noxos “temir tuzoq”qa tushdi.

Hayqiriq o‘rladi, yangradi havoga behisob ko‘p o‘q... Olatasir bo‘lib ketdi har tomon. Ana, bu yoqqa yugurgilab kelishmoqda, cho‘pon-cho‘liq, qurollangan ovchi, barcha – olomon.

Qochib qoldi qo‘rqib, fursatida bo‘rilar. Bunday kezda “to‘rt oyoqli” jonzot qo‘lidan axir ne kelar?! Faqat Lobo… Aylab jon fido, mahbubasi uchun hatto bandi bo‘lmoqqa tayyor. Ko‘z o‘ngida faryod solar Oqsiyna… Oh! Oh-nolasi yurakka sanchadi xanjar.

Lobo… Qaydan keldi senga bunday kuch-qudrat? Nahot sevgida bor shunday sir-u sinoat?! O‘kirigi buzib jumla-jahonni, parchalab tashladi bo‘rivashin band aylagan temir qopqonni.

Sukutda qotdi, bir zum barcha cho‘pon-cho‘liq, ahli ovchilar. Bunaqasin hali hech kim ko‘rmagan, bunaqa jasorat kamdan kam bo‘lar. Biroq hozir “sukut saqlansa”, so‘ng bo‘lmasmikin kech? Qirilgan qo‘ra, bo‘g‘izlangan buqa, sigir-buzoq, qo‘y-echkining… xunini kim to‘lar?!

…Havoda jarangladi qahri qattol o‘q. Nishon biroq yanglish bo‘ldi, Loboga emas, shundoq ham yaralangan Oqsiyna “mo‘ynasi”ga borib sanchilgandi yonib turgan cho‘g‘.

Lobo titrab ketdi. Siynasidan silqib sizganicha qon... Oqsiynasi bergan edi jon!

Sukunatda qolgan edi sahro, cho‘l-u qir. Tong yorishib, to‘xtagandi yog‘ishdan yomg‘ir.

Lobo… Ajab hol?! Quturib, tashlanmoq o‘rniga bo‘lib bemajol. Bo‘ysungandek taqdir xohish-royiga. Vidolashmoq istagida ohista cho‘kdi Oqsiynasin poyiga…

Ovchilar-chi, halqa misol qurshab olishdi. Qo‘rquv, hadik tark etmagan edi hamon ular jismini. So‘ng ehtiyot shart – sirtmoq solishib, sudrab ketishdi Loboning jonsiz tanini…

Hamma xursand edi, kulishib, yayrashib shodon. Axir, endi qo‘rquv yo‘q, osoyishta sahro, dala-dasht, yobon. Ammo hech kim o‘ylamasdi: kuch-qudratda tengsiz, bo‘ysunmas bo‘ri, tengsiz “qahramon” so‘nggi yo‘lga nega bunday otlandi oson?!

Muhammad Ochil

MUSTAQIL O‘QISH UCHUN

Ernest Seton-Tompsonning hayvonlar haqida hikoya qiluvchi yana bir o‘ziga xos asari – “Yovvoyi yo‘rg‘a” hikoyasini o‘qib chiqishingizni tavsiya qilamiz.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

ERNEST HEMINGUEY. "CHOL VA DENGIZ"

Bu mavzuda biz:
– asar g'oyasi va undagi tagma'nolarni tahlil qilamiz;
– asardagi ramzlarni tahlil qilamiz;
– muallif uslubiga xos xususiyatlarni aniqlaymiz.

MUALLIF BILAN TANISHAMIZ

Jahon adabiyotining mashhur vakillaridan biri Ernest Heminguey (1899–1961) AQSHning Illinoys shtatida shifokor oilasida tug'ilgan. U oilada olti farzandning ikkinchisi edi. Ernest o'rta maktabda a'lo baholarga o'qidi va o'sha paytlardayoq yozuvchi bo'lishni maqsad qildi. Ilk ijodiy faoliyatini o'n sakkiz yoshida jurnalist sifatida boshladi.

Ernest yoshligidan otasi bilan birga baliq oviga borar, otasi unga qarmoq sovg'a qilgan kundan boshlab baliq ovi uning eng sevimli mashg'ulotlaridan biriga aylangandi. Keyinchalik Kubada yashagan paytida ham adib tez-tez o'z kemasida baliq oviga chiqib turar, baliq ovi mavzusi uning ko'plab asarlaridan o'rin olgandi.

Yozuvchining "Alvido, qurol" , "Chol va dengiz" va yana ko'plab asarlari o'zbek tiliga o'girilgan.



Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

ASARNI O‘QISHGA TAYYORLANAMIZ

Biz o‘qiydigan asar – “Chol va dengiz” qissasi nafaqat Heminguey ijodining, balki jahon adabiyotining ham eng sara namunalaridandir. Mazkur asar 1954-yilda adabiyot olamidagi eng yuksak e’tirof – Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldi. Hemingueyning o‘zi esa bu haqida shunday degan edi: “Men oddiy baliq, oddiy dengiz, oddiy baliqchi va oddiy bola haqida yozdim”. Asarga Heminguey jurnalist bo‘lib ishlagan paytida eshitgan, dengizda sakson kun yolg‘iz o‘zi baliq ovlagan Gregorio Fuentes voqeasi asos qilib olingan.

Ernest Heminguey va
Gregorio Fuentes

Gregorio Fuentes 100 yoshda

O‘ylab ko‘ring: Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan bu asar, muallif o‘zi aytganidek, oddiy narsalar tasviriga bag‘ishlangan bo‘lishi mumkinmi?

Chol, dengiz va baliq sizda qanday tasavvurlarni uyg‘otadi? Ular o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor deb o‘ylaysiz? Ularni umumlashtiruvchi g‘oya(lar) haqida nimalar deyish mumkin?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Asar asosidagi radiodramani tinglang

CHOL VA DENGIZ
(qisqartirib olindi)

Golfstrim – Atlantika okeanidagi iliq oqim

garpun

machta – kema ustuni

yalov – bayroq

Chol qayiqda yolg'iz o'zi Golfstrimda baliq ovlardi. Dengizga chiqayotganiga mana sakson to'rt kun ham to'ldi, ammo hali bironta baliq tutganicha yo'q. U bilan qirq kun bola birga bo'ldi. Hadeganda qo'li quruq qaytavergach, ota-onasi unga endi cholning o'taketgan "salao", ya'ni "o'lguday omadi yurishmagan odam" ekanini aytib, bundan buyon boshqa qayiqda dengizga chiqishi kerakligini qulog'iga quydilar. Haqiqatan ham birinchi haftaning o'zidayoq bu qayiqda baliq desa arziguday uchta baliq tutib kelishdi. Deyarli har kuni cholning dengizdan quruq qaytayotganini ko'rib bola ich-ichidan ezilar edi. U cholning uskunalari, changak, garpun va machtaga o'ralgan yelkanlarini tashishga yordamlashgani qirg'oqqa kelardi. Dag'al matodan to'qilgan yelkan yamalaverib, ola-quroq bo'lib ketgan, o'rog'liq holda yaksoni chiqqan polkning yaloviga o'xshardi.

Chol oriq va holdan toygan, ensasini chuqur ajinlar tilib o'tgan, betlari esa quyosh nurining tropik dengiz yuzidan aks etib chiqishidan paydo bo'ladigan beozor teri rakining jigarrang dog'lari bilan qoplangan edi.

Dog'lar cho'zilib gardanigacha tushgan, yirik baliqlarni tortib olayotganda, chizimchalar o'yib yuborgan qo'llarida chuqur chandiq izlari ko'rinardi. Ammo bu izlar ichida yangisi yo'q, hammasi ham uzoq suvsizlikdan qaqrab yotgan biyobon darzlari singari ko'hna edi. Cholda nimaiki bor bo'lsa, bari ham eski, faqat dengiz tusini olgan moviy, mardona odamlarnikiga xos quvnoq ko'zlari bundan mustasno edi.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Chol sizda qanday tasavvur uyg'otdi? Cholga yordam bergan bola kim bo'lishi mumkin? Nega asar "Chol qayiqda yolg'iz o'zi Golf-strimda baliq ovlardi" jumlasi bilan boshlanmoqda?

Chol qirg'oqdan ancha olisga ketishni avvaldanoq o'ylab qo'ygan edi; u yerning anvoyi bo'yini ortda qoldirib, to'g'ri salqin tonggi okean quchog'i sari eshkak ura boshladi.

Chol qorong'ida tong yaqinlashayotganini sezdi, eshkak urarkan, qulog'iga titroq tovush chalindi – ucharbaliqlar suvdan chiqar va temirdek qanotlari bilan havoni kesib allaqayoqlarga g'oyib bo'lardi. Chol ucharbaliqlarga mehr qo'ygan, ular bu yerda, okeanda unga eng yaxshi hamroh bo'lib qolgan edilar. Chol qushlar va ayniqsa, betinim oziq axtarib uchgan, ammo deyarli hech qachon uni topolmaydigan jimit va nozik dengiz qaldirg'ochlariga achinib ketar va "Qushlar turmushi, qironqora va katta, kuchli qushlarni hisobga olmaganda, bizning kun kechirishimizga qaraganda juda og'ir. Okean gohida shu qadar ham berahm bo'lar ekan, nima uchun qushlarni mana bu dengiz qaldirg'ochlari singari nozik va shikasta qilib yaratganlar? Okean saxiy va go'zal, ammo u goho to'satdan shunday shafqatsiz bo'lib ketadiki, uning ustida oziq ilinjida charx urib, sho'ng'ib, ojiz va mungli ovoz bilan bir-birlariga jo'r bo'lib uchgan bu qushlar unga nisbatan benihoya zaif va mo'rt ko'rinadi", deb o'ylardi.

qironqora – yirtqich qush

U har doim dengizni unga muhabbat qo'ygan hamma kishilar kabi xayolida ispanchasiga "la mar" deb atardi. Ayrim paytlarda dengizga mehr qo'ygan odamlar u haqda badhazm gaplar aytishadi, ammo doimo bu gaplar dengiz emas, go'yo ayol ustida borayotganga o'xshaydi. Akula jigarining narxi oshib borayotgan kunlarda sotib olingan motorli qayiqlarda yurib, qarmoqlarida po'kak o'rniga buy ishlatadiganlar xilidan bo'lgan yoshroq baliqchilar esa dengizni "el mar" deb ataydilar va unga er kishiga qaraganday qaraydilar. Ularning nazdida dengiz go'yo hududsiz bir sayhon, go'yo bir raqib, gohida esa, hatto bir dushman bo'lib ko'rinadi.

mar (ispancha) – dengiz

buy

Santyago (cholning ismi) nega okeanni saxiy va go'zal, ayni paytda shafqatsiz deb atamoqda? Dengizning ayrim baliqchilarga ayol (la mar), ayrimlariga esa "raqib, gohida esa, hatto bir dushman er kishidek (el mar)" bo'lib ko'rinishi sabablari nimada?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

bonito, albakore – baliq turlari

tunets, makrel, umbritsa – baliq turlari

vaxta – navbatchilik

"Juda chuqur joylarda butun bir hafta ov qilib, hech narsa tutganim yo'q, – deb o'yladi chol, – bugun men bonito va albakore to'dalari qayerda bo'lsa, o'sha yerda baxtimni sinab ko'raman. Xudodan bo'lib, yirik baliq uchrab qolsa-ya?"

Chol bola berib yuborgan ikkita yangi tutilgan yirtqich baliq – tunetsni eng uzun chilvirlarga xo'rak qildi, qolgan ikki chilvirga esa, kattakon zangori makrel bilan sariq umbritsani ildi. Bulardan avvalgi ovda foydalangan bo'lsa-da, ular hali ham yangidek turar, ajoyib sardinlar esa ularni xushta'm qilar, baliqlarning nafsini qitiqlardi.

Chol qachondan boshlab o'z-o'zi bilan ovoz chiqarib so'zlashadigan bo'lib qolganini endi eslolmas edi. Avvallari tanho qolganda xirgoyi qilardi. Katta yelkanli kemalarda suzib, vaxtada turgan yo toshbaqa oviga borgan kezlari goho-goho u kechalari ham qo'shiq aytardi. Ehtimol, bola undan ketgandan keyin, yolg'iz qolgach, o'zi bilan o'zi gaplasha boshlagandir.

– Agar o'zim bilan o'zim gaplashayotganimni bitta-yarimta eshitib qolganda, meni jinni-pinniga chiqarib qo'yardi, – dedi chol. – Ammo men esdan og'magan ekanman, kimning bu bilan qanchalik ishi bor? Davlatmandlarning xo'p ham oshig'i olchi-da: qayiqlarida radiolari bor, ularga har turli voqealarni so'zlab beradi, beysbol yangiliklarini eshittirib turadi.

"Hozir beysbol haqida o'ylashning vaqtimas, – dedi chol o'ziga. – Endi faqat bir narsa ustida bosh qotirish kerak. Gap mening nima uchun tug'ilganim ustida boradi. Ehtimol, qayerdadir, mana bu tunets galalari bilan yonma-yon bo'lib mening ulkan balig'im ham daydiyotgandir. Axir, men bor-yo'g'i birgina albakore ushladim, u ham to'dasidan ayrilib qolgani. Ular bo'lsa, sohildan ancha yiroqda ov qilishadi, yana juda ham tez suzishlarini aytmaysizmi. Bugun dengizda nima uchrayotgan bo'lsa, hammasi ham juda tez suzib, shimoli-sharqqa qarab boryapti yoki kunning mana shu paytida doimo shunday bo'larmikin? Balki, bu havoning o'zgarishidandir va men uning belgisini bilmasman".

Santyago nega o'zi bilan o'zi gaplasha boshladi? Unga ov paytida tug'ilishi sabablari haqida bosh qotirish nega kerak bo'lib qoldi?

plankton – suv qatlamidagi organizmlar

mil – 1,8 km

Ko'm-ko'k sohil sathi cholga allaqachon ko'rinmay qolgan edi; uzoqda bu yerdan xuddi qor bilan qoplangandek oppoq bo'lib ko'rinuvchi zangori tepaliklarning boshlarigina ko'zga tashlanar edi. Ularning ustida turgan bulutlar ham yuksak qorli tog'larga o'xshab ko'rinardi. Dengiz qop-qora tusga kirib, quyosh nurlari suvda sina boshladi. Endi planktonning son-sanoqsiz jilvalari tikkaga kelgan quyosh tufayli so'nib qolgan, chol hozir faqat qoramtir suvda sinib qaytayotgan quyosh nurlaridan hosil bo'lgan yirik va rangin dog'lar-u, pastga qarab tippa-tik ketgan chilvirlarnigina ko'rardi. Chuqurlik esa bu yerda bir milga yetib qolardi.

Qizdirgandan qizdirib borayotgan quyosh ensasini kuydirib o'tayotganini chol sezib turardi. U eshkak tortayotganda ter yelkasidan duvullab oqardi.

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

“Qayiqni oqimga qo‘yib berishim, vaqtida uyg‘onish uchun esa chilvirni oyog‘imning boshmaldog‘iga bog‘lab qo‘yib, mizg‘ib olishim mumkin edi, – deb o‘yladi chol. – Ammo bugun – sakson beshinchi kun, shuning uchun ham hushyor bo‘lish kerak”.

Shu payt u yashil qarmoqlardan birining qimirlab ketib, suvga egilib tushganini payqab qoldi.

– Ana xolos, – dedi u. – Aytmovdimmi! – va qayiqni bezovta qilmaslikka harakat qilib, eshkaklarni suvdan tortib oldi.

Chol chilvirga tomon enkayib, uni o‘ng qo‘lining bosh va ko‘rsatkich barmoqlari bilan avaylab tutdi. U baliqning zo‘r berib kuchanmayotganini sezib turar, shundan bo‘lsa kerak, chilvirni siqimlamay, yengilgina ushlab olgan edi. Biroq chilvir yana qaltirab ketdi. Bu safargi siltov oldingisiga qaraganda ehtiyotkorona va zaifroq ediki, chol buning nima ma’no anglatishini aniq bilar edi. Ya’ni yuz dengiz sarjinicha tubanda marlin qarmoq ilgagining uchi bilan buklamasiga tizilgan sardinlarni yamlamay tushirar, qo‘lbola qilib yasalgan qarmoq ilgagining o‘zi esa maydaroq tunets kallasidan teshib o‘tkazilgan edi.

marlin

sarjin – 2,13 metrga teng masofa

Chol kalavani yengilgina tutib turib, chap qo‘li bilan uni qarmoq dastasidan yechib oldi. Endi kalava barmoqlari orasidan baliqni seskantirmay sirg‘alib chiqa olar edi.

“Qirg‘oqdan shunchalik olisda, yana yilning mana bu faslida... baliq juda ham katta bo‘lsa kerak. Yeyaver. Yegin endi, ol, yegin. Sardinlar biram mazali, sen bo‘lsang juda sovqotgansan, olti yuz fut chuqurlikda suv juda ham sovuq va qop-qorong‘i bo‘ladi. Qorong‘ida yana bir marta aylanib kel, orqangga qayt va ol, ye, yeyaver!” U yengil, sergak siltov sezdi, sal o‘tmay bu kuchliroq bo‘lib takrorlandi – bitta-yarimta sardinni qarmoqdan yulib olish mushkulroq bo‘layotgani ko‘rinib turardi. Keyin jimjit bo‘lib qoldi.

Nima sababdan Santyago baliqdan “ol, ye” deb o‘tinmoqda?

U bosh va ko‘rsatkich barmoqlari bilan kalavani tutib, baliqning joydan joyga suzib o‘tish ehtimoli borligidan bir paytning o‘zida boshqa chilvirlardan ham ko‘z uzmay kutardi. Birdan u yana qarmoq ipining yengil, bilinar-bilinmas tortqilanganini payqadi.

– Cho‘qiydi – dedi chol ovoz chiqarib. – Cho‘qiydi, xudoyo dard ko‘rmagur!

Ammo u cho‘qigani yo‘q. Ketib qoldi. Chilvir ham qimir etmasdi.

– Uning butunlay ketishi mumkin emas, – dedi chol. – Xudo shohid, uning ketishi mumkin emas. U bor-yo‘g‘i qayrilib kelyapti. Eh-

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

timol, u biron marta qarmoqqa tushib chiqqan va bu hali xayolidan ko‘tarilmagandir.

Shunda u yana qarmoq ipining ohista tortqilanganini sezdi va dili taskin topdi.

– Aytmovdimmi, u faqat qayrilib kelyapti deb... – dedi chol. – Mana endi cho‘qiydi!

U baliqning hurkib-hurkib chilvir tortqilashidan o‘zini qo‘yarga joy topmasdi. To‘satdan chol qandaydir, favqulodda bir zil-u zambil og‘irlik sezdi. Sezdi-yu, chilvirni bo‘shatib, ehtiyotdagi kalavalardan birini chuvatgancha uning borgan sari quyi, quyi, quyiga tushib borishi uchun imkon berdi. Chilvir barmoqlardan osongina sirg‘alib chiqib pastga ketib borar, uni ushlar-ushlamas tutib turganiga qaramasdan, chol o‘ramni yamlab ketayotgan g‘oyat zo‘r og‘irlikni his qilib turardi.

– Asti qanday balo baliq bo‘ldi o‘zi! – dedi u ovoz chiqarib. – Qarmoqni yamlab olib, endi uzoqroqqa juftakni urmoqchi.

“U baribir orqasiga qayriladi, qarmoqni ham yutib yuboradi”, – deb o‘yladi chol. Biroq bir kori hol bo‘lib o‘tirmasin deb cho‘chidi shekilli, ovoz chiqarmadi. Chol bu baliqning qanchalik totli ekanini bilar, xayolan uning lunjida ko‘ndalang tiqilgan tunets bilan qorong‘ida borgan sari uzoqroqqa ketayotganini ko‘z o‘ngiga keltirardi. Qandaydir bir muddat ichida harakat to‘xtadi, ammo chol hali ham baliq vaznini his qilib turardi. Keyin tortish avjga chiqdi, chol yana o‘ramni bo‘shatdi. U bir nafas chilvirni to‘xtatib ko‘rdi, tortim birdan kuchayib ketdi va o‘ram tikkasiga pastga yulqindi.

yard – 0,95 m
dyuym – 25 mm

– Boshladik! – dedi u ovoz chiqarib va chilvirni qattiq yulqib, bir yardcha tortib chiqardi, keyin esa qayta-qayta yulqib, har yulqishda qo‘llari va jismining bor quvvat-madorini ishga solib, o‘ramni sigir sog‘ganday, goh u qo‘li, goh bu qo‘li bilan tortib chiqara boshladi.

Hamma urinishlari zoye ketdi. Baliq erinmaygina ilgarilab borar, chol uni o‘ziga bir dyuym ham yaqin keltira olmasdi. Uning chilviri katta baliqlarga mo‘ljallangan, pishiq edi. Chol uni yelkasiga olib, shunday ham tarang tortdiki, hatto suv zarralari sachrab-sakrashib ketdi. Keyin chilvir suvda zaif vishilladi, chol bo‘lsa, o‘rindiqqa tiranib, hamon uni bo‘shatmas edi. Qayiq birmuncha shimoli-g‘arb tomonga og‘a boshladi. Baliq suzgandan suzib borar, ular zilol suv bo‘ylab ohista uzoqlab ketishardi. Boshqa xo‘raklar dengizga qanday tashlangan bo‘lsa, hamon shundayligicha turar, chol ularni nima qilishni bilmasdi.

Keyin ovoz chiqarib dedi:

– Bolaning yonimda yo‘qligi yomon bo‘ldi. Harna madad edi. Ham bularning barini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan bo‘lardi.

“Keksayganda kishi yolg‘iz o‘zi kimsasiz qolmasin ekan, – deb o‘ylardi u. – Ammo bu ko‘rgilikdan qochib qutulib bo‘larmidi. Tunets hidlanib qolmasdan burun yeb olishni unutmasam bo‘lgani, axir, men kuchdan qolmasligim kerak. Unchalik ochiqmagan taqdirimda ham, uni erta bilan yeb olish xotiramdan ko‘tarilmasa bas. Ishqilib, nima bo‘lganda ham unutmay-da, unutmay”, – deb takrorlardi u.

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

Keyin u qarmog‘iga tushgan katta baliqqa juda ham achinib ketdi. “Turgan-bitgani mo‘jiza-ku bu baliqning. Uning dunyoda necha yil umr surganini xudoyimning o‘zi biladi. Mening qo‘limga hech qachon bunaqangi kuchli baliq tushmagan. O‘zini tutishini qarang, aql bovar qilmaydi-ya bunga. Ehtimol, uning sakrab chiqmayotgani ham benihoya aqlli bo‘lganidandir. Agarda u bor kuchi bilan oldinga intilsa yoki sapchib qolsa bormi, tirik qo‘ymasdi meni, axir. Balki, bu uning qarmoqqa birinchi marta tushishi emasdir va u jonini saqlash uchun mana shu alpozda kurashmoqni a’lo bilar.

Baliq oviga daxldor har bir detalning atroflicha tasvirlanishi sabablari nimada deb o‘ylaysiz?

Unga qorong‘ida ishlash og‘ir edi. Bir gal baliq shunday siltaladiki, u yuztuban yiqilib tushdi va ko‘z ostini yorib oldi. Qon yonog‘idan oqib tusha boshladi, ammo hali iyagiga yetib ulgurmasdan quyulib to‘xtadi va qotib qoldi. O‘zi bo‘lsa nafas rostlamoq uchun qayiq burniga qarab surgaldi va yetib kelib yonboshlab oldi. Chol qopni o‘rnashtiribroq qo‘ydi, chilvirni ehtiyot bilan yelkasining hali lat yemagan qismiga o‘tkazib, butun og‘irlikni yelkasiga tushirdi-yu, baliqning qanchalik kuch bilan tortayotganini aniqlashga urindi, so‘ngra qo‘lini suvga tushirib, qayiq tezligini bilishga harakat qildi.

“Nega u bunchalik siltandiykin, qiziq, – deb o‘yladi u. – Har nechuk chilvir yelkasidagi katta o‘rkachdan sirg‘alib tushgan bo‘lsa, ajab emas. Uning yelkasi menikichalik og‘rimaydi, albatta. Ammo u qanchalik yirik bo‘lmasin, qayiqni bir umr tortib yurolmaydi-ku, axir. Endi xalaqit berishi mumkin bo‘lgan narsalarning baridan qutuldim. Bundan tashqari, chilvirni ham keragicha g‘amlab qo‘ydim, kishiga shundan boshqa yana nima kerak o‘zi?”

– Baliq, – deb chaqirdi u sekingina, – o‘lsam o‘lamanki, sendan ajralmayman.

“Baliq, o‘lsam o‘lamanki, sendan ajralmayman”. Bu baliqning Santyago uchun ahamiyati nimada deb o‘ylaysiz?

“U ham har holda mendan ayrilmasa kerak”, – deb o‘yladi chol va tong yorishishini kuta boshladi. Bu azon pallasi havo sovuq edi va u sal bo‘lsa ham isinish uchun qayiq taxtalariga bag‘rini berib qattiqroq yopishdi. “U chidayotibdimi, men ham chidayman”.

Ko‘p o‘tmay, tong shafag‘i dengiz qa’riga ketgan tarang chilvirni yoritdi. Qayiq to‘xtovsiz ilgari siljirdi: quyosh ham ufq betida tirnog‘ini ko‘rsatdi-da, cholning o‘ng yelkasiga nur to‘kdi.

– Shimolga qarab suzyapti, – dedi chol. – Oqim-ku, bizni ancha sharq tomonga surib ketganga o‘xshaydi. U oqimga qarab burilsa qaniydi. Uning holdan toyganini shundan bilsa bo‘ladi.

Ammo quyosh yana ham yuqori ko‘tarilganda baliq charchashni hatto xayoliga ham keltirmayotgani cholga ayon bo‘ldi. Ko‘ngliga faqat

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

bir narsa taskin berib turar, u ham bo‘lsa, baliqning endi anchagina yuzada suzayotgani edi, buni chilvirning suvga qanday qiyalikda ketayotgani aniq ko‘rsatib turardi. Ammo bu – baliq, albatta, suv yuziga qalqib chiqadi, degan gap emas edi.

Chol olis-olislarga boqib, endi o‘zining naqadar yop-yolg‘iz ekanini tushundi. Ammo bu tubsiz sim-siyohda sinib akslangan rangin quyosh nurlari, pastga ketgan tarang chilvir va dengiz sathining ajabtovur to‘lg‘oqlarini ko‘rib turardi. Passat bo‘lishidan xabar berib bulutlar to‘dalanardi. Chol oldinga qarab osmon betida yaqqol ko‘zga tashlanib uchgan yovvoyi o‘rdaklar to‘dasini ko‘rdi; ana to‘da xiralanib yoyildi, keyin yana avvalgidan ham tiniq bo‘lib ko‘zga tashlandi va chol dengizda kishi hech qachon yolg‘iz o‘zigina qolmasligini tushundi.

passat – shamol

Ba’zi odamlarga kichkina qayiq bilan ochiq dengizda qolish juda ham qo‘rqinchli ko‘rinadi. Chol shu haqda o‘ylar ekan, ularning bu qo‘rqinchlari havo to‘satdan aynib qoladigan oylardagina asosli degan fikrga keldi. Ammo hozir dovullar uvvos tortadigan fasl kirgan-u, dovulning o‘zidan darak yo‘q ekan, demak, yilning eng sara vaqti ham xuddi shuning o‘zi bo‘ladi.

Dovul yaqinlashganda uning havodagi belgilarini dengizda turib har doim bir necha kun oldindan ko‘rish mumkin. Quruqlikda esa uni payqamay qoladilar, deb o‘ylardi chol, chunki nimaga qarash kerakligini o‘zlari ham bilishmaydi. Bundan tashqari, quruqlikdagi bulutning ko‘rinishi ham tamomila boshqacha. Nima bo‘lganda ham, hozir dovul turib qoladi, deb kutishga hojat yo‘q.

Osmonga qarab, u oppoq tubsiz sentyabr ko‘kida o‘zi suyib yeydigan morojniyga o‘xshash ukpar bulutlarning harir pardalarini ko‘rdi.

– Tezda yengil epkin turadi, – dedi chol. – U bo‘lsa, baliq, senga qaraganda menga ko‘proq qulaylik tug‘diradi.

Qo‘qqisdan chol hali suvga tushgan chilvirning qiyaligi o‘zgarib qolganini payqab ulgurmasdan, uning o‘ng qo‘li tortish kuchi susayganini sezdi. U o‘zini orqaga tashladi, kuchi boricha chap qo‘li bilan soniga tushira boshladi va shunda chilvirning asta-sekin yuqoriga ko‘tarila boshlaganini ko‘rdi.

– Ko‘tarilyapti, – dedi u. – Qani, qo‘l, bo‘la qol, qimirla! O‘tinaman sendan!

Chilvir uzunasiga borgan sari cho‘zilgandan cho‘zilib borar va nihoyat, qayiq qarshisidagi dengiz sathi bo‘rtib ketdi, baliq suvdan chiqdi. U chiqqandan chiqib borar, go‘yoki bosh-keti yo‘qqa o‘xshar, suv esa uning yonlaridan duv-duv oqib tushardi. Baliq butun borlig‘i bilan quyoshda tovlanib yonar, boshi va usti to‘q binafsharangda, enli yon tasmalari esa tiniq shu’lalarda mayin safsarrangda ko‘rinar edi. Uning tumshug‘i o‘rnida xuddi beysbol chavgoniday uzun va uchi rapira singari o‘tkir tig‘ turar edi. U suvdan bor bo‘yi bilan ko‘tarildi, keyin xuddi mohir suzuvchidek jim sho‘ng‘idi, uning o‘roq tig‘iga o‘xshash haybatli quyrug‘i suvga botib ulgurmasdan, kalava shitob bilan bo‘shala boshladi.

rapira – qilichbozlik quroli

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

– U mening qayig‘imga qaraganda ikki futcha uzunroq, – dedi chol.

Chilvir dengizga tez, ammo bir me’yorda ketib borar, baliqning hech bir narsadan cho‘chimaganligi yaqqol ko‘rinib turardi. Chol chilvirni ikki qo‘llab oxirigacha tortishga urinar edi. Agar baliqning harakatini bir me’yordagi qarshilik bilan sekinlatishga muvaffaq bo‘lmasa, u holda baliq bor-yo‘q kalavasini tortib, uzib-yulqib ketajagini chol bilardi.

– Ahvollaring qalay endi, baliq? – baland ovoz bilan so‘radi u.

– Men o‘zimni juda yaxshi his qilyapman. Mayli, baliq, qayiqni tortaver.

Chol o‘zini, aytganiday, juda yaxshi his qilayotgani yo‘q edi. Chunki yelkasiga arqon berayotgan azob endi shunchaki og‘riqdan o‘tib, zirq-zirq lo‘qillashga aylangan, bu esa cholni xavotirga solayotgan edi. “Bundan battarroq narsalarni ham ko‘rganmiz”, – deb yupatardi u o‘zini.

– Uch yoki to‘rt kundan keyin havo ayniydi, – dedi u. – Ammo bu hali na bugun bo‘ladi, na ertaga. Baliq o‘zini osoyishta tutayotgan ekan, mizg‘ib ol, qariya.

U bortga yonboshladi, baliqning og‘irligini o‘ng qo‘liga o‘tkazdi va uxlab qoldi.

Bu safar tushiga arslonlar emas, sakkiz yoki o‘n milga cho‘zilib ketgan dengiz cho‘chqalarining hududsiz to‘dalari kirib chiqdi. Hozir hirs fasliga kirganlaridan, ular havoga baland sakrashar, keyin o‘zlari chiqib kelgan suv o‘yig‘iga sho‘ng‘ishar edi.

Keyin tushida ko‘rsa, qishloqda o‘z karavotida yotibdi. Kulbasida shimoldan esgan shamol g‘uvullar emish. Chol juda sovqotibdi. Boshiga yostiq o‘rniga qo‘ygan o‘ng qo‘li bo‘lsa, uvushib qolibdi.

Va nihoyat uning tushiga cho‘ziq zardobrang sohil kirdi va g‘ira-shirada bu yerga chiqqan birinchi arslonni ko‘rdi, uning ketidan boshqalari ham chiqib kelardi. Chol langar tashlab turgan kemaning bortiga iyagini tirab qararmish, qirg‘oqdan esgan kechki shamol uni yelpib o‘tarmish, o‘zi boshqa arslonlar paydo bo‘lmasmikin deb kutayotganmish va baxtiyor emish.

Oy bo‘lsa, allaqachon chiqqan, u esa hamon uyqudan bosh ko‘tarmas, uxlar, baliq bo‘lsa, qayiqni bulutlar darasi tomon sokin sudrab borardi.

U siltovdan uyg‘onib ketdi, o‘ng qo‘li musht bo‘lib yuziga kelib urildi, chilvir qo‘lni qizdirgandan qizdirib, shitob bilan dengizga ketib borardi. Chap qo‘li hech narsani his qilmaganidan, u chilvirni o‘ng qo‘li bilan to‘xtatishga urindi, ammo chilvir allaqanday kuchli bir sur’at bilan dengizga ketib borardi. Nihoyat chap qo‘l ham chilvirni seza boshladi, chol chilvirga yelkasi bilan tirkaldi, endi chilvir orqasi

“Chol va dengiz” qissasi uchun rassom Reymond Sheppard ishlagan surat

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

bilan baliqning butun og‘irligini o‘ziga olgan chap qo‘lini jizillatib o‘ta boshladi. Chol ehtiyot kalavalarga o‘girilib qaradi va ularning juda tez bo‘shalayotganini ko‘rdi. Shu on baliq okean sirtini o‘pirib, otilib chiqdi va yana dengizga zalvor bilan tushib ketdi. Keyin bu yana takrorlandi, undan so‘ng yana va yana. Chilvirning dengizga to‘xtovsiz ketib borishiga qaramay, qayiq olg‘a bosardi, chol chilvirni bor kuchi bilan tortishga harakat qilar, goh bir zumgina bo‘sh qo‘yib berar, goh yana uzilib ketadimi deb qo‘rqa-qo‘rqa o‘ziga tortardi.

Chilvir ketgandan ketib borar, ammo boyagiga qaraganda sur’ati susayinqirab qolgan va chol baliqni chilvirning har tutamini mashaqqat bilan yulib olishga majbur qilardi. U boshini ko‘tarib yuzini parchinlanib ketgan makrel go‘shtidan chetga olishga muvaffaq bo‘ldi. U avval tizzasiga turdi, so‘ng ohista oyoqqa bosdi. Chol chilvirni hamon bo‘shatib turar, lekin borgan sari o‘larmonlik bilan oz-ozdan bo‘shatardi. U kalava o‘ramlari turishi kerak bo‘lgan joyga surildi-da, oyog‘i bilan paypaslab hali o‘ramda chilvirning ko‘pligiga qanoat hosil qildi. Suvga esa, shunchalik ko‘p chilvir ketgan ediki, hali baliq shuning o‘zini eplab ulgursa ham xo‘p gap edi.

“Mana endi, – deb o‘yladi u, – baliq o‘n marotabadan ham ko‘p irg‘ishlab chiqib pufaklarini havo bilan to‘ldirdi. Endi uning borsa kelmasga qochib qutulishi va u yerda o‘lib ketishi mumkin emas. U tezda doira yasab, chir aylana boshlaydi, ana o‘shanda qo‘l-qo‘lga tegmay ishlashga to‘g‘ri keladi. Qiziq, nima sababdan u bunchalik bezovta bo‘ldiykin? Ochlik jonidan o‘tdimi yoki qorong‘ida biron narsa hurkitdimi? Balki u to‘sindan dahshatga tushgandir. Ammo bu vazmin va kuchli baliq edi-ku. U menga juda dov va o‘ziga amin bo‘lib ko‘ringan edi. Tavba!”

U dengizga chiqqandan beri quyosh mana uchinchi marta bosh ko‘tarib chiqyapti, xuddi shuni kutib turganday baliq ham doira chizishni boshlab yubordi.

Baliq aylanar ekan, chol uning ko‘zlarini, shu ko‘zlar atrofida suzib yurgan ikki kulrang yelimbaliqni ko‘rdi. O‘qtin-o‘qtin ular baliqning badaniga zulukdek yopishar, keyin jon holatda ura qochishardi. Cholning yuzidan endi faqat quyosh taftidangina emas, azbaroyi zo‘riqqanlikdan ham ter reza-reza bo‘lib oqardi. Ko‘rinishidan juda sokin va bamaylixotir doira yasayotgan baliqning har yangi aylanishida chol borgan sari ko‘proq chilvir yig‘ib olar, yana ikki aylanishdan keyin baliq ko‘ksiga garpun urajagiga endi u amin bo‘lib qolgan edi.

“Ammo men uni bundan ham yaqinroq olib kelishim kerak, ha, yaqinroq, – deb o‘ylardi u. – Mo‘ljalga ham boshini olmasdan, naq yuragiga urish kerak”.

U garpunni allaqachon shay qilib qo‘ygan edi; ingichka tros o‘rami kajava savatda yotar, uning bir uchi qayiq burnidagi ilgakka mahkamlangan edi.

– Menga qaragin, baliq! – dedi chol unga. – Sen baribir o‘lasan. – Shunday bo‘lgach, meni ham o‘zingga qo‘shmozor qilishdan bir ma’no bormi? “Bunaqada ikki qo‘limni burnimga tiqib qolaverishim ham

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

hech gap emas", – koʻnglidan oʻtkazdi u. Ogʻzi shunday ham qaqrab ketgan ediki, hatto labini labiga qovushtirishga majoli yetmas, suv solingan shishani choʻzilib olish uchun esa madori yoʻq edi. "Bu gal men endi uni qayiqqa sudrab keltirmasam boʻlmaydi, – deb oʻyladi u. – Kuning bitib qolganga oʻxshaydi, chol". "Yoʻq, – deb choʻrt kesdi u oʻzini, – bitib qolgani yoʻq. Umring hali yuz yillarga yetadi, chol".

Santyago va baliq oʻrtasidagi hayot uchun kurashdan nimalarni uqdingiz? Ularning holatida qanday oʻxshash va farqli jihatlar mavjud? Nega Santyago tabiatni oʻziga xayrixoh sanayapti? Bu parchada tush qanday gʻoyaga xizmat qilmoqda?

Cholni behollik va behuzurlik oʻz komiga oldi, koʻzlari deyarli hech narsani ilgʻamay qoʻydi. Biroq garpun arqonini boʻsh qoʻyib, uni tilimlanib ketgan qoʻllarida ohista tutamlay boshladi. Koʻzlari yana ravshan tortganda esa, u baliqning kumush rang qornini osmonga qaratib toʻntarilib yotganini koʻrdi. Orqasidan garpun dastasi qiyalab chiqib turar, dengiz tegrasi esa uning qora qoniga boʻyalgan edi. Boshida goʻyo butun bir chaqirim keladigan moviy suvni gʻij-gʻij baliqlar toʻdasi qoplab yuborganday qora dogʻ bosdi. Keyin bu dogʻ yoyilib ketdi va pagʻa-pagʻa bulutga oʻxshab qoldi. Kumushsimon baliq toʻlqinlarda ohista tebranib turardi.

Chol to koʻzi yana tinib ketmaguncha baliqdan koʻz uzmay turdi. Soʻngra u garpun arqonini bitengga ustma-ust ikki marta oʻrab bogʻladi va qoʻllari bilan ikki chakkasini ushlab munkaydi.

biteng

Mana endi baliqning haqiqatan ham mavjudligi, qoʻllari va yelkalaridagi ogʻriqning ham tushida boʻlmayotgani unga ayon. "Qoʻllarimning yarasi tez bitib ketadi, – deb oʻyladi u. – Yaralar ifloslanib zoʻrayib ketmasin deb, ozmuncha qon oqizdimmi, shoʻrgina suv boʻlsa, hoynahoy ularga malham boʻladi. Koʻrfazning qoramtir suvi – dunyoda tengi yoʻq davo. Faqat xayolim chalgʻib ketmasa boʻlgani!

Ular suzgandan suzib borishar, chol oʻqtin-oʻqtin qoʻlini dengiz suviga chayqab olar, kalovlanib qolmaslikka harakat qilib borardi. Toʻp-toʻp bulutlar balandda imillar, ulardan ham yuksakda ukpar bulutlar suzishar edi; chol shamol tuni bilan esib chiqishini bilardi. U haqiqatan ham, baliqni tushida emas, oʻngida koʻrib turganiga amin boʻlish uchun dam-badam unga qarab qoʻyardi. Birinchi akula uni quvib yetguncha bir soat chamasi vaqt oʻtdi.

Akula uni tasodifan quvib yetgani yoʻq. Baliq qonining qoramtir bulutlari avval quyuqlashib, keyin suv boʻylab butun bir chaqirim chuqurlikka yoyilib ketishi bilanoq u dengiz qa'ridan bosh koʻtarib, hech bir hadik bilmasdan, oynaday moviy dengiz sirtini shitob bilan tilib, yorugʻ dunyoga suzib chiqqan edi. Keyin yana ortiga qaytdi, yana qon hidini tuydi va nihoyat baliq va qayiq qoldirgan izdan ketma-ket ta'qib eta boshladi.

Chol akulani koʻrishi bilan uning hech narsadan qaytmasligini, xohlagan noma'qulchiligini qilishini tushundi. U akulaning yaqinroq

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

kelishini kutarkan, garpunni shaylab, arqonning oxirini mahkamlab qo‘ydi. Baliqni bog‘lab olayotganida, uning bir bo‘lagini kesib ishlatganidan, arqon kalta bo‘lib qolgan edi.

Cholning boshi hozir batamom tiniqqan, o‘zini hech narsadan umidvor tutmasa-da, harqalay, qat’iyat bilan belni mahkam bog‘lagan edi...

– U o‘zi bilan qirq qadoqcha baliq go‘shtini gumdon qildi, – dedi chol ovoz chiqarib.

“Ustiga-ustak, garpun bilan qolgan-qutgan arqonni ham olib ketdi, – xayolan qo‘shib qo‘ydi u, – baliqdan bo‘lsa yana qon oqyapti, demak, bu akula ketidan hali zamon boshqalari ham kelib qoladi”.

Dabdalasi chiqqan baliqqa endi uning boshqa qaragisi ham kelmasdi. Akula baliqqa tashlangan chog‘da u go‘yo baliqqa emas, o‘ziga tashlaganday bo‘lib ko‘rindi.

Ishlarim haddan ziyod silliq ketayotuvdi. Buning uzoq davom etishi mumkin emasdi. Mendan hozir tila tilagingni, deyishsa, bularning bari-bari tush bo‘lib qolishini tilardim: baliq-maliq tutdingmi – yo‘q, gazetalar to‘shalgan karavotingda yallo qilib yotibsanmi – yotibsan, tamom, vassalom edi”.

– Ammo inson bolasi yengilib, yengilganiga rozi bo‘lib ketaverish uchun yaratilmagan, – dedi u. – Odamzodni yanchib tashlash mumkin, lekin uni yengib bo‘lmaydi.

U ikki soatdan beri quyruqqa yonboshlab olib, baliq go‘shtini og‘zidan qo‘ymay chaynab, tezroq hordiq chiqarib, kuch yig‘ishga harakat qilgancha suzib borarkan, ikki akuladan birini ko‘rdi.

Chol ularning kerik burun, yapasqi boshlari-yu, oq hoshiyali ko‘krak suzg‘ichlarini ko‘rib turardi. Bular – akulalar ichida eng palid, eng yaramas va eng sassiq baloxo‘rlari hisoblanardi: nafs tug‘yon urgan mahallarda ular hatto qayiqning eshkagi bilan ruliga ham tashlanishdan toymas edilar. Agar toshbaqa dengiz yuzida mabodo pinakka ketib qolsa, bunday akulalar uning oyoqlarini cho‘rt uzib ketishadi, juda ham ochiqqan mahallarida esa, hatto baliq qoni yoki shilimshig‘ining hidi kelmayotgan odamga ham suvda hujum qilishaveradi.

– Ix! – dedi chol. – Hay, mayli, endi kela qolinglar...

Ha, ular suzib kelishdi. Ammo ular makoga o‘xshab kelishgani yo‘q. Ulardan biri yalt-yult qildi-yu, o‘zini qayiq ostiga urdi. U baliqqa tashlanganda qayiqning qanchalik qaltirab ketgani cholga ayniqsa bilindi. Boshqa biri bo‘lsa, o‘zining qisiq sarg‘ish ko‘zlari bilan cholga shingrayib turdi, keyin og‘zini tarvaqay ochib, baliqning mako g‘ajigan yeriga o‘zini urdi. Cholga uning jigarrang boshi ustidan yelka tomoniga cho‘zilib o‘tgan, miya bilan umurtqa bir-biriga ulanib ketadigan joydagi chiziq aniq ko‘rinib turardi, u eshkakka mahkamlangan pichoqni xuddi shu yerga sanchdi. Keyin pichoqni sug‘urib olib, uni yana akulaning mushuknikiga o‘xshash sariq ko‘zlariga urdi. Akula jon talvasasida baliqdan ayrildi va og‘zida qolgan go‘shtni yo‘l-yo‘lakay qo‘ymay yutarkan dengiz qa’riga sirg‘alib ketdi.

Qayiq hamon ikkinchi akulaning baliqqa bo‘lgan hujumidan qaltirab turardi. Chol akulani qayiq ostidan chiqarish uchun yelkanni

qadoq – 410 grammga teng eski og‘irlik o‘lchovi

mako – akulaning bir turi

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

yoyib, qayiqni ko‘ndalang aylantirib qo‘ydi. Akulani ko‘rgan hamono u bort osha enkaydi va pichoq urdi. Pichoq akulaning laqqa go‘sht yeriga to‘g‘ri keldi-yu, ammo qattiq teri uning chuqurroq kirib borishiga yo‘l qo‘ymadi. Zarbdan cholning qo‘llarigina emas, yelkalari ham sirqirab ketdi. Biroq akula komini suvdan chiqarib, yana baliqqa tashlandi, ana shunda chol uning yapasqi boshining qoq o‘rtasiga urdi. Tig‘ni sug‘urib oldi. Yana o‘sha yerga urdi. Akula hamon jag‘larini mahkam qisgancha baliqqa osilib turardi. Shundan keyin chol uning chap ko‘ziga pichoq sanchdi. Akula boyagi-boyagicha baliqni qo‘yib yubormasdi.

– Evoh, hali shunaqami? – dedi chol va pichoqni miya bilan umurtqalar orasiga urdi.

Hozir buning qiyin joyi qolmagan edi. Chol kemirtakni cho‘rt kesib yuborganini payqadi. Akulaning jag‘larini bo‘shatish uchun chol eshkakning boshqa tomonini aylantirib, uning og‘ziga tiqdi. U eshkakni burab-burab oldi va akula baliqdan ajralib ketgandan so‘ng dedi:

– Jo‘nab qol, galanos, menga desa, dengiz qa’riga gumdon bo‘l. U yerda chiqoning bilan yuz ko‘rishgin. Kim biladi, balki u sening onang edimi?

Chol pichoq damini artdi va eshkakni qayiq ichiga qo‘ydi. Keyin yelkanni yoydi, shamol uni to‘ldirgach, qayiqni avvalgi yo‘liga qarab burdi.

– Ular baliqning, harqalay, chorak bo‘lagini olib ketishdi, bunisi ham mayliga-ya, yana go‘shtning sarasini olib ketganiga o‘lasizmi, – dedi u ovoz chiqarib. – O‘lay agar, bularning bari bir ro‘yo bo‘lib qolishini, baliq ham qo‘limga tushmagan bo‘lishini xohlardim. Mana shunday bo‘lib chiqqani juda yomon bo‘ldi-da, baliq, juda yomon bo‘ldi.

Chol jimib qoldi, endi uning baliqqa qaragisi kelmasdi. Tanasida qondan asar qolmagan, bo‘kkan, shabbi-shalabbo bo‘lgan bu baliq ko‘zgular ortiga surtiladigan siramalgama tusiga kirgan, ammo yo‘l-yo‘l tasmalari hali hamon o‘z izini yo‘qotmagan edi.

– Men dengizda bunchalik olisga ketib qolmasligim kerak edi, – dedi u. – Shunaqa bo‘lib qolgani juda-juda yomon bo‘ldi, baliq, juda-juda yomon bo‘ldi. Senga ham, menga ham.

Uning butun a’zoyi badani qaqshab, lo‘qillab og‘rir, tungi ayoz bo‘lsa, jarohatlar va zahmat chekkan oyoq-qo‘llarining og‘rig‘ini zo‘raytirar edi. “Menga yana olishib o‘tirishga to‘g‘ri kelmas deb umid qilaman, – o‘yladi u. – Faqat boshqa jang qilmasam bo‘lgani!”

Biroq yarim kechada u akulalar bilan yana olishdi. Olishardi-yu, bundan endi hech qanday umid yo‘qligini bilardi. Ular cholga bir gala bo‘lib hujum qilishdi, u bo‘lsa, faqat akula suzg‘ichlari suvda qoldirayotgan yo‘l-yo‘l izlarni-yu, baliqni yulib-yulqish uchun tashlangan chog‘larida o‘zlaridan chiqarayotgan shu’lalarnigina ko‘rardi, xolos.

Alohida akulalardan biri baliqning naq boshi oldiga suzib keldi va shunda chol endi hamma-hammasi tamom bo‘lganini tushundi. U baliq boshining metin suyaklariga taqalib qolgan tishlarni mo‘ljallab, akula tumshug‘iga rumpel bilan tushirdi. Bir urdi, ikki urdi, keyin yana, yana urdi. Rumpelning qarsillab sinib tushganini ko‘rgach, u akula-

galanos – chipor akula

chiqon – dugona, o‘rtoq

rumpel – kemaning yo‘nalishini boshqarish uchun moslama

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

ni majag'i chiqqan sop bilan soldi. Chol dastaning go'shtga sanchilib kirganini sezdi-yu, uning qirrasi o'tkir ekanini bilib, yana akulani qulochkashlab urdi. Akula baliqni qo'yib yuborib, o'zini chetga oldi. Bu – hujumga kelgan akula galasidan qolgan eng so'nggi akula edi. Endi ularning yeydigan narsasi qolmagan edi.

Chol endi o'zining uzil-kesil va batamom yengilganini bilardi.

Endi unga hamma narsa baribir bo'lib qolgan, faqat qayiqni jonajon sohilga tezroq, ham omon-eson yetkazsa bo'lgani edi.

Akulalarning baliqlarga hujumini qanday izohlaysiz? Nega Santyago bu kurashda o'zini yengilgan hisoblayapti? Mazkur parchada keltirilgan "Inson bolasi yengilib, yengilganiga rozi bo'lib ketaverish uchun yaratilmagan" jumlasini hayotiy misollar bilan izohlang.

"Yaxshi qayiq, – deb o'yladi u. – Rumpeli demasa, o'zi bus-butun. Nima, yangi rumpel qo'yish qiyinmidi?" Chol iliq oqimga kirganini sezib turar, shunday ko'z o'ngida qirg'oqbo'yi posyolkalarining chiroqlari miltillar edi. U o'zining hozir qayerda turganini bilardi; endi unga yetib olish hech gap emas edi.

posyolka – kichik aholi maskani

"Shamol – bu, so'zsiz, bizga birodarku-ya, – deb o'yladi u va keyin qo'shib qo'ydi:–Darvoqe, har doim ham shunday emas. Ko'z ilg'amas dengizni olsak – u ham do'st-u dushmanlarimizga to'la. To'shak-chi... – o'ylardi u, – to'shak – birodarim. Ha-ha, xuddi shunday, oddiy to'shak. O'ringa oyoq cho'zish ayni hikmatning o'zi. Yengilib bo'lganingdan keyin yelkangdan tosh ag'darilganday yengil tortasan-qo'yasan! – xayol qildi u. – Men buning shunchalik oson bo'lishini bilmasdim... Kim ham seni yenga qoldi o'zi, chol? – so'radi u o'zidan. – Hech kim, – javob berdi u. – Aybim shuki, men dengizda haddan tashqari uzoqqa ketib qoldim".

U kichik ko'rfazga kirgan mahalda Terras chiroqlari o'chgan ediki, bundan chol hamma uyquga ketganini tushundi. Shamol to'xtovsiz zo'rayib borar, shu tobda bo'lsa, ayniqsa kuchli esa boshlagan edi. Lekin gavan osoyishta edi. Chol qoyalar ostidagi toshloqda to'xtadi. O'ziga yordam beruvchi hech kim bo'lmaganidan u qayiqni sohilga imkoni boricha yaqinroq olib keldi. Keyin qayiqdan chiqib, uni qoyaga qantarib bog'lab qo'ydi.

gavan – dengiz qirg'og'ining kemalar turadigan qismi

Machtani sug'urib oldi-da, unga yelkanni o'rab bog'ladi. So'ng machtani yelkasiga ortib, tepalikka ko'tarila boshladi. Mana shunda u o'zining qanchalik holdan toyganini bildi. Bir zum to'xtadi-da, orqasiga o'girilib qarab, ko'cha fonarining yorug'ida haybatli baliq dumining qayiq quyrug'i orqasidan nechog'lik yuksalib turganini ko'rdi. Ko'zi baliq umurtqasining oppoq yalang'och chizig'i bilan tig'i oldinga turtib chiqqan boshining quyuq soyasiga tushdi.

Chol yana yuqoriga chiqishda davom etdi. Tepalikdan o'tgach, behol yiqildi va shu ko'yi yelkasida machta bilan bir muddat cho'zilib yotdi. Keyin oyoqqa turishga urindi, ammo bu oson emas edi va u shu holicha yo'lga termilgancha o'tirib qoldi. O'z kori bilan chopib mushuk

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

o‘tdi, chol uning orqasidan uzoq qarab turdi, so‘ng bo‘m-bo‘sh yo‘lga ko‘z tikdi.

Nihoyat u machtani yerga uloqtirib tashlab, o‘rnidan turdi. Uni yana yelkasiga olib, yo‘l bo‘ylab yuqoriga qadam bosdi. To kulbasiga yetguncha yo‘l-yo‘lakay besh marta dam olishga to‘g‘ri keldi.

Uyga kirgach, machtani devorga suyab qo‘ydi. Qorong‘ida suvli shishani topib, to‘yib ichdi. So‘ng karavotga cho‘zildi. U adyolni yelkasiga tortib orqasi va oyoqlarini yopdi-da, yuzi bilan gazetaga muk tushib, kaftlari yuqoriga qaragan qo‘llarini uzatguncha uxlab ketdi.

Erta bilan bola kulbaga ko‘z tashlagani kirganda u uxlab yotardi. Shamol shunday ham kuchaygan ediki, bundan qayiqlar dengizga chiqolmay qolgan, shundan bo‘lsa kerak, bola qonib uxlab, keyin odati bo‘yicha kanda qilmay, chol kulbasiga kelgan edi. Cholning nafas olayotganiga o‘z ko‘zi bilan ko‘rib ishonch hosil qildi-yu, ammo nazari uning qo‘llariga tushgandan keyin yig‘lab yubordi. U kofe keltirish uchun kulbadan ohista qadam tashlab chiqdi va butun yo‘l bo‘yi yig‘lab bordi.

Qayiq tevaragiga juda ko‘p baliqchilar to‘plangan, ularning bari qayiqqa bog‘log‘lik narsani tomosha qilishardi; baliqchilardan biri pochasini shimarib qo‘yganicha suvda turar va chizimcha bilan baliq suyagini o‘lchar edi.

Bola ularning yoniga tushib o‘tirmadi; u bu yerda bo‘lishga boya ulgurgan va baliqchilardan biri qayiqqa qarab turishga va’da bergan edi.

– Qalay, ahvoli tuzukmi? – qichqirdi baliqchilardan biri bolaga.

– Uxlayapti, – javob berdi bola. O‘zining yig‘layotganini ko‘rayotganlari ham endi baribir edi. – Uni bezovta qilmaslik kerak.

fut – 0,3 metr

– Buning tumshug‘idan dumigacha o‘n sakkiz fut chiqar ekan! – qichqirdi o‘lchayotgan baliqchi.

– Chiqmay ham ko‘rsin, – dedi bola.

U Terrasga kelib, bir banka kofe so‘radi:

– Menga qaynoq kofe bering, suti va shakari ko‘proq bo‘lsin.

– Yana biron narsa olgin.

– Kerak emas. Uning nima yeyishi mumkinligini keyin qarab ko‘raman.

– Oh, ana balig‘-u, mana baliq! – dedi xo‘jayin. – Tengi yo‘g‘-a, tengi. Ammo sen ham kecha ikkita zo‘r baliq tutding.

– E qo‘ysang-chi, mening balig‘imni! – dedi bola va yana yig‘lab yubordi.

Bola nima uchun yig‘layapti deb o‘ylaysiz?

– Biror narsa ichib olmaysanmi? – so‘radi undan xo‘jayin.

– Kerakmas, – dedi bola. – Ularga aytib qo‘y, Santyagoning me’dasiga tegishmasin. Men yana kelaman.

– Shunday bo‘lib chiqqaniga mening ham juda achinayotganimni aytib qo‘y unga.

– Rahmat, – dedi bola.

Bola kulbaga qaynoq kofe solingan bankani keltirib qo‘ydi va to chol uyg‘onmaguncha uning yonida o‘tirdi. Bir safar bolaga go‘yo

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

u uyg‘onayotganday bo‘lib ko‘rindi, ammo chol yana og‘ir uyquga cho‘mdi, shundan so‘ng bola kofeni isitish uchun qarzga biroz o‘tin olgani qo‘shnilarnikiga ketdi.

Nihoyat chol uyg‘ondi.

– Yotaver, turma, – dedi unga bola. – Mana buni ichib ol! – stakanga kofe quyib uzatdi u.

Chol undan stakanni olib, kofeni ichdi.

– Ular meni yengib qo‘yishdi, Manolin, – dedi u. – Ular meni yengishdi.

– Ammo uning o‘zi seni yengolmabdi-ku, axir. Axir baliq seni yengmabdi-ku!

– Yo‘q, yengmadi. To‘g‘ri gapdan qochib qutulib bo‘larmidi. Bu voqea keyin bo‘ldi.

– Qayiq bilan asbob-uskunalarga Pedriko qarab turadigan bo‘ldi. Baliqning boshini nima qilmoqchisan?

– Uni Pedriko to‘rlarga xo‘rak qilib maydalay qolsin.

– Tig‘ini-chi?

– Xohlasang, uni esdalik uchun o‘zingga olib qo‘ya qol.

– Xohlamay-chi, – dedi bola. – Kel endi, bundan keyin nima qilishimiz haqida gaplashib olamiz.

– Meni qidirishdimi?

– Bo‘lmasa-chi. Qirg‘oq soqchilari ham, samolyotlar ham qidirishdi.

– Okean poyonsiz, qayiq bo‘lsa zig‘irdekkina, uni topib bo‘larmidi, – dedi chol. U o‘z-o‘zing va yana dengizdan tashqari ham gaplashadigan biron odaming bo‘lsa qanday ajoyib bo‘lishini hozir ichichidan sezdi. – Men seni rosa qo‘msadim, – dedi u. – Sen biron narsa ushladingmi?

– Birinchi kuni bitta. Ikkinchi kuni yana bitta, uchinchi kuni bo‘lsa, ikkita katta baliq ushladik.

– Qoyil!

– Endi biz yana birgalashib ov qilamiz.

– Sirayam. Menda tole yo‘q. Ishim teskari ketyapti.

– E, qo‘ysang-chi, shu teskari-peskaringni! – dedi bola. – Men senga tole keltiraman.

– Ota-onang-chi, ular nima deyishadi?

– Ahamiyati yo‘q. Kecha men ikkita baliq ushlab berdim-ku. Ammo endi biz ikkovlashib baliqchilik qilamiz, chunki men hali juda ko‘p narsani o‘rganishim kerak.

– Zo‘r bir sanchqi topishga va dengizga doimo uni olib chiqishga to‘g‘ri keladi. Tig‘ini eski “Ford”ning ressoridan qilsa ham bo‘ladi. Guanabakoada charxlatib olamiz. U juda o‘tkir bo‘lishi kerak, ammo sinib ketmasligi uchun toblanmagan bo‘lishi shart. Pichog‘im butunlay sinib ketdi.

– Men senga yangi pichoq topib beraman, ressorni ham o‘zim charxlataman. Yana necha kun kuchli brissa esib turadi?

– Ehtimol, uch kundir. Balki, undan ham ko‘proqdir.

– U paytgacha hamma narsa joyida bo‘ladi, – dedi bola. – Sen hozircha qo‘llaringning davosini qilgin.

ressor

brissa – sohil shamoli

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

– Men ularni nima qilish kerakligini bilaman. Kechasi allaqanday g‘alati bir narsa tupurdim, shundan menga xuddi ko‘kragimda bir narsa yorilib ketganday bo‘lib tuyuldi.

– Buning ham davosini qil, – dedi bola. – Dam ol, qariya, men senga toza ko‘ylak keltiraman. Yana ovqat-povqat deganday.

– Men yo‘qligimda chiqqan gazetalardan birontasini o‘zing bilan ola kelgin, xo‘pmi? – iltimos qildi chol.

– Sen tezroq tuzalishing kerak, chunki men hali sendan juda ko‘p narsalarni o‘rganib olishim zarur, sen bo‘lsang meni dunyodagi yetmish ikki hunarga o‘rgatishing mumkin. Senga juda ham og‘ir bo‘ldimi?

– Juda, – dedi chol.

– Men ovqat va gazeta keltiraman. Sen dam ol, qariya. Aptekaga ham kirib o‘taman, qo‘llaringga biron dori-darmon ola kelaman.

– Pedriko baliq boshini o‘ziga olsin, aytib qo‘y, yodingdan chiqmasin.

– Esimdan chiqmaydi, aytaman.

Bola kulbadan chiqib, eski toshloq yo‘ldan pastga tushib borayotganida yana yig‘ladi.

Shu kuni Terrasga bir guruh sayyohlar kelgan edi, ulardan biri sharqdan esayotgan shamol ko‘rfazning dahanasida haybatli to‘lqin shopirayotganiga qarab turib, o‘lib yotgan meduzalar orasida sohilga urilayotgan to‘lqinlarda chayqala-chayqala yuksalib turgan, ulkan dumli uzun oq umurtqani ko‘rib qoldi.

U endi yo‘lovchi to‘lqin surib ketuvchi axlatgina bo‘lib qolgan ulkan baliqning uzundan uzun umurtqasini ko‘rsata turib, ofitsiantdan so‘radi:

– Nima balo ekan bu o‘zi?

– Tiburon, – dedi ofitsiant. – Akulalar. – U so‘ragan ayolga bo‘lgan voqeani batafsil tushuntirib berish niyatida edi.

– Ana xolos, shu paytgacha akulalarning mana bundaqa chiroyli, nafis qayrilgan dumlari bo‘lishini bilmagan ekanman-a!

– Nimasini aytasan, men ham bilmasdim, – qo‘shildi unga hamrohi.

Yuqorida, o‘z kulbasida, chol hamon uxlab yotardi. U yana muk tushib uxlar, bola esa yonida o‘tirib uning uyqusini ardoqlardi. Cholning tushiga arslonlar kirar edi.

Ibrohim G‘afurov tarjimasi

“Chol va dengiz” qissasi uchun rassom Reymond Sheppard ishlagan surat

Cholning dengizda va o‘z kulbasida ko‘rgan tushlarini solishtiring va ulardagi farqlarning sabablarini izohlang.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

MUHOKAMA QILAMIZ

1. “Chol va dengiz” qissasidan qanday g‘oya (yoki g‘oyalar)ni tushundingiz? Asarning Nobel mukofotiga sazovor bo‘lishi sabablari nimada deb o‘ylaysiz?

2. Amerikalik yana bir mashhur yozuvchi, adabiyot bo‘yicha Nobel mukofoti sovrindori Uilyam Folkner Hemingueyni “mag‘lubiyatlardan paydo bo‘lgan adib” deb atagan edi. Bu ta’rif siz mutolaa qilgan “Chol va dengiz” qissasi voqealariga qay darajada uyg‘un? Fikrlaringizni matn asosida izohlang.

3. Muallif bosh qahramonni nega ismi bilan (Santyago) emas, “chol” deb ataydi? Asar nega “Chol va dengiz” deb nomlangan?

4. Cholning bunchalik uzoq va xatarli dengiz oviga chiqishdan maqsadi nima edi? U o‘z maqsadiga erishdimi? Fikringizni matn asosida izohlang.

5. Asardan cholning portreti va qayig‘i tasviri berilgan o‘rinlarni toping. Bu o‘rinlar o‘quvchida qanday taassurot qoldiradi? Ular asar g‘oyasini tushunishga qay darajada yordam beradi?

6. Asardagi tabiat tasviri berilgan o‘rinlarni toping. Ularning asar g‘oyasini ochishdagi ahamiyatini matn asosida dalillang.

7. Santyago nima uchun qirg‘oqqa baliq ustuxonini (suyagini) olib keldi? Fikrlaringizni matn asosida dalillang.

8. Muallif asarga bola (Manolin) obrazini olib kirishdan qanday maqsadni ko‘zlagan deb o‘ylaysiz? Nega chol har gal mashaqqat ustida uni eslaydi?

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

“Chol va dengiz” filmini tomosha qiling. Asar va uning kino talqini o‘rtasidagi asosiy farqlarni quyidagi jadval asosida daftaringizga izohlab yozing.

	Asarda	Kinoda	Nimaga xizmat qilmoqda?
Kinoda			
Tabiat tasviri			
Chol portreti			
Ziddiyatlar (konflikt)			

LOYIHA

Tasavvur qiling, siz jurnalistsiz. Santyago dengizdan qaytib kelgandan keyin intervyu olishingiz kerak. Intervyu siz ishlaydigan gazeta (jurnal, vebsayt) o‘quvchilariga qiziq bo‘lishi uchun nimalarga e’tibor qaratasiz, Santyagoga qanday savollar berasiz?

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

BADIIY TAHLIL ASOSLARINI O‘RGANAMIZ: RAMZ

Bir obraz (tushuncha) orqali boshqa bir tushunchaning ifodalanishi **ramz** deyiladi. Ramzning o‘ziga xos xususiyati – matndagi so‘zni ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma ma’noda tushunish mumkin. Misol uchun:

Binafsha senmisan, binafsha – senmi,
Ko‘chada aqchaga sotilgan?
Binafsha menmanmi, binafsha menmi,
Sevgingga, qayg‘ungga tutilgan?

Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon

Ushbu parchadagi “binafsha”ni ham o‘z ma’nosida (binafsha guli sifatida), ham shoir yashagan davrda erki toptalgan o‘zbek qizlari ramzi sifatida tushunish mumkin.

“Chol va dengiz” qissasida qanday ramziy obrazlar mavjud deb o‘ylaysiz? Mazkur ramzlar orqali muallif nimani ifodalamoqchi va ular asar g‘oyasini ochishda qanday ahamiyat kasb etmoqda? Quyidagi jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

Ramziy obraz	Bu obraz orqali muallif nimani ifodalamoqchi?	Ramzning asar g‘oyasini ochishdagi ahamiyati

BADIIY TAHLIL ASOSLARINI O‘RGANAMIZ: MUALLIF USLUBI

Har bir ijodkorning yozish uslubi bo‘ladi. Bu uslub voqealar bayoni, obrazlar tasviri, dialoglarning ishlatilishida o‘z aksini topadi. Har bir detalning aniq ifoda etilishi, voqealar bayonidagi sovuqqonlik, keraksiz tafsilotlarni asarga kiritmaslik Ernest Heminguey uslubiga xos eng muhim xususiyat edi.

“Chol va dengiz” qissasi matnidan parcha tanlang. Ushbu parcha asosida muallif uslubiga xos xususiyatlarni tahlil qiling.

MUSTAQIL O‘QISH UCHUN

Ernest Hemingueyning “Yomg‘irda qolgan mushuk” hikoyasini o‘qib chiqishingizni tavsiya qilamiz.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

FANLARARO ALOQA: ADABIYOT VA TABIATSHUNOSLIK

Bu mavzuda biz:
– adabiyot va san'atda hayvonlar yoki o'simliklar obrazini tadqiq qilamiz.

Badiiy adabiyot va san'atda hayvonlar orqali insonlarga xos xususiyatlar aks ettirilganini kuzatganmisiz? Misollar keltiring.

Masalni o'qing. Chumoli va ninachi obrazlari orqali insonlarga xos qanday xususiyatlar ifodalangan?

NINACHI VA CHUMOLI

Ninachi sho'x kuylab chaldi soz,
Sayillarda o'tdi go'zal yoz.
Tomoshadan bo'shay demadi,
Qish g'amini sira yemadi.
Shunday bosib keldi qora qish,
Ulgurmadi, qoldi ko'p yumush.
Dalalar bo'sh endi, yo'llar jim,
Izg'irinda yo'qlamas hech kim.
Har barg soyasida sayil yo'q,
Uy izlashga darmon, mayl yo'q,

Kunlar sovuq, boshlandi ochlik,
Ninachini bosdi muhtojlik.
Och qoringa qo'shiq na hojat,
Ninachi ham sezdi halokat.
Vahm tushdi shirin joniga,
Chumolining keldi yoniga.
"Yomon kunga qo'yma, o'rtoqjon,
Toki yig'ib olayin darmon,
Yoz kelguncha meni och qo'yma,
Ayozlarda yalang'och qo'yma".
"Hayron bo'ldim! Nega ruhing bo'sh?
Ishlabmiding yoz chog'ida, xo'sh?"
Deb so'radi undan Chumoli.
"Vaqt bormidi, – der, – ish qilgali,
Maysazorda men chalib surnay,
Taralla-yu yalla har nafas,
Xayolimga qish kelgan emas".
"Hali shunday degin?"
"Ha, shunday,
Qo'shiq aytib o'tdim yoz bo'yi".
"Qo'shiq aytib? Ajab bo'libdi,
Endi o'yin tushmoq qolibdi".

Ivan Krilov
(Mirtemir tarjimasi)

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

Ensiklopediyadan olingan ma’lumot bilan tanishib chiqing. Ushbu ma’lumot va shaxsiy kuzatishlaringiz asosida o‘ylab ko‘ring-chi, ninachining qaysi xususiyatlari berilgan masaldagi obraz uchun asos bo‘lib xizmat qilgan?



Qaysi hasharot eng mechkay? Bu savolga javob berish oson emas, sababi, bu haqda hech kim o‘ylab ko‘rmagan. Odatda yirik jonivorlar: bo‘rilar, sherlar, yo‘lbarslar ko‘p ovqat yeydi, deb o‘ylashadi. Eng mechkay hayvon ninachidir. O‘simliklar ustida taralla-bedod qilib yuruvchi zohiran bu chiroyli mavjudotning biror payt ovqatlanayotganini ko‘rmaysiz. Ninachilarning nuqul yallo qilib yurishi masallarda ham insho etilgan. Esladingizmi? “Ninachi sho‘x kuylab chaldi soz, Sayillarda o‘tdi go‘zal yoz”. Gap bu yerda ninachilarning bir turi – ninachi-so‘zanak haqida bormoqda. U bir soatning ichida yigirmatacha chivinni paqqos tushiradi. Ninachi-so‘zanak chivin tutish maqsadida kun bo‘yi uchib yuradi, tutganini yeb, yana o‘lja qidiradi. Bir soat ichida u taxminan yuz chaqirim yo‘l bosadi, buning uchun chiroyli yorqin qanotlarini 1600 marta qoqsa kifoya. Ninachi-so‘zanak kimlargadir hakalakchi bo‘lib tuyulishi mumkin, chunki u hech qachon to‘g‘ri uchmaydi. U g‘iz etib yuqoriga ko‘tariladi yoki pastga tushadi, shu on keskin buriladi, alqissa, chivin undan qochib qutulolmaydi.

“Mo‘jiza kitob. Bolalar uchun universal ensiklopediya”dan

O‘rta asrlar Xitoy rassomi Syan Syuan o‘z yurtiga bostirib kirgan mo‘g‘ul istilochilarini o‘tloqni egallab olgan ninachilar tarzida tasvirlagan. O‘ylab ko‘ring-chi, rassom bosqinchilarni nega aynan ninachi tarzida ifodalagan?

LOYIHA

Guruhlarda ishlang. Adabiyot va san’atda ko‘p qo‘llanadigan jonzot yoki o‘simliklardan biri (tulki, bo‘ri, chumoli, asalari va hokazo) obrazini tanlang. Bu obraz orqali asosan qanday xususiyatlar, his-tuyg‘ular tasvirlanadi? Nima uchun? Kichik tadqiqot o‘tkazing va tadqiqotingiz natijalari asosida sinfda taqdimot qiling.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

TAKRORLASH

Matnlarni o‘qing. Savollarga javoblarni daftaringizga yozing.

* * *

Bostirma ostida katta, qora it oldingi oyog‘iga jag‘ini qo‘ygancha yotibdi. Uning dumi va quloqlari kesik. Tumshug‘ining uchi tovuqlar titaverib mayinlashib ketgan tuproqqa botgan. Ko‘zlari yarim yumuq, go‘yo kattaroq ochishga majoli yo‘q.

It ko‘rinishidan horg‘in, beparvo bo‘lsa-da, tiyrak qaraydi. Uning butun diqqati hasharchilarning ayvondagi poyabzallarida. Poyabzallar bor-yo‘g‘i to‘rtta: poylari doimo og‘ib turadigan, qo‘nji kalta etik, bog‘ichsiz ikki juft tufli va chelak yonidagi keda. Bular itga begona. Unga qarashlilari uch juft kalish. Kalishlar hozir ayvonda yo‘q. Tong-sahar tarqalishadi. Birinchi bo‘lib Beka kigizdan patak solinganini sigir tomonga sudraydi. Qiz yangi kalishni oyog‘iga ilib, paxtazorga jo‘naydi. Uchi salgina yirtilib, qizg‘ish lattasi chiqib qolgan kalishni esa Xo‘jayin xirmonga kiyib ketadi.

Xo‘jayin avval dalaga etik kiyardi. Oyog‘i shishib ketib, kalish kiyadigan bo‘ldi. Etigi ulkan edi, qo‘nji uzun, keng edi. It kuchukligida bolalardan qochib, ana shu etik ichida necha martalab jon saqlagan. U paytlarda itning ko‘ksidagi oqi bilinmasdi. Yunglari hozirgidek tim qora emas, qizg‘ish, mushuknikidek mayin edi. Bolalar tortqilashganida yulinib ham ketardi. Dumi bilan quloqlari bus-butun edi.

Xo‘jayin kalish kiyadigan bo‘lgach, etikka birov qaramadi. Ancha mahal chang bosib yotdi, so‘ngra qayoqqadir g‘oyib bo‘ldi. ... Shu-shu ayvonda uch juft kalish qoldi. Hasharchilarning poyabzallari bular safiga yaqinda qo‘shilgan. O‘sha kuni it qo‘nimini yo‘qotdi. Qancha oyoq-kiyim ko‘paysa, itga shuncha yaxshi. Axir, uyga kirib ketganlardan qoladigan birdan bir nishona shular. Shular yolg‘izlikni bilintirmaydi. Biroq hasharchilarning poyabzallari dastlabki kunlardanoq pala-partish yechiladigan, hatto ichkariga kirib ketadigan. bo‘ldi. Gohida qo‘njisi kalta etik bilan keda kalishlar ustiga chiqib qoladi. Bu – itning g‘ashiga tegadi.

Oqto‘sh Oqto‘sh bo‘lgandan beri ularnikiga ne-ne poyabzallar kelib ketmadi. Lekin hech qaysisi bularchalik ko‘p turishmagan, betartib bo‘lmagan. Bunday mehmonlarning ularnikiga birinchi bor qo‘nishi...

– Oqto‘sh!

It Bekaning ovozini eshitib, sapchib o‘rnidan turdi. Butun gavdasi bilan silkinib, yungiga yopishgan tuproq quyqalarini tushirdi-da, echkinikidek bo‘lib qolgan dumini likillatib yugurdi.

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

Beka tandirdan uzib tashlagan kuyik non issiq edi. Oqto‘sh bir-daniga og‘ziga ololmay norozi vingilladi. Non hidi ishtahani qo‘zg‘ab shoshirdi. U og‘zi kuyganiga ham ko‘nikdi. Bir-ikki yerga tushirib bo‘lsa-da, bostirma ostiga olib keldi. Ostiga yarimta g‘isht qo‘yilgan ustun yoniga tashlab, kursillatib yeya boshladi.

Bahodir Murod Ali

1. Parchada tasvirlangan voqea qayerda sodir bo‘lmoqda?
A) dala shiyponida
B) qishloq hovlisida
C) shahardagi xonadonda

2. “Unga qarashlilari uch juft kalish”. Bu gap bilan muallif nima demoqchi?
A) Uch juft kalishni it topib kelgan.
B) Uch juft kalish itga berib yuborilgan.
C) Uch juft kalish xonadon egalariniki.

3. It nega hasharchilarni yoqtirmay qoldi?
A) Hasharchilar saranjomlikka rioya qilishmasdi.
A) It ayvonda oyoq kiyimlar ko‘payishini istamasdi.
B) Hasharchilardan birining etigi noxush xotiralarni yodga solardi.

4. Qaysi voqeani tasvirlashda retrospektiva usuli qo‘llangan?
A) Qizning kalishini kiyib paxtazorga ketishi
B) Itning bolalardan qochib etik ichiga yashirinishi
C) Bekaning itga tandirdan uzilgan issiq non berishi

* * *

Kuz ertasi. Namgarchilik,
Xazon biqsib, tutun taralar.
Oyoq osti – “chilip-chilip”,
Zirqiraydi eski yaralar...

Ammo sen boq hayot dengiziga:
U o‘jarlik bilan qilar ishini.
Razm solsang, har dam o‘ziga
Ming-ming iplar bilan bog‘laydi seni.
Fasllar almashar, dolg‘alanar havo,
Qarg‘alar tovushi – qishning daragi.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Trotuarda
bukchaygan bir bobo
Yosh ko‘chat ko‘tarib o‘tib boradi.
Niholni avaylab mahkam ushlagan
Tomiri bo‘rtib chiqqan titroq qo‘llari
Xayolida balki olamni xushlagan
Bahor,
bodroq-bodroq o‘rik gullari.

Ko‘m-ko‘k shovullashi balki qulog‘ida,
Ko‘ksi bilan sezar soya-salqinin.
Sovitgisi kelar ko‘ngil bulog‘ida
Saratonning lov-lov yolqinin.
Boboning umrida ko‘p bo‘lgandir baxt,
Lekin baxt o‘tkinchi,
Umid – abadiy.
Keksa qo‘llardagi mana shu daraxt –
Ertaga kimningdir toleyi kabi.
Boboning ko‘zida umid yaltirar,
Ko‘chatni ko‘tarib shoshib boradi.
Mahalla ustida hamon qaltirar
Bebosh bolalarning qog‘oz varragi.

Asqad Muxtor

5. Quyidagi satrlardan qaysi biri she’rning asosiy g‘oyasini ifodalaydi?

A) Zirqiraydi eski yaralar
B) Qarg‘alar tovushi – qishning daragi
C) Umid – abadiy

6. She’rning birinchi bandida qanday kayfiyat yetakchilik qiladi?

A) xursandchilik
B) tushkunlik
C) umidvorlik

Bandda bu kayfiyatni yuzaga keltirishga xizmat qilayotgan ikkita so‘z toping.

_____
_____

7. “Ammo sen boq hayot dengiziga:
U o‘jarlik bilan qilar ishini.
Razm solsang, har dam o‘ziga
Ming-ming iplar bilan bog‘laydi seni.
Fasllar almashar, dolg‘alanar havo,
Qarg‘alar tovushi – qishning daragi”.

Ushbu misralarda qanday badiiy tasvir vositalari qo‘llangan? Ikkita javobni tanlang.

A) o‘xshatish
B) metafora
C) sifatlash
D) jonlantirish

8. She’rda zidlantirishga ikkita misol toping. Qaysi obraz yoki tushunchalar bir-biriga qarshi qo‘yilgan? Muallifning bundan ko‘zlagan maqsadini izohlang.

Qarama-qarshi qo‘yilgan obrazlar (tushunchalar):

_____
_____

Izoh: _____
_____

9. She’rdagi qaysi obrazni ramz sifatida qabul qilish mumkin?

A) qog‘oz varrak
B) qarg‘alar tovushi
C) yosh ko‘chat

Bu obrazni nimaning ramzi sifatida talqin qilish mumkin?

_____
_____
_____

O‘zingizga baho bering. Nechta savolga javob bera oldingiz?

☺ 8–9 taga: juda yaxshi!

😐 6–7 taga: yaxshi, lekin sal ko‘proq ishlashim kerak!

☹ 6 tadan kam: yaxshi emas, ancha ishlashim kerak!

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

2-fasl.
KO‘ZIM QAROG‘IDASAN, OTAYURT!

Muhammad Ali. “Gumbazdagi nur”
Hamza. “Jonlarni jononi Vatan”
Sirojiddin Sayyid. “Vatanni o‘rganish”
Nabi Jaloliddin. “Ota”
Sergey Yesenin.
“Shahinam, o, mening Shahinam…”
Rasul Hamzatov.
“Qushqanotli, hoy karvon…”

Adabiy tushunchalar:
– doston
– barmoq tizimi

Fanlararo aloqa:
adabiyot va musiqa

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

MUHAMMAD ALI. "GUMBAZDAGI NUR"

Bu mavzuda biz:
– "Gumbazdagi nur" dostonida ilgari surilgan g'oyalarni tahlil qilamiz;
– doston janri haqida bilib olamiz.

MUALLIF BILAN TANISHAMIZ

Shoir, tarjimon, olim Muhammad Ali (Muhammad Ali Ahmedov) 1942-yili Andijon viloyatida dehqon oilasida tug'ilgan. Muhammad Ali bolaligidan adabiyotga, ijodga mehr qo'ygan, birinchi she'rini yozganida 3-sinfda o'qirdi. O'n besh yoshida ilk she'ri respublikaning nufuzli gazetalaridan birida nashr etildi. O'rta maktabni tugatib, Moskvadagi Adabiyot institutida tahsil oldi. Muhammad Ali uzoq yillar turli mas'ul lavozimlarda faoliyat olib bordi, asarlari uchun ko'plab nufuzli mukofotlar bilan taqdirlandi.

ASARNI O'QISHGA TAYYORLANAMIZ

Siz bilan Muhammad Alining "Gumbazdagi nur" dostonini mutolaa qilamiz. Unda vatanimizdagi ayrim mashhur inshootlarning qurilishi tarixi, mashaqqatlari, millatimizning buyuk siymolari haqida hikoya qilinadi.

Rasmlardagi inshootlarga e'tibor bering. Ular qayerda joylashgan? Ularni kim qurganini bilasizmi? Agar sizga o'z shahringiz uchun imorat qurish imkoniyati berilsa, nima qurgan bo'lardingiz?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

GUMBAZDAGI NUR
(qisqartirib olindi)

I

Turibdi bir bola
Maqbara qoshida.
Savol-la band edi
Bolaning yodi:
“Go‘ri Amir nima!..”
“Ne ich-u tashida?..”
O‘zi soddagina.
Temurdir oti...
Gumbazga termilib
Og‘riydi bo‘yni.
Chiqadi, kiradi
Qabrga tiriklar,
Bolakay turadi
Unutib uyni.
“Vo-o-o!.. Qandoq qurganlar?
Juda ham katta-ku?
Bo‘lganmi kranlar
Avvali ham, a?”
Domlamiz der edi:
“O‘tmishda, hattoki,
Arpa non yer edi
Qari-yosh... Hamma!”
..Tushadi esiga
Yana ko‘p gaplar,
Ilashar ko‘ziga
Gumbazdagi nur.

II

Mittigina bolasan asli,
Xayolingda qiziq xayollar.
Bunday o‘yga borishar, balki,
Dunyoni bir qayirgan chollar.
Ularga-ku yarashar, ukam,
Ularga-ku, bu narsa odat.
Lekin sening o‘ylaring bu dam
Meni hayron qoldirar faqat.
Senga nima dunyo taqdiri?
Dunyo ishi bitgusi sensiz.
Bilsang, mushkul bu o‘ylar siri,
Kattalar ham qolishar unsiz,
Sen-ku, bola! ..

Respublika ta'lim markazi

@edurtm_uz

Samarqand – mana!..
Ertakdan ham qadimligi rost.
Salobat-u shukuh, tantana –
Faqat buyuk poytaxtlarga xos.
Tegrasida parvona bo‘lgan
Zarafshon ham betin yugurar.
Minoralar “Ko‘k – baland” degan
Lofchilarning og‘ziga urar.
Madrasalar mo‘ysafidsimon
Ro‘parangda o‘qishar duo.
Qalandarlar kezar har tomon.
Tillarida: “Haq, do‘st, yo ollo!..”
Nariroqda bozor. Tim aro
Besanoqdir g‘imirlagan jon,
Buyon igna tashlansa ammo,
Tushmog‘iga topilmas imkon.
Buyuk poytaxt yashardi go‘yo
Farog‘atning to‘shagida mast.
Lekin jang-u jadallar aro
Yetmas edi nafasga nafas...
Temurbekning shaxti ko‘p baland!
Yer-u ko‘kni u taq tindirar.
Shu lahzada qaytsa Samarqand,
Yana otga uradi egar.
Shunchalar tez dunyo sur’ati,
Shunchalar tez olindi Halab!
Jahon titrar, Boyazid kabi
Qolmasin deb hech kimsa qaqshab!
Qayga borsa ul chaqmoq qadam,
G‘olibligin aylardilar sharh.
Shunday yashar edi Samarqand
Zafarlarning og‘ushida g‘arq...

qalandar – tarki dunyo qilgan (bu dunyo ne’matlaridan voz kechgan) kishi

tim – bozorning usti yopiq qismi

Halab – Suriyadagi shahar

Boyazid – o‘rta asrlarda Turkiya sultoni, Amir Temur uni jangda yengib, asir olgan

* * *

Qanchalar tez dunyo sur’ati!
Munchalar zud u bergan farmon!
Bu kun poytaxt ma’yus turadi:
Fano topmish Muhammad Sulton!
O‘lim asli qismati azal,
Hammaning ham boshida bor gap.
Amir bilar va lekin bu gal
Tan olgisi kelmaydi, ajab.
Eng suyukli nabira qani?
Qirqildimi lochin parvozi?

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

Nechun endi uning vatani
Valiahdsiz qolmog‘i lozim?
Shak keltirib bo‘lmas bir orzu
Bo‘lgan esa nahotki ro‘yo?
Manglayiga tars uradi u
Va ingraydi: “Bevafo dunyo!..”
Kiprigida xunob-xunob yosh
Jilva qilar g‘amdan bexabar.
Nahot unda yo‘q edi bardosh?
O, chorasi bo‘lsaydi agar,
Agar kelsa tirilib o‘g‘lon,
Rostlansa gar taqdiri xato,
Amir Temur, fotih, o‘shal on
Taxtidan ham kechardi hatto!
Yig‘i olar ko‘ngil dardini,
Garchi bitmas, nimaki sindi.
Olamgirning ko‘zyoshlarini
Artib qo‘yar o‘zgalar endi...
Farmon qilar nihoyat amir:
“Chorlagaysiz me’morlarni bot!
Xazinani ko‘rsating bir-bir,
Va etsunlar sa’yi ijtihod!
Nabiramning ismiga atab
Qursinlarki shunday sag‘ana,
Istaganin olsinlar tilab,
Faqat daxma bo‘lsin shohona!..”

zud – tez

fano – yo‘qlik, o‘lim

valiahd – taxt vorisi

sa’yi ijtihod – astoydil harakat, g‘ayrat

daxma – maqbara

MUHOKAMA QILAMIZ

1. Bolani qanday tasavvur qildingiz? Nega doston “mittigina bola”ning ulkan binolar haqidagi hayratlari, qiziq xayollari bilan boshlangan? Nega bu xayollar Go‘ri Amir oldida turganida paydo bo‘ldi?

2. Keltirilgan parchada qaysi davrdagi Samarqand haqida gapirilmoqda? Qaysi badiiy tasvir vositalari o‘quvchiga Samarqandni yaqqol tasavvur qilish imkonini beradi?

3. Amir Temur me’morlarni nima maqsadda chorladi? Nega u nabirasi uchun quriladigan daxmaning shohona bo‘lishini istamoqda?

Respublika ta'lim markazi

@edurtm_uz

III

Chopar zoti – xuddi zamona!
Chaqmoqday tez u mingan tulpor!
Jam bo‘lishdi poytaxtda, mana,
O‘n ikki jon, o‘n ikki me’mor,
Buxorodan kelmish sangtarosh,
Farg‘onalik gilkor ham bunda,
Naqqoshini yuboribdi Shosh,
Xorazmlik ganchkor ham bunda...
Donishmandlar bejiz demaslar:
“Me’mor boshi – palaxmon toshi!”
Ne tong, turli eldan kelsa gar
Muhandis-u koshintaroshi?
Kecha-kunduz farqsiz o‘tadir,
Qo‘l tegmaydi bosh qashuvga ham,
Subh-u shomin shunda kutadir
Ko‘z ilg‘amas tumonat odam.
O‘n ikki jon, o‘n ikki me’mor...
Bir nuqtada g‘imirlar xayol.
Loy pishitar chapani gilkor,
G‘isht teradi tetikkina chol.
Ganchkorning ham yumushi dushvor.
Ganch qotgusi shoshilmasa gar,
So‘ngra hamma zahmati bekor,
Unda yana boshidan boshlar.
Naqqosh ishi undan-da mushkul!
Lekin ochsa ganchning bag‘rini,
Yoqa ushlab deysan: “Nahot gul
Tosh ichida yotmish yashirinib?”
Koshinpazning qo‘lida sopol
Kunguralar aylar ixtiro.
Naykamalak parchasi misol
Nigohlarni erkalar jilo...

sangtarosh – tosh yo‘nuvchi

gilkor – ganchdan naqsh yasovchi usta

muhandis – injener

koshin – bir-biriga zich qilib yopishtirilgan shisha, marmar yoki toshdan ishlangan naqsh

Nega shoir har bir me’morning vazifasiga alohida-alohida to‘xtalmoqda? Nega ularni turli joylar vakillari sifatida tasvirlamoqda?

Go‘ri Amir koshinlari

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

Yeng shimardi katta-kichik el,
Tang‘ildi-ku tag‘in peshana!
Haroratdan chatnagan ko‘ngil
“Suv! Suv!”– deya zorlanar yana.
Yigitlarning qarashi keskir,
Qaytaradi qilich damin ham.
Faqatgina sobit va eski:
Labda – kulgu, ko‘zda – qotgan nam...
Xorazmda – olis qishloqda
Qay birining qolgan onasi.
Qay birining Farg‘ona yoqda
Bo‘m-bo‘sh yotar kulba – xonasi.
Qay birining, balki, ayoli
Bo‘taloqday o‘g‘il ko‘rgandir?
Taqdirga ham yolchimay, nolib,
Yon uyda non yopib yurgandir?
Hov, yoshrog‘in uyida, balki,
Umr ko‘shki berildi barbod, –
Keksa ota so‘nggi bor qalqib
Qiblaga yuz burgandir, hayhot.
Balki, balki, eng kenja me’mor
O‘y-tashvishsiz yuribdi bunda?
Balki, bilmas – nima dard, ozor,
Dog‘ bor demas nurafshon kunda?
Balki, o‘zga uyga bo‘lib zeb
Suygan yori g‘amga botgandir?
Bedarak deb, nomard ekan deb,
La’nat toshin unga otgandir?..

“Bo‘l, ha, bo‘l!
Angraygan kim u?
Imillagan qaysi mardikor?..”
Odamlar ham shoshib qoldi-ku,
Ular doim niqtovdan hushyor.
“Ha!” – deyilsa bas. Hammaning ham
Ko‘z oldida turadi joni.
Muncha endi sevmasa odam
Yashamoqni, yorug‘ dunyoni?

Sizningcha, muallif nima maqsadda me’morlarning tug‘ilib o‘sgan uyi va yaqinlari tasviriga to‘xtalmoqda? Nega ularning “ko‘z oldida turadi joni”?

Respublika ta'lim markazi

@edurtm_uz

IV

Gumbaz... Rangmi yoki zarhal iz,
Yo quyoshning nuri jilvagar?
Bo‘lardi u yakka-yu yolg‘iz,
Ko‘k – takrori bo‘lmasaydi gar!
Qarang, gumbaz qobirg‘alari
Bir-biriga vazmin nur tashir.
Qodir qismat yo‘liday bari
Bir nuqtaga borib birlashur.
Jang-jadaldan yo‘q bunda asar,
Yo‘q dunyoning sho‘rish – g‘avg‘osi.
Faqat bunda jimgina yotar
Ulug‘bekning buyuk bobosi.
Ziyoratga odamlar kelgay,
Tevarakka boqurlar bir-bir.
Ko‘ngillar ham hayratga to‘lgay:
“Qarangiz, o! Fotih, jahongir!
Bir mahallar dunyo edi tor,
Kichik qabr unga keng endi...”
Ha, Temurbek oqsoqligi bor,
Tan olmaslik juda qiyindir...
Dashtga chiqqan olmasdi pichoq
Bo‘lmasaydi yashashdan ilinj.
“Hokim”, deya so‘z aytilgan chog‘
Aks sadoday yangraydi “qilich”.
Na bu hayrat, na bu taajjub!
Garchi hayrat derlar har safar.
Yo‘q! Bu mangu farmoni vojib
Eskirmagan qari falsafa!

Parchada shoir gumbazni qanday tasvirlamoqda? Uni qurdirgan Amir Temurni-chi? “Bir mahallar dunyo edi tor, Kichik qabr unga keng endi...” misralari bilan muallif nima demoqchi? Qanday “eskirmagan qari falsafa”ni nazarda tutmoqda?

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

Registonga yonib qarayman,
Tasavvurdan quvaman jangni.
Koshinlarni asta silayman,
Kaftim olar g‘ubor-u changni.
Chappar naqsh yo‘riqlarida
Farhod orzu qilgan tilsimot,
Shohizinda girihlarida
O‘z qismatin ko‘radi hayot.
“Bibixonim” gumbazi turar
Bekasiday ko‘ngli yarimta...
Ko‘z o‘ngimda shahar yugurar,
Oqib borar nigohlarimda.

O, ko‘rmagan rohat to‘shagin,
Jang-jadal deb tug‘ilgan inson.
Me’morlikka mehring tushmagi,
Mening uchun taajjub hamon!
Nahot, qahr-u gumonlar aro
Guldan nozik ko‘ngil yashaydir,
Ki yurt aro, maydonlar aro
Nafosatni ko‘rmakka shaydir?

girih – murakkab bezaklar

Ushbu parchada shoir Amir Temurga xos qanday xususiyatlarni aks ettirmoqda?

“Samarqand”. Rassom Ulug‘bek Muhammedov ishlagan surat

Respublika ta'lim markazi

@edurtm_uz

V

Kechirgaysiz, aziz o‘quvchim,
“O‘n ikkilar” xususida gap.
Asli ular mavzu men uchun,
Asli ular – dildagi matlab.
Otalar der keltirib imon:
“Savob bo‘lar hech bo‘lmaganda –
O‘tganlarni eslab har qachon
Gul dastalash ushbu chamanda”.
Oshkoralar ichida pinhon
O‘n ikki jon, o‘n ikki me’mor –
Bulutlarga ko‘milgan osmon...
Yomg‘irlarga zoriqqan bahor...
Nasibangiz – g‘aroyib qismat,
Qismatingiz – achchiq nasiba.
Tik boqar-u tarixday xilqat,
“Ojizman...” – deb turar beibo.
Sizdan na bir qolibdi xabar,
Sizdan na bir qolibdi ism.
O‘n ikki jon – yo‘qolgan gavhar
O‘n ikki jon – ochilmas tilsim...
Xayollardan so‘rayin desam,
Xayol qurg‘ur o‘zi omonat.
Tarix sari yurayin desam,
Oyoqlarim chalishar faqat.
Chaman tusi bo‘lmasa sariq,
Hatto telba ko‘rib “Kuz” demas.

matlab – maqsad

Muallif nega o‘n ikki me’morni “oshkoralar ichida pinhon” deya tasvirlamoqda? Nega tarix ham ular oldida ojiz? Shoirning tarix sari yursa, oyoqlari chalishib ketishi sabablarini qanday izohlaysiz?

To‘xta bir zum, ey ko‘hna tarix,
Charxi falak, aylanmay tur, bas!
Endi menga hal qilib bergil,
Bir boshimda ming bitta savol.
Sahifangni varaqla bir-bir,
Tarix nomli, ey donishmand Chol!

Muallif nega tarixni donishmand chol sifatida tasavvur qilmoqda?

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

VI

Ajab, koʻm-koʻk turibdi gumbaz
Aza tutgan ayol singari.
Odamlar ham bir lahza tinmas
Koʻrmagandek maqbara bari –
Koʻzlarini tikar havasmand.
Oʻtmish kezar edi koʻzguda,
Maqbara ham koshona monand,
Qabring bormi, desa, deguday...
Lol turarlar sehr qoshida,
Kalimaga kelmaydi tillar.
Devorlarning gajjak qoshida
Qotib qolgan qaysi bir yillar...
Nima bordir? Toqi muqarnas
Nimalarni demoqchi shu tob?
Aqlga ham hatto boʻy bermas,
Oʻqilmagan bu koʻhna kitob, –
Yoʻq, amirning sagʻanasi emas,
“Oʻn ikkilar” haykali erur!
Yoʻq, amirning sagʻanasi emas,
Oʻn ikki qalb jo etgan gʻurur!
Oʻn ikki jon, naqshlar ichra
Hayotingiz kezadi hanuz.
Siz tarixning dashtlari ichra
Davrlarni yoritgan fonus!
Oʻn ikki jon, oʻn ikki me’mor,
Sizga boqar odamlar shu payt.
Derlar: “Ana nafosat, viqor!” –
Oʻzingizni koʻrishmas faqat.
Iliq soʻzga xasis odamlar
Sizga tahsin aytishar qat-qat.
Derlar: “Ana mahorat, samar!” –
Oʻzingizni eslashmas faqat...

toqi muqarnas – qabariq yoki oʻyma naqshlar bilan ishlangan gumbaz

Muallif nega gumbazni aza tutgan ayolga yoki oʻqilmagan kitobga oʻxshatmoqda? “Devorlarning gajjak qoshida Qotib qolgan qaysi bir yillar...” misralari bilan shoir nima demoqchi?

Respublika ta'lim markazi

@edurtm_uz

VII

Yana keldim, ey Tarix bobo,
Sendan yana talab qilurman.
O‘z haqqimni qilmoqni da’vo –
Haqiqatning yo‘li bilurman.
O‘n ikki jon, o‘n ikki me’mor,
O‘n ikki g‘am, o‘n ikki sevinch...
Tinglovdingmi loaqal bir bor
Sen ularning ertagini hech?
Bilmasang gar so‘ylab beraman,
Sahifangga qayd aylasang bas.

Shoirning Tarix bobodan talab qilayotgan haqqi nima bo‘lishi mumkin? U qanday ertak haqida so‘ylamoqchi? Nima uchun uni “ertak” deb atamoqda?

...Maqbara. Uy. Yo‘q! Ko‘hna mozor,
Sukunatning so‘nggi marrasi.
Junjiktirib badanni esar
Asrlarning sovuq nafasi.
Koshin, girih ko‘rinar arang,
Birov labin qimtiyaptimi?..
Huv, peshtoqda jimirlaydi rang,
“Qarayotgan kim?” deyaptimi?..
Ajab holat: ey Tarix bobo,
Sukunatning portlashini ko‘r!
Hazin-hazin kelmoqda sado,
Tunda xira tortgan kabi nur:
“Biz o‘n ikki jon edik,
Biz o‘n ikki jon edik,
Toleyi past yer qadar,
Himmati osmon edik,
Himmati osmon edik.
Umrdan-ku, ko‘ngil to‘q,
Afsus degan gaplar yo‘q,
Bizlar kamtar bir odam,
Nomimiz ammo qutlug‘!
Nomimiz ammo qutlug‘!
Qurdik ne-ne imorat,
Ammo bilmadik g‘orat,
Umr degan bu savdo
Me’morlikdan iborat,
Me’morlikdan iborat!”

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Boq, ey Tarix, ohista yelar
Ne yillarning dudli sabosi.
Tinglaysanmi, quloqqa kelar
Ketmonlarning gurs-gurs sadosi?
Xayollaring koʻryaptimi, ayt,
Osmonlarga koʻchganin toʻzon?
Manglayini artar oʻsha payt
Oʻn ikki... yoʻq, oʻn ikki ming jon!
Fargʻonaning katta kanali
Rostlamakda qaddini shitob.
Sipo erlar bugun jangari,
Qoʻlda ketmon, bosh uzra oftob...

Shoir tasviridagi me'mor kim? Uni tasvirlashda muallif qanday soʻzlardan foydalanmoqda? "Umr degan bu savdo Me'morlikdan iborat" satrlaridan nimalarni tushundingiz?

Katta Fargʻona kanali qurilishi. 1939-yil

Sado kelar, tinglagil yana,
Sado emas, sherlar na'rasi.
Aylanadi Sirda poʻrtana,
Gumburlaydi Farhod darasi!
Choʻkichlardan qochar ushoq tosh,
Xarsanglarda chaqnaydi uchqun...
Yana belin bogʻlar keksa-yosh,
Yana otam yoʻl olar bugun!..
Garchi yoʻqdir avvalgi kuchi,
Shijoati garchi qolganmas,
Turolmadi! "Chetga chiquvchi
Bu ulusda hali boʻlganmas!
Majruh boʻlsa agar bitta qoʻl,
Koʻngil – butun, butundir umr!

Respublika ta'lim markazi

@edurtm_uz

Qani, bizga tilangiz oq yo‘l,
Orimiz bor, yigitmiz, shukur!”
O‘zligini anglamak uchun,
Insonligin bilish-chun chindan,
Ne yorug‘ tun, ne-ne qora kun
Kurash ketdi maydon ichinda!
Erkin yurgan daryo bo‘yniga
Sirtmoq tushdi, bo‘ldi juda soz!
Tingla, Tarix, shovqin qo‘ynidan
Sizib kelar qudratli ovoz:
“Nur ham keldi, keldi suv,
Dildan yuvildi qayg‘u.
Ilgimizda qolgani
Ozod, erkin hayot bu!
Ozod, erkin hayot bu!”

Farhod GES qurilishi. 1940-yillar

Shoir qanday shovqin haqida gapirmoqda? Sizib kelayotgan qanday qudratli ovoz bo‘lishi mumkin? “Nur ham keldi, keldi suv” satrida shoir nima demoqchi?

Tingla, yana sado keladir
Sadolardan chiqarib qanot.
Koshonaday Katta teatr
Bo‘layotir Toshkentda bunyod.
Buxorodan kelgan sangtarosh,
Farg‘onalik gilkor ham bunda.
Xorazm-chi, yo‘llabdi naqqosh,
Samarqandlik ganchkor ham bunda...

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

Andakkina keksaygan otam
Qo‘sholmadi bu ishga ulush.
Yig‘ilgandi va lekin olam,
Shovqin-suron, harakat, junbish...
Kechalari mizg‘imas me’mor,
Muhandisga orom bermas o‘y.
Ganchkor ajib yaratsa gulzor,
Naqqosh guli taratadi bo‘y...

Go‘ri Amirni va Toshkentdagi Katta teatrni qurgan me’morlar tasvirlangan o‘rinlarni solishtiring. Ulardagi o‘xshash va o‘ziga xos jihatlarni matn asosida izohlang.

VIII

Nedan mening shodligim durkun?
Nedan g‘amgin kulishim manim?
Tarix tilga kiradi bir kun,
Buguncha men aytay bilganim:
Go‘ri Amir qo‘r to‘kib mag‘rur,
Pahlavonday menga tikilar.
Ko‘zlarimga chalinmas qusur,
Bunda bordir faqat zar, zar, zar...
Bunda bordir bir dunyo ilm,
G‘ishtlar aro yashiringan roz.
Hamma bordir, hamma va lekin
O‘n ikki jon bunda yo‘q, xolos!..
Zulmat ichra qolganda nogoh,
Narsani ko‘z ilg‘amas chog‘dir.
Sahrolarday keng-u begiyoh,
Tarixning ham varog‘i oqdir.

Go‘ri Amirning yuqorida berilgan tasvirida qanday o‘ziga xosliklarni kuzatish mumkin? Mag‘rurlik, zar, ilm aks etgan maqbarada nima uchun o‘n ikki me’morni ko‘rish imkoni yo‘q? “Oq varaqli tarix” deganda nimani tushunasiz?

Nedan mening shodligim durkun?
Nedan g‘amgin kulishim manim?
Tarix tilga kiradi bir kun,
Buguncha men aytay bilganim:
Ko‘hna Tarix, suraverma o‘y,
Hayratlanish senga ham darkor!
Ro‘baro‘ngda charx urmoqda-ku
O‘n ikki jon, o‘n ikki me’mor!

Respublika ta'lim markazi

@edurtm_uz

Ha, ha, ular! Yo‘q, o‘zga emas!
Samarqanddan bittasi, ana!
Biri hanuz umridan sarmast,
Andijonda topmish boshpana.
Poytaxtda biri kun ko‘rar,
O‘zgasiga maskan – Buxoro.
Bir qo‘l kabi, musht kabi yurar
Bu hamsaf el, hamsaf fuqaro.

Nedan mening shodligim durkun?
Nedan g‘amgin kulishim manim?
Tarix tilga kiradi bir kun,
Buguncha men aytay bilganim:
O‘n ikki jon – ajib qismatdir,
Xuddi yilning o‘n ikki oyi.
Yozin-qishin sayr ayla, bir-bir–
Dalalarda ko‘rgaysan doim.
Dalalar, he, bir cheti mag‘rib,
Bir chetida uxlaydi mashriq.
Dalalarning yam-yashil bag‘ri
Dehqon uchun eng ko‘hna tarix!
Yulduzsifat ochilgan chanoq –
Hayratga mos buyuk jangnoma.
G‘o‘zalarda yashagan yaproq,
Tarix, senga bitilgan noma!

O‘n ikki me’morning o‘n ikki oyga o‘xshatilishi sabablari nimada? Me’morlar va dehqonlar o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor deb o‘ylaysiz? Nima uchun dalalarning yam-yashil bag‘ri dehqon uchun eng ko‘hna tarix bo‘lishi mumkin?

Nedan mening shodligim durkun?
Nedan g‘amgin kulishim manim?
Tarix tilga kiradi bir kun,
Buguncha men aytay bilganim:
Fazolarga qarar munajjim,
Ulug‘bekning ilg‘ar nigohin.
Yuragi ham simiradi jim
Milt-milt qilgan yulduzlar ohin.
Atorudga ko‘z yugurtar u,
Suhaylni tun ichra istar.
So‘ng uyiga horg‘in qaytar-u
Bog‘chaga suv ochar ohista.
Suronlarga qo‘shib ovozin
“Mana, men!”– deb ko‘ksiga urmas.
Baxtni baham ko‘rishga rozi,
Lekin... lekin qayg‘usin bermas!

Atorud – Merkuriy sayyorasi

Suhayl – yulduz nomi

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Asarning ushbu qismida muallif nega Ulug‘bekni eslamoqda? Nega Ulug‘bek “baxtini baham ko‘rishga rozi, lekin qayg‘usini bermas”? Uning qayg‘usi nima bo‘lishi mumkin?

Nedan mening shodligim durkun?
Nedan g‘amgin kulishim manim?
Tarix tilga kiradi bir kun,
Buguncha men aytay bilganim:
Bastakor ham o‘zicha yonur,
Kuy tarashlar tonglarni kutib,
She’riyatdan izlab qolar nur,
Alisherning ruhin shod etib.
Qog‘oz uzra naqshlar chizgay –
Rohat topib salgina joni.
Yuragining chigilin yozgay
So‘nggi nuqta qo‘ygani oni.
Kuy... Qanchalar safoli kuy bu!
Sadolangan qaysi gulshanda?
...O‘yin bo‘lsa, “Paxtakor”ga u
Tushmoqni ham qilmaydi kanda.

Nedan mening shodligim durkun?
Nedan g‘amgin kulishim manim?
Tarix tilga kiradi bir kun,
Buguncha men aytay bilganim:
O‘qituvchi do‘stim har safar
Qush uyg‘onmay otlanar ishga.
Namozshomda bog‘chaga kirar
Intiq turgan o‘g‘lin olishga...
...Bu – uysozdir, tinmaydi, mana,
Poytaxtiga izlaydi davo,
“Oltmish olti” degan bir sana
Xotiridan chiqmaydi asli...
Bunisi-chi, shoir, jangari,
Manglayiga bitgani olov.
...Vaqt topilsa, jam bo‘lib bari
Choyxonada damlashlar palov.

1966-yilgi zilziladan keyin Toshkent shahrining tiklanishi

Respublika ta'lim markazi
@edurtm_uz

Nedan mening shodligim durkun?
Nedan g‘amgin kulishim manim?
Tarix tilga kiradi bir kun,
Buguncha men aytay bilganim:
Rost gap, do‘ppi aylanar bir bor
Yuz yil, ming yil deganlarida.
Sobit turgay o‘n ikki me’mor
O‘zbekiston chamanlarida.
O‘shanda ham yurakda surur,
Qo‘llarida ulg‘ayar hayot.
O‘shanda ham Tarix entikib,
Eslolmasa yoshligin, inon:
Mening kabi bir shoir chiqib,
O‘shanda ham yozgusi doston!

Dostonning ushbu faslida muallif nima maqsadda turli yillardagi ulkan qurilishlarni va turli kasb egalarini eslaydi? Ularning shoir “matlabi” – o‘n ikki me’morga qanday aloqasi bo‘lishi mumkin?

Muallif nima uchun bu qismda qayta-qayta “Tarix tilga kiradi bir kun” demoqda? Tarix tilga kirsa, bizga nimalar haqida gapirib beradi, deb o‘ylaysiz?

IX

Turibdi bir bola
Maqbara qoshida,
Ko‘zida xayollar
Patirlar uning.
Ey do‘stlar, u kimdir?..
Dilimda nashida!
U bola ukamdir,
Ukamdir mening!
Bunchalar xayolkash
Bo‘lmoqni qo‘ysang-chi,
O‘qi-o‘rgan, ukash,
Fanni gangitib!
Do‘stlaringni topib
O‘ynoqlab yursang-chi,
Yugurib, to‘p tepib,
Maydon changitib?
Vaqt kech. Yur, ukam,
Oyoqlaring tolgan.
Uyingda onang ham
Bo‘lgandir intiq.
Sababin aytarsan.
Bugungi xayolga
Istasang, qaytarsan
Ertami, indin.
O‘n ikki qahramon –
Qay biri shu paytda
Ko‘zingda g‘alayon
Ko‘rmakda, balki.
Hayratingni ko‘rib,
O‘zi ham hayratda
Mehr-la termilib
Turmakda balki...
Gumbazda o‘ynaydi
O‘sha nur, o‘sha nur,
Ufq asta yamlaydi
Oftobni, qara!
Zavollar...
Savollar...
Yur, ukam, qani, yur!
Oldinda xayollar...
Ortda maqbara...

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

MUHOKAMA QILAMIZ

1. “Gumbazdagi nur” dostonida qanday g‘oya (yoki g‘oyalar) ilgari surilgan? Gumbazdagi nur nimaning yoki kimning ramzi deb o‘ylaysiz?

2. Amir Temur, Boyazid, Mirzo Ulug‘bek kabi tarixiy obrazlar hamda mo‘ysafid, bola kabi zamonaviy timsollar asar g‘oyasini ochishda qanday ahamiyat kasb etmoqda? Fikringizni matn asosida dalillang.

3. Tarix, ulkan inshootlar, o‘n ikki me’mor haqida so‘ylayotgan shoirning bir paytning o‘zida ham shod bo‘lishi va ham g‘amgin kulishi sabablari nimada deb o‘ylaysiz? Fikringizni dalillang.

4. Dostonning “Yur, ukam, qani, yur! Oldinda xayollar... Ortda maqbara...” kabi satrlar bilan tugashida qanday mazmun yashiringan? “Oftobni yamlayotgan” ufqda yana qanday “zavollar”, “savollar” bo‘lishi mumkin?

5. Sizningcha, dostonning qaysi bobi asar umumiy g‘oyasini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etmoqda? Nega?

IJODIY ISH

O‘zbekistonning biron-bir diqqatga sazovor joyiga birinchi marta borganingizni eslang. Ko‘nglingizdan nimalar o‘tgan, sizni qanday o‘y-xayollar band qilgan? “Mening O‘zbekistonim” mavzusida esse yozing.

DOSTON (POEMA) HAQIDA BILIB OLAMIZ

Doston (poema) she’riy yo‘l bilan yozilgan yirik asar bo‘lib, unda biron-bir voqeani (yoki voqealarni) bayon qilish bilan birga, muallifning ularga munosabati, ular bilan bog‘liq o‘ylari va kechinmalari tasvirlanadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, adabiyot tarixida va zamonaviy adabiyotda dostonlarning boshqa turlari ham mavjud bo‘lib, ular bilan yuqori sinflarda tanishib boramiz.

“Gumbazdagi nur” dostonida qanday voqea (yoki voqealar) tasvirlangan? Matndan muallifning bu voqealarga munosabati, ular bilan bog‘liq kechinmalari aks etgan o‘rinlarni toping va izohlang.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

HAMZA. "JONLARNI JONONI VATAN" SIROJIDDIN SAYYID. "VATANNI O'RGANISH"

Bu mavzuda biz:
– "Jonlarni jononi Vatan" va "Vatanni o'rganish" she'rlarini qiyoslaymiz.

MUALLIFLAR BILAN TANISHAMIZ

Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889–1929)

Hamza Hakimzoda Niyoziy Qo'qon shahrida tabib oilasida tavallud topgan. Dastlab eski maktabda savod chiqarib, keyinchalik rus-tuzem maktabi va madrasada tahsil oldi. Fors, arab va rus tillarini o'rgangan Hamza Sharq adabiyotini mustaqil mutolaa qildi, olti yoshidan she'rlar yoza boshladi. Ilk devoni dunyoga kelganda u endigina 25 yoshda edi. Darsliklar yozish, maktablar ochib, nochor oila farzandlarini savodli qilishni Hamza o'z faoliyatidagi eng muhim vazifalardan biri deb bildi. U o'zi tashkil qilgan maktablarda bolalarga diniy va dunyoviy ilmlardan dars berdi. Yangicha shakl va mazmundagi asarlari, shuningdek, musiqashunos, rejissyor, jurnalist va pedagog sifatidagi kashfiyotlari bilan o'zbek adabiyoti, san'ati va ilm-fani taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi.

Sirojiddin Sayyid (1958)

Sirojiddin Sayyid (Sirojiddin Saidov) Surxondaryo viloyatida tug'ilgan. Bolaligida eshitgan matallar, dostonlar, ertak va afsonalar, ayniqsa, onasi aytib bergan xalq qo'shiqlari, naql-u hikoyatlar unda adabiyotga mehr-muhabbat uyg'otdi. O'rta maktabdan keyin Sirojiddin Sayyid Toshkent davlat universitetini (hozirgi O'zbekiston milliy universiteti) bitirib, turli lavozimlarda faoliyat yuritib kelmoqda. She'riy to'plamlari uchun davlat mukofotlari bilan taqdirlangan.

MUTOLAAGA TAYYORLANAMIZ

Siz Vatanni qanday tasavvur qilasiz? Vatan siz uchun kim yoki nima?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Hamza Hakimzoda Niyoziy

JONLARNI JONONI VATAN

Vatan, Vatan der edilar, na der edim bilmay oni,
Endi bilsam, Vatan erkon bu tanlarning shirin joni.
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlarning qoni Vatan,
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

erkon – ekan
bale – ha, to‘g‘ri

Sensan ekansan bizlara chin tug‘mish bir mungliq ano,
Boqg‘ung tirik bo‘lsak, agar o‘lsok quchog‘inda yano.
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlarning qoni Vatan,
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

ano – ona

Ko‘zlarmi ko‘r bo‘lgan uchun hech tanimas bo‘lduk sani,
Og‘rindi ko‘nglung, yuzaga og‘lo siring chiqsin, qani!
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlarning qoni Vatan,
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

og‘lo – yig‘la

Esiz, esiz, tug‘g‘onlaring ko‘z yumib o‘q otub sani,
Bog‘lab qo‘ling yovuzlarga ne oldilar sotub sani?
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlarning qoni Vatan,
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

San onaizor ekan-da, achingoning bor ekan-da,
O‘lmay laxta qonlar to‘kib, xor bo‘lib yuror ekan-da.
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni, Vatan,
Sensan, bale, bilganlarga jonlarni jononi, Vatan!

Biluvchilar qo‘l tutmadi, bizga sani tonutmadi,
Bilmam, nelarga aldanub, Tangri buyrug‘in tutmadi.
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlarning qoni Vatan,
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

Bilimsizlar anglashmadi, oh-u voying tinglashmadi,
Bilguvchilar burchi ekan o‘ng‘aylamoq, o‘nglashmadi.
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlarning qoni Vatan,
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

o‘ng‘aylamoq – tuzatmoq, o‘nglamoq

Nihon yig‘lab qon yutunur, kechmog‘lig‘ingni o‘tunur,
Mundin buyon o‘g‘lonlaring chandon tonurga tutunur.
Bir jon emas, ey suyguli, tomirlarning qoni Vatan,
Sensan, bale, bilganlara jonlarni jononi Vatan!

kechmoq – kechirmoq

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

MUHOKAMA QILAMIZ

1. “Jonlarni jononi Vatan” she’rida qanday g‘oya ilgari surilgan? Qaysi so‘z va so‘z birikmalari bu g‘oyani yuzaga chiqarishga xizmat qilmoqda?

2. Nega shoir Vatanni shirin jonga, tomirdagi qonga o‘xshatmoqda? “Vatan”, “jon” va “tomirdagi qon” o‘rtasida qanday umumiylik bo‘lishi mumkin?

3. “Esiz, esiz, tug‘g‘onlaring ko‘z yumib o‘q otub sani,
Bog‘lab qo‘ling yovuzlarga ne oldilar sotub sani?” satrlarida shoir kimlarni nazarda tutmoqda? Vatanga xiyonat qilganlarni siz kim deb atagan bo‘lardingiz? Nima uchun?

4. Shoir nazarda tutgan “biluvchilar”, “bilib Vatanni tanitmaganlar” kimlar bo‘lishi mumkin? Hozir ham shunday insonlar bormi?

5. “Bilimsizlar anglashmadi, oh-u voying tinglashmadi, Bilguvchilar burchi ekan o‘ng‘aylamoq, o‘nglashmadi” satrlari bilan shoir nima demoqchi?

6. Shoir nima uchun yig‘lab Vatandan kechirim so‘ramoqda? Vatandan kechirim so‘rashga majbur bo‘lmaslik uchun nimalar qilish kerak deb o‘ylaysiz?

Sirojiddin Sayyid

VATANNI O‘RGANISH

Men Vatanni o‘rganmadim zaridan,
O‘rganmadim uni hur yo paridan.
Kaftlarning chiziqlari – xati ham
Ajinlari bo‘ldi mening xaritam.
Shu xatlarda ko‘rgandim ilk Vatanni,
O‘z onamdan o‘rgandim men Vatanni.

Mehrlari qosh-u ko‘zlar bo‘ldilar,
Oy-u quyosh misol yuzlar bo‘ldilar.
Jismim aro ulg‘aydilar, to‘ldilar,
Vatan yanglig‘ ulug‘ so‘zlar bo‘ldilar.
Qoshlarining ostlarida turgandim,
Men Vatanni shu ko‘zlardan o‘rgandim.

Nokaslardan o‘rganmadim men uni,
Yot kaslardan o‘rganmadim men uni.
Nom, qarzlardan o‘rgangandim men uni,
Jon xaslardan o‘rgangandim men uni.

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

O‘zim kiyik so‘qmoqlarda yurgandim,
Men Vatanni so‘qmoqlardan o‘rgandim.

Osmonlari boshim uzra ogohlar,
Giyohidan dilga oldim giyohlar,
Rayhonlarin siyohidan siyohlar.
Buloqlardan ko‘zlar oldim, nigohlar,
O‘zim ham bir chechaklarga burkandim,
Men Vatanni giyohlardan o‘rgandim.

Menga azal aziz bo‘lgan baridan,
Beshigimdan talpingan paytlarimdan,
Umr ko‘rgan har keksa-yu qaridan,
Mehnatlarin yodlab o‘sdim bag‘ridan.
Paykallarin kokillarday o‘rgandim,
Men Vatanni egatlardan o‘rgandim.

Ushoq noning qadri ming elga ma’lum,
Dars oldim men suvlar ichgan mahalim.
Bulbullarning tillarida shu ta’lim,
O‘zing ustoz, o‘zing mangu muallim.
Hikmatlardan qurgandim men Vatanni,
Zahmatlardan o‘rgandim men Vatanni.

MUHOKAMA QILAMIZ

1. “Vatanni o‘rganish” she’ri sizda qanday tuyg‘ularni uyg‘otdi? Shoir “Vatanni o‘rganish” deganda nimani nazarda tutmoqda? Vatanni qanday qilib “o‘rganish” mumkin?

2. Shoir “Vatanning ajinlari” deganda nimani nazarda tutmoqda? Vatanning ham ajinlari bo‘ladimi?

3. Nima uchun shoir Vatanni “zaridan, hur yo paridan”, “nokas yoki yot kas” – begonalardan emas, so‘qmoqlardan, giyohlardan, egatlardan o‘rganishni istadi? Qanday qilib ulardan Vatanni o‘rganish mumkin? Siz ilk bor Vatanni kimlardan yoki nimalardan o‘rgangan edingiz?

4. Nega shoir Vatanga “ustoz”, “mangu muallim” deya murojaat qilmoqda? Vatan va ustoz o‘rtasida qanday bog‘liqlik bo‘lishi mumkin?

5. Vatan qanday hikmatlardan barpo bo‘ladi? Uning mangu yashnashi uchun qanday hikmatlar muhim deb o‘ylaysiz?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

SOLISHTIRAMIZ

1. Har ikki she'rdagi Vatan tasviriga xos qanday o'xshash va farqli jihatlarni ko'rdingiz? Sizningcha, qaysi she'rda vatan obrazi kuchliroq va ta'sirliroq ifoda etilgan? Fikrlaringizni matn asosida dalillang.

2. Sizningcha, qaysi she'r muallifi ruhiyatida tushkunlik, qaysisida ko'tarinkilik kayfiyati ustunlik qilmoqda? Bunday kayfiyatning sabablari nimada?

IJODIY ISH

"Vatan mening nigohimda" mavzusida esse yozing. Quyidagi rejaga tayaning:

– "Vatan" deganda ko'z o'ngingizda birinchi bo'lib kim yoki nima gavdalanadi?

– Bu obraz va Vatan o'rtasida qanday bog'liqlik bor?

– Bu obraz bilan bog'liq eng yorqin xotirangiz.

"O'rik gulladi". Rassom Dilorom Mamedova ishlagan surat (2017-yil)

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

MUSTAQIL MUTOLAA VA TAHLIL UCHUN

Quyida berilgan she'rlar asosida Hamza va Sirojiddin Sayyid she'riyatiga xos xususiyatlarni tahlil qiling. Bunda quyidagilarga e'tibor bering:

– she'rlarda ilgari surilgan g'oyalar;
– bu g'oyalarni ochib berishda ishlatilgan kalit so'zlar va obrazlar;
– she'rlardagi badiiy tasvir vositalari.

Hamza Hakimzoda Niyoziy

SALOM AYTING

Og'a, sog' borsangiz, avval
Dadamlarga salom ayting.
Yugurib chiqqan ul mushfiq
Onamlarga salom ayting.
Ko'zi qon hamshiram birlan
Akamlarga salom ayting.
O'pub peshonasin men-chun,
Ukamlarga salom ayting.
Qo'ni-qo'shni, kichik-katta
Og'amlarga salom ayting.
Salomat deng, onajonim
Ko'zin zinhor yoshlatmang.
Judolig' dog'i bas, bemor deb
Ming bor qaqshatmang.
Onam bechorani g'am bistariga
Zor tashlatmang.
Og'a, hamshiralarga motamim
Takror boshlatmang.
Eshitgan bo'lsalar notoblig'im,
O'zga marom ayting,
Otam ranjitmasunlar bu
Suyuk o'g'lin anosini,
O'zi hayron, topolmasdan
Bu dardining davosini,
Jigar-bag'ri ezilgandir
Yo'qotib ko'z qarosini,
Ayurmasin anosidan
Egam bir qush bolosini,
Otam yolg'uz topib bu so'zlarim
Bir-bir tamom ayting.
Akam, hamshiralar munglug'
Onamni ko'p quvontirsin,
Salomat erkan o'g'ling deb,
Olub ko'nglin yupantirsin.
Bukun, erta kelarmish deb,
Gahi aldab ishontirsin,
Mani yo'qlig'im bildirmasin
Xizmat-la bu qondirsin.
Choqirib har birin mandan bu xil
Arz-u payom ayting...
So'rang bizdan agar kelsa,
So'rashib jo'ra, o'rtog'lar,
Qalay deb so'rasalar, ayting:
Shukr sihat, omon, sog'lar.
Kelib qolgay, deng albatta
Ochilguncha gul-u bog'lar.
Alar ko'ngliga ham "betob"
Debon solmang qaro dog'lar.
Yozib xat hol so'rashganga
Salomim nom-banom ayting.

hamshira – opa yoki singil

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

QALAM

Qoradir garchi, izi nuri haqiqatdir o‘zi,
Chunki bosgan yerda zulmatni ziyo qildi qalam.
Ya’ni maydona har ish keldi qalam xosiyati,
Hosili har maqsad-u har muddao qildi qalam.
Tog‘-tosh, sahro-vu cho‘llarni guliston aylabon,
Shahrlar, obodliqlar, xushhavo qildi qalam.
Har og‘urlar yengil o‘ldi, har qiyin oson o‘lub,
Har mashaqqatga o‘zin mushkulkusho qildi qalam,
Har adabsiza adab, fikr ila donish o‘rgatub,
El ichida obro‘sin xo‘b raso qildi qalam...
Dunyoda bo‘lgan hama asrori qildi oshkor,
Har o‘luk tanlarga go‘yo jon ato qildi qalam.
Sidqi dil birla qo‘liga kim ani tutsa agar,
Maqsadiga yetkuzub, ko‘nglin rizo qildi qalam.
Kimni bir matlab bila tutsa ani beshubha ul,
Istamish har orzuga oshno qildi qalam.
Hech kishini mehnatini zarra zoyi’ qo‘ymadi,
Harna va’da qildi, ahdiga vafo qildi qalam.
Hissa: o‘g‘lon, maqsading ne bo‘lsa tutgaysan qalam,
Chunki jumla hojatin bori ravo qildi qalam.

Sirojiddin Sayyid

MENSIZ YASHOLMAYDI...

Mensiz yasholmaydi mana bu qalam,
Mensiz yasholmaydi bu oppoq daftar.
Har oqshom va yo tong kelsam “pirr” etib
Oldimga qo‘nadi misoli kaptar.

Garchi hujralari keng bo‘lmasa ham,
Garchi yo‘laklari bo‘lsa ham ensiz.
Bu uy aza tutar gar men bo‘lmasam,
Bu uy yasholmaydi hech qachon mensiz.

Dahlizdagi bir juft to‘lqinrang kovush
Mening barmoqlarim ko‘rmasa bir kun,
Bir-birin pinjiga biqinib olib
Burchakda bildirmay yig‘laydi beun.

Bu azob eng sodiq do‘stimdir mening,
Yillar yitsa hamki, also yitmaydi.
Qari, sadoqatli kuchuk singari
Men bilan birgadir, hargiz ketmaydi.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Dillar diyoridin quvg‘in qush yanglig‘
Menga o‘rgangandir bu armon yomon.
Men unga qonimdan suv ichirgayman,
Ko‘zim gavharidan bergaydurman don.

Bir kun bormasam gar tashvishga tushar,
Inlardan bag‘rida ingrabon ming dog‘,
Shomlar derazamga kelib diydirar,
Mensiz yasholmaydi hech qachon bu bog‘.

Qayg‘u men bo‘lmasam qayg‘u chekadi,
Anduh tunlar menga achchiq choy damlar.
Men beg‘am yashasam bo‘lardi, lekin
Mensiz yasholmaydi hech qachon g‘amlar.

ONAMNING KALISHLARI

Buncha ham qattiq ekan
Qismatning bolishlari.
Ko‘z oldimdan ketmas hech
Onamning kalishlari.

Ular ostonasida
Turar bir juft abgorday.
Ko‘zimga butun dunyo
Ko‘rinadi aybdorday.

Yashaydirman garchi qo‘l,
Yuzlarini sog‘inib.
Kalishlari dahlizda
Turaverar og‘rinib.

Dardimni yashirgayman
Onam holim so‘rganda.
Kalishlari valekin
Barin bilib turganday.

Garchi tilsiz, zabonsiz,
Xomush, beozordaylar.
Bor dard-u hijronimdan
Ular xabardordaylar.

Onamning ko‘z yoshidan
Bo‘lsa bolishlari nam.
Nazarimda kechalar
Yig‘lar kalishlari ham.

Ular ham go‘yo meni
O‘rtanib o‘ylagaylar.
Baxt-u baxtsizligimdan
Qissalar so‘ylagaylar.

Sog‘inchning devorlari
Yomg‘irlarda yemrilgan.
Ular ham onam kabi
Yo‘llarimga termilgan.

Mol yig‘madim men, ammo
Suv so‘rganga soy berdim.
Bir ko‘nglim bor edi, lek
Men uni ham boy berdim.

Bu dunyoda nihoyat
Bir hikmatni ilg‘adim.
Kalishlarni yuzimga
Bosib, kelar yig‘lagim.

Onamning kalishlari...
Bir umrlik qarzimday.
Pataklarin ko‘zimga
Surtib o‘lsam arzigay.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

NABI JALOLIDDIN. “OTA”

Bu mavzuda biz:
– hikoyada ochiq aytilgan va aytilmagan g‘oyalarni tahlil qilamiz;
– badiiy asarda zidlantirishga doir bilimlarimizni mustahkamlaymiz.

MUALLIF BILAN TANISHAMIZ

Zamonaviy o‘zbek adabiyotining iste’dodli vakillaridan biri, shoir, yozuvchi va rassom Nabi Jaloliddin 1962-yilda Andijon viloyatida tug‘ilgan. Ota-onasidan erta judo bo‘lgan yozuvchi qishloqdagi rassomchilik maktab-internatida o‘qishini davom ettirishga majbur bo‘ldi. U yoshligidan rasmlar chizishni mashq qildi, she’rlar yoza boshladi. O‘n olti yoshida ilk she’ri tuman gazetasida bosilib chiqdi. Harbiy xizmatdan keyin Nabi Jaloliddin Toshkent davlat universitetida (hozirgi O‘zbekiston milliy universiteti) tahsil oldi. Oliygohda o‘qish bilan birga maktabda o‘qituvchilik qildi, so‘ng esa bir qancha nashriyotlarda faoliyat olib bordi.

ASARNI O‘QISHGA TAYYORLANAMIZ

Nabi Jaloliddin biz mutolaa qiladigan “Ota” hikoyasida halol, diyonatli, o‘z jonini boshqalar hayoti uchun fido qilishga tayyor chin otalar haqida hikoya qiladi.

Otalar obrazi ishtirok etgan qanday asarlarni o‘qigansiz yoki tomosha qilgansiz? Bu asarlarda otalar qanday tasvirlangan?

Ushbu rasmda qanday manzara tasvirlangan? Farzandning hayotdagi qadamlarida otaning o‘rni qanday? Otalarning oila, jamiyat, millat hayotidagi ahamiyati nimada? Misollar keltiring.

“Ilk qadamlar”. Mashhur golland rassomi Vinsent Van Gog ishlagan surat

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

OTA

Hov naridagi koʻprik ustida qiy-chuv qilib oʻynayotgan bolalarning ovozi xayolini boʻldi. Daryo uzra yoʻl solgan bu koʻprik uning bolalik paytlarida hali qurilmagandi, odamlar-u ot-ulovlar kechuvdan oʻtishardi. Yillarning shitobini qarangki, qirq yilning nari-berisida qurilgan mana shu koʻprik ham goʻyo azaldan bor boʻlganday tuyuladi. Tinmay qiyqirayotgan anovi tirmizaklar bu haqda oʻylab ham oʻtirishmaydi, ularga oʻyin topilib tursa bas. Nima, sen bola boʻlmaganmisan, deya yandi oʻzini oʻzi, oʻynamaganmisan? Oʻynagandayam barchani besaranjom qilib oʻynarding – shoʻx eding-da. U bilinar-bilinmas jilmaydi. Mana shu tezoqar daryoning bu betidan narigi betiga hatto oʻn – oʻn ikki yasharligidayam bemalol suzib oʻta olardi. Endi esa goho suvga qoʻl solgani ham oʻylanib qoladi. Tavba, hozirgi anhor-u daryolarning suvlari biram sovuqki... Avvallari soatlab suvdan chiqmasdi. Yo odam qariganda eti yupqalashib ketganidan shunday tuyularmikan-a?.. Daryoning narigi sohiliga intiq tikildi. Hozir ham suzib oʻta olsa kerak. U yana jilmaydi: hah, koʻngil qursin-a, qarilikni hech tan olgisi kelmaskan-da. Oʻng oyogʻining paylari bir tortishsa, bukilmay qoladi-yu, daryoda suzarmish. Uyogʻini soʻrasangiz, hatto kechasiyam junpaypoq kiyib yotadi. Shu payt oʻng oyogʻi xuddi “meni esingdan chiqarma”, deganday xiyol zirqirab qoʻydi. Oyogʻini uzatib, tizzasining atrofini kafti bilan birpas uqaladi. Soʻng chap qoʻlidagi tasbehini bilagiga oʻtkazib, “yo Olloh”, deya biroz kuchanib oʻrnidan turdi. Hali belini toʻla tiklamayoq oʻng qoʻli bilan qaymoqrang chakmonining etagini qoqdi

yandi – koyidi

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

va tasbehini o‘ng qo‘liga olib, ortiga qayrildi-da, picha enkaygan ko‘yi qiyalikdan ko‘tarila boshladi. Ko‘tarilarkan, do‘ppisini go‘yo yechmoqchiday bir qo‘zg‘atib, to‘g‘rilab qo‘ydi.

Hikoyada kim haqida gap ketmoqda? Nega u bolaligidagi xotiralarni esladi? Ushbu parchada bolalik va keksalikka xos xususiyatlar o‘rtasidagi ziddiyatlar nimaga xizmat qilmoqda?

Haligina uzoq o‘tirganidan oyoqlari uvushib, yurishi og‘irlashgan chol darvozadan dadil qadamlar bilan kirib keldi. Hovli ancha katta, uylari juda unaqa hashamatli bo‘lmasa-da, serxona edi. Hamma narsa o‘z o‘rnida – saranjom-sarishta, ko‘zga xunuk ko‘ringuvchi biron narsa yo‘q.

U so‘ritok ostidagi ulkan so‘rining bir chetiga kelib o‘tirdi. U yoq-bu yoqqa qarab, kalta oqish-kulrang soqolini siladi. Shunday katta dargohda hech kim qolmadimi, nima balo?.. Zum o‘tmay, chetroqdagi uydan kampiri chiqib keldi.

nimcha – “namuncha” demoqchi

– Nimcha hammayoq huvullab ketibdi? Churvaqalaring qani? – dedi u kampiri yoniga yetib kelmasidan, go‘yo hozir bolalarning shovqin-suroni bo‘lmasa nafasi qisib qoladiganday betoqatlanib.

Kampiri ham kelib, so‘riga o‘tirdi.

jijisiminan – “chaqalog‘i bilan” demoqchi

– Ikkita tirmizagingiz ko‘chada o‘ynayapti. Kelin jijisiminan uyda, ish tikyapti, – derkan yuziga yarashiqli jilmaydi. – O‘zi uyimizda shugina odam bor, xolos. Ja huvullab ketayotgan bo‘lsayiz, nevara keliniyzzi obkevolaylik.

Kampirining erkalik bilan aytgan bu gapi cholga ma’qul ko‘rindi.

– To‘g‘ri aytasan... – keyin nimadir esiga tushganday so‘radi, – o‘g‘ling qani?

dilbuzar – “televizor” demoqchi

– U bekorchipolvon yo uxlaydi, yo dilbuzar ko‘ratta. Uyda erkatoyiz, qayda bo‘lardi, – birdan kampirning yuzi jiddiy tus oldi.

Chol ham buni payqadi.

– Himm, tinchlikmi?

– Darrov siqilib qolmang-u, otasi, Hamidulloyiz ish ko‘rsatib qo‘yibdi, – dedi kampir uning ko‘ziga xavotirli tikilarkan.

U sergak tortdi.

– Nima qipti?

– Kecha xotinini urganakan, onasinikiga ketib qopti.

– Nimaga uripti?

– Chalarag‘ eshitishimcha, arzimagan gap ekan. Qo‘shnining tovug‘ini deb...

Chol biron tadbir o‘yladimi, birpas jim qoldi, so‘ng:

– O‘g‘liyni chaqir, moshinani yurgizsin, – dedi buyruq ohangida. – Borib keliniyni uyiga obkeb qo‘y-da, moshinani menga jo‘nat. O‘zim borib, ashi xotin uradiganminan bi-ir gaplashib qo‘yay.

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

Kampiri itoatkorona bosh egib, o‘rnidan turdi.

Uning yetti o‘g‘il, bir qizi bor. Eng kenjasi qiz. Hamidullo degani oltinchi o‘g‘li. O‘zi haydovchi, kirakashlik qiladi. Yemoq-ichmog‘i joyida, juda unaqa er-xotin urishadigan ahvolda emas. Umuman, uning xonadonida-yu farzandlarining o‘rtasida bir-ikki yengil-yelpi qo‘ydi-chiqdilarni hisobga olmaganda hech qachon janjal bo‘lmagan. U shunday tarbiya bergan, chunki azali baqir-chaqir qilib yetti mahallani boshiga ko‘taradigan oilalarni yoqtirmaydi. Ahillik, baraka – xotirjamlikda, deydi...

To‘ng‘ich o‘g‘li mana shu xo‘jalikda rais, ota kasbini qilib, yer bilan oshno tutindi. Ikkinchi o‘g‘li katta odam – vazir, Toshkentda yashaydi. Keyingi ikki o‘g‘li – muallim. (Ularning biri maktab direktori.) Undan keyingisi gazetada ishlaydi – jurnalist. Kenjasi bo‘lsa, g‘irt bekorchi, otasi olib bergan mashinada ko‘cha kezgani-kezgan. Shu bahona chol-kampirning xizmatini ham qiladi. Otasi uni juda unaqa tergayvermaydi – kenjatoy-da, mayli, esi kirguncha yayravolsin, deydi. Aslida eng erkasi bitta-yu bitta qizi – Gulira’no, ya’ni cholning “Chaman qizi”. Uni turmushga berishgan, o‘zidan tinchib o‘tiribdi...

Chol, kampir va ularning farzandlari sizda qanday tasavvur uyg‘otdi?

Kampiri bilan o‘g‘li chiqib ketishgach, hayhotdek hovlida bir o‘zi qolib, qulog‘i battar huvulladi. Nevaralarni obkeltirmasam bo‘lmaydi, shekilli, deya o‘ylab qo‘ydi. Bu noxush sukunatdan qutilish uchun o‘rnidan turib, chakmonini yechdi-da, ketmonni olib, tomorqaga tushdi. Keng tomorqaning yarmi anorzor edi. Qolganiga turli meva-chevalar, ularning ostiga esa kunlik zaruriy yeguliklar ekilgandi.

U ko‘ylagining yengini shimarib, eski odaticha kaftiga tufladi-da, “yo bismillo” deya xiyol avj olib qolgan pomidor ko‘chatlarining ostini chopishga tushdi...

Kenjasi onasi bilan qaytib kelganida u endigina asr namozini tugallagandi.

– Keliniyzzi uyiga tashlab keldim, – dedi kampiri nafas rostlash uchun so‘ri chetiga o‘tirarkan.

Bu orada jijisini ko‘tarib uydan chiqqan kenja kelin bazo‘r eshitilguvchi muloyim ovoz ila qaynonasidan so‘radi:

– Nima ovqat qilamiz, buvi?

buvi – “ona” demoqchi

Kampir eriga qaradi.

– Qanaqa ovqat qilaylik?

Chol darvoza tomon o‘ychan yurarkan, ohista qo‘l siltab, dedi:

– Bilganlariyni qiliynar...

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

U o‘g‘li Hamidulloning darvozasi oldida to‘xtagan mashinasidan hali tushib ulgirmasidan ikki kichkintoy nabirasi yugurib kelib, unga yopishdilar.

– Hah, toychog‘larim, bormisilar? – chol nabiralarining peshonasidan o‘pib, yo‘ldagi do‘kondan olgan bir juft konfetni ularga tutdi. – Manovi sizlarga, shirinlarim.

Ikkovini ikki yonida yetaklab, darvoza tomon yurdi.

Chol nevaralarining yetovida mayda qadamlab darvozaxonadan kirib borarkan, peshvoz chiqqan Hamidullo bilan ko‘rishdi.

– Bormisan-e, bolam? Nima, bu bizikida ko‘rinmay ketding?

O‘g‘il yuz-ko‘z-u boshi bilan qandaydir ishoralar qildi-yu, ammo biron so‘z aytolmadi. U otasiga ham hadik bilan, ham xijolatli mo‘ltirab qo‘yardi.

So‘riga o‘tirdilar. Uydan so‘lg‘in qiyofadagi kelini chiqib kelib, ko‘rishdi. Yuzlariga fotiha tortdilar.

– Tinchlikmi, o‘g‘lim? – deya so‘z boshladi chol birpas jim turgach muloyim ovozda.

Ota va o‘g‘il o‘rtasidagi munosabatlarga qanday baho berasiz? Fikringizni matn asosida dalillang.

Hamidullo ham, tik turgan kelini ham yerga qaradilar. Kenjasi ohista o‘rnidan turib, ko‘chaga chiqib ketdi. Janjal tovuqdan chiqibdi. Qo‘shnining tovuqlari ularnikiga o‘tib, yangi ekilgan ekinlarni cho‘qib tashlaganiga chidolmagan kelini qo‘shni ayolga qattiqroq gap qilibdi. Uyog‘iga xotinlarcha dahanaki jang boshlanibdi. Ishdan kelib, voqeadan xabar topgan Hamidullo xotiniga tushuntirmoqchi bo‘lib:

– Qo‘ni-qo‘shni bilan bunaqa qattiq urishib bo‘lmaydi, xotin, – debdi.

Haliyam hovuridan tushmagan xotini erining gapidan battar tutaqib, bidillab beribdi:

– Siz doim meni so‘kovrasiz. Ashinchun qo‘shnilar ham hovliqib, bizi tepalab o‘ynayapti. Bo‘lmasa, uning tovug‘i menikiga kirdi. Shundayam past kelay demaydi-ya!..

Xullas, xotin u debdi, er bu debdi. Axiyri Hamidullo o‘zini tutolmay, shapaloq tortib yuboribdi.

Chol bu gaplardan xabardor edi. Hali kampiri aytib berdimi yoki bu yoqqa kelishayotganda kenjasi yetkazdimi, hozir eslolmaydi.

– Qo‘shniminan urishma deganing ma’qul, bolam. Ommalekin buning uchun xotiniyni urganing chakki. – Chol bir to‘xtalib oldi. – Ayol kishiga qo‘l ko‘tarish eng noma’qul ish. Ayniqsa, manovilarning oldida. – U ikki yonboshida yuz-qo‘llarini shilta qilib, konfet so‘rayotgan nevaralariga ishora qildi.

Kelin o‘z qilmishidan xijolat bo‘larmidi yoki doimo adolatli hukm chiqarguvchi qaynotasining gaplari va ehtimol, uning qilmishi uchun

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

biron so‘z aytolmay mung‘ayib o‘tirgan erining ahvoli ta’sir qildimi, battar egilib borardi.

– Tirikchiligiynar yaxshimi ishqilib? – so‘radi chol o‘g‘liga qattiqroq tikilib.

– Yaxshi, – dedi Hamidullo sekingina, – kamchiligimiz yo‘q.

– Unda urishmaynar. Xudoga shukur deb yashaynar. Bo‘lmasa, uyinardan baraka qochadi. Yana tag‘in bizi urug‘imizda bunaqa janjalkashlar yo‘q, – chol bir muddat jim qoldi. – O‘g‘lim, yana bir marta xotiningga qo‘l ko‘tarsang, men sendan qattiq ranjiyman, bo‘ptimi?

O‘g‘il yerga qaragancha boshi bilan tasdiq ishorasini qildi. Kelin esa qaynotasining faqat o‘g‘ligagina tanbeh berganidan adoyi tamom bo‘lgandi – buning o‘rniga yana bir shapaloq yesam mayliydi, deya qaqshab turardi.

– Bo‘pti, bo‘lmasa, men qaytdim, – deya yuziga fotiha tortgan chol o‘rnidan turdi. – Meni shirin bollarimi biznikigayam olib o‘tib turiynar, – dedi nevaralarining boshini silab.

– Osh yeb keting, ota, – deya oldi kelin arang, juda past ovozda ko‘zini yerdan uzmay.

– Rahmat, qizim, boshqa safar.

Chol mashinaga o‘tirganda qulog‘iga yana haligi huvullash urilganday bo‘lib, yuragi malollandi.

Nega chol faqat o‘g‘liga tanbeh berish bilan chegaralandi? Otaning farzandlar oldida janjallashish noma’qul, deyishi sabablarini qanday izohlaysiz?

– Bozor kuni o‘n birga hamma akalariyni biznikiga maylisga to‘pla. – dedi u kenjasiga hazilomuz, ammo bolalarini, ularning birga o‘tirishlarini sog‘inganini bilintirmadi. – Hammasini chaqir.

– Xo‘p bo‘ladi, shef, – deya erkalangan kenjatoy ulovini yurgizdi...

Sizningcha, chol qanday “maylis” uyushtirmoqchi?

Yakshanba kuni ertalabdanoq katta hovli gavjum bo‘la boshladi. Cholning o‘g‘illari, kelinlari bolalarini yetaklashib, birin-ketin kirib kelishdi. Uning kutgani shu edi – quloqlari bolalarining shovqiniga to‘lsa, uyiga fayz kirib, bag‘ri ham to‘lardi.

Kelinlari uy ichida qaynonalarini qurshadilar. Kichkintoylar hovlining u yer-bu yerida o‘yin bilan band bo‘lsalar, goh ko‘chaga yugurib qoladilar. O‘g‘illari esa uning yonida – katta so‘rida davra qurdilar. Dasturxon tuzayotgan kenjasi birdan g‘oz turib, o‘ng qo‘lini kulgili holatda chakkasiga olib bordi-da, cholga qarab harbiycha ovoz bilan qattiq-qattiq gapira ketdi:

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

– Janob prizdent, ministriyizdan tashqari barcha o‘g‘illariyiz jam bo‘ldilar. Ministr chet eldaykan. Chamaniyiz qiz bola bo‘lgani uchun aytkizmadim. Hisobot beruvchi – kenjatoy.

Hammalari kuldilar. Chol ham o‘g‘lining qilig‘idan zavqlanarkan, qo‘shib qo‘ydi:

– Chamanni aytkizmadim, deb hovliqma, – ota bu hazili bilan kenjatoy o‘g‘li va yolg‘iz qizining kenjalikni talashishlariga ishora qilayotgan edi. – Chinakam kenjani buviyni o‘zi chaqirtirgan. Hali zamon kelsin, adabiyni beradi.

– Siz borsiz-u, ota. Biz axir sizi lashkariyizmiz, – kenjasi choyni qaytararkan, tag‘in erkalandi.

Shu asno ota-bolalar hazil-huzul ila bir-birini chindan ham sog‘inganliklarini sezdirib o‘tirardilar.

– Ministr chet elga ketibdimi? – chol pastga qarab mayin jilmaydi, bag‘rini esa sog‘inch xiyol tirnab o‘tdi.

– Davlatchilik-da, ota, – deb qo‘ydi to‘ng‘ich o‘g‘li taskin berganday.

– Gaping to‘g‘ri – davlatchilik.

Keyin xotiraga berildi va juda ko‘p bor aytgan gapini balki yuzinchi bor yana o‘shanday ehtiros ila takrorladi:

– Qara-ya, hamma gapga farishta omin derkan-da. Kichkinaligida nuqul ministr bo‘laman, deb kuldirardi. Mana, rostdanam ministr bo‘p ketdi...

– U paytda bollar bilgan eng katta amal shu edi-da, – deya kulib gapga qo‘shildi jurnalist o‘g‘il.

Chol Hamidulloga qaradi – u tunov kungi voqea ta’siridami, boshqacharoq bo‘lib o‘tirardi. Shuning uchun ota shu o‘g‘liga qarata dedi:

– Qani, dasturxonga qaraynar-chi. Ol, Hamidullo! Senam gapirib tur, bolam.

– Bilassu, ota, biz shopir odam, uncha gap bilmaymiz, – Hamidullo otasining kayfiyatini buzib qo‘ymaslik uchun so‘zini hazilga burdi. – Gapirishti, mana, jurnalistlarga, domlalarga chiqargan, – dedi kulib akalariga ishora qilarkan.

abtamat – “avtomat” demoqchi

– Olasan-a!.. Ha, gap bilmaysan-a! Ko‘chada abtamatsan-u, ja beyda sipolik qilasan, – deya aksilzarba berdi jurnalist.

Barcha kuldi.

Nega kenja o‘g‘il otasiga “prezident” deb murojaat qildi? Nima uchun Hamidullo otasining kayfiyatini buzib qo‘yishdan qo‘rqdi?

– Ana-ana, Chaman qizim keldi! – deya shodon hayqirib o‘rnidan turdi, ota.

Kenja o‘g‘il ham shahd o‘rnidan qo‘zg‘olib, shoshib singlisining qo‘lidan bolasini oldi va uning otasi bilan bemalolroq ko‘rishib olishi uchun imkon yaratdi.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Ota qulochini yozib, qizini bag‘riga oldi.

– Keldiymi-yey, opoq qizim? – deya uning peshonasidan o‘pdi.

Chaman qiz ham mehribon otasining pinjiga battarroq suqilib, ko‘zi yoshlandi:

– Sog‘inib ketdi-im, otajon! – dedi chiyillab, ham kulib, ham yig‘larkan.

– Iye-iye, ona qizim, keb ketganingga endi ikki hafta bo‘ldi-yu, – otasi uning yuz-ko‘zlarini siladi.

– Baribiramta!.. – Chaman qiz otasining quchog‘idan erkalik bilan chiqib, yiltiragan ko‘z yoshlarini kaftida artdi va birin-ketin akalariga qo‘l uzatdi.

– Ha, rais buva, qalaysiz? O‘zimmi domla akalarim!.. Ha, yozuvchi, yozib yuribsizmi?.. Bunisi endi taksist akam. Manovisi bo‘lsa, samazvanets... – u bu gapi bilan kenja akasining kenjalikni talashishiga ishora qilayotgan edi.

samazvanets – “yolg‘onchi” demoqchi

– Bor-bor, uyga kir, bu yerda men kenjaman, – deya kenja o‘g‘il zo‘raki po‘pisa qildi.

– Men obshiy kenjaman, bildiz!

obshiy – “umumiy” demoqchi

Bu orada qaynonasiga ergashgan kelinlar uy eshigi oldida Chaman qizni kutib turishardi...

Chamanning akalari bilan munosabati samimiy deb o‘ylaysizmi?

Ayollar uyga kirib ketishgach, shovqin ham tindi. Erkaklar davrasi esa gap bo‘lingani uchun biroz sukutga toldi.

– Payg‘ambar alayhissalomda bir hadis bor ekan: “Kim nimani niyat qilsa, albatta, ashi niyatiga yetadi”, deydilar ul zot. Demak, eng avvalo niyatni yaxshilash kerak ekan. Sizlarchasiga aytganda, oldin rejani, maqsadni to‘g‘ri tuzvolish lozim. Bizda ko‘pchilik xuddi ertaga hayot boshqacharoq bo‘ladigandek, ashi boshqacha hayotniyam birov qurib beradigandek, bugunga ishonmay yashaydilar. Yo‘q, bollarim! Masalan, silar mening atrofimda birlashib, niyatiyizni mening yaxshi niyatimga to‘g‘rilab yashasaynar, mehnat qilsaynar, ana unda uyimizda baraka, tinchlik bo‘ladi. Ya’ni, bu degani, qadamiyzzi mening qadamlarimga to‘g‘rilasaynar soz bo‘ladi. Xudo niyatimizga qarab beraveradi.

ashi – “ana shu” demoqchi

Jurnalist o‘g‘il otasining faylasufona gaplariga qoyil qolib choy ho‘plarkan, boshini silkib qo‘ydi. To‘ng‘ich o‘g‘il esa donishmand otasiga mehr-u faxr bilan jilmayib boqib turardi.

Farzandlarining oshkora mehri cholni yanada so‘zamol qildi.

– Bugun men silarga boshman. Ertaga har biriyiz o‘z bollariyizga bosh bo‘lasizlar va ular o‘z niyatlarini sizning niyatlariyizga to‘g‘rilaydilar. Bolajonlarim, o‘zbekning birligi, kuchi oilada. Eng avvalo oilaga suyaning. Bu millatimizzi eng katta fazilati. Axir o‘zlaring o‘ylang, ministr akang katta rahbar, butun yurtni so‘rab turibdi. Ammo mening

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

qoshimda bosh egib o‘tiradi. Biron gapimni ikki qimaydi, to‘g‘rimi? Hatto o‘ziga ziyon yetsa ham mening aytganimni qilishga urinadi. Shuni biliynarki, otasiga itoat etguvchi millatni hech qachon yengib bo‘maydi!..

Parchada ota tilidan aytilgan “Sizlar mening atrofimda birlashib, niyatingizni mening yaxshi niyatimga to‘g‘rilab yashasanglar, mehnat qilsanglar, ana unda uyimizda baraka, tinchlik bo‘ladi, otasiga itoat etguvchi millatni hech qachon yengib bo‘lmaydi”, degan gaplar bilan muallif nima demoqchi bo‘lyapti?

So‘nggi gap ta’sirida hamma jim qoldi. Bu jimlikni axiyri kenjatoy buzdi:

– Bu gaplardi qaysi kitobdan o‘qidiyiz, ota? – dedi u qiziqchilik ohangida.

– Hayot kitobidan, bolam, hayot kitobidan, – deb qo‘ydi chol nigohidagi o‘y chuqurlashib.

Dasturxonga osh tortildi. Aka-ukalar bolaliklarini eslab, oshni hazil-huzul bilan “talashib-talashib” yedilar. Ota esa qulog‘ini batangga keltirgan haligi huvullashlardan qutilib, bag‘ri yayrab o‘tirardi...

Dasturxonga fotiha o‘qilgach, ota yana o‘ktam ovoz ila gap boshladi:

– Bollarim, buving ikkovimiz silarni juda-juda yaxshi ko‘ramiz. Silarga jonimizni berishgayam tayyormiz. Lekin jonimiz bitta, hammayizga yetmaydi. Niyatlari ulug‘ odam uchun bitta jonni qurbon qilishdan osoni yo‘q. Jon berishdan ham muhimroq, og‘irroq ishlar bor dunyoda. Qaniydi quchog‘im hammaynardi quchishga yetsaydi, bariyni bir bag‘rimga bosib, maza qilardim! – chol gaplari tobora soxtaga o‘xshab borayotganini sezib, xijolat torta boshladi. – Mening gaplarimdan hayron bo‘maynar, bollarim. Sizlarminan bi-ir gaplashgim keldi-da. O‘zi urishmaynar, bir-biriynardi ehtiyot qiliynar, bizikiga tez-tez keb turiynar, demoqchiydim. Umr oqar daryoday bir gap – shuv etib o‘tadi-ketadi.

Hayot kitobi, sizningcha, qanday kitob? Undan nimalarni o‘rganish mumkin?

– Omma bugun zo‘r maylis bo‘ldi-da, – deb qo‘ydi kenjatoy hiringlab.

Shu bilan hammalari ketishga shaylandilar. Oxirida qolgan Chaman qiz kelib, otasidan so‘radi:

– Bugun qosam maylimi, otajon?

– Uyingdagilarga aytganmisan?

– Himm... – dedi qizi erkalanib.

– Unda qolaqo, – chol uning boshidan silab qo‘ydi.

U xushnud kayfiyatda asr namozini o‘qigach, tasbehining donalarini sura-sura qadrdon oshyoni – daryo bo‘yiga yo‘l oldi. Salmoqli qadamlar ila sohilga yetib kelib, o‘t-o‘lan bosgan qiyalikdan biroz yon-

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

boshlab pastga tushdi va suyri joydagi ajriq ustiga o‘tirdi. Bu suyrilik uni oyoqlari bukilganida hosil bo‘lguvchi og‘riqdan xiyla xalos qilardi, go‘yo biron o‘rindiqda o‘tirganday bemalolroq his etardi o‘zini... Qiziq, dala ishlaridan bo‘shab, pensiyaga chiqdi-yu, shu yerga qatnashni odat qildi. Nega shundayligini o‘zi ham bilmaydi, goho qariganda shunaqa bo‘ladi shekilli-da, deya o‘ylab qo‘yadi xolos. Ayniqsa, biron narsadan diqqati oshib, yuragi siqilsa yoki nimadandir dili quvonchga to‘lsa, darrov shu yoqqa qarab yo‘l oladi. Sohilga keladi-yu shitob oqayotgan suvga termilib o‘tiraveradi va haligina boshidan kechirgan voqealarni xayolan boshqatdan yashaydi. Diliga og‘ir botgan ozorli voqea bo‘lsa, aybdorlarni kechiradi, o‘zi yo‘l qo‘ygan xatolarni ilg‘aydi va bundan ham battar bo‘lishi mumkin edi-ku, deya o‘ziga taskin beradi. Mabodo quvonchli voqea bo‘lsa ham bu shodlikni junbishga kelmasidan oldin bag‘rida sovitib olishga harakat qiladi. Har ikki holatda ham istig‘for aytib, tasbeh o‘giradi. Nima bo‘lganda ham oqar suvda qandaydir hikmat bor – xayolni o‘g‘irlaydi. Ehtimol, chol ham uni barcha kabi inson umriga o‘xshatadimi?

Nega chol har doim diqqati oshib, g‘amgin bo‘lganda yoki dili quvonchga to‘lganda sohilga kelishni odat qilgandi? Ota o‘ylagani kabi oqar suvda qanday hikmat bo‘lishi mumkin?

“Anhor bo‘yida”. Rassom Vladimir Petrov ishlagan surat

Hozir ham tez oqayotgan bo‘tana suvga tikilarkan, ko‘zlari tindi va o‘z-o‘zidan yuragini ojizroq bir vahm chulg‘adi. Go‘yo mana shu loyqa suvning bag‘riga singib ketayotgandek his qildi o‘zini va nafasi qisayot-

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

gandek tuyulib ketdi. Ha, suvning qudrati ham shunda-da, u odam bolasiga hayot baxsh etgani kabi hamisha uning yuragini qo‘rquvga ham solib kelgan. Suv shundayin bir mo‘jizakor ne’mat. Ana, butun bir daryo ko‘ngilga vahm solgani bilan undagi suvning tez oqishidan paydo bo‘lgan mayda to‘lqinchalar nigohni yoqimli siypalaydi, kishi vujudiga halovat soladi. To‘lqinchalar...

Birdan o‘sha to‘lqinchalar bag‘rida kichkina qo‘l ko‘ringanday bo‘ldi. Chol o‘sha yoqqa diqqat bilan tikilarkan, o‘ng tomonidagi ko‘prik ustida turgan bolalarning chinqirig‘i tuyqus qulog‘iga urildi. “Yo Olloh..” deya o‘rnidan turib ketdi va haligi qo‘l ko‘ringan yoqqa qattiqroq tikildi. Uning miyasiga yashindek urilgan fikr to‘g‘ri chiqdi – oqib borayotgan yosh bola edi. Chol beixtiyor qo‘lidagi tasbehini yerga tashladi, qirg‘oq yoqalab oqim sari yugura boshlarkan, chakmonini ham yechib, uloqtirdi va qadamini yanada tezlatdi. U jon halpida yugurarkan, bolaga yetib olishiga ishongan joyda o‘zini suvga otdi. Goh suv yuzida quloch otib, goh ostida suzib, bolaga yetib bordi. Yettisakkiz yoshli bolakay ancha suv yutib ulgurgandi chog‘i, ko‘zlari qinidan chiqquday bo‘lib tipirchilardi xolos.

Chol bolakayning yoqasidan tutib, qirg‘oq sari suza boshladi. Shu asno oqim kuchli bo‘lgani bois o‘z manzilidan ancha olislab borardi. U keksaligini ham unutib, bor kuchi bilan suzardi. Nihoyat sohilga yetib, bolani qirg‘oqqa chiqardi. Titrab-qaqshayotgan bolakay ingichka barmoqlari bilan yonboshidagi o‘tlarni changallab, “hiq-hiq” qilgancha siltanardi. Shu payt hali suv ichida bo‘lgan chol og‘ir va iztirobli bir ingranib, suv ostiga cho‘ka boshladi. Qirg‘oqqa talpingan o‘ng qo‘lining barmoqlari baralla yozilib, qotdi va suvga butunlay g‘arq bo‘lgan tanasi ortidan g‘oyib bo‘lmoqqa tushdi. Hamon beo‘xshov qaltirayotgan bolakay bir qo‘li bilan o‘tlarni changallagancha chol tomonga enkayib, xuddi uni suvdan sug‘urib olishga uringanday harakat qildi. Ammo chol allaqachon oqim bag‘riga tushib, ancha narida ko‘zdan yo‘qola boshlagandi. Uning oyoq paylari sovuqdan tortishib qolgandi...

Bolakay esa titrab-titrab yig‘lar va sovuqdan takillayotgan tishlari orasidan yig‘i aralash “Oqib ketdi! Oqib ketdi!” deya chiyillardi. Ko‘prik tomondan chopib kelayotgan bir to‘da bolalar unga xiyla yaqinlashib qolishgan, ularning ortidan “O‘g‘lim-o‘g‘lim!” deya halloslab kelayotgan ministr o‘g‘ilning oshnasi bo‘lmish Jo‘ravoy esa hali olisda edi.

Chol bo‘lsa, mayda to‘lqinchalar bag‘riga singib ulgurgandi. Faqat hov narida – juda uzoqda, tikilib qaragan odamgina payqashi mumkin bo‘lgan masofada oqib borayotgan do‘ppisi elas-elas yiltirab qo‘yardi.

Cholning bolalariga so‘nggi bor nasihat qilishi va qirg‘oqqa kelishi o‘rtasida qandaydir bog‘liqlik bor deb o‘ylaysizmi? Nima uchun u hech ikkilanmay, cho‘kayotgan bolani qutqarishga qaror qildi?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

MUHOKAMA QILAMIZ

1. “Ota” hikoyasida qanday g‘oya ilgari surilmoqda? Sizningcha, asar nima uchun “Ota” deb nomlangan?

2. Sizningcha, asarning qaysi o‘rinlarida otalarga xos xususiyatlar yaxshi ochib berilgan? Qaysi o‘rinlarda esa ota obrazini yanada kuchaytirish mumkin edi? Fikrlaringizni matn asosida dalillang.

3. Asarning boshi hamda so‘ngidagi keksalik va bolalik, chol va bola, o‘lim va hayot kabi qarama-qarshi tushunchalarning asar g‘oyasini ochishdagi ahamiyatini matn asosida dalillang.

4. Asarda ota, ona, farzandlar nutqiga xos qanday jihatlarni kuzatdingiz? Bu o‘ziga xoslik orqali qanday maqsad ko‘zlangan deb o‘ylaysiz?

5. “Ota” va “Vatan”, “ota” va “millat” tushunchalarini asardagi cholning bola hayotini qutqarib halok bo‘lishi lavhasi bilan bog‘lab tushuntiring. Asarni cholning o‘limi bilan yakunlash orqali muallif nima demoqchi? Asarni boshqacha yakunlash mumkinmidi?

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

“Ota” hikoyasi qahramonlari nutqiga e’tibor bering. Muallif qahramonlar nutqini adabiy tilda emas, shevada berish orqali qanday maqsadni ko‘zlagan?

Siz yashaydigan hudud shevasini asar qahramonlari shevasi bilan solishtiring. Jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

Asar qahramonlari shevasi va men yashaydigan hudud shevasida o‘xshash so‘zlar	Asar qahramonlari shevasi va men yashaydigan hudud shevasida farq qiluvchi so‘zlar

Shevangizdagi qaysi so‘zlar adabiy tilga kirishi kerak deb o‘ylaysiz? Nima uchun?

LOYIHA

Guruhlarda ishlang. Oilangiz yoki mahallangizdagi yoshi ulug‘ bobolarning biridan intervyu oling. Intervyu asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Yoshlarga maslahati	**Bunday maslahat berishining sababi**	**Hayotidan misol**

MUSTAQIL O‘QISH UCHUN

Nabi Jaloliddinning “Bayroq” hikoyasini o‘qib chiqishingizni tavsiya qilamiz.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

SERGEY YESENIN. "SHAHINAM, O, MENING SHAHINAM..." RASUL HAMZATOV. "QUSHQANOTLI, HOY KARVON..."

Bu mavzuda biz:
– "Shahinam, o, mening Shahinam..." va "Qushqanotli, hoy karvon..." she'rlaridagi Vatan obrazini qiyoslaymiz;
– barmoq tizimiga xos xususiyatlar haqida bilib olamiz.

MUALLIFLAR BILAN TANISHAMIZ

Sergey Yesenin (1895–1925)

Sergey Yesenin Rossiyaning Ryazan viloyatida dehqon oilasida tug'ilgan. Bobosining qo'lida tarbiyalangan Sergey kichkinaligidan xalq qo'shiqlari uslubida she'rlar yoza boshladi. Maktabni bitirib, avval Moskvaga, keyin Sankt-Peterburgga ko'chib o'tgan Yesenin o'z davrining mashhur shoirlari bilan tanishdi, she'rlari jurnallarda bosildi, to'plamlari nashr etildi. 1920-yillarda bir qancha shaharlarga sayohat qildi, bir muddat Toshkentda yashadi, Samarqandni ziyorat qildi. Janubiy o'lkalarga sayohati taassurotlari asosida "Fors taronalari" turkum she'rlari dunyoga keldi.

Rasul Hamzatov (1923–2003)

Kavkaz mintaqasida yashovchi avar millatiga mansub Rasul Hamzatov Dog'iston o'lkasida tug'ilgan. Rasul otasidan she'riyat ilmini o'rgandi, bolaligidan she'rlar yoza boshladi. Pedagogika bilim yurtini bitirganidan keyin bir muddat maktabda, so'ng teatrda ishladi, teatr jamoasi bilan birga ko'p tog' ovullarini kezib chiqdi. Urush yillaridan keyin Moskvadagi Adabiyot institutida tahsil oldi, tahririyatlarda ishladi, jamoatchilik faoliyatini olib bordi. Asarlari uchun bir qancha davlat mukofotlari bilan taqdirlangan.

MUTOLAAGA TAYYORLANAMIZ

Tasavvur qiling, o'z uyingizdan uzoqda yashashga to'g'ri kelib qolsa, ko'proq nimalarni sog'inasiz, qo'msaysiz? Nega?

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

Sergey Yesenin

“FORS TARONALARI” TURKUMIDAN

Shahinam, o, mening Shahinam,
Bilsang, shimol Vatandir menga.
Dalalardan so‘ylaymi senga,
Oy nur sepgan boshoqlardan ham,
Shahinam, o, mening Shahinam.

Bilsang, shimol Vatandir menga,
Unda oy ham yuz bora ulkan.
Sheroz qancha bo‘lmasin ko‘rkam,
Aziz o‘lka Ryazandir menga,
Bilsang, shimol Vatandir menga.

Dalalardan so‘ylaymi senga?
Sochim olmish bug‘doyidan rang,
Barmog‘ingga o‘ra xohlasang,
Zarra og‘riq sezilmas menga,
Dalalardan so‘ylaymi senga?

Oy nur sepgan boshoqlardan ham
Oltin sochim so‘ylasin, dildor.
Kul, o‘yna-yu, dalamdan zinhor
Gapirmagin menga, jonginam,
Oy nur sepgan boshoqlardan ham.

Shahinam, o, mening Shahinam,
Shimol yoqda bir nozanin bor,
Senga o‘xshar, g‘oyatda dildor,
Balki, meni o‘ylar ul sanam...
Shahinam, o, mening Shahinam.

Erkin Vohidov tarjimasi

“Bug‘doyzor”.
XIX asr rus rassomi Ivan Shishkin ishlagan surat

MUHOKAMA QILAMIZ

1. She’rda “Sheroz – Ryazan” va “Shahina – shimoldagi nozanin” obrazlarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish orqali qanday maqsad ko‘zlangan deb o‘ylaysiz?

2. Ryazan osmonidagi oy Sherozdagi oydan “yuz bora ulkan” bo‘lishi mumkinmi? Lirik qahramon nega bunday demoqda?

3. Lirik qahramon nima maqsadda qayta-qayta Vatanidagi bug‘doy dalalarini eslamoqda? Bu dalalarning uning uchun qadri nimada? Nega u o‘zi Shahinaga dalalardan so‘ylamoqchi-yu, undan esa “zinhor dalalarni gapirmaslik”ni so‘ramoqda?

4. She’rning tuzilishiga e’tibor bering. Birinchi banddagi misralarni keyingi bandlarda qaytarish orqali muallif qanday maqsadni ko‘zlagan?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Rasul Hamzatov

* * *

Qushqanotli, hoy karvon,
Keldingmi sen olisdan?
Karvon kuylar, qurqurlar:
“Dog‘i-dog‘i-Dog‘iston...”

Qushqanotli, hoy karvon,
Qanday yashar Dog‘iston,
Kezarmi kun ko‘kida,
Etarmi oy nurafshon?

Javob berdi bo‘lib jam:
“Dog‘istonda hali ham
Botar quyosh tog‘ aro –
Tog‘dan chiqib subhidam”.

Qushqanotli, hoy karvon,
Qanday yashar Dog‘iston?
Otilarmi favvora?
Binafshada ne armon?

Javob berdi bo‘lib jam:
“Dog‘istonda hali ham
Qanot qoqar qush kabi
Buloqni tog‘ qisgan dam.

Bulutdasan – o‘tloqda!
Kungay yerda, ovloqda
Hanuz anqir binafsha –
Ifor seli yaproqda”.

Qushqanotli, hoy karvon,
Qanday yashar Dog‘iston?
Ayol, erkak qay holda,
Bola haqda ne doston?

Qushqanotli, hoy karvon,
To‘xta!.. Tuman-ku u yon?..
U-chi, uchar, qurqurlar:
“Dog‘i-dog‘i-Dog‘iston...”

Ergash Muhammad tarjimasi

“Kavkaz tog‘larida”.
XIX asr rus rassomi Lev Lagorio ishlagan surat

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

MUHOKAMA QILAMIZ

1. Nega lirik qahramonga karvon “Dog‘i-dog‘i-Dog‘iston...” deb kuylayotganday tuyulmoqda?

2. Lirik qahramonning karvon bilan savol-javobiga e’tibor bering. U karvondan nimalar haqida so‘ramoqda? Nega karvonning javobi har safar “Dog‘istonda hali ham…” deb boshlanmoqda?

3. She’r so‘ngida “Dog‘i-dog‘i-Dog‘iston...” deb qurqurlab uchayotgan kim? Karvonmi? Lirik qahramonmi? Fikringizni matn asosida dalillang.

4. Siz she’rga qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lardingiz? Nima uchun?

SOLISHTIRAMIZ

1. “Shahinam, o, mening Shahinam…” she’ri sizda qanday kayfiyat uyg‘otdi? “Qushqanotli, hoy karvon...” she’ri-chi? She’rlardagi qaysi so‘zlar bunday kayfiyatni yaratishga xizmat qilmoqda?

2. Sergey Yesenin va Rasul Hamzatov lirik qahramonlarining Vatan bilan bog‘liq obrazlarini solishtiring. Bu obrazlar qay darajada bir-biriga yaqin va qay jihatdan farq qiladi? Nima uchun?

3. Agar sizda har ikki shoir bilan gaplashish imkoniyati tug‘ilganida, ulardan Vatani haqida nimalarni so‘ragan bo‘lardingiz? Sizningcha, ularning javoblari qanday bo‘lishi mumkin edi?

BARMOQ TIZIMI HAQIDA BILIB OLAMIZ

She’riy nutqning ohangdorligini ta’minlash uchun she’r ma’lum bir qolipga – tizimga solinadi. Shunday tizimlardan biri **barmoq** vaznlar tizimidir. Bu tizimning asosiy xususiyatlari:

– misralardagi bo‘g‘inlar soni teng bo‘ladi;

– misralardagi turoqlar (pauzagacha bo‘lgan guruhlar) soni va ularning ichidagi bo‘g‘inlar soni teng bo‘ladi.

Barmoq tizimida bo‘g‘inlarning qanday guruhlanishi (turoqlarga bo‘linishi) she’rning o‘ziga xos ohangini yuzaga keltiradi.

Misol uchun, quyidagi she’rda har bir misra 4 va 5 bo‘g‘inli ikki turoqdan – jami 9 bo‘g‘indan iborat:

Yur-tim, sen-ga | she’r bit-dim bu kun, **4+5=9**

4 bo‘g‘inli turoq — 5 bo‘g‘inli turoq

Qi-yo-sing-ni | top-ma-dim as-lo. **4+5=9**
Sho-ir-lar bor, | o‘z yur-tin bu-tun – **4+5=9**
O-lam a-ro | a-ta-gan tan-ho. **4+5=9**

Abdulla Oripov

“Shahinam, o, mening Shahinam…” va “Qushqanotli, hoy karvon” she’rlarini turoqlarga ajratib ko‘ring.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

MUSTAQIL MUTOLAA VA TAHLIL UCHUN

Quyidagi she'rlarni o'qing va tahlil qiling. Sergey Yesenin va Rasul Hamzatov she'riyatiga xos xususiyatlarni aniqlashga harakat qiling.

Sergey Yesenin

ONA IBODATI

Qishloqning bir chetida
Pastakkina uy turar.
Sajda qilib shu uyda
Onaizor o'ltirar.

Yolg'iz o'g'lin eslar u
Yonib achchiq firoqda.
O'g'li esa yurt uchun
Jang qiladi yiroqda.

Ona sajda qiladi,
Ko'z yoshlari shashqator.
Bir nuqtaga tikilgan,
Xayolida nelar bor?

Ko'z oldiga keladi:
Keng dala – jang maydoni.
Jonsiz yotar maydonda
Mard o'g'li – pahlavoni.

Ko'kragida jarohat,
Qop-qora qon har yog'i.
Qolmish jonsiz qo'lida
Dushmanining bayrog'i.

Ona yuzin qoplar g'am,
Chimirgancha qoshini
Asta suyar qo'liga
Oppoq sochli boshini.

Yurak dardi yosh bo'lib,
To'lib kelar ko'ziga.
Marjon-marjon tomchilar
Oqib tushar yuziga.

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

* * *

Bizlar asta ketayotirmiz –
Halovatli sokin yurtlarga.
Fursat balki menda ham tig‘iz,
Otlanishim kerak safarga.

Ona zamin, qum bosgan dashtlik,
Oq qayinzor o‘rmon, chamanlar!
Yuragimda uyg‘otar g‘ashlik
Gala-gala ketayotganlar.

Men bu yerni juda sevardim,
Suydim bunda nimaki bo‘lsa.
Sevar edim qarag‘aylarim
Shafaq tushgan suvga termilsa...

Ko‘p xayollar surdim osuda,
Ko‘p qo‘shiqlar qilgandim ijod.
Shu zamin, shu yurt og‘ushida
Bor bo‘lganim uchun edim shod.

Baxtli bo‘ldim qizlarni o‘pib,
Chechaklarni ezg‘ilab yurdim.
Haydamadim itlarni tepib,
Ularni o‘z ukamdek ko‘rdim.

U yurtlarda yo‘q bu chamanlar,
Oqqush bo‘ynin cho‘zmas javdarim.
Shu sabab ham ketayotganlar
Dilga titroq solguvchi dardim.

Topolmasmiz hech u tomonda
Bu poyonsiz o‘tloqlardan iz.
Shu sababdan foniy jahonda
Yashaganlar men uchun aziz.

Erkin Vohidov
tarjimalari

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Rasul Hamzatov

ONA TILIM

Ajabo! Tush degan narsa qiziq-da,
O‘lib qolganmishman tushda nogahon.
Ko‘ksimda qo‘rg‘oshin, quyosh tig‘ida,
Tog‘lar orasida yotibman bejon.

Uzoqda sharqirab soylar oqmoqda,
Borliqda bir ajib dilbarlik hokim.
Men esam o‘ylayman yotib tuproqda:
Mana shu tuproqqa qo‘shilar xokim.

Men o‘lib yotibman, kimsasiz, unut,
Hech kimsa qayg‘urmas va chekmas yohu.
Faqat cho‘qqilarda qurqurar burgut,
Faqat vodiylarda ingraydi ohu.

Navqiron yoshimda bo‘ldim-ku ado,
Otash yuragimni o‘ydi axir o‘q.
Na onam, na yorim beradi sado,
Do‘st tugul hattoki yig‘ichi ham yo‘q.

Fig‘on otiladi jonsiz bag‘rimdan,
(Go‘yo fig‘on bordek murda dilida.)
Shu payt ikki kishi o‘tdi naridan,
Quvnoq suhbat qurib avar tilida.

Men-ku bu dunyodan ko‘z yumdim mangu,
Ular kulib-kulib so‘zlashar borin.
Qandaydir Hasanning turfa ishi-yu,
Qandaydir Alining sho‘x kirdikorin.

Avar so‘zin tinglab kirdi menga jon,
Ohista tirildim va shunda bildim:
Meni tuzatolmas hech dori-darmon,
Jonimga masihdir shu ona tilim.

Mayli, kim qay tildan zavq-u shavq olsa,
Mening o‘z tilimga ming jonim fido.
Erta ona tilim agar yo‘qolsa,
Men bugun o‘lishga bo‘lurman rizo.

Mayli, qashshoq bo‘lsin, mayli, behasham,
Lekin mening uchun aziz va suyuk.
Jahon minbaridan yangramasa ham,
Ona tilim menga muqaddas, buyuk.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Otashin Mahmudning yoniq she'rini
Nahot tarjimada o'qir avlodim?
Nahot men avarning so'nggi shoiri,
Shumi edi mening ezgu murodim?!

Yurtdoshlarim turib qabrim oldida
Ko'rsatsin avarning shoiri shul deb.
Elim yodga olsin ona tilida
Hamzat Sadasaning o'g'li Rasul deb.

Erkin Vohidov tarjimasi

TURNALAR

Goh shunday tuyular: qonli janggohdan
Bir zamon qaytmagan askar o'g'lonlar
O'lim quchmaganlar go'yo u chog'da,
Balki, oq turnalar bo'lib qolganlar.

U olis onlardan bugunga qadar
Bizni izlagandek ucharlar sarson.
Balki, shu boisdan yurakda kadar,
Jim turib qolamiz ko'kka boqar on.

kadar – mung, mahzunlik

Hozir ham ko'raman: yot yerlar uzra
Turnalar namozgar tumanida goh,
O'tarlar muntazam saflarin buzmay,
Odamlik kezlari qir oshgan siyoh.

Olis-olislarga borarlar, ammo
"Qur-ruv"lab aytarlar kimningdir nomin.
Shu sabab qadimdan o'xsharmikan yo,
G'amgin saslariga avar kalomi?

Osmonda suzadi turnalar qator –
O'tgan jo'ralarim, xesh-u yor bular.
Shu horg'in qatorda bitta bo'sh joy bor,
Balki, menga atar bu joyni ular!..

Bir kuni, ehtimol, shu safda men ham
To'ldirib o'tarman osmoningizni.
Ko'kdan turna yanglig' "qur-ruv"lab u dam
Yerda qolganlarim, yo'qlarman sizni!

Razzoq Abdurashid tarjimasi

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

FANLARARO ALOQA: ADABIYOT VA MUSIQA

Bu mavzuda biz:
– musiqaning she'r mazmunini ochib berishdagi ahamiyatini tadqiq qilamiz.

O‘zbekiston xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning “O‘zbekiston – Vatanim manim” she'ridan parchalarni o‘qing. She'r sizda Vatanga nisbatan qanday tuyg‘ularni uyg‘otdi?

O‘ZBEKISTON – VATANIM MANIM

Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo.
Shoirlar bor, o‘z yurtin butun –
Olam aro atagan tanho.
Ular she'ri uchdi ko‘p yiroq,
Qanotida kumush diyori.
Bir o‘lka bor dunyoda, biroq
Bitilmagan dostondir bori:
Faqat ojiz qalamim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Kechmishing bor chindan ham uzoq,
Ilg‘ay olmas barchasin ko‘zim.
Maqtamasman moziyni, biroq
O‘tmishingni o‘ylayman bir zum.
Zabtga olib keng Osiyoni,
Bir zot chiqdi mag‘rur, davongir,
Ikki asr yarim dunyoni
Zir qaqshatdi buyuk jahongir.
Aytgum, bu kun, u manim, manim.
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Abdulla Oripov she’rini ko‘plab xonandalar, xususan, Sherali Jo‘rayev, Bahrom Nazarov, Umarjon Mahkamboyev kuyga solib ijro etishgan. Mazkur she’r asosidagi qo‘shiqlarni eshitib ko‘ring. Qo‘shiqlar bir-biridan qaysi jihatlari bilan farq qiladi? Sizningcha, qaysi musiqa sizda she’r uyg‘otgan hislarga yaqinroq? Nima uchun?

Sherali Jo‘rayev ijrosi

Bahrom Nazarov ijrosi

Umarjon Mahkamboyev ijrosi

LOYIHA

Guruhlarda ishlang. Quyidagi she’rni musiqaga solib ko‘ring. Qaysi guruh she’rdagi kayfiyatni musiqa orqali yaqqolroq ifodalay oldi deb o‘ylaysiz?

* * *

Tinch edi hamma yoq, tinch edi har yon,
Titradi go‘yoki yer bilan osmon.
Boshimga xastalik tushdi nogahon,
Meni olib keting o‘z diyorimga!

Talpingan diyorim, u – O‘zbekiston!
Sehrini aytishga bormi hech imkon!
Yo‘q, o‘zga yurtlarda berolmasman jon,
Meni olib keting o‘z diyorimga!

Abdulla Oripov

Respublika ta'lim markazi
@edurtm_uz

TAKRORLASH

Matnni o‘qing. Savollarga daftaringizda javob yozing.

MTSIRI
(parchalar)

Asaldan ozgina totib,
Mazasiga yetmasdanoq
o‘layotirman.

1-shohlar kitobi

Mtsiri – monax shogirdi
Aragva, Kura – daryo nomlari
monastir – monaxlar (rohiblar) yashaydigan va ibodat qiladigan joy
Tiflis – Tbilisi, Gruziya poytaxti

Bir necha yil bundan ilgari,
Xuddi opa-singil singari
Quchoqlashib Aragva, Kura
Shovqin solib qo‘shilgan yerda
Bir monastir bo‘lgan. U yoqdan
Piyodalar o‘tsalar, tog‘dan
Ko‘zga yaqqol tashlanar hamon
Minoralar, cherkov gumbazi;
Ustunlari butunlay vayron
O‘sha yerning cho‘ng darbozasi.

... U tog‘lardan Tiflisga tomon
Rus general kelgan bir zamon;
U bir asir bolani olib –
Kelgan ekan. U yo‘lda tolib,
Mashaqqatlar tortib horigan.
Aftidan, u oltiga kirgan.
Ohu kabi yovvoyi, hurkov.
Ojizlikda go‘yoki g‘arov.
... Go‘dak tili fig‘on chiqarmay
Imo bilan rad etib nonni,
Asta, mag‘rur berardi jonni.
... Bir rahmdil monax u zamon
Bola uchun tiladi omon.
Do‘stlik mehri saqlagan bemor
Shu muqaddas, aziz chordevor
Ichlarida qolib ketmishdi.
Yoshlikdagi ermakdan zinhor
U o‘zini yiroq tutmishdi.
Avvallari hammadan qochib,
Berkinardi burchak-burchakka,
Kezar edi indamay, yakka,
Sharqqa boqar edi oh sochib,
Yurti tomon tikilar edi,
Yuragini g‘am tilar edi.
Asoratga o‘rgandi axir,
Yot tilni ham angladi bir-bir.
... Valekin kuz faslida bir tun
G‘oyib bo‘ldi. Tog‘larni butun
Qoplamishdi qorong‘u o‘rmon.
Uch kun tinmay izlashlar u on
Bekor ketdi. Valekin so‘ng gal
Uni cho‘ldan topib oldilar,
Behush yotgan bolani jadal
Monastirga olib keldilar.
... So‘lar edi kun o‘tgan sayin,
Yaqin o‘lim sezildi tayin.
Rohib kelib qildi nasihat.
So‘zni mag‘rur eshitib bemor,
Bor kuchi-la ko‘tarib qomat,
Uzoq etdi shu gapni izhor:

... “Men hurlikda ko‘rgan narsalar
Agar senga darkor ersalar,
So‘zlab beray – yashnoq dalalar,
Daraxtlar-la qoplangan tepa
Va ularning butun atrofda
Og‘aynilar raqsi singari
To‘dalarda sho‘x shovqinlari...
... “Men tug‘ilgan u go‘zal dara
Atrofdagi ajib manzara:
Salqin yerda gullagan ovul
Xayolimni qopladi butkul.
Kechki mahal qaytuvchi poda,
Yilqilarning sasi havoda,
Tanish itlar ko‘targan suron

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Eshitildi menga o‘sha on.
Uyimizning naq qarshisida
Keksa boshin bosib xayollar,
O‘y o‘ylashib o‘tirgan chollar
Jonlandilar mening esimda,
Uzun xanjar g‘iloflari ham
Yarq etganday bo‘ldi... Hammasi
Xuddi tushdek o‘yimni bosib.
Bir-bir o‘tdi oldimdan shu dam.
Otam bo‘lsa, u xuddi tirik
Va jangovar libosda tetik
Ko‘rindi-yu, esladim ayon:
Sovutlarning sasin nogahon,
Qurollarning porloq nurini,
Ko‘zlardagi erk g‘ururini.
Yodga tushdi navnihol qizlar.
Opalarim, u shahlo ko‘zlar,
Beshigimning ustida ular
So‘zlagan so‘z va shirin kuylar...

... “Men hurlikda ko‘rgan narsalar,
Nahot, seni qiziqtirsalar?
Men yashadim, hayotim uchun
Bo‘lmasaydi shu baxtli uch kun,
Sening ojiz cholligingdan ham
Menda ortiq bo‘lar edi g‘am.
Ko‘pdan beri orzumand erdim,
Qirlarimni bir ko‘rsam derdim,
Bilmakchiydim, erk uchunmi yo
Zindon uchun yaralgan dunyo.
U dahshatli, tungi soatda,
Yashin sizni qo‘rqitgan paytda,
To‘planishib sizlar mehrobga,
Bosh qo‘yganda yerga, tavofga,
Men qochdim. O, uka singari
Quloch yoysam men bo‘ron sari!
Bulutlarni kuzatdi ko‘zim,
Yeldirimni ushladim o‘zim...

... “Uzoq chopdim...
Qayerga? Qayerda?
Bilolmayman! Ana shu paytda
Biror yulduz zahmatli, og‘ir
Yo‘llarimga hech to‘kmadi nur.
Azob chekib ezilgan siynam
O‘rmonlarning kechasigi nam –
Havosidan nafas olardi,
Shunda ruhim yengil bo‘lardi!
Yelib qochdim men necha soat,
Yugurdim-u toldim nihoyat,
O‘siq o‘tlar qo‘yniga botdim,
Quloq soldim: sokinlik hokim.
Hech kim meni quvlamas edi,
Guldurak ham tinmishdi endi.

... “Pastda esa ko‘tarib nola,
Yashin bilan avjli shalola
Bo‘kirardi, u solgan shovqin
Yuz dahshatli ovozga butun –
O‘xshar edi. Gapirmasa ham,
Qaysar toshlar guvullab qilgan
O‘sha suhbat, mangu bahs u dam
Menga juda oshno tuyulgan.
U goh tinar, goh avj olardi,
Sukunatda shovqin solardi.
Mana, tepa-tuman tomonda
Qushlar sayrab ketdi shu onda,
Qanot yoydi sharqda oltin zar,
Yel qo‘zg‘alib, shu mahal barglar
Shudring to‘kib ketdi qimirlab.
Uxloq gullar asta ochdi lab,
Va shulardek nurdan topib jon
Bosh ko‘tardim men ham
u zamon...
Alangladim: rost aytsam agar,
Qo‘rqib ketdim. Tubsiz chuqur jar
Yoqasida tanho yotardim,
O‘kirardi dahshatli oqim...

“Atrofimda yashnardi jannat,
Giyohlarda mavjud latofat
Ilohiy ko‘z yoshlar izini
Saqlar edi, bezab o‘zini,
Ishkomlarning so‘lim chiroyi
Daraxtlarga tiniq nur yoyib,
O‘sha yerda sochilgan edi,
Go‘zal olam ochilgan edi:
Pishib turgan uzumlar bosh-bosh
Xuddi tilla zirakka o‘xshash
Hasham bilan osiq turardi.
Hurkov qushlar kelib qo‘nardi.
Shunda yana yerga yotdim-da,

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Quloq solib, o‘yga botdim-da,
Afsonaviy va juda g‘alat
Ovozlarni eshitdim shu vaqt:
Changallarda sayrardi qushlar,
Go‘yoki yer yuzining borin
Va osmonning sir-u asrorin
Butkul ayon aylardi qushlar.
Barcha mavjud bo‘lgan ovozlar
Qo‘shilardi shu yerda birga.

Mtsiri o‘ziga hamla qilgan qoplon bilan olishib yaralanadi...

“Meni topib keldilar u on...
Qolganlari o‘zingga ayon.
So‘zim tamom. Ishon, ishonma,
Menga birdek. Faqat bir nima
Yuragimga solmoqdadir g‘am:
Mening sovuq va tilsiz tanam
Chirimaydi ona yurtimda,
Tund devorlar ichra hech bir jon
Mening hasratimdan biror on
Naql etmas hech vaqt hech kimga.
... Evoh! – Go‘dak chog‘im
shod o‘tgan
Tik, qoramtir qoyalardagi
Uch-to‘rt oniy erkinlik uchun
Osmon menga inoyat etgan
Jannati-yu, manguligini
Jon-jon deya berardim butun!..
... Bog‘imizga, bir tup oq akas
Oppoq gullab yotgan u joyga
Meni olib borishni buyur...
... Meni o‘sha tomonga qo‘ydir,
O‘sha yerda nurlar moviydir,
So‘ng bor to‘yib olayin nafas,
O‘sha yerdan ko‘rinar Kavkaz!
Yuksaklikdan, balki, u diyor
Vidolashar men-la so‘nggi bor.
Salom olib kelur shabada...
Tanish ovoz taralar yana!
Shunda xayol eturman: mana,
Do‘stim yoki og‘am keldi deb,
Boshim uzra u egildi deb.
Manglayimda qotgan terimni
Artib, u pok qiladi meni
Va jondan ham aziz mamlakat –
Haqida u kuylaydi albat.
Men shu kuyni tinch eshitarman...
Va shundayin shirin o‘y bilan
Hech kimsani tahqir etmasdan
O‘sha yerda uxlab ketarman!”

Mixail Lermontov
(Hamid G‘ulom tarjimasi)

1. Asar ... bilan boshlanadi.
A) bayon qilinayotgan voqea qahramonlari tasviri
B) bayon qilinayotgan voqeaga olib kelgan voqealar bayoni
C) bayon qilinayotgan voqea sodir bo‘layotgan joy tasviri

2. Nega monax bolani monastirda olib qoldi?
A) Monastir asirlar uchun maxsus qurilgan edi.
B) Bola kasalligini ko‘rib monaxning unga rahmi keldi.
C) General monaxdan bolani tarbiyasiga olishni so‘radi.

3. Bolaning hech kimga qo‘shilmay, g‘amgin yurishi sababi – ...
A) Tug‘ilib o‘sgan joyini sog‘inar edi.
B) Monaxlar tilini tushunmas edi.
C) Monastirda nima qilishini bilmasdi.

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

4. Nima uchun bola o‘limidan oldin uni gullar tagiga yotqizishni iltimos qiladi?

A) U toza havodan nafas olmoqchi edi.
B) U bog‘ga do‘sti kelishini kutayotgandi.
A) U yerdan bolaning tug‘ilgan joyi ko‘rinardi.

5. Asar janrini aniqlang.

A) hikoya B) qissa C) doston

6. Asarning asosiy g‘oyasini bir gap bilan ifodalang.

_____
_____

7. Tanlangan epigraf asar g‘oyasini qay darajada ochib berganini izohlang.

_____
_____

8. Asarda zidlantirish qo‘llangan o‘rinlarni toping.

_____
_____

Bu zidlantirishning asar g‘oyasini ochib berishdagi ahamiyatini izohlang.

_____
_____

9. Asarda retrospektiva qo‘llangan o‘rinni toping. Muallif nima maqsadda retrospektiva usuliga murojaat qilganini izohlang.

_____
_____

10. “Quchoqlashib Aragva, Kura Shovqin solib qo‘shilgan yerda...”
Bu o‘rinda muallif qaysi badiiy tasvir vositasini qo‘llaganini aniqlang va uning qo‘llanishidan ko‘zlangan maqsadni izohlang.

A) jonlantirish B) metafora C) sifatlash

Izoh: _____
_____

O‘zingizga baho bering. Nechta savolga javob bera oldingiz?

☺ 9–10 taga: juda yaxshi!

😐 6–8 taga: yaxshi, lekin sal ko‘proq ishlashim kerak!

☹ 6 tadan kam: yaxshi emas, ancha ishlashim kerak!

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

3-fasl.
O‘TMISHDAN SADOLAR

Alisher Navoiy. Qit’alar va fardlar
Jahon otin Uvaysiy. G‘azallar va chistonlar
Abdulla Qodiriy. “Mehrobdan chayon”
Pirimqul Qodirov. “Yulduzli tunlar”

Adabiy tushunchalar:
– qit’a, fard, g‘azal
– chiston
– epik tur va janrlar
– konflikt

Fanlararo aloqa:
adabiyot va tarix



Respublika ta'lim markazi
@edurtm_uz

ALISHER NAVOIY. QIT'ALAR VA FARDLAR

Bu mavzuda biz:
– Alisher Navoiy qit'alari va fardlaridagi g'oyalarni tahlil qilamiz;
– fard va qit'a haqidagi tushunchalarga ega bo'lamiz;
– mumtoz adabiyotdagi kichik janrlarni solishtiramiz.

Alisher Navoiy (1441–1501) o'z davrining iste'dodli shoiri, davlat arbobi, olim, ko'plab asarlari bilan o'zbek adabiyoti tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkirdir. U to'rt yoshidan adabiyotga, she'riyatga va ilm olishga qiziqdi, o'tkir zehni va tug'ma qobiliyati bilan zamonasining obro'li ijodkorlari, san'atkor va olimlari e'tiborini tortdi. O'n – o'n ikki yoshlaridan she'rlar yoza boshladi. Tarixchilarning yozishicha, mashhur shoir Lutfiy Alisherning bolalikda yozgan:

oraz – yuz
bo'yla – bu kabi, bu xil
nihon – yashirin

Orazin yopqoch ko'zimdin sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh...

misralari bilan boshlanadigan g'azalini tinglab, "Agar mumkin bo'lsa edi, men o'zimning forsiy va turkiy tillarda aytgan o'n-o'n ikki ming she'rimni shu bir g'azalga almashar edim", – degan ekan.

Navoiy iste'dodi keyinchalik tinimsiz mehnat va izlanishlar bilan uyg'unlashib, jahon adabiyoti durdonalari darajasidagi buyuk asarlarning dunyoga kelishida muhim omil bo'lib xizmat qildi.

O'z davrining taniqli shoirlaridan biri, Navoiyning ustozi Lutfiy nima sababdan yosh Alisherning bir g'azaliga bunchalik katta baho berdi deb o'ylaysiz? Bu g'azalning kuchi nimada bo'lishi mumkin?

Siz ham biror-bir yaxshi ishingiz bilan ustozingiz yoki ota-onangizni hayratga solganmisiz?

Moskva shahridagi Alisher Navoiy haykali

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

ALISHER NAVOIY QIT'ALARINI TAHLIL QILAMIZ

Qit'a (arabcha "bo'lak, qism, parcha" so'zidan) mumtoz adabiyotda qo'llangan janrlardan biri bo'lib, unda muallifning turli mazmundagi fikr-mulohazalari, qarashlari ifodalanadi. Qit'a ikki bayt (to'rt qator) va undan ortiq bo'lishi mumkin. Unda har ikkinchi misra (qator) o'zaro qofiyalanadi.

Quyidagi qit'ani o'qing va qofiyalanishiga e'tibor bering. Qit'a mazmunini hozirgi o'zbek tilida ifodalashga harakat qiling.

Yuqori o'lturur kim tilasa,
Kishilikdan ani **yiroq bilgil.**
O'lturur safda yuqorilikdin
O'lturur safda **yaxshiroq bilgil.**

} yiroq bilgil – yaxshiroq bilgil: a – a

Nega Navoiy yuqorida o'tirishdan ko'ra safda (qatorda) o'tirishni afzal bilmoqda?

Juft-juft bo'lib ishlang. Navoiy qit'alaridan namunalarni o'qing va tahlil qiling. Jadvalni daftaringizda to'ldiring.

Qit'a	Asosiy g'oyasi	Asosiy g'oyani ifodalaydigan kalit so'zlar
1		
2		
3		
4		
5		
6		
7		
8		
9		

1
Tuzlukka moyil o'lki, ishing borg'ay ilgari,
Yuz mushkil o'lsa yo'qsa ming ollingda har zamon.
Yuz safha bir qalam bila kotib qilur raqam,
Ming qo'yni bir aso bila har yon surar shubon.

tuzluk – to'g'rilik, halollik
raqam qilmoq – yozmoq
shubon – cho'pon

Respublika ta'lim markazi
@edurtm_uz

2

Nokas-u nojins avlodin kishi bo‘lsun debon,
Chekma mehnatkim, latif o‘lmas kasofat olami.
Kim, kuchuk birla xo‘dukka necha qilsang tarbiyat,
It bo‘lur, dog‘i eshak, bo‘lmaslar aslo odami.

nojins – yaramas
latif – latofatli, go‘zal

3

Kamol et kasbkim, olam uyidin –
Sanga farz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o‘tmak biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

kasb etmoq – o‘rganmoq
g‘amnok – g‘amgin
notamom – nokomil
biaynih –xuddi, aynan

4

Kimki maxluq xizmatig‘a kamar
Chust etar – yaxshiroq usholsa beli.
Qo‘l qovushturg‘ucha bu avlodur
Ki aning chiqsa egni, sinsa ili.
Chun xushomad demakni boshlasa kosh
Kim tutulsa dami, kesilsa tili.

maxluq – yaratilgan, mavjudot
chust etmoq – bog‘lamoq
avlo – afzalroq, yaxshiroq
il (ilik) – qo‘l
dam – nafas; ovoz

5

Navoiy, tiling asrag‘il zinhor,
Desangkim, yemay dahr ishidin fusus.
Nazar qilki, o‘q og‘zi tilsiz uchun
Qilur tojvarlar bila dastbo‘s.
Necha tojvardur, kesarlar boshin,
Chu hangomsiz nag‘ma tortar xurus.

dahr – zamon, dunyo
fusus – afsus
tojvar – toj egasi, podshoh
dastbo‘s – qo‘l o‘pish; muloqot
hangom – payt, fursat
xurus – xo‘roz

6

Ilmdin kasb qilki, sud ermas,
Charx mushkillarini hal qilmoq.
Lekin ul ilm dog‘i naf’ etmas,
Bilibon bo‘lmasa amal qilmoq.

sud – foyda
charx – osmon; zamon

7

Kimki o‘zluk imoratin buzdi,
Bo‘ldi naqdi fano aning muzdi.
Ul imoratni buzmayin solik,
Bo‘la olmas bu naqdga molik.

o‘zluk – menlik, manmanlik
muzd – haq, mukofot
solik – komillik yo‘liga kirgan
molik – ega

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

8

Ko‘b oltun, kumush sori qo‘l sunmog‘il
Ki, tutsang kafingni qaro rang etar.
Ko‘ngulda dog‘i maylini asrama,
Ki ko‘nglungni dog‘i ham ul zang etar.

sunmoq – uzatmoq, cho‘zmoq
mayl – istak, xohish

9

Erur ahli hunar qoshinda hunar
Ayb yopmoq, dog‘i hunar topmoq.
Hunarin elning oshkor etmoq
Yo‘q esa bori aybini yopmoq.

ahli hunar – hunar egalari, hunarmandlar

ALISHER NAVOIY FARDLARINI TAHLIL QILAMIZ

Fard (arabcha “yakka, yolg‘iz” so‘zidan) mumtoz adabiyotda qo‘llangan janrlardan biri bo‘lib, unda muallifning hayotiy kuzatishlariga asoslangan xulosalari, g‘oyalari ilgari suriladi. Fard bir bayt (ikki qator)dan tashkil topadi.

Quyidagi fardni o‘qing. Unda qanday g‘oya ifodalanmoqda? Fardning ikkinchi misrasi (qatori) nimaga xizmat qilmoqda?

Yuqar yamonlig‘ angakim, kirar yamon el aro,
Ko‘mur aro ilik urg‘on qilur ilgini qaro.

Berilgan maqollardan qaysi biri fardning g‘oyasini aks ettiradi?

A) Yomonga aytsang siringni, mingta qilar biringni.
B) Zolim oshi osh bo‘lmas, yomon yig‘ilib bosh bo‘lmas.
C) Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar, yomonga yaqin yursang – balosi.

Juft-juft bo‘lib ishlang. Navoiy fardlaridan namunalarni o‘qing va tahlil qiling. Har bir fardning g‘oyasini bitta gap bilan ifodalang yoki unga mos maqol toping.

Kishi aybing desa, dam urmag‘ilkim, ul erur ko‘zgu,
Chu ko‘zgu tiyra bo‘ldi, o‘zga aybing zohir aylarmu?

tiyra – xira
zohir – ochiq, ayon

Kishi aybin yuziga qilma izhor,
Taammul ayla o‘z aybingg‘a zinhor.

taammul aylamoq – fikr yuritmoq, yaxshilab o‘ylamoq

Respublika ta'lim markazi
@edurtm_uz

Men – sinuq, ko‘nglum – sinuq, sabrim uyi
xud yerga past,
Bilmagay holim shikastin, ko‘rmagan buncha
shikast.

shikast – siniqlik

Yetar chu rizqing, agar xoradur va gar yoqut,
O‘zungga yuklama anduh tog‘in, istab qut.

xora – tosh
yoqut – qimmatbaho tosh
qut – ovqat

Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo‘q,
Futuvvat barcha qilmoqdur, demak yo‘q.

futuvvat – oliyjanoblik, saxovat

El ichra, ey hasud, seni qildi haq zalil,
Kim nohaq elga zidsen-u, haq molig‘a baxil.

hasud – hasadgo‘y
zalil – xor, tuban, past
zid – qarshi

MUMTOZ ADABIYOTDAGI JANRLARNI QIYOSLAYMIZ

Siz bilan oldingi sinflarda Alisher Navoiy ruboiylarini o‘qib, tahlil qilgan edik. Ruboiy, qit’a va fardlar qaysi jihatlari bilan bir-biriga yaqin va qaysi jihatlari bilan farq qiladi?

Quyida Alisher Navoiyning ruboiy, qit’a va fardlaridan namunalar berilgan. Ularni qiyoslab tahlil qiling. Jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

	Janri	Qofiyalanish tartibi	Asosiy g‘oyasi	Asosiy g‘oyani ifodalaydigan kalit so‘zlar
1				
2				
3				
4				

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

1. Takalluf erur tang‘a farsudaliq,
Aning tarkidur jong‘a osudaliq.

2. Kim istasa saltanat, saxodur anga shart,
Har va’daki aylasa, vafodur anga shart.
Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart,
Ollig‘a nekim kelsa, rizodur anga shart.

3. Ahli ma’ni guruhida zinhor
Hech or aylama gadolig‘din
Kim, bularg‘a gadolig‘ ortug‘dur,
Ahli suratg‘a podsholig‘din.

4. Xaliq o‘lg‘an saxiydin elga bo‘ldi yakki baxshoyish
Ham ehsonidin oroyish, ham axloqidin osoyish.

takalluf – yuzaki, zo‘rma-zo‘raki
farsudaliq – horg‘inlik

saxo – saxovat, qo‘li ochiqlik
faqr – kambag‘allik; kamtarlik
rizo – rozilik, ko‘nish

ahli ma’ni – olimlar, bilimdonlar
ahli surat – nodon kishilar

xaliq – chiroyli
baxshoyish – tuhfalar, hadyalar
oroyish – bezak, pardoz
osoyish – tinchlik

**Alisher Navoiy devoni (she’rlar to‘plami).
XVI asr**

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

JAHON OTIN UVAYSIY. G‘AZALLAR VA CHISTONLAR

Bu mavzuda biz:
– Uvaysiy g‘azallarining g‘oyaviy yo‘nalishlarini tahlil qilamiz;
– chistonga xos xususiyatlarni bilib olamiz.

QO‘QON ADABIY MUHITI (XVIII ASR OXIRI – XIX ASR BOSHI)

XVIII–XIX asrlarda O‘rta Osiyodagi hozirgi davlatlar o‘rnida Buxoro, Qo‘qon va Xiva xonliklari mavjud edi. XIX asr boshlarida, Qo‘qon xonligi taxtiga Umarxon o‘tirgan davrda ilm-ma’rifat, adabiyot, madaniyat rivojlandi. Shu bilan birga, xonlikdagi ichki ziddiyatlar, oddiy xalqqa adolatsiz munosabat o‘lkada og‘ir ijtimoiy muhitning paydo bo‘lishiga ham olib keldi.

MUALLIF BILAN TANISHAMIZ

Jahon otin (taxallusi – Uvaysiy, Vaysiy, 1779–1845) Marg‘ilonda tavallud topgan. Uvaysiy oilasidagi ma’rifatli muhit uning kelajakda yetuk shoira va o‘z davrining bilimdon ayoli bo‘lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etgan. Shoiraning onasi zamonasining o‘qimishli ayollaridan biri bo‘lib, otinlik qilgan, ya’ni qizlarga ta’lim berish bilan shug‘ullangan. Jahonning yoshligidan bilim olishga ishtiyoqi baland bo‘lib, dastlabki savodini o‘z oilasi yordamida chiqargan, otasi va akasidan musiqa, she’riyat ilmini o‘rgangan.

Keyinchalik Uvaysiy Qo‘qon xoni Umarxonning rafiqasi, shoira Nodirabegim va boshqa ijodkor ayollarga she’riyat ilmidan dars berdi. O‘zi esa muammo – she’rda fikrni yashirin ifodalash san’atini mukammal egalladi.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

UVAYSIY G‘AZALLARINI TAHLIL QILAMIZ

G‘azal (arabcha “ayollarga xushomad qilish” so‘zidan) – Sharq adabiyotida keng tarqalgan janrlardan biri. Dastlab g‘azallar ishq-muhabbat mavzusida yozilgan bo‘lsa, keyinchalik ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, pand-nasihat, hajviy va boshqa mavzularda ham bitilgan.

G‘azal hajmi turlicha bo‘lishi mumkin. G‘azalning birinchi baytidagi misralar o‘zaro qofiyalanadi, keyingi baytlarda esa har ikkinchi misra ilk misralarga qofiyadosh bo‘lib keladi. Ko‘p hollarda oxirgi baytda muallifning taxallusi keltiriladi.

Misol uchun:

Kelibman dargahingga, shohi xo‘bonim, qabul etkil,
Bag‘ir qonim bila bul chashmi giryonim qabul etkil.

} birinchi bayt – misralar o‘zaro qofiyalangan

Umid aylab talab olmoqqa kirdim rohi pokingga,
Yo‘lingda aylagan faryod-u afg‘onim qabul etkil.

} keyingi baytlar – ikkinchi misra qofiyalangan

...

Uvaysiy garchi noqobil, kelibdur ostoningg‘a,
Fig‘on-u ohi so‘zonini, sultonim, qabul etkil.

} oxirgi bayt – muallif taxallusi keltirilgan

Respublika ta'lim markazi
@edurtm_uz

* * *

Bukun, ey do‘stlar, farzandi jononimni sog‘indim,
Gado bo‘lsam, ne ayb, ul shohi davronimni sog‘indim.

Musofirman, g‘aribman, bekas-u ham benavodurman,
Vujudim darda to‘ldi, emdi darmonimni sog‘indim.

Tilimning zikri-yu ko‘nglimni fikri, yaxshi farzandim,
Azizim, yolg‘uzim, davlatli sultonimni sog‘indim.

Kecha-kunduz yo‘lig‘a muntazirdurman, tikarman ko‘z,
Kelib holim so‘rubon ketsa, mehmonimni sog‘indim.

Nasibin uzmadi tangrim, ilojin topmag‘ay kelsa,
Onam deb bo‘lg‘usi bag‘ri qizil, qonimni sog‘indim.

Qorong‘u bo‘ldi olam ko‘zima ushbu judolikdin,
Ko‘z-u ko‘nglum ziyosi, mohi tobonimni sog‘indim.

Mani bekas Uvaysiy, yig‘larman ro‘z-shab tinmay,
Uyimning ziynati, ko‘z ravshani, xonimni sog‘indim.

bekas – hech kimi yo‘q
benavo – bechora, faqir

zikr – eslash, yodga olish

Tangri – Xudo

mohi tobon – nurli oy

ro‘z-shab (tojikcha) – kecha-kunduz

MUHOKAMA QILAMIZ

1. Onaning farzandi sog‘inchi haqidagi mazkur g‘azal sizda qanday tuyg‘ularni uyg‘otdi? Siz lirik qahramon – onani qanday tasavvur qildingiz?

2. Nima uchun lirik qahramon o‘zini “gado”, farzandini esa “shohi davron” deb atamoqda?

3. “Tilimning zikri-yu ko‘nglimni fikri, yaxshi farzandim” deb boshlanadigan bayt qanday g‘oyaviy maqsadga xizmat qilmoqda?

4. Lirik qahramon nima uchun farzandiga nisbatan “darmonim”, “ko‘z-u ko‘nglum ziyosi, mohi tobonim” singari so‘zlarni ishlatmoqda? Mazkur baytlarda shoira qanday badiiy tasvir vositasini qo‘llagan? Qaysi so‘zlarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish orqali muallif o‘z fikrini yanada ta’sirchanroq ifodalagan?

5. G‘azalda farzandga yana qanday so‘zlar bilan nisbat berilmoqda? Bu so‘zlarning g‘azal umumiy g‘oyasini ochib berishdagi ahamiyatini matn asosida izohlang.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

* * *

Ki bulbul nola, afg‘on aylamakni mandin o‘rgandi,
Vujudin sham’i so‘zon aylamakni mandin o‘rgandi.

Borib sahroga, qon bag‘rimdin izhor ayladim bir kun,
Falak bag‘rin qizil qon aylamakni mandin o‘rgandi.

Shafaq xun bo‘lg‘usi, dil, yor mehri gar nihon o‘lsa,
Ki ham gulguni domon aylamakni mandin o‘rgandi.

Ko‘rub abru hiloling, jon fido qildim jamolingga,
Ul oy husniga qurbon aylamakni mandin o‘rgandi.

Fig‘onkim, g‘am tarog‘i xasta ko‘nglum resh-resh etti,
Sanam zulfin parishon aylamakni mandin o‘rgandi.

Sani izlarman andog‘kim, quyosh diydorin izlarda,
Kezib tun-kun shitobon aylamakni mandin o‘rgandi.

Qanoat qildi Vaysiy, topti dildin gavhari nazmin,
Sadaf ham durri g‘alton aylamakni mandin o‘rgandi.

afg‘on – faryod, nola
sham’i so‘zon – yonuvchi sham

shafaq – quyosh chiqishi yoki botishi oldidan ufqdagi qizillik
xun – quyosh
mehr – quyosh
nihon – yashirin
gulguni domon – qizil etak

abro‘ – qosh
hilol – oy

resh-resh – yara

shitobon – shoshilib
sadaf – durning qobig‘i
durri g‘alton – yirik dur

MUHOKAMA QILAMIZ

1. G‘azal nima haqida? Sizningcha, uning umumiy g‘oyasini qanday so‘zlar bilan ifodalash mumkin?

2. Nima uchun lirik qahramon o‘zini bulbulga o‘xshatmoqda? Lirik qahramon va bulbul o‘rtasida qanday umumiylik bo‘lishi mumkin?

3. Lirik qahramon izlayotgan yorni siz qanday tasavvur qildingiz? Bunda sizga qaysi so‘zlar yordam berdi?

4. G‘azaldagi tabiat hodisalari tasvirlangan o‘rinlarni toping. Ular g‘azalning umumiy g‘oyasini ochib berishda qanday ahamiyat kasb etmoqda?

5. G‘azalning oxirgi baytida “Sadaf ham durri g‘alton aylamakni mendin o‘rgandi” deganda shoira nimani nazarda tutmoqda? Sadaf va durning qanoatga qanday aloqasi bo‘lishi mumkin?

Respublika ta'lim markazi
@edurtm_uz

* * *

Zamona kulfatidin bu ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi,
Bu charxi bemuruvvatdin ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Jarohat bo‘ldi bag‘rim tig‘i bedodi raqiblardin,
Bu ko‘tah mardumi nofahmdin ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Bu gulzori fano ichra mahalli bexalal yo‘qtur,
Hamisha xoradin zaxm-u, ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Fano mardumlarini sirridin hech kimsa yo‘q ogah,
Qabihguftor mardumdin ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Ko‘ngul qoni bu rohi diydadin bir lahza band o‘lmaz,
Vujudim iztirob aylab, ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

To‘lubdur bag‘rim ichra jon misoli g‘uncha, naylarman,
Ochilmay gulsifat ushbu ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

So‘zimdin xotiring uzra gumone o‘zga yetkurma
Ki, izhor aylamay naylay, ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Meni rasvoyi olamdin mabodo ihtiroz etma,
Takallum birla shod ayla, ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Ko‘ngulni otashin bejo qilibdur nutqi guftori,
Qayu bog‘ andalibidin ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Bu so‘zni ayladi barpo ajab gustohliq birla,
Maloli xotir o‘lg‘oymu, ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Ajab ash’ori mavzun bog‘ladi Vaysiy hasaddinkim,
Umarxon zufununikim, ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

bemuruvvat – rahmsiz

bedod – adolatsiz
ko‘tah – kalta
mardum – odamlar

bexalal – osoyishta, hech kim xalal bermaydigan
zaxm – yara, jarohat
xora – tosh
qabihguftor – yomon so‘zlovchi

diyda – ko‘z

takallum – so‘zlash

andalib – bulbul

gustohliq – adabsizlik

ash’or – she’r
mavzun – vaznga solingan
zufunun – olim

MUHOKAMA QILAMIZ

1. Lirik qahramon zamonaning qanday kulfatlari haqida gapirmoqda? Uning ko‘nglini dog‘ qilgan, jarohatlagan narsa(lar) nima bo‘lishi mumkin? Fikrlaringizni matn asosida dalillang.

2. “So‘zimdan xayolingga yomon gumonlar kelmasin” deb lirik qahramon kimga murojaat qilmoqda? Murojaat qilinayotgan inson lirik qahramon ko‘nglini qanday shod qilishi mumkin?

3. Siz “ko‘ngli dog‘” insonni qanday tasavvur qilasiz? Bu dog‘dan qutulishning qanday yo‘li yoki usullari bor deb o‘ylaysiz?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

UVAYSIY CHISTONLARINI TAHLIL QILAMIZ

Mumtoz adabiyotda she'riy topishmoq **chiston** (forscha "U nima?") deb ataladi.

Quyidagi chistonni o'qing. Javobini topishga harakat qiling.

* * *

Ul na gumbazdur, eshigi, tuynugidin yo'q nishon,
Necha gulgunpo'sh qizlar anda aylabdur makon.
Sindurub gumbazni qizlar holidin olsam xabar,
Yuzlariga parda tortig'liq turarlar bag'ri qon.

"Eshigi, derazasi yo'q", "ichini bag'ri qon qizlar makon qilgan" gumbaz nima bo'lishi mumkin? Bunday mazmundagi chistonning yaratilishi sabablarini qanday izohlaysiz?

Uvaysiy chistonini quyidagi topishmoqlar bilan solishtiring. Ayni bir narsani tasvirlash uchun tanlangan obrazlarda qanday o'xshashlik va farqlarni kuzatish mumkin?

Kichkina dekcha, ichi to'la mixcha. Qirq hujrada qirq qizlar.

* * *

Juft-juft bo'lib ishlang. Quyidagi chistonlarni o'qing va javobini topishga harakat qiling. Chistonlardagi qaysi belgi va ishoralar sizga javobni topishda yordam berdi?

1. Ul nadurkim, poyi yo'q, yursa boshi birla yurar,
   Yurganida xok surmay, oncha ustolik qilar.

2. Ikki mahbubni ko'rdum, bir-birisin ko'rmagan,
   Ikkisining o'rtasiga, do'stlar, qil sig'magan.

3. Ul nadurkim, sabz to'nliq, yoz yog'ochning boshida,
   Qish yalang'och aylagay barcha xaloyiq qoshida.

   Barcha qushlarnnng so'ngoki ichida,
   Ul na qushdurkim, so'ngoki toshida.

4. Ikki mahbubni ko'rdum, ikkisin kindigi bir,
   Ikkisin orasiga tushsang, topadursan kasir.

poy – oyoq

mahbub – sevishgan

so'ngok – suyak
toshida – tashqarisida

kasir – ko'p, mo'l

LOYIHA

Guruhlarga bo'lining. O'zingizga tanish bir obyektni tanlab, u haqida chiston yozib ko'ring. Yozgan chistoningiz javobini boshqa guruhlar topa oladimi?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

ABDULLA QODIRIY. “MEHROBDAN CHAYON”

Bu mavzuda biz:
– asar g‘oyasi va asosiy obrazlarini tahlil qilamiz;
– badiiy adabiyotda epik tur va janrlar haqida bilib olamiz.

MUALLIF BILAN TANISHAMIZ

Yozuvchi, shoir, tarjimon, birinchi o‘zbek romani muallifi Abdulla Qodiriy (taxallusi – Julqunboy, 1894–1938) Toshkent shahrida bog‘bon oilasida tug‘ilgan. U musulmon va rus-tuzem maktablarida, keyinchalik diniy madrasada va Moskvadagi Adabiyot institutida ta’lim oldi. Qodiriy rus, arab va fors tillarini yaxshi bilgan, sharq va jahon adabiyoti durdonalarini qunt bilan mutolaa qilgan.

jadidlar (arabcha “yangi” so‘zidan) – XX asr boshida yangi g‘oyalar orqali millatni mustamlakachilardan ozod etishga bel bog‘lagan vatanparvar o‘zbek ziyolilari

Qodiriyning hayoti va ijodi sho‘rolar mustamlakasi davriga to‘g‘ri keldi. U boshqa jadidlar qatorida millatni tutqunlikdan ozod qilish dardi bilan yashadi va erk, ozodlik g‘oyalarini o‘z asarlarida jasorat bilan aks ettirdi.

Yozuvchining bolaligida otasidan eshitgan xotiralari, otasi guvoh bo‘lgan, boshidan o‘tkazgan voqealar uning asarlari dunyoga kelishida muhim ahamiyat kasb etgan. Adibning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” kabi romanlari ko‘plab xorijiy tillarga tarjima qilingan.

Abdulla Qodiriy mustamlakachilikka qarshi yozgan asarlari uchun sho‘rolar hukumati tomonidan “xalq dushmani” sifatida hibsga olindi va 1938-yilda otib o‘ldirildi. Uning qisqa umri davomida yaratgan boy ijodiy merosi o‘zbek adabiyotining durdonalari qatoridan joy oldi.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

ASARNI O‘QISHGA TAYYORLANAMIZ



Biz mutolaa qiladigan asar “Mehrobdan chayon” deb nomlanadi. Unda XIX asr o‘rtalarida Qo‘qon xonligida sodir bo‘lgan voqealar haqida hikoya qilinadi.

Qo‘qon xonligi XVIII – XIX asrlarda hozirgi O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Qozog‘iston davlatlarining ayrim hududlarini qamrab olgan. XIX asrning 70-yillarida Rossiya tomonidan bosib olingan va davlat sifatida tugatilgan.

“Mehrobdan chayon” asarida bayon qilingan voqealar Qo‘qonning so‘nggi hukmdorlaridan biri Xudoyorxon davrida sodir bo‘ladi. Bu paytda Qo‘qon xonligining bir qancha hududlari, xususan, Toshkent shahri Rossiya tomonidan egallab bo‘lingan edi.

O‘ylab ko‘ring: nima uchun asar “Mehrobdan chayon” deb nomlangan bo‘lishi mumkin? Sizningcha, muallif “mehrobdan chiqqan chayon” deb kimni nazarda tutmoqda?

Mehrob – masjidda qibla tarafga qaratib qurilgan, imom namoz o‘qiydigan joy

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

MEHROBDAN CHAYON
(asardan boblar)

Kambag'al bo'yoqchi oilasida tug'ilgan Anvar uch yoshida otasidan, yetti yoshida onasidan ayrilib, opasining qo'lida qoladi. Opasining sa'y-harakatlari bilan u Solih maxdum maktabida o'qiydi. Oiladagi yetishmovchiliklar sabab Anvar o'n ikki yoshida maxdum xonadoniga farzandlikka beriladi. O'tkir zehni, tug'ma iste'dodi sabab Anvar xon saroyidagi eng yuqori lavozimlardan biri – mirzaboshilik darajasiga ko'tariladi. U ustozi Solih maxdumning qizi Ra'noni sevadi.

Hech bir madrasada o'qimay mirzaboshi bo'lgan, kambag'al Anvarni ko'ra olmagan mulla Abdurahmon kabi kimsalar Ra'no ta'rifini xonga yetkazadilar va xon qizga uylanish maqsadida maxdumga odam yuboradi. Anvar va Ra'no o'z muhabbatlarini himoya qilish maqsadida ota uyidan qochishga majbur bo'ladilar. Xon Anvarning qochishida do'sti Sultonalini ayblab, hibsga oladi va o'limga hukm etadi...

53. CHAYONNING NAMOYISHI

mufti – oliy lavozimli ruhoniy

Bu kech masjid hujrasi yana obod, katta shamni toqchag'a qo'ndirib, ochiq tanchaga pistako'mir solib, ma'yus, bir-biriga yonma-yon o'lturg'uchi ikki mufti qo'llarini olovg'a tovlar edilar. Hujraning to'rdagi toqchasig'a besh-olti dona qalin muqovaliq kitoblar terilgan, ularning varaq taxida – "Sharhi mullo Jomiy", "Aqoidi ma'-alhavoshiy", "Hikmatul-ayn", "Al-viqoya", "Siyari sharif" kabi

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

so‘zlar yozilg‘an edi. Kunbotish toqcha devorig‘a gul ravishida tushirilgan duo yoki shuning kabi muqaddas kalimalar yozig‘liq bir qog‘oz yopishtirilg‘an. Sirlar bilan turlangan qoziqlarning biriga beva xotinning dekchasidek bir salla ilingan edi.

Sizningcha, muallifning masjid hujrasidagi tokchaga qo‘yilgan “Sharhi mullo Jomiy”, “Aqoidi ma’-alhavoshiy”, “Hikmatul-ayn”, “Al-viqoya”, “Siyari sharif” kabi kitoblarga ishora qilishdan maqsadi nima?

Shahodat mufti kasavni olib, cho‘g‘ni titdi va keng ko‘kragini shishirib nafas oldi.

– Ajab bedavo dard-da.

Kalonshoh mirzo boshini irg‘atib qo‘ydi.

– “Suygan yorim sen bo‘lsang, ko‘rgan kunim ne bo‘lg‘ay”, – deb davom etdi mufti. – Ululamir qadrnoshunos bo‘lg‘andan so‘ng qiyin ekan. Shu oqpadarning qo‘l ostida ishlagandan devonni tashlab ketkan behroq.

– Sabr qiling, domla, sabr: “Innalloha ma’assobirin”.

– Albatta... Va lekin Sultonalidek bema’niga bosh ekkandan, har ro‘z o‘n tayoq yegan yaxshi.

Xuftanni o‘qug‘andan so‘ng tahorat yangilab yurguchi mulla Abdurahmon hujra eshigida ko‘rindi. Kichkina xovoncha boshidag‘i oq tepchima to‘ppi va qora uzun soqoli uni hindilarning savdogari qiyofatiga qo‘yg‘an edi. Mulla Abdurahmon ichkari kirib, qoziqdag‘i sallani oq to‘ppi ustidan kiydi.

– Men janoblarning so‘zlari bilan uyga ovqat buyurmadim-a?

– Lozim emas, biz uydan ovqatlanib kelganmiz.

Mulla Abdurahmon tancha yonig‘a kelib o‘lturdi va yer ostidan Shahodat muftiga qarab iljaydi.

– Shunday qilib, mirzo Anvarni qiz bilan qochirdingiz?

– Qochirish bo‘lsa, qochirdiq va lekin qordan qutulib yomg‘urg‘a tutildiq, mulla Abdurahmon.

– Men eshitdim.

– Kullu yavmin batar – bunisi undan ham qabihroq bo‘ldi... Besh kundan beri yuraklar zardobka to‘ldi, mulla Abdurahmon, – dedi mufti. – Kecha biznikiga yo‘qlab borg‘an ekansiz. Siz ketibsiz, men kelibman-da, ko‘b afsus qildim. Bu kun mulla Kalonshohni olib, siz bilan suhbatlashib qaytayliq, degan niyatda...

– Qulliq, taqsir, qulliq, – deb mulla Abdurahmon qimirlab o‘lturdi. – Men Anvar bilan Sultonali mojarosini faqat kecha mirzo Boisdan eshitdim. Bu to‘g‘rini aniqroq bilish uchun janobingizning xizmatingizga borg‘anim edi... Xo‘sh, havodis nima?

– Havodismi? Qani, so‘zlang-chi, mulla Kalonshoh.

Kalonshoh, so‘zlay bering, degandek Shahodat muftining o‘ziga ishorat qildi. Shahodat mufti ko‘zini yuminqirab, havodisdan sahifa ochdi:

ululamir – ulug‘ amir
qadrnoshunos – odam qadrini bilmaydigan

“Innalloha ma’assobirin” – Alloh sabr qiluvchilar bilan birgadir

har ro‘z – har kuni

tancha – sandal

kullu yavmin batar – kundan kun battar

havodis – hodisalar

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

– Havodis shulki, Anvar borasig'a sizning olg'an nishoningiz jiddan to'g'ri tushib, biz kutkandin ham ziyodaroq samaraga erishkan, ya'ni mag'rur go'dagimiz qizni olib qochqan...

Mulla Abdurahmon hakimona iljaydi, Shahodat mufti davom etdi:

– Chamasi, nisfi shab – yarim kecha asnosi, do'stim, deb yonida qiz, Sultonalining uyiga kelgan. Sultonali tong otquncha ikki go'dakning qo'ynini puch yong'oqqa to'latib chiqqan, erta bilan ular uyquda yotqanda, Sultonali o'rdag'a yugurib kelgan; voqi'ani tunqotarg'a so'zlab, tunqotar xong'a yo'liqib, xonning buyrug'i bilan yonlarig'a yasovullar olib kelsalar, oshiq-ma'shuq yo'q, ular joyida Sultonaliga atalg'an bir sabnoma bor... Chamasi, Sultonali ablahlik qilib, Anvarni bad oldirib qo'yg'an va tong vaqti, ular uyquda ekan choqda g'oyib bo'lib, yana shubhani ortdirg'an bo'lsa kerak. Sultonali Anvar bilan qizni tutib beralmasa ham, baharhol xong'a yaxshi ko'rinib, Anvarning o'rnini olishqa muvaffaq bo'ldi. Barcha havodis mana shundan iborat.

tunqotar – tungi soqchi

yasovul – qurolli soqchi

sabnoma – so'kib, tahqirlab yozilgan xat

Mulla Abdurahmon, Shahodat mufti va Kalonshoh mirzoning suhbatidan nimalarni uqdingiz? Shahodat muftining Sultonali haqidagi taxminlariga ishonasizmi? Sultonali o'z do'stiga xiyonat qilishi mumkinmi?

Abdurahmon hikoyani eshitkandan keyin, bir necha vaqt so'zsiz o'lturdi. Tanchadagi olovni tuzatar ekan, yer ostidan muftilarga qarab iljaydi.

– Mirzo Boisdan ham shu maolni eshitkan edim, – dedi nihoyat. – Janoblarning fikrlari balki to'g'ridir, ammo men bu maoldan biroz shubha qilaman...

– Ya'ni, masalan?

Abdurahmon qo'lini o'ynab, yana biroz sukutda o'lturdi, so'ngra labi ohista-ohista ochilib yumila boshladi:

– Bu hammasi Sultonali bilan Anvarning o'yunidir, deb o'ylayman... Bu andishamga bir necha sabablar ham bor. Janoblardin maxfiy emasdirkim, biz o'zaro qanday yaqin bo'lsaq, Sultonali bilan Anvar ham o'zaro shunday qalin do'st edilar. Binobarin, aqlg'a "qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qur ekanmi?" degan savol keladir; janoblar shu borani qanday tushundilar ekan.

maol – mazmun, ma'no

andisha – fikr

Shahodat mufti Kalonshohka qarab qo'ydi, Kalonshoh parvosizroq ko'rinar edi. Orada yana bir necha vaqt sukut hukm surdi.

– Sultonali sarmunshiy bo'lish uchun do'stidan kechsa ham mumkin, – dedi mufti. – Ikkinchi tarafdan, sizning fikringiz ham ehtimoldan ba'id emas.

– Sultonali do'stidan kechmay turib ham bu nayrangni qilsa mumkin emasmi, domla? – deb kuldi Abdurahmon. – Masalan, xon olmoqchi bo'lg'an qizni qochirg'uchi Anvar ikki boshdan-ku, qaytib sarmunshiy bo'lolmaydir, boshqa tarafdan, xiyonatkor do'sti bo'lib tanilg'an Sultonalining ham hayoti tahlika ostida turadir... Bas, shu holda

sarmunshiy – mirzaboshi

ba'id – uzoq

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

bu nayrang to‘qilg‘an bo‘lsa, yana to‘g‘risi, shu hiylani Sultonalining amniyati talab qilg‘an bo‘lsa, siz bilan men g‘ayraz qanday mantiqqa suyana olamiz?

Shahodat mufti o‘rnidan turdi, Abdurahmonning yoniga kelib, orqasini qoqdi:

– Rahmat, o‘g‘lim, rahmat. Seni tuqqan onangg‘a va o‘qutg‘an ustozingga rahmat.

Abdurahmon yerga qarag‘an holda iljaydi. Shahodat mufti uning aqlig‘a tahsin o‘quy-o‘quy, nos chakib o‘z joyig‘a o‘lturdi.

– Mulla Kalonshoh-a, shu gap bizning aqlimizg‘a aslo kelmabti-da?

Abdurahmon sizda qanday taassurot qoldirdi? Nega Shahodat mufti unga rahmat aytdi, aqliga tasannolar o‘qidi?

Shahodat muftining xursandligiga qo‘shulmay, tund o‘lturg‘uchi Kalonshoh, parvosiz qo‘lini olovg‘a isitdi.

– Men shu andishani ham qilg‘an edim, – dedi birozdan keyin Kalonshoh, – lekin aqlim bovar qilmag‘an edi va hozir ham bu fikrga qo‘shula olmayman.

– Sabab?

– Bois shulki, Sultonali Anvarga suiqasd qilmag‘anda ham unga hech gap yo‘q edi. Ammo ul xong‘a qarobat hosil qilish uchun aztahidil Anvarning qasdig‘a tushkankim, bunda shubha yo‘q.

O‘zgalar tarafidan so‘zlangan fikr yoki bahs har qancha mantiqiy bo‘lganda ham Kalonshohning qarshi chiqish fe’li bor edi. Uning bu fe’liga yaxshi tushunib qolg‘an Shahodat mufti bosh chayqadi.

– Biz yanglishamiz.

Kalonshoh yana yuqoridag‘i so‘zini takrorladi:

– Bachi ma’ni yanglishamiz? Mulla Abdurahmonning o‘zi ham o‘ylab ko‘rsin, basharti Sultonali do‘stliq yuzasidan Anvarni qochirib yuborg‘anda ham unga hech bir zarar yo‘q edi. Bas, Sultonalining hamma harakati to‘g‘ri, Anvarga xiyonat qilishi mansab umidida ekanligi shubhasiz.

Orada o‘z fikriga qarshi shuncha raddiya o‘tsa ham, parvosiz, go‘yo muroqabada o‘lturguchi mulla Abdurahmon yana iljayib bosh ko‘tardi.

– Sultonalining Anvar bilan ati-qatilig‘i o‘rdadan har kimga ma’lum-ku, domla. Basharti o‘z uyida turg‘an Anvarning xiyonati to‘g‘risida Sultonali o‘zini tag‘ofulg‘a solsa, mardumning ko‘ngliga nima gap kelar edi, ayniqsa, janoblaringiz qanday andishaga tushar edingiz... Ojizning fikrimcha, ul nayrangbozlar bir o‘q bilan necha qushni urganlar, masalan, janobga Sultonalining sadoqati zohir bo‘ldi, sarmunshiylik vazifasiga beozor o‘lturib oldi va uchunchidan, mardum ko‘zini bo‘yadi.

– Baharhol... baharhol Anvarga qarshi chiqmag‘anda ham Sultonalini na xon va na biz ayblay olar edik.

– Xo‘sh?

amniyat – tinchlik, daxlsizlik
g‘ayraz – boshqa

tund – qo‘pol, yoqimsiz

bovar – ishonish

qarobat – yaqinlik
aztahidil – astoydil

bachi ma’ni – nega

muroqaba – mushohada qilish

tag‘oful – bilmaslik
mardum – odamlar

zohir – ochiq, ravshan
baharhol – har holda

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

shar'an – shariat qoidalari asosida

shohid – guvoh

– Xo'sh-po'shi yo'q, – dedi qizishib qolg'an Kalonshoh, – biravning ustiga ayb qo'yish uchun, shar'an shohidlar lozim, da'voni isbot qilish kerak... Xax-xax-xax, sen falonchi gunohkor bilan do'st eding, deb kishini ayblash. Masalan, ushbu da'voni qilg'uchi o'zingiz ham ularning maslahati ustida bo'lmag'ansiz; faqat shundaymikin, degan mulohazada so'zlaysiz, holbuki, sizning so'zingizning shar'an to'rt pullik qiymati yo'q, uka...

Kalonshoh juda qizishib ketdi, "shar'an so'zingizning to'rt pullik qiymati yo'q, uka" tahqiri bilan mulla Abdurahmon ham bo'zarib oldi.

masnad – mansab

– Menim so'zim bir mulohaza, taqsir, mulohaza shar'an isbotka buyurilmag'an. Hokazo, o'zingiz aytkancha, go'yo masnad uchun jon otib yurg'an Sultonalining zohir harakatiga ham ishonib bo'lmaydir.

vusuq – ishonch

– Shuning kabi, siznikiga ham vusuq yo'q.

– Men aytayapman-ku...

Janjalning kattaga ketishini fahmlagan Shahodat mufti Abdurahmonning so'zini bo'lib, orag'a tushdi:

– Bahs nima hojat? Mulla Kalonshohniki ham to'g'ri, sizniki ham haqiqat... Ammo hozirgi masalamiz qaysi fikr to'g'rilig'i ustida emas, qaysi yo'l bilan Sultonalini bu o'rundan olib tashlaymiz borasida.

Ko'b yillardan beri birga yurib, o'z ruhiga tushunib qolg'an Shahodat muftining bu so'zi bilan Kalonshoh ozg'ina yorishdi.

mahzi haqiqat – faqat to'g'ri gap

– Ana bu boshqa masala, – dedi, – mulla Abdurahmonning fikrini to'g'rimi, egrimi, surishtirmay, unga faqat bir tadbir deb qarasangiz, bu boshqa gap, ammo mahzi haqiqat deb bilish bus-butun xato.

Shahodat mufti bu masalani yopib, ikkinchi tarafka o'tishka shoshildi. Chunki Abdurahmon yana bir iljayib ikki og'iz so'z aytsa, Kalonshohning og'zini tikish og'ir oshar, Shahodat mufti buni yaxshi onglar edi.

menda voqi' holog'i farah – mendagi haligi xursandlik

ilmi g'ayb – g'oyibni, kelajakni bilish

– Xalos, xalos, – dedi mufti, – menda voqi' holog'i farah ham faqat shuning ustida, yo'qsa, ilmi g'aybni kim bilibdir. Ammo mulla Abdurahmon mulohazasining qiymati shundakim, Sultonali muammosini tez hal qilsa bo'lur.

siforish – mehribonlik, hurmat

Muftining siforish so'zlashi bilan Kalonshoh juda ham o'ziga kelib qoldi va "halli qanday" deb yovoshqina so'rab ham qo'ydi.

– Halli oson, juda oson, – dedi mufti. – Biz mulla Abdurahmonning mulohazasi ayni bilan janobga bir ariza yozamiz, xalos.

Mulla Abdurahmon namoyishkor Kalonshohka qarab, o'ng qo'li bilan manglayini qashidi... Ammo Kalonshoh qanoatlanmag'andek qilib bosh chayqadi.

– Xon Sultonalining sadoqatiga qanoat hosil qilg'an, yana shu holda bu arizaga ishonadirmi?

e'timod – ishonch

– Agar haqiqatni aytilsa, xon o'zidan boshqa hech kimga e'timod qilmaydir, – dedi mufti, – xayr, Sultonaliga e'timod qo'yg'an ham bo'lsin, yana bu taqdirda ham biz arizani yoza beramiz. Nega? Agar

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

ishonsa, Sultonalini o‘rdadan haydar, ishonmasa, yana bizga nima zarar; bu gap sizga qanday o‘xshaydi, mulla Abdurahmon?

Abdurahmon ko‘zini katta ochib, to‘g‘ri topqan kabi bosh irg‘atdi.

– Arizamiz o‘runlasa, ko‘b yaxshi, bil’aks, o‘rdadan o‘zimiz haydalurmiz, – dedi Kalonshoh.

– Nima uchun? – deb so‘radi mufti.

– Axir arizani kim berganligi ma’lum-ku.

– Yo‘q, – dedi mufti. – Biz ariza ostig‘a imzo qo‘ymaymiz, Kalonshoh.

– Imzosiz ariza mu’tamad bo‘lmas.

– Mu’tamad bo‘lsin-bo‘lmasin bizga nima zarar; baharnav shu ehtimolni xonning qulog‘ig‘a yetkarsak bas-da, Kalonshoh.

– Kimning dastxati bilan yozasiz?

– Bu oson, siz bunisidan xotirjam’ bo‘ling, Kalonshoh!

Kalonshoh noiloj ariza yozishqa rog‘ib bo‘ldi. Arizaning shu majlisda, mulla Abdurahmon huzurida yozilishi muvofiq ko‘rilib, mufti tahrirga o‘lturdi.

bil’aks – aksincha

mu’tamad – ishonchli

baharnav – har holda

rog‘ib – moyil

MUHOKAMA QILAMIZ

1. Ushbu parchadan mulla Abdurahmon, Shahodat mufti va Kalonshohga xos qanday umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarni kuzatdingiz?

2. Xonga yozilajak ariza qanday mazmunda bo‘lishi mumkin deb o‘ylaysiz?

“Mehrobdan chayon” romani asosida suratga olingan “Zulmatni tark etib” filmidan lavha (“O‘zbekfilm”, 1975-yil). Abdurahmon rolida Shuhrat Ergashev

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

Romanning davomini o‘qing. Savollarga javob bering.

Asar matni Respublika bolalar kutubxonasida

Roman asosida audiokitob

54. IKKI XIL SADOQAT

Bobdagi ayrim so‘zlar izohi

ko‘laga – ko‘lanka, soya
sahn – yuza, maydon
bo‘yra – qamish cho‘pidan to‘qilgan to‘shama
chig‘iriq – paxtani chigitdan ajratadigan qurilma
navqaslanib – kasal bo‘lib
jazza – jazo
yavmi saodat – saodatli kunlar
kamina – men
ma’azoho – shu bilan birga
xufiya – ayg‘oqchi
mavquf – to‘xtatish
bebok – hech qanday ishdan qaytmaydigan
muxobaroti digar – keyingi yozishma
soniy – ikkinchi
istifhomi sababi tashrif – tashrif sababini so‘rash
ba’da – so‘ngra
zoyil – yo‘qolmoq
tag‘yir – o‘zgartirish
addoi – duo qilib

BOB YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Qobilboy kim? Safar kim? Ularning Sultonali huzuriga borishdan maqsadi nima edi?
2. Sultonalining Anvarga yozgan xatidan nimalarni uqdingiz?

55. BARIMTA

Bobdagi ayrim so‘zlar izohi

barimta – garov
shaparak – yupqa
chuvak – ozg‘in
hamyoza – esnash
axe – “axir” demoqchi
pala’nat – “padarla’nat” demoqchi
bo – yana (tojikcha)
murt – mo‘ylov
barpadari – “padariga la’nat” demoqchi
go‘sh – quloq (tojikcha)
akun – endi (tojikcha)
nar xar – erkak eshak (tojikcha)
bepadar – otasiz (tojikcha)
shustagar – mato oqartiruvchi
odami nag‘z – yaxshi odam (tojikcha)

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

teksiz – bekor
dahanaki – og‘zaki (tojikcha)
nisor – sochish
mag‘zi sar – miya qatig‘i
ba xudo – xudo haqqi (tojikcha)
o‘rda – xon saroyi
izo – azob, ozor
osiy – gunohkor
zabon – til (tojikcha)
chi balo shud – nima balo bo‘ldi (tojikcha)
hech chi – hech nima (tojikcha)
dastasha gir – qo‘lni ol (tojikcha)
lafzaton yakmi – lafzinglar bittami (tojikcha)
hazilash nest – hazili yo‘qmi (tojikcha)
shud – bo‘ldi (tojikcha)

BOB YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Nega bob musofirga o‘xshagan bu uch yigitning bozorda uxlab yotishi tasviri bilan boshlanadi? Ular asar syujeti rivojida qanday o‘rin tutmoqda?

2. Qobil, Sharif va Rahimning Anvarga yoki Sultonaliga qanday aloqasi bo‘lishi mumkin? Nega ular Anvarga yordam bermoqchi?

3. Bozorda jarchining Anvar va Sultonali haqida aytgan qo‘shig‘i qanday g‘oyaga xizmat qilmoqda? Uning xalq ichida bunday jar solib yurishi sabablarini qanday izohlaysiz?

4. Sizningcha, bob nega “Barimta” deb atalgan?

56. XAYR ENDI, RA’NO

Bobdagi ayrim so‘zlar izohi

miyona – o‘rta
isror – qat’iylik, o‘jarlik
habs – mahbus
ovoq – maxsus qamoq

BOB YUZASIDAN SAVOLLAR

1. “Har qadamingda seni bir falokat kutadir, menga qolsa, ayamga ham ishonib bo‘lmas”. Nega Anvar Ra’noga bu holatda o‘z onasiga ham ishonish xatarli ekanini aytmoqda? Siz bu fikrga qo‘shilasizmi? Nima uchun?

2. Sultonalining Anvarga yordam berganini kim qay tarzda fosh qilgan deb o‘ylaysiz?

3. Anvarning do‘stiga qattiq ishonishi sabablarini avvalgi boblarga tayanib izohlashga harakat qiling

4. Kuchli irodaga ega, jasur Anvar nega o‘ksinib yig‘ladi?

5. Anvar do‘stini qutqargani boradi deb o‘ylaysizmi?

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

57. QO‘RQUNCH BIR JASORAT

Bobdagi ayrim so‘zlar izohi

qiyom – tush payti
hamoqat – ahmoqlik
hudaychi – xon saroyidagi marosimlarni boshqargan amaldor
takya – suyanish
shig‘ovul – elchi va choparlarni xon huzuriga boshlab kirgan amaldor
otaliq – xon maslahatchisi
g‘ayri – boshqa
hamnishin – birga o‘tirgan
tanobiy – mehmonlar kutib olinadigan katta xona
uvli – o‘g‘li
o‘luv – o‘lim
pusulmonchiliq – musulmonchilik
kinalik – dushmanlik
yanib – yashirib
kungira – qal’a devorida tishga o‘xshatib ishlangan bezak
suvor bo‘ling – mining
to‘g‘un – g‘ildirakning tashqi gardishi

BOB YUZASIDAN SAVOLLAR

1. “Darhaqiqat, Anvarning qayerg‘a ketkanini bilmasa, qanday qilsin? Bas, bu holda Sultonali qatl qilinadir, gunohsiz o‘ldiriladir... Bunga kim sabab, uning qoni kimni tutadir? Men shunisiga hayronman-da”. Nega Kalonshohning bu gapiga Abdurahmon va Shahodat mufti javob topa olmay qoldilar? Kalonshohni hamtovoqlariga qaraganda vijdonliroq deyish mumkinmi? Nima uchun?

2. Nega xon Anvarning “Sizda adolat bormi, janob?!” degan hayqirig‘idan qo‘rqib ketdi? Anvarning Sultonaliga “istehzoli” aytgan gaplaridan maqsadi nima edi?

3. Anvarning jasoratini qanday baholaysiz? “Iflos vijdon bilan g‘olib, sof vijdon bilan mag‘lub” bo‘lish nima degani? Fikrlaringizni hayotiy misollar bilan dalillang.

MUHOKAMA QILAMIZ

1. Berilgan boblardan Qo‘qon xonligining so‘nggi yillari haqida qanday tasavvurlarga ega bo‘ldingiz? Xulosalaringizni matn asosida dalillang.

2. Asardagi “chayon” kim? Nega ularni muallif aynan chayonga o‘xshatmoqda? Fikrlaringizni matn asosida izohlashga harakat qiling.

3. Sizningcha, qaysi bob va unga qo‘yilgan sarlavha asarning umumiy g‘oyasini ochishda ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda? Sizda bob nomlarini almashtirish imkoni bo‘lganda, ularga qanday nom bergan bo‘lardingiz? Nega?

4. Bugungi kun yoshlarida Anvar va Ra’noga xos qanday xususiyatlar yetishmaydi deb o‘ylaysiz? Siz ulardan nimalarni o‘rganishni istagan bo‘lardingiz?

JUFT-JUFT BO‘LIB ISHLAYMIZ

“Ikki xil sadoqat” bobidagi Sultonalining Anvarga maktubini yana bir marta o‘qib chiqing. Maktubning yozilish uslubidagi qaysi jihatlar sizning e’tiboringizni tortdi?

Anvar nomidan Sultonaliga yoki Ra’no nomidan onasiga maktub yozing. Maktubda Anvar va Ra’noning Toshkentga qochib ketgandan keyingi hayoti va kechinmalarini tasvirlang. Maktubni til xususiyatlari va uslub jihatidan imkon qadar Qodiriy davri tiliga yaqinlashtirishga harakat qiling.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

LOYIHA

Guruhlarga bo‘lining. Anvar, Ra’no, Sultonali, Abdurahmon, Xudoyorxon obrazlaridan birini tanlang va uni tahlil qiling. Jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

	Tanlangan obraz: _____
Obrazga xos xususiyatlar	
Bu xususiyatlarni ochib beradigan xatti-harakatlar, nutqqa xos jihatlar	
Muallifning obrazga munosabati	

Shuningdek, “Zulmatni tark etib” filmida siz tanlagan qahramon rolini ijro etgan aktyor yoki aktrisaning obrazni qay darajada ochib bera olganiga ham baho bering. Agar siz rejissyor sifatida “Mehrobdan chayon” asarini qaytadan sahnalashtirsangiz, mazkur rolni ijro etishga kimni taklif qilgan bo‘lardingiz? Nima uchun? Unga qanday tavsiyalar bergan bo‘lardingiz?

“Zulmatni tark etib” filmi

“Mehrobdan chayon” romani asosida suratga olingan “Zulmatni tark etib” filmidan lavha (“O‘zbekfilm”, 1975-yil). Ra’no rolida Tamara Shokirova

EPIK TUR VA JANRLAR HAQIDA BILIB OLAMIZ

Badiiy adabiyot uch asosiy turga bo‘linadi. Har bir tur, o‘z navbatida ko‘plab janrlarni o‘z ichiga oladi.

Epik tur	Lirik tur	Dramatik tur
– asosan **voqealar** bayon qilinadi; – **janrlar**: hikoya, qissa, roman va boshqalar.	– asosan **his-tuyg‘ular, kechinmalar** tasvirlanadi; – **janrlar**: she’r, g‘azal, ruboiy, qit’a, fard va boshqalar.	– asosan **harakat** tasvirlanadi – bunday asarlar **sahnada** ijro etishga mo‘ljallanadi.

Roman va hikoya epik turning keng tarqalgan janrlaridan hisoblanadi. Romanda qahramon hayotining kattaroq davri tasvirlanadi, undagi voqealar va ishtirok etadigan obrazlar soni ham ko‘proq bo‘ladi. Hikoyada esa qahramon hayotidan bitta yoki bir-biriga bog‘langan bir necha qisqa voqealar aks etadi.

O‘ylab ko‘ring: “Mehrobdan chayon” asari nima uchun roman hisoblanadi?

MUSTAQIL O‘QISH UCHUN

Abdulla Qodiriyning “Uloqda” hikoyasini o‘qib chiqishingizni tavsiya qilamiz.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

PIRIMQUL QODIROV. "YULDUZLI TUNLAR"

Bu mavzuda biz:
– "Yulduzli tunlar" romanida Bobur obraziga xos xususiyatlarni tahlil qilamiz;
– konfliktlarning obrazlarga xos xususiyatlarni ochib berishdagi ahamiyatini tadqiq qilamiz.

MUALLIF BILAN TANISHAMIZ

O'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri, yozuvchi, tarjimon, adabiyotshunos olim Pirimqul Qodirov (1928–2010) Xo'jand viloyatida (hozirgi Tojikiston) tug'ilgan.

Bo'lajak yozuvchi yoshligidan adabiyotga, kitobga mehr qo'yganini quyidagicha xotirlaydi: "Biz bir bog'ot joyning qo'rg'onchasida turardik. May oyining oxirlari, bog'dagi toklar qiyg'os gullagan payt. Qo'rg'onchada sigir va echkilar bor, ularga o't o'rish, ancha uzoqdagi ariqdan chelakda suv tashib kelish biz kabi dastyorlarning zimmasida edi. Lekin kitob o'qishimga xalaqit bermasliklari uchun tokzorning narigi chetidagi pana bir joyga yashirinib olar edim. Onam bir necha marta qo'rg'onchadan chiqib meni chaqirar, lekin o'zimni eshitmaganga solib, kitob o'qishda davom etardim".

O'rta maktabni bitirgandan keyin Pirimqul Qodirov O'rta Osiyo davlat universitetida (hozirgi O'zbekiston milliy universiteti) tahsil oldi, keyinchalik Moskvadagi Adabiyot institutida ilmiy ish yoqladi, bir qancha tashkilotlarda faoliyat olib bordi, Oliy Majlis deputatligiga saylandi. Vatan oldidagi xizmatlari uchun adib ko'plab davlat mukofotlari bilan taqdirlangan.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

ASARNI O‘QISHGA TAYYORLANAMIZ

Biz siz bilan Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanidan bir bobni o‘qiymiz. Mazkur roman temuriylar sulolasining so‘nggi vakillaridan biri, shoh, shoir va olim Zahiriddin Muhammad Boburning ziddiyatlarga to‘la hayoti haqida hikoya qiladi.

Otasining vafotidan so‘ng o‘n ikki yoshida Farg‘ona viloyatiga podshoh bo‘lgan Bobur Amir Temurdan keyin parchalanib ketgan saltanatni tiklamoqchi bo‘ldi. Biroq ichki nizolar va Shayboniyxonning o‘lkaga hujumi uni o‘z yurtini tashlab ketishga majbur qildi. Hindistonning Panipat qishlog‘i yaqinidagi jangda u Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyning katta qo‘shinini yengib, Hindiston taxtini egalladi va Boburiylar sulolasiga asos soldi. Bu sulola Hindistonda uch yuz yildan oshiq hukmronlik qildi. Boburiylar davrida Hindistonda ilm-fan, adabiyot va san’at rivojlandi, Qizil Qal’a, Toj Mahal singari dunyoga mashhur me’moriy obidalar qurildi.

Amir Temur, Bobur va Boburiy hukmdorlar tasvirlangan miniatyura. XVIII asr

Bobur haqida yana nimalarni bilasiz? Unga bag‘ishlangan qanday asarlarni o‘qigansiz yoki ko‘rgansiz? Bu asarlarda Bobur qanday shaxs sifatida namoyon bo‘lgan?

Pirimqul Qodirov “Yulduzli tunlar” romani ustida o‘n yil ishladi. Ish jarayonida u Bobur hayotiga oid manbalarni o‘rgandi, Bobur bo‘lgan joylarga sayohat qildi. Asar bir qancha xorijiy tillarga tarjima qilindi, muallif esa mazkur asari uchun davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Yozuvchining Bobur haqida asar yozishiga nima turtki bergan bo‘lishi mumkin? Sizningcha, asar nega “Yulduzli tunlar” deb nomlangan?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

AGRA: YO HAYOT, YO MAMOT

pargana – kichikroq viloyat

Ibrohim Lodining onasi malika Bayda Panipat jangida o‘ldirilgan o‘g‘li uchun aza tutib,boshdan oyoq oq kiyinib yurar edi. Oraga qo‘yilgan odamlar unga istagan parganasini berib, Agrani jangsiz topshirishga ko‘ndirdilar. Malika qo‘rg‘on darvozalarining kalitini Jamna bo‘yida Boburga topshirayotganda ko‘zlaridan tirqirab yosh chiqib ketdi.

Bobur bu salobatli kampirning keng peshonasi va bir-biriga qo‘shilgan qoshlarini qayerdadir ko‘rganday bo‘ldi. So‘ng birdan Panipat esiga tushdi. Jang tugagandan keyin bir bek minglab o‘liklar orasidan Ibrohim Lodining jasadini izlab topgan va Boburga keltirib ko‘rsatgan edi. Endi qirq yoshlarga borgan Ibrohim Lodining keng peshonasi va payvasta qoshlari ham xuddi onasinikiga o‘xshar edi.

Boburga bir lahza shunday tuyuldiki, go‘yo Ibrohim Lodi to‘satdan tirilib, onasining qiyofasiga kirib kelgan. Bobur allanechuk sarosima bo‘lib:

– Malika, yig‘lamang, – dedi. – Bizdan yana qanday tilagingiz bo‘lsa ayting.

Malika Bayda ko‘z yoshini kafti bilan tez artdi:

– Menga boshqa ozor bermasalar bo‘ldi.

Bobur mulozimlari tomonga yuzlandi:

– Minba’d malikaga hech kim ozor bera ko‘rmasin, hamma uni mo‘tabar onamizdek ehtirom qilsin!

Mulozimlar bu topshiriqni ta’zim bilan qabul qildilar. Malika ham bosh egib, minnatdorchilik bildirgan bo‘ldi. Ammo uning yig‘idan namlangan ko‘zlari po‘lat tig‘ning sovuq jilosini eslatib nafrat bilan yaltirab ketganini hech kim ko‘rmadi.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Muallif nega malika Baydaning ko‘zlaridagi ifodani “po‘lat tig‘ning sovuq jilosi”ga o‘xshatmoqda? Malika bu vaziyatda nimani o‘ylagan bo‘lishi mumkin?

Malika Bayda o‘g‘lining kushandasini kechiradigan onalardan emas. Panipatdan mudhish xabar kelganda malika uchun osmon o‘pirilib erga qulaganday bo‘lgan edi. U o‘g‘lini so‘nggi marta ko‘rishni istar, uning jasadini o‘z qo‘li bilan tuproqqa qo‘yib, qabrini quchoqlab yig‘lasa – ko‘ngli xiyol taskin topadiganga o‘xshar edi. Shuning uchun malika eng ishongan odamlarini Panipatga yuborib, Ibrohimning jasadini topib kelishni buyurgan edi.

kushanda – qotil

Lekin Agra bilan Panipatning orasi uch-to‘rt kunlik yo‘l. To o‘lim xabari Agraga yetib kelguncha, so‘ng Agradan malika yuborgan odamlar Panipatga borguncha oradan bir haftacha o‘tgan, ungacha o‘liklarning bir qismi ko‘mdirilgan, bir qismini mechkay quzg‘unlar suyaklarigacha tozalab yeb ketgan edilar... Malika Bayda yuborgan odamlar sulton Ibrohimning jasadini topolmadilar... O‘g‘lining jasadi xor bo‘lganini eshitgan onaning qayg‘u-alamlari avvalgidan o‘n hissa oshdi. U hatto joynamoz ustida namoz o‘qib o‘tirganda ham: “Ibrohimjon, endi bu olamda sening qabring ham yo‘q, xudo menga jasadingni ham ko‘p ko‘rdi! – deb nola qilar: – Ilohim, senga o‘lim keltirgan Boburning o‘zi o‘lsin, bundan ming hissa ortiq xor bo‘lib o‘lsin!” – deb qarg‘ar edi.

Malikaning kanizlari va xizmatkorlari ko‘cha-ko‘ydan unga taskin beradigan gaplar topib kelishardi. Boburning askarlari yem-xashakdan qiynalib, dehqonlarning ekinlarini otlariga yedirgan ekan, dehqonlar g‘alayon ko‘tarib, navkarlardan bir qanchasini bolta va panshaxalar bilan urib o‘ldiribdi. Fotihlarni Hindistonning issiqlari ham juda qiynab qo‘ygan emish. Salqin tog‘ havolariga o‘rgangan ot va odamlar bu yerning ayovsiz issig‘iga bardosh berolmay o‘layotgan emish. Vabo va qora bezgak ham ularning saflarini siyraklashtirib qo‘yayotgan emish...

fotih – biron shahar yoki mamlakatni urush bilan zabt etuvchi

Malika ovozalarning qanchalik rostligini Bobur saroyida xizmatda yurgan nevarasi Bahodirdan surishtirib bilmoqchi bo‘ldi. Bahodir hafta-o‘n kunda kelavermagach, malika “uni saroydan chiqarishmasa kerak”, deb o‘yladi-yu, kanizini podshoh mahkamasiga yubordi. “Men betobman, nevaramga ruxsat bersinlar, meni kelib ko‘rib ketsin”, degan ma’noda maktub yubordi.

O‘n yetti yoshli Bahodir forschani va sanskritni yaxshi bilar, Bobur uchun zarur bo‘lgan ba’zi hujjatlarni tarjima qilar edi. Saroyda boshqa tarjimonlar ham bor edi. Bahodirga ko‘p ish buyurishmas edi-yu, lekin uni o‘zicha erkin ham qo‘yishmasdi. Bobur uni qattiq qo‘riqlab yurishni buyurgan edi. Bu qo‘riqchilar Bahodirni tashqi xatarlardan ehtiyot qilib yurganday ko‘rinsalar ham, aslida ular shahzodani “Ibrohim tarafdorlari tomondan uyushtirilishi mumkin bo‘lgan biron fitnaga bosh qo‘shmasin” deb sinchiklab kuzatishardi. Shu sababli Bahodirni saroydan ko‘p chiqarishmasdi.

sanskrit – klassik hind tili

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Biroq eshikog‘a Muhammad Do‘lday malika Baydaning “Kasalman, nevaram kelib ketsin” degan mazmundagi xatini olgach, Boburning “Malikani mo‘tabar onamizday ehtirom qiling” degan buyrug‘ini esladi-yu, Bahodirga javob berdi. Faqat uning yoniga avvalgidan ikki barobar ko‘proq navkar qo‘shdi-da, shu bugunoq qaytib kelishni tayinladi.

Nevarasi kelganda malika Bayda daryo bo‘yidagi marmar ko‘shkning nimqorong‘i ichki xonasida xastalarday shiftga tikilib yotgan edi. Yo‘lda issiqdan terlab-pishib kirgan nevarasiga yonidan joy ko‘rsatdi-yu, majolsiz bir ahvolda o‘rnidan turib o‘tirdi. Nevarasining bo‘g‘riqqan yuzlariga qarab hol-ahvol so‘rashdi. Yoz bu yil har yilgidan ham issiq kelganini aytdi.

– Fotihlar issiqqa bardosh berolmay o‘layotgani rostmi? – deb so‘radi.

– Birda-yarim o‘layotganlari bor, – dedi Bahodir.

– “Hindistonda turmaymiz, salqin joylarga qaytib ketamiz”, deyayotganlari-chi?

– Podshohlari ketgani qo‘ygaymi? Ko‘pchilik uning izmidan chiqmas ekan. O‘zi ham juda gapga usta notiq odam ekan. “Ketamiz”, deb yurganlarni saroyga to‘plab, shunday bir gaplashdiki, hammasi jim bo‘lib qoldi.

– Sen otangning qotilini... maqtayapsanmi?

Bahodir eshikka xavotirli ko‘z tashlab qo‘ydi. U o‘zi bilan birga kelgan hamrohlaridan xavotirda edi. Buni sezgan malika ovozini pasaytirib so‘radi:

– Ketingga odam qo‘yganlarmi?

– Ha, hech kim bilan yakkama-yakka gaplasholmayman. Hamisha yon-verimda qo‘riqchilar... Yomonlasam, darrov yetkazadiganlar ko‘p.

– Qo‘rqma, bu xonada faqat biz ikkalamiz... Ilgari bizga xizmat qilgan odamlardan saroyda kimdir bormi?

– Otamning vaziri Malikdod Koroniy bor... Keyin... bizning kutubxonada ishlagan to‘rtta olim ham xizmatga olindi. Bilishimcha, Bobur hindistonliklarni o‘ziga el qilmoqchi, ularning ishonchini qozonmoqchi. Shuning uchun otamning barcha oshpazlarini saroyga to‘plab, to‘rttasini o‘zi uchun tanlab olibdi.

– Shu bizning oshpazlar pishirgan ovqatlarni Bobur ham yermishmi?

– Ha, ko‘rganlardan eshitdim. Bobur hindistoniy taomlarni yeyish bilan ham o‘zini bizning elga yaqin ko‘rsatmoqchi bo‘lsa kerak.

Malika ilgari o‘zining itoatida bo‘lgan o‘sha to‘rtta oshpazdan birortasini qo‘lga olish mumkinligini o‘yladi-yu, kutilmagan bir bardamlik bilan o‘rnidan turib ketdi. Uning qalbini o‘rtab yurgan qayg‘u-alamlar endi birdan yangi yo‘l topganday bo‘ldi. Zo‘r intiqom tuyg‘usi uning xayollarini bir nuqtaga to‘plab, vujudiga kuch-quvvat berganday bo‘ldi. “Agar Bobur o‘ldirilsa, uning odamlari bu yerda turolmaydi: ketadi,

intiqom – qasos

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

mamlakat yana o‘zimizga qoladi!” degan o‘y ham uning oshpazlarni qo‘lga olish haqidagi qarorini mustahkamladi. Malika og‘zini nevarasining qulog‘iga yaqinlashtirib so‘radi:

– O‘sha oshpazlarni sen ko‘rdingmi?

– Ko‘rdim.

– Ularning orasida Ahmad choshnigir yo‘qmi?

Bahodir buvisining avzoyi o‘zgarganidan allanechuk cho‘chib:

– Yo‘q, – dedi. – Ahmad choshnigir Agradan Atovaga ketgan.

choshnigir – podshoh oshxonasi boshlig‘i

Baydaning nabirasi Bahodir nega Boburni maqtadi?

Malika Bahodirning eshikka yana xavotir bilan ko‘z tashlab qo‘yganini ko‘rdi-yu, kinoyaomuz iljaydi: “Bu nevaram bo‘shroq, ayg‘oqchisi ham ko‘p ekan, sir berib qo‘ysa, juvonmarg bo‘ladi, men ham niyatimga yetolmayman”, dedi o‘zicha va ko‘nglidagi qaltis niyatni unga bildirmay gapni boshqa yoqqa burdi:

– Bizga shunchalik sodiq ko‘ringan odamlar hozir dushmanlarimizga xizmat qilyapti-ya! E, bevafo dunyo! Malikdod Koroniy ham, oshpazlar ham hammasi sotilgan! Lekin sen... dushmanlar bilan til uchida murosa qil-u, dilingni otangga sodiq tut!

– Hali ham shunday, buvijon! – pichirlab dedi Bahodir.

* * *

Nevarasi ketgandan keyin malika Bayda xastalik to‘shagini yig‘ishtirdi, ilgarigi fig‘on chekishlar va qarg‘ashlarni ham bas qildi. Uning fikr-u zikri – eng sadoqatli va tadbirkor odamlarini ishga solib, Boburni zaharlab o‘ldirishga qaratildi. Malikaning atrofida fotihlardan qasos olishga tashna odamlar ko‘p edi. Bobur askarlari bilan to‘qnashuvlarda birining akasi, birining inisi o‘lgan, biri ilgarigi makoni va mavqeyidan ajralib xonavayron bo‘lgan... Malika ana shunday qasoskorlarning eng ishonchlilarini izlay boshladi. Bobur ishga olgan to‘rt oshpazdan birining yolg‘iz inisi Panipat jangida halok bo‘lgan edi. Malika zimdan surishtirib buni bilganda quvonib ketdi. Biroq o‘zi bu oshpaz bilan bevosita aloqa qilishni lozim topmadi. Chunki malikani hamma taniydi. Bobur odamlari sezib qolishlari mumkin.

Ilgari sulton Ibrohimning saroyida bu oshpazlar bilan birga ishlagan va ularga qadrdon bo‘lib qolgan eng ishonchli odam – Atovaga ketib qolgan Ahmad choshnigir edi. Malika Agradan ancha uzoq bo‘lgan Atovaga maxsus odam yuborib, Ahmad choshnigirni o‘z huzuriga taklif qildi.

Ahmad choshnigir Agradagi hovlisi va mol-u mulkidan ayrilib, fotihlarga qarshi g‘azabga to‘lib yurar edi. Malika Bayda uni o‘z parganasiga ishga oldi, uy-joy va maosh berdi, so‘ng asta-sekin ko‘nglidagi niyatini aytdi. Ahmad choshnigir avval “uddalay olmayman” deb qo‘rqdi. Lekin

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

malika unga dalda berdi, "Inisi Panipatda o'ldirilgan oshpaz bilan gaplashib bersang bo'ldi, qolgan ishni o'zimiz qilamiz", dedi. Ahmad choshnigir saroyga qanday kirishni bilmas edi. Buning yo'lini ham malika o'zi topdi. Malika Bayda nevarasidan xabar olish uchun saroyga borishi mumkin edi. Malika nafis shohi va parchalardan sovg'alar tayyorlatdi, so'ng bu sovg'alarni Ahmad choshnigirga ko'tartirib saroyga bordi... Malika podsho qabuliga kirib chiqqunicha Ahmad choshnigir eski qadrdoni bo'lgan o'sha oshpazni topgan va u bilan ertasi kuni saroydan tashqarida uchrashishga kelishgan edi. Oradan bir haftacha o'tgach, Ahmad choshnigir oshpaz bilan til biriktirganini malikaga kelib aytdi.

– U ham kelgindilarni daf qilishning yo'lini bilmay yurgan ekan. Podshohlari o'lsa, hammasi daf bo'ladi, deb ishontirdim!

– Agar hamma ish o'ylaganimizday bo'lsa, otasining taxtini Bahodirjon oladi. O'shanda sizga katta bir pargana beramiz. Oshpaz ham katta mukofot oladi.

– Ilohim, shu niyatimizga yetaylik! Vatanimiz berahm fotihlardan xalos bo'lsin!

– Omin!

Ahmad choshnigirning saroy oshpazi bilan kelishuviga binoan, Boburning ovqatiga solinishi kerak bo'lgan zaharni malika o'zining eng ishonchli bir kanizidan berib yuborishi kerak edi. Endi ular mana shu nozik ishni qaysi kanizga topshirishni o'ylay boshladilar...

* * *

Uch oydan beri muttasil ko'tarilib borayotgan jazirama issiqlar hindcha "ashora" deb ataladigan to'rtinchi oyga kelib juda avjiga chiqib ketdi. Yomg'ir faslining boshlanishiga hali salkam bir oy bor. To'rt oydan beri nam ko'rmay, qurib yotgan yer issiqning zo'ridan tars-tars yorilib ketgan.

Jamna daryosining chap qirg'og'iga – ilgarigi tashlandiq yerlar va chakalakzorlar o'rniga qurilayotgan Zarafshon bog'ida hali soya joylar kam. Bobur qurilishni otliq aylanib ko'rar ekan, uzangi temirining issig'i etikdan o'tib, oyog'ini jizillatib uzib olayotganini sezadi. Oltin qoplangan egarning oftobda yaltirayotgan qoshini ushlaganda cho'g'ni ushlaganday bo'lib, qo'li kuyar edi.

Shunday bo'lsa ham, u issiqdan behalovat bo'layotganini ketidan ergashib kelayotgan beklariga sezdirmas edi. Chunki bu beklar o'lja tushgan xazinalardan katta-katta ulushlar olgandan beri salqin joylarga ketib, rohat-farog'atda yashashga intilishar, Agra va uning atrofida yangidan imorat qurib, bog'-rog' qilishga toqatlari yo'q edi.

Kobul va G'azni kabi salqin joylarga tezroq qaytib ketishning yo'lini izlayotgan beklardan biri marg'ilonlik Xo'ja Kalonbek edi.

Bobur unga uzun oq yaktak kiygan, kichkina oq salla o'ragan mo'ysafid me'morni ko'rsatdi-yu:

– Tanidingizmi? – dedi.

– Andijonlik mavlono Fazliddinmi?

shohi, parcha – ipak mato turi

yaktak – uzun, ko'krak qismi ochiq erkaklar kiyimi

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

– Ha, Kobuldan biz bilan ketma-ket kelsin deb tayinlagan edim. Sangtarosh o‘g‘li bilan yetib kelib, mana shu bog‘ning tarhini chizdi. Shundoq keksa odam chidagan issiqlarga nahotki biz bardosh bera olmasak?

– Lekin mijoziga issiq to‘g‘ri kelmaydigan odamlar ham bor-da, hazratim. Kechagi bodi samumda mening navkarlarimdan uchtasi tap-tap yiqilib jon berdi.

– Ajali yetgan bo‘lsa, samum bir sabab bo‘lgan, xolos, – dedi Bobur va ta’zim qilib peshvoz chiqqan mavlono Fazliddinga yuzlandi. – Hormang, mavlono... Qani, arzingiz bo‘lsa, eshitgali keldik.

– Arzim shuki, hazrati oliylari, bizga fil bilan ishlaydigan filbonlar kerak. Bog‘ o‘rtasidagi marmar qasr uchun Dehalpurdan juda og‘ir toshlar olib kelmoqchimiz. Bunday toshlarni katta arobalarga faqat fillar ortib berishlari mumkin.

Bobur Panipat jangida filbonlari bilan asir olingan suruv-suruv fillarni esladi. So‘ng devonxonaga ishga olingan hindistonlik maslahatchisi Malikdod Koroniyga yuzlandi:

– Janob Koroniy, harbiy fillarni mehnatga o‘rgatish mumkinmikin?

– Mumkin, hazratim. Fil juda ziyrak jonivordir. Filbonlardan eshitganim bor. Fillar qonli janglardan ko‘ra osuda mehnatga tezroq o‘rganar emishlar.

– Bizning qo‘shinlar fil yordami bilan jang qilishga odatlangan emaslar. Shuning uchun Panipatda o‘lja olingan harbiy fillarni qurilishlarda ishlatmoq mumkin. Janob Koroniy, bu farmonni shu bugunoq barcha filbonlarga yetkazing!

– Jonim bilan.

Koroniy buyruqni tezroq bajarish uchun hozir ketmoqchi edi, Bobur uni to‘xtatdi:

– Yana shahar-u qishloqlarga maxsus tavochilar yuboring. Biz Ibrohimdan o‘lja olingan boyliklarni obodonchilik yo‘lida sarflamoqchimiz. Shuni barcha viloyatlarga ma’lum qiling. Qurilishlarda ishlash uchun sizga o‘n besh ming korgar yetarlimi, mavlono?

– Yetarli. Lekin hazratim marmar qasr bilan tosh voyinni bir yilda qurib bitirishni buyurgan edilar. Sangkorlik – tez bo‘ladigan ish emas...

– Sangtaroshlarni ko‘paytirsak-chi? – dedi Bobur.

– Men ham shuni iltimos qilmoqchi edim. Hindistonning havosiga Hirot-u Samarqanddagi g‘isht-u koshindan ko‘ra tosh-u marmar mosroqdir.

– Ichi xuddi Samarqanddagi Ulug‘bek mirzo hammomidek sangfarsh qilinur, – dedi mavlono Fazliddin. – Lekin gumbazi mirzo hammomining gumbazidan xiyla ulug‘ bo‘lur. Devorlari qizil toshdan ishlanur... Marmarning bir xosiyati shuki, yozda muzdek salqinlik berur.

– Bo‘lmasa, marmar imoratlarni tezroq quringki, biz bu jaziramada kuyib kul bo‘lmaylik! – dedi issiqdan bo‘g‘riqqan Kalonbek.

– Marmar imoratlar tezroq bitsin desangiz, otdan tushib, hashar qilishing, janob bek! – deb tegishdi mavlono.

sangtarosh – tosh yo‘nuvchi
tarh – loyiha

bodi samum – issiq shamol

tavochi – hukmdorning farmonini joylarga yetkazuvchi amaldor

korgar – ishchi

voyin – katta hovuz

sangfarsh – toshdan ishlov berilgan

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Bobur uning javobidan mamnun bo‘lib kuldi-da:

– Qalay, mavlono, issiq o‘zingizni ko‘p qiynamadimi? – dedi.

– Qiynasa ham chidaymiz-da. Mana shunday katta obidalarni Andijonda quramen deb, qurolmadim. Hirotda quramen deb, qurolmadim. Chizgan tarhlarim o‘ttiz yil sarg‘ayib yotdi. Qarangki, butun umr qilgan orzularim uzoq Agraga kelganimda ro‘yobga chiqadigan bo‘lib turibdir. Taqdir-u nasibam shuni taqozo qilsa, issig‘i ko‘zimga ko‘rinurmi? Hindistoniy ustalar salqin tutadigan meva sharbatlari-yu yengil taomlar yeyishar ekan. Men ham shunga o‘rgandim. Ertalab salqinda turib bir paxra ishlaymen. Kun qiziganda bir paxra yotib dam olgaymen. Issiqning tafti pasaygach, yana bir paxra ishlagaymiz.

paxra – to‘rt soat

Nega Bobur o‘lja olingan boyliklarni obodonchilik yo‘lida sarflamoqchi bo‘lmoqda? Me’mor Fazliddinga Andijonda, Hirotda qila olmagan ishlarini Agraga kelib amalga oshirishiga imkon berishida Boburga xos qanday xususiyatlarni ko‘rdingiz?

* * *

Qayiqlarga minib kemaga yetganlarida Bobur Xo‘ja Kalonbekni kemaning tumshuq tomonidagi xonayi xosga boshladi. Kema daryo bo‘ylab suzib borar ekan, suvning shamoli eng avval shu xonaga tegar va ajib bir salqinlik berar edi.

savdar – xos xizmatkor

Savdarlar daryoda sovitilgan norinj va limu sharbatidan keltirdilar. Xo‘ja Kalonbek muzday norinj suvidan bir chini kosa sipqardi-yu, nafasini sal rostlab, Boburning yuziga qaradi.

norinj – apelsin
limu – limon

– Hazratim, siz ham qorayib, juda ozib ketibsiz, – dedi. – Bizga bildirmaysiz-u, lekin ne chog‘lik qiynalib yurganingizni boshqalar sezmasa ham, men payqaymen.

– Ha, endi... Siz bilan biz o‘ttiz yildan beri birgamiz. Ne ranj-u, ne mashaqqatlarni boshdan kechirmadik! O‘shal g‘am-u alamlarga nisbatan hozirgi azoblarimiz – davosini topsa bo‘ladigan dardlar-ku.

Xo‘ja Kalonbekni yana ter bosdi. U qo‘ynidan ipak ro‘molcha olib, peshonasidan ko‘ziga oqib tushgan terlarini artar ekan:

– Afsuski, yoshim ketib qoldi, – dedi. – Yigitlikda issiq-sovuqni farq qilmas edik. Hozir ellikdan oshdik... Sezib turibmenki, Hindning bodi havosidan bir haftada bir yoshga qarimoqdamen. Eski beklardan Qosimbek qavchin bor edi. Bu yil keksayib, dunyodan ko‘z yumdi. Bu ahvolda men ham ko‘pga bormasmen, hazratim!

– Unday demang, janob Kalonbek. Issiqqa ham odatlanurmiz.

– Hazratim, menga G‘aznini inoyat qilsangiz, marhamatingizdan umrbod minnatdor bo‘lur edim.

tangdast – qo‘li kalta

– Yana G‘azni deysiz-a! G‘aznida nechog‘lik tangdastlik bilan kun kechirganlarimiz esingizdan chiqdimi? Mahmud G‘aznaviyning buzilgan bandini tiklaymiz deb, uddasidan chiqolmagan edik. Odam topsak, mablag‘ topilmas edi, mablag‘ topsak, yana biron narsa yetishmas edi. Bu yerda hammasi bor. Kuch-u qudrat ummonday cheksiz!

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

– Lekin bu ummon mendek... musofirni nom-nishon qoldirmay yutib yuborishidan qo‘rqamen!

Xo‘ja Kalon “mendek musofirni” deb faqat o‘zi haqida gapirayotganday ko‘rinsa ham, aslida u Bobur bilan kelgan barcha vatandoshlarini nazarda tutmoqda edi. “Bu ulkan mamlakatga bir urvoq ham bo‘lolmaymiz, katta xalqqa aralashib, yo‘q bo‘lib ketamiz, undan ko‘ra oladigan o‘ljamizni olib, shimolga tezroq qaytib ketaylik”, deb yurgan beklar yolg‘iz Xo‘ja Kalon emas edi. Bobur shuni o‘yladi-yu:

– Maqsad nom-nishon qoldirish bo‘lsa, – dedi, – odam shu maqsadga o‘zini fido qila bilishi kerakmi, yo‘qmi? Biz o‘rgangan salqin bog‘lar, ravon ariqlar bu yerda yo‘q. Uzum yo‘q, qovun yo‘q, yax yo‘q. Yaxshi ot yo‘q. Sulton Ibrohimdek podshoning saroyida sham-u shamdon ishlatilmas ekan. Yuz-ikki yuz charog‘bon davtiylar tirik shamdon bo‘lib xizmat qilar ekanlar. Chap iliklariga sepoya bor chirog‘ni tutib, o‘ng iliklariga yog‘ solingan kaduni ko‘tarib, ulug‘lariga chirog‘ kerak bo‘lganda o‘trularida shamdonga o‘xshab turar ekanlar... Men buyurdimkim, hunarmandlarga bizning shamdonlar-u qandillarni ko‘rsatib, shundaylarini yasatsinlar. Bir oy o‘tmay saroyga yetgulik shamdon-u qandil tayyorlandi. Shamgarlik ham joriy etildi. Tok ektirdim, nasib qilsa, hind uzumini ham yermiz. Bugun ko‘rib kelgan bog‘imizning o‘rni qanchalik besafo yerlar bo‘lganini ko‘rgan edingiz. O‘lmasak, ushbu yerda Samarqand-u Hirotning eng mashhur bog‘-u chorbog‘laridan ham go‘zalroq bog‘lar, ko‘shklar barpo etilganini ko‘rurmiz. Samarqand-u Hirotda inqirozga yuz tutgan madaniyatni biz endi hind madaniyatiga qo‘shib yuksaltira olsak... Shuning hammasi bizdan nom-u nishon bo‘lib, avlodlar xotirasida qolmasmi, bek?

yax – muz

kadu – qovoq

– Hazratim, niyatlaringizning ulug‘ligiga tasanno ayturmen. Lekin vatanimizda qilmagan nek ishlarni begona yurtda qilsak, kim buning qadriga yetur? Ne qilsangiz ham, biz kelgindi fotihlarmiz. “Bular yigitlarimizni jangda o‘ldirib, kishvarimizni zo‘rlik bilan olgan”, deb ta’na qilmaslarmi? Paytini topganda qasos olmaslarmi?

kishvar – yurt

Bobur og‘ir “uf” tortdi-yu:

– Ne qilay? – dedi. – Men shu orzularni vatanimda ro‘yobga chiqaray deb ozmuncha olishdimmi?

– Sizdan oldin Hindistonni fath etgan Mahmud G‘aznaviy katta o‘ljalar olib, kerakli hunarpeshalarni G‘azniga olib ketib ishlatgan. Ana!...

– Nahotki siz mening Mahmud G‘aznaviyga o‘xshashimni istarsiz?

– Gustoxligim uchun ma’zur tuting!

gustox – odobsiz

– Axir biz mamlakatni talab, boyliklarini-yu hunarpeshalarini olib chiqib ketadigan qaroqchilar emasmiz-ku!

– Bir she’ringizda o‘z yerimizni qo‘yib Hind sari yuzlanganimizni yuzi qarolik deb atagan emasmidingiz, hazratim?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

– Atagan bo‘lsam, endi yuzimizga teggan qaroni yuvib tashlash harakatidamen! Agar biz ham Xisrav Dehlaviydek shu mamlakatga farzand bo‘lsak, butun aql-u zakovatimizni unga baxsh etsak, aminmenki, kelajak avlodlar oldida yuzimiz yorug‘ bo‘lg‘usidir!

Xo‘ja Kalonbek munozara yo‘li bilan Boburga so‘zini o‘tkazolmasligini endi aniq sezdi.

– Hazratim, sizning metin irodangiz bor, – deb endi Boburni maqtab yumshatishga tirisha boshladi. – Sizning boshingizga tushgan kulfatlar boshqa odamning boshiga tushsa, bardosh berolmas edi. Lekin siz hammasiga bardosh beribgina qolmay, yana shunday ulkan ishlar qilmoqchisizki, bunga jahon tahsin o‘qig‘usidir. Yillar o‘tgan sari men sizning ulug‘ bir siymo ekaningizni tobora aniq sezmoqdamen. Mana hozir ham sizning yoningizda xuddi ulkan tog‘ cho‘qqisining domonasidagi kichik bir tepachadek, o‘zimga-o‘zim ojiz ko‘rinib ketdim.

Xo‘ja Kalonbek ovozi hayajondan titrab, ko‘zi alamdanmi, o‘ksinishdanmi chaqnab gapirmoqda edi. Buni ko‘rgan Bobur uning ko‘nglini ko‘targisi kelib, Dehlaviyning bir satrini eslatdi:

– “Asli kas az kas naboshad kam chu jumla az odamand”*.

* Aslida odam odamdan kam emas, chunki hammasi ham Odam Ato farzandidir.

– Lekin besh qo‘l barobar emas, hazratim... Mening ahvolim o‘zimga ma’lum. Siz ko‘targan ulug‘ yukka yelkamni tutsam, mayib bo‘lurmen. Meni besh-olti yil tirik yursin desangiz, ruxsat bering. G‘azniga boray. Mahmud G‘aznaviydan qolgan o‘sha eski bandni tiklatib, cho‘lni obod qilay. Bu ishning butun savobini sizga bag‘ishlay.

Bobur bu so‘zlarga e’tiroz qilmay, o‘ylanib qoldi. Xo‘ja Kalonbek ko‘zlagan maqsadiga yetkazadigan yo‘lni endi topganini sezdi-yu, shosha-pisha so‘zida davom etdi:

– Hazratim, iltimosimni qabul eting! Umrimning oxirida duoyi joningizni qilib orom olay. O‘lsam, jasadimni G‘azniga qo‘ysinlar. Harna vatanimizga yaqinroq bo‘lg‘aymen.

Nega Xo‘ja Kalon Hindistonda qolishni istamayapti? Bobur uni Hindistonda qolishga ko‘ndirish uchun qanday dalillar keltirmoqda?

Bobur Xo‘ja Kalonbekning ko‘zi namlanganini ko‘rdi-yu, o‘zining Humoyunga tayinlagan bir gapi esiga tushdi. “Urushda qon kechib yuribmiz, mabodo vafot etsam, meni Kobulga eltib ko‘mgin”, degan edi Bobur. Xo‘ja Kalonbek ketsa, ular yana diydor ko‘risha olarmikinlar? Shu o‘y ta’sirida Boburning ham ko‘ngli buzilib, ovozi tovlanib eshitildi:

– Ketingizdan boshqa bek-navkarlar ergashsa... men kim bilan qolg‘aymen?

– Hamma beklar bilan o‘zim gaplashurmen, “Podshoh G‘aznidagi bandni tiklash uchungina ruxsat berdilar”, dermen. Hech kim menga ergashmaydigan qilib ketgaymen, bunga ishoning!

Bobur Hirotga, Tabrizga, Balxga, Andijon-u Toshkentga odamlar yuborgan, “Kimda-kim bizga xayrixoh bo‘lsa, Hindistonga kelsin,

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

ulufalar berurmiz, ne istaklari bo‘lsa, ado eturmiz” degan qadag‘alar yo‘llagan edi. Kobuldagi dorug‘alar keluvchilarning sarf-u xarajatlari uchun maxsus mablag‘lar olgan edilar.

– Bo‘lmasa, siz ham... qayerdaki qizilboshlar bilan shayboniyzodalardan bezgan olim-u hunarmand, bek-u navkar ko‘rsangiz, bizning nomimizdan ayting, kelsinlar! – dedi u Xo‘ja Kalonbekka.

– Jonim bilan ayturmen, toki mendek ketganlarning biri o‘rniga yuzi kelsin!

Xo‘ja Kalonbek Boburga bu gaplarni chin dildan aytganday ko‘ringan edi. Ammo Hindistondan ketishga ijozat olgandan keyin Boburga o‘zini ayanch ko‘rsatib yalingani uchun alami keldi. U bek do‘stlari oldida ichgan qasamini qoyillatib bajarganini hammaga namoyish qilgisi, Hindda qolayotganlarni kuydirib ketgisi keldi-yu, Agrada yashagan uyining devoriga bir bayt she’r yozib qoldirdi:

Agar bayxayri salomat guzar zi Sind kunam,
Siyoro‘y shavam, gar havoyi Hind kunam.*

Xo‘ja Kalonbekning uyiga ko‘chib o‘tgan Hindubek bir kun kechki payt bu she’rni yozib kelib, Boburga ko‘rsatdi va baytni o‘qigan odamlar hamma joyda shov-shuv gap qilib yurganini aytdi.

Bobur Xo‘ja Kalonning “Hech kim menga ergashmaydigan qilib ketgaymen!” degan so‘zlarini esladi-yu:

– Bu kudurat nechun? – deb hayron bo‘ldi. – Nahotki, Xo‘ja Kalon boshqa beklarning ham Hinddan ketishini istasa?

– Bilmadim, bu yerda qolgan beklarning fidoyiligi Xo‘ja Kalonbekning alamini keltirganmi?

– Ha, o‘zi shunday fidoyi bo‘lolmaganining alami bu! – dedi Bobur va qarsak chalib munshini chaqirdi.

Munshi kelgunicha o‘rnidan turib, xonayi xosning u burchagidan bu burchagiga asabiy bir tarzda borib keldi. Bir ko‘ngli Xo‘ja Kalonning ketidan chopar yuborib, uni G‘azni hokimligidan bekor qilishga moyil edi. Lekin shuncha yillik qadrdonidan ayrilish, keyin G‘aznidagi vayron bo‘lib yotgan bandni tiklash uchun yana boshqa odam izlash tashvishi uni bu fikrdan qaytardi.

Nima qilish kerak? Xo‘ja Kalonning she’ri Hindistondan ketgisi kelib yurgan bek-u navkarlarni battar qo‘zg‘atib qo‘yishi aniq. Agar bu bayt uchun Xo‘ja Kalon jazolansa, she’rning ta’siri yanada oshishi aniq.

– Bu bayt devorga yozilganicha turibdimi? – so‘radi Bobur Hindubekdan.

– O‘chirtirib tashladim.

– Bekor qilibsiz, bek. Siz o‘chirganingizdan so‘ng bu bayt odamlarning xotirasiga yanada mahkamroq o‘rnashur, she’rning ta’sirini faqat she’r bilan kesmoq mumkin.

Qo‘lida qalam-qog‘ozi bilan xipcha bo‘y, o‘rta yashar munshi ta’zim qilib kirdi.

qadag‘a – chaqiriq xat

dorug‘a – viloyat yoki shahar hokimi

* Sind daryosidan eson-omon o‘tib olgach, yana Hindni havas qilsam, yuzim qora bo‘lsin.

kudurat – xafalik

munshi – saroy kotibi

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

juzdon – qog‘ozlar uchun jild, xalta

– Yozing! – buyurdi Bobur unga.

Munshi gilam ustiga cho‘kka tushib, juzdonni tizzasiga qo‘ydi, qog‘ozni kafti bilan tekislab, yozishga tayyorlandi.

Bobur badiha ohangida gapirdi:

– Yuz shukr de Boburki, Karim-u G‘affor
Berdi senga Sind-u Hind-u kishvari bisyor.

“Kishvar” so‘zi vaznga tushmay saktalik berganini sezdi-da, ikkinchi satrni boshqacha qilib takrorladi:

Berdi senga Sind-u Hind-u mulki bisyor.
Issiqlig‘iga gar senda yo‘qdur toqat,
Sovuq yuzin ko‘ray desang, G‘azni bor.

Mushoiraning nozik qoidalariga moslab birpasda yaratilgan bu badiha Hindubekning zavqini keltirdi. U devorga sovuq gap yozib ketgan Xo‘ja Kalonbekning basharasi ham Boburga nechog‘liq sovuq ko‘ringanini o‘zicha tasavvur etib, beixtiyor kulib yubordi. Bobur otgan o‘qining nishonga tegganini shu zavqli kulgidan sezdi-yu, yengil bir so‘lish olib, munshiga buyurdi.

– Badihani uch nusxa ko‘chiring. Bir nusxasini Xo‘ja Kalonbekning ketidan jo‘natsinlar. Hindubek, bir nusxasini siz olib, Kalonbekning baytini o‘qigan bek-u navkarlarga bering. Ko‘rsinlar-chi, mushoirada kim g‘olib?

Bu badihani o‘qigan ko‘pchilik bek va mulozimlar Xo‘ja Kalonbekni kulgi qilishib: “Sovuq yuzin ko‘ray desang, G‘azni bor!” – deydigan bo‘lishdi. Issiqdan toqatsizlanib noliydiganlarga ham “Sovuq yuzin ko‘ray desang, G‘azni bor!” deb istehzo qilish rasm bo‘ldi.

Bobur Hindistonda. XVI asr miniatyurasi

Bobur Xo‘ja Kalonni qilgan ishi uchun shu tarzda “jazo”lashi to‘g‘ri edimi? Siz Boburning o‘rnida qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?

* * *

Panipatda og‘ir yarador bo‘lgan Tohir uch oygacha o‘rnidan turolmay yotdi. Saroydan yuborilgan tabib uning etidagi yaralarni durust muolaja qildi-yu, lekin qovurg‘a va qo‘l suyaklarining mayda-mayda bo‘lib singan joylarini epaqaga keltirolmadi. Singan suyaklarning og‘rig‘i tun-u kun tinchlik bermas edi.

Shuning ustiga Kobuldan mavlono Fazliddin Tohirning muhandis o‘g‘li Safarbekni boshlab kelib qoldi. Ular qurilishda birga ishlaydigan hind sangtaroshlaridan so‘rab-surishtirib, agralik bir jarrohni topib keldilar. Jarroh kambag‘alparvar odam ekanini eshitgan mavlono Fazliddin jiyanini unga tanishtirar ekan:

– Sohib Bayju, – dedi, – Tohir ham aslida zahmatkash bir dehqon edi. Men buning navkar bo‘lishiga qarshi edim...

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

– Jiyanim ham endi beklig-u navkarlikni tashlamoqchi, – dedi. – Siz-u bizdek tinch mehnat bilan kun koʻrmoqchi. Bunga yordam beraylik!

– Bilaman, siz bizning yurtimizga obodonchilik qilish uchun kelgansiz, sohib, – dedi Bayju. – Siz iltimos qilganingiz uchun jiyaningizga qoʻlimdan kelganicha yordam beraman!

Tabib aytganini qilib Tohirni bir oy astoydil davoladi. Bayjuning sezgir qoʻllari qaysi suyak qayeridan qanday singanini bexato aniqlab, hammasini mohirlik bilan joy-joyiga qoʻyib chiqdi. Bir oy davomida Tohir uning kafti oqish-koʻkimtir, usti qora mayin panjalariga xuddi oʻz qoʻllariga oʻrganganday oʻrganib ketdi. Keyin tuzalib oʻrnidan turgan kuni Bayjuning shu panjalarini qoʻllariga olib, koʻziga surdi:

– Ayting, sohib, men bu yaxshiligingizni qanday qaytaray?

– Jarrohning qoʻlini shunchalik e'zozlab koʻzga surganingiz – yaxshiligimning qaytgani emasmi?

– Yoʻq, men sizdan umrbod qarzdormen!

– Kim bilsin, balki, men oʻzim hozir bir qarzimni uzgandirman?

Mavlono Fazliddin ham shu yerda turgan edi. U tabibning allanimani "Aytaymi, aytmaymi?" deb ikkilanayotganini koʻrdi-yu:

– Sohib Bayju, siz nechun oʻzingizni qarzdor sezdingiz? – dedi.

– Buning tarixi uzoq... Faqat iltimos qilaman, boshqa hech kimga aytmangizlar.

– Iltimosingizni bajonidil qabul qildik!

– Mening bir filbon akam bor. Ibrohim Lodi zamonida akam Agradan ish topolmay, Panjobga ketgan edi. Oʻsha yerda qoʻshinlaringiz qancha odamlarimizni qirganini eshitibdi. "Bularni vatanimga kirgizmayman", debdi-yu, qoʻshinlaringizni adashtirib, changalzor botqoqlikka boshlabdi.

– E, boʻldi, boʻldi! – dedi Tohir filbon rahnamo La'l Chandni eslab. – Bizning ikkita navkarimizni filiga urdirib, mayib qilib ketgan edi... Ammo men oʻshanda uning dovyurakligiga qoyil boʻlgan edim. Bir oʻzi bir qoʻshindan qoʻrqmay olishgan edi-ya!.. Biz uni changalzor botqoqlikdan chiqolmaydi, deb oʻylagan edik. Chiqibdimi-a? Hozir tirikmi?

– Tirik, lekin endi Agraga kelishdan qoʻrqadi... Akam oʻsha navkarlaringni mayib qilgani... yaxshi boʻlmagan... Ehtimol, men sohib Tohirni davolaganim– oʻsha gunohimizni yuvib ketgandir?

– Siz akangiz qilgan ishni gunoh deb atamang, sohib Bayju! – e'tiroz qildi mavlono Fazliddin. – Vatanni bunday bahodirona himoya qilish gunoh emas, balki sharafdir!

– Yaxshi soʻzlaringiz uchun rahmat, sohib! Ammo oʻsha ishi tufayli akam hamon ishsiz. Oʻz vatanida bekinib, qochib yuribdi. Bola-chaqasi och-yalangʻoch.

– Akangiz qurilishda ishlaganmi?

– Ha, fil bilan doim qurilishda ishlar edi.

– Boʻlmasa menga uchrasin, ish topib beray. Biz hatto harbiy fillarni mehnatga oʻrgatmoqdamiz-ku!

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

– Akam buning hammasini eshitgan. Ibrohim Lodi bekitib yotgan oltinlarni sizlar endi qurilishga sarflayotganlaringizdan mamnun. Ammo qo'lga tushib qolishdan qo'rqadi.

– Balki, akangizning Agraga kelmagani to'g'ridir. Bu yerda bek-u mulozimlar ko'p, tanib qolib, bir balo qilishlari mumkin. Akangiz a'yonlar kam boradigan chet joydagi qurilishga kelsin. Men juma kuni Dehalpurga boraman. Istasa, o'sha joyga borsin.

– Sohib, sizni podshoyingiz hurmat qilar emish, eng katta qurilishlarning sarkori ekansiz. Podshohdan akamning gunohini so'rab, shafoat olib berolmaysizmi? O'shanda biz bexavotir yurar edik.

Mavlono Fazliddin o'ylanib turdi-yu:

– Sizni bunga ishontirolmayman, Bayju, – dedi. – Chunki podshohning joniga qasd qilgan odamlarni ayovsiz jazolash haqida farmon chiqarilgan. Bobur mirzo shu farmonga imzo chekkanlar. O'zlari sohibdil shoir, ma'rifatli inson bo'lsalar ham, podshohlik bilan fotihlik u kishini murakkab ziddiyatlarga duchor qilgan. O'shanda La'l Chand uni askarlari bilan adashtirib, yo'q qilib yubormoqchi bo'lgani esiga tushsa, qahr ustida qatl ettirib yuborishi mumkin.

– Bu rost, – dedi Tohir tog'asining so'zini ma'qullab, – hatto men... endi saroyga xizmatga qaytishdan cho'chiymen. Bobur mirzoni chin dildan yaxshi ko'rsam ham, uning shafqatsiz muhitidan uzoqroq yurgim keladi.

– Undoq bo'lsa, endi mening akam najotni faqat sizdan kutadi, mavlono Fazliddin!

– Men unga qo'limdan kelgan yaxshilikni qilishga tayyormen. Kelgusi juma Dehalpurga kelsin. Faqat... o'zini... Sizning nomingiz bilan atasin. Iloji bo'lsa, qiyofasini sal o'zgartirsin.

– Akamning o'zi ham soch-soqol o'stirib, tanish qiyin bo'lgan qiyofaga kirgan.

– Juda soz. Balodan hazar deydilar. Fili bilan qurilishda ishlab, o'zini o'nglab olsin, so'ngra yana kengashib ko'rurmiz!

Tabib Bayju akasi La'l Chandni kelgusi haftada Dehalpurga mavlono Fazliddin oldiga yuboradigan bo'lib ketdi.

Yuqoridagi parchada Fazliddinga xos qanday xususiyatlarni kuzatdingiz? Uning asar g'oyasi rivojidagi ahamiyatini matn asosida izohlang.

* * *

Agrada sershamol yomg'ir fasli boshlangan saraton kunlarining birida Tohir saroyga – Boburning huzuriga keldi.

Devoni xosning marmar ayvonida o'tirgan Bobur uni zo'rg'a tanidi – Tohirning soch-soqoli oqarib ketgan, yuzidagi chandiqdan tashqari, engagi aralash bo'yniga go'yo katta bir yamoq tushgan.

– Xayriyat, tuzalib ketibsiz, – deb Bobur uning ko'nglini ko'taradigan gap izladi.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

– Ha, mulla tog'am jonimga ora kirdilar...

– Endi qalay, avvalgi xizmatga qaytmoqchimisiz?

Tohirning o'ng qo'li zaif, bo'yni ham durust qayrilmaydigan bo'lib qolgan, yon-veriga qaramoqchi bo'lsa, butun gavdasini burib qarar edi.

– Men endi qo'rchilikka yaramasmen.

qo'rchi – jangchi

– Bo'lmasa, ichki beklar qatorida yuravering.

– Lekin men beklikni eplolmadim... Panipatda o'zimdan o'tdi.

– Nechun?

Tohir jang bo'ladigan kuni azonda qanday sabuhiy qilganini, otdan qanday yiqilganini va qadrdon navkarini qanday shafqatsizlarcha urganini bir-bir aytib berdi.

– Bek bo'ldim, deb mag'rurlanib zolim bo'lib ketgan ekanmen. O'lim to'shagida yotib, o'zimni tanidim. Menga beklik... to'g'ri kelmas ekan, hazratim. O'zim ham endi mayib odammen. Ijozat bering, mulla tog'am tarhini chizgan bog'da suvchimi, gulchimi bo'lib qolay... Bir vaqtlar Quvada kichkina bog'chamizdagi dov-daraxtlarni sug'orishni yaxshi ko'rar edim...

Bobur ayvonning jimjimali marmar ustunlari ortidan suzib o'tayotgan yomg'ir bulutlariga tikilib og'ir xo'rsindi. U Tohirga yaxshilik qilmoqchi bo'lib beklik unvonini bergani oxir-oqibatda yomonlik bo'lib chiqqan edi.

– Siz-ku, beklarning kasofat muhitidan suvchi bo'lib qutulmoqchisiz. Lekin men qandoq qutulgaymen?

Bu savol Tohirni shoshirib qo'ydi.

– Siz... podshohsiz, hazratim. Beklar sizning itoatingizdalar.

– Itoatimda bo'lib itoat etdirurlar... Bularning shunday girdoblari borki, sal bexabar qolsangiz, g'arq qilib yuborurlar... Men So'xda sizga aytgan gaplarim esingizdami?

– Men u so'zlaringizni hech vaqt unutmasam kerak...

– O'shanda siz umrbod huzuringizdan ketmasmen, degan edingiz-ku!

– Hazratim, men u vaqtda sog'lom yigit edim... Hozir ahvolim bu...

– Saroyda mening xilvatxonamga qaraydigan durust odam yo'q. Shu ishni siz olsangiz.

Xilvatxona – Boburning yolg'iz o'tirib ijod qiladigan joyi ekanini Tohir bilar, Bobur hayotining eng dilkash tomoni uning ijodida ekanini sezardi. Lekin saroyning murakkab, bo'g'iq muhitidan ko'ngli qolgan Tohir bog'da, tog'asining yonida ishlashni istardi.

– Hazratim, qulingizni ma'zur tuting. Men bog'da ishlaymen, deb ahd qilgan edim...

– Bog'da ham xilvatxona bo'lur, – dedi Bobur. – Qurib bitirilsa unga ham siz qaragaysiz. Ma'qulmi?

Endi "yo'q" deyishning iloji qolmadi. Boburning so'zini ikki qilib o'rganmagan Tohir qo'lini ko'ksiga qo'ydi-yu, rozilik berdi.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

* * *

Xilvatxonadan sal narida – saroy oshxonasida ovqat pishirib yurgan Bahlul ismli o‘rta yashar bir oshpaz ham voyinning chohi tagida jon bergan yer qazuvchilarni ko‘rgan edi. Bu fojia oshpazga Panipat jangida fotihlarning qilichidan halok bo‘lgan yigirma yashar suyukli inisini eslatgan va qalbidagi intiqom tuyg‘usini yana junbishga keltirgan edi.

pashkol – yomg‘ir mavsumi

Ahmad choshnigir malika Baydaning kanizlaridan birini oraga qo‘yib, zaharni shu Bahlulga yetkazib bergan edi. Malika Baydaning yana bir kanizi kelib, rejani hozirgi pashkol kunlarda – Bobur biron yoqqa yurishga ketib qolmasidan oldin amalga oshirish kerakligini aytgan edi.

misqol – 5 gramm atrofidagi og‘irlik o‘lchovi

To‘rt buklangan oq qog‘oz ichida ziravorga o‘xshab turgan zahar ikki misqolgina bo‘lsa ham, Bahlulga zo‘r bir po‘lat quroldek og‘ir tuyulardi. U jangda vatanini himoya qilib jon bergan inisining o‘chini shu qurol yordamida olishni va fotihlarni bu yerdan tezroq quvishni istar edi. Agar Bobur o‘ldirilsa, fotihlar Hindistonda turolmay ketib qolishlariga Ahmad choshnigir Bahlulni ishontirgan edi.

bakovul – hukmdor ovqatlarini nazorat qiluvchi shaxs

Podshoh oshxonasida har bir taomni tekshirib tatib ko‘radigan maxsus bakovullar bo‘lar edi. Qattiq yomg‘ir yog‘ayotgan kuni kechqurun shu bakovullar mast bo‘lib qolishdi.

Qozonda karundi daraxtining nordon mevasidan qo‘shib tayyorlangan mazali qayla pishib turibdi. Bobur bu qaylani yaxshi ko‘rishini Bahlul bilar edi. U sekin qo‘yin cho‘ntagiga qo‘l solib, to‘rt buklog‘lik qog‘ozni oldi. Oshxonada hech kim yo‘q. Bakovullar narigi xonada mast bo‘lib ashula aytishyapti, shamol aralash yomg‘ir yog‘yapti.

Bahlul zaharni qozonga solmadi – bakovullarning aroqqa qaylani gazak qilish odatlari bor, yeb ko‘rishsa, zaharlanib, bildirib qo‘yishlari mumkin. Shuning uchun oshpaz zaharni Bobur ovqat yeydigan chinni laganga yupqa lochira non ustiga sepa boshladi. Birdan shamol tashqi eshikni qarsillatib yopdi. Bahlulga kimdir kelayotganday tuyuldi-yu, zaharning qolganini qozon tagida yonib turgan olovga otdi. Keyin chinni lagandagi zahar sepilgan lochira ustiga tez-tez qaylani soldi.

Oradan sal vaqt o‘tgach, savdar kirdi, quyon go‘shtidan qilingan qovurdoqni va qayla solingan chinni laganni Bobur ovqat yeb o‘tirgan xo‘rakxonaga olib chiqib ketdi.

Ahmad choshnigir bu zaharni ta’midan bilib bo‘lmasligini, uning ta’siri asta-sekin bilinishini aytgan edi. Bahlul sir ochilguncha qo‘rg‘on darvozasidan chiqib ketish umidida edi. Ammo u oshxona eshigidan chiqayotganda shirakayf bakovullardan biriga duch keldi.

– Qani, quyon go‘shtidan bizga ham qoldirdingmi?

– Qayla bor, sohib.

– Yo‘q, quyon qovurdog‘i kerak!

– Qovurdoq oz edi, hammasini hazratga berib yubordim. Qayla yey qoling, gazakka yaxshi.

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

– Yo‘q! Quyon ko‘p edi-ku! Nega bizga qoldirmading?

– Hammasini qovurganim yo‘q edi...

– Bo‘lmasa hozir bizga quyon go‘shtidan qovurib ber! Tez!

Bakovulning yo‘g‘on gavdasi eshikni to‘sib turardi.

Oshpaz orqaga qaytdi va sarosima harakatlar bilan yog‘ dog‘lab, quyon go‘shtini qovurishga tayyorlay boshladi.

Yomg‘irli tun saroyni chulg‘ab olgan. Shu payt birdan xos navkarlar tabibga yugurib, bakovullar bir-birini chaqirib, oshxonaning ich-tashi to‘polon bo‘lib ketdi. Xilvatgohda o‘tirgan Tohir ham xo‘rakxonaga chopib keldi.

Bobur ustma-ust qayt qilib, yuzi ko‘karib ketgan. U nafasi qaytib, tashqariga intildi, ammo ikki qadam qo‘yguncha bo‘lmay gandiraklab yiqila boshladi. Tohir chopib borib, uni qo‘ltig‘idan suyab oldi. Tabib Yusufiy Boburning narigi qo‘ltig‘iga kirdi. Jonsarak bo‘lib qolgan savdarlarga buyurdi.

– Ichkariga joy qiling!

– Ravonga! – dedi Bobur yutoqib.

Uning ko‘ngli behud, boshi gir-gir aylanar, nuqul havo yetishmayotganday bo‘lar edi.

Boburni ravonga suyab chiqarib yotqizdilar. Tabib yurakka quvvat beradigan doridan hidlatdi.

ma’jun – ziravorlardan qilingan dori

– Sizga ne bo‘ldi, hazratim? Mayni ko‘p ichdingizmi? Yo ma’jun aralashdimi?

– Ovqatda bir sir bor! – dedi Bobur va yana ko‘ngli aynib, chinni toz ustiga engashdi. – Oshpaz taftish qilinsin!

Shu payt qayladan yegan yana ikki mulozim Boburga o‘xshab qayt qilayotgani ma’lum bo‘ldi. Bakovullar qayla pishirgan Bahlulni tutib, saroyning eng qattiqqo‘l tergovchisiga topshirdilar. Tergovchi uni turli qiynoqlarga solib so‘roq qilishga kirishdi.

Bobur tuni bo‘yi o‘lim bilan olishib chiqdi. Har qayt qilganda yurak-bag‘ri uzilib, parchalanib chiqayotganday og‘rir, goho nafasi ichiga tushib ketar edi. Tabib uning tepasidan ketmay:

– Shifo topasiz, bardam bo‘ling! – deb tasalli berar edi.

Tohir ham tabibga qarashib, tuni bo‘yi mijja qoqmay chiqdi. U Boburning boshini tutar, ter bosgan yuzini, bo‘yinlarini yelpir edi. Boburning zahar azobidan to‘lg‘anayotganini ko‘rgan sari, o‘zi ham zahar ichganday qiynalar edi. Tong payti Bobur alahsiraganday bo‘lib, Humoyun bilan Mohim begimni yo‘qlay boshladi.

Shimoliy chegaralar yana notinch bo‘lib qolgani uchun Bobur Humoyunni o‘tgan oyda Badaxshonga qaytarib yuborgan edi. Mohim begim hamon Kobulda edi.

– Humoyun mirzoga chopar yuboraylikmi? – deb so‘radi Tohir.

Bobur ko‘zini ochib, xiyol o‘ziga kelgandek bo‘ldi. Chopar Kobul va Badaxshonga yetib borguncha kamida bir oy vaqt o‘tadi. Bu orada biron kori hol bo‘lsa na Humoyun, na Mohim begim yetib kelolmasliklari aniq. Bobur g‘amgin bosh chayqab:

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

– Foydasi yo‘q, – dedi.

Uning ahvoli tobora tang bo‘layotganini ko‘rgan Tohir:

– Hazratim, bardam bo‘ling! – deb iltijo qildi. – Biz siz bilan necha o‘limlardan qolganmiz! Dardga bo‘y bermang, yengasiz!

– Lekin... bunday falokat... birinchi uchrashi!..

Bobur behol qo‘zg‘alib yana toz ustiga engashdi, og‘riq zarbidan ko‘zlariga duv-duv yosh keldi. So‘ng boshini yana yostiqqa qo‘yib ko‘zini yumib yotganda ravonga tergovchi kirdi.

Yusufiy unga:

– Qisqa so‘zlang, faqat axborot! – deb shipshidi.

Tergovchi Baydani ham so‘roq qilganini, narigi uchoviga shu badbaxt malika bosh bo‘lganini, lekin tashqi dushmanlar bilan, jumladan, Rano Sangram Sinx bilan aloqasi borligini rad etganini, boshqa savollarga javob berishdan bosh tortganini aytib berdi.

– Mal’unlar!.. dedi Bobur yotgan joyida g‘azabdan ovozi qaltirab. – Men ularga shunchalik ishonib... ilkidin taom yesam... izzat-ikrom qilsam!..

– Hazratim, bu iblislarni ming qiynoqqa solib o‘ldirmoq kerak!

– Narigi uchovini... qoidaga binoan qatl ettiring! Bayda... keyin!

– Bosh ustiga! – deb tergovchi chiqib ketdi.

Qoidaga binoan, podshohning joniga qasd qilganlar eng og‘ir qiynoqlarga solib o‘ldirilardi.

Malika Bayda eng qattiq hibsda saqlanar, endi odamlar uning qanday qatl etilishini kutar edi.

Tabib Yusufiy Boburning hayoti uchun ikki kecha-yu kunduz tinmay kurashdi. Tohir ham ikki kecha-yu kunduz bemorning yonidan jilmay, xizmatini qildi. Nihoyat, uchinchi kuni tabib:

– Xudoga ming qatla shukr, hazratim, bir o‘limdan qoldingiz! – dedi. – Onadan qayta tug‘ilganday bo‘ldingiz. Endi ozgina qatiq iching. So‘ngra uxlang!

Malika Bayda boshliq fitnachilar Bobur o‘ldirilsa, fotihlar Hindistonda turolmay, ketib qolishlariga ishonardilar. Sizningcha, agar Bobur zahardan vafot etsa, uning mulozimlari Hindistonni tark etgan bo‘larmidi? Bu holatda asar voqealari qanday rivojlangan bo‘lardi?

Bobur bir piyola qatiq ichgach, ko‘zini yumib, yostiqqa bosh qo‘ydi. Lekin boshidan o‘tgan o‘lim dahshati hamon xayolidan nari ketmasdi. Uning joni shuncha vaqt qil uchida osilib turganini o‘ylasa, beixtiyor vahmi kelardi. Shu qil uzilsa o‘lim, deb ataladigan zulmat qa’riga qulab tushishini ikki kun davomida muttasil his qilish unda yashash istagini kuchaytirib yuborgan edi. Hayotning bir lahzasi, bir uchquni dunyoning barcha boyliklari-yu toj-u taxtlaridan ham aziz ekani unga endi astoydil sezildi. Uning azobdan toliqqan vujudi hamon behol bo‘lsa ham, ruhida nimadir o‘zgargandek va

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

dunyo ko'ziga boshqacharoq ko'ringandek bo'lardi. Har bir kishining faqat bittagina umri bor ekan va umrning har lahzasi shu qadar shirin ekan, Boburning yoshiga yetmay o'lib ketganlarga oson tutib bo'ladimi? Ibrohim Lodi undan to'rt yosh kichik edi. Malika Bayda buni unutishi va Bobur yaxshi muomala qilgani uchungina uni kechirib, farzandi o'rnida e'zozlashi mumkinmidi? Jangda erishgan g'alabalari unga eng mushkul ishlarni ham oson ko'rsatib qo'yganini uchun bo'lsa kerakki, Bobur Ibrohim Lodining onasiga shunchalik ishongan va uning amrida bo'lgan oshpazlarni ishga olgan ekan-da! Bu oshpazlar tayyorlagan hindcha taomlarni yeyish bilan el-ulusning ko'nglini olmoqchi bo'lgani ham uning o'z kuchiga ortiq darajada ishonganidan kelib chiqmaganmikin? Holbuki, kechagi dushmanlarni bugun darhol do'stga aylantirish osonmi? Xususan, Baydadek farzand dog'ida kuyib yurganlar yoki oshpaz Bahluldek inisining qasdini olmoqchi bo'lganlar bilan muomalada ehtiyotkorroq bo'lishi kerak emasmidi? Kobulda Mohim begim aytgan iztirobli gaplar yana uning yodiga tushdi. Begona yurtdan borgan fotihni osonlikcha kechirmasliklari, uning qilichidan paydo bo'lgan yaralar asrlar davomida bitmasligi rost bo'lsa... Bobur bu mamlakat xalqining ko'nglini olishi uchun qancha ko'p yillar kerak bo'ladi? Bunga uning umri yetarmikin? Umuman, bu o'zi erishish mumkin bo'lgan maqsadmi yoki sarob?..

Bu o'ylardan Bobur yana boshi berk ko'chaga kirib qolganday bo'ldi, kelajak ko'ziga qorong'i ko'rinib ketdi.

O'lim bilan olishayotgan Boburning xayollariga e'tibor bering. Nega u aynan Ibrohim Lo'diyni esladi? Nega Hindiston xalqining ko'nglini olishni o'yladi?

Faqat tanasiga asta-sekin qaytib kelayotgan hayotiy kuchlar shu zulmatni yorib o'tib kelayotgan yog'dularday iliq tuyulardi. O'sha kecha Bobur yaxshi uxladi. Ertasi kuni tabib uning tomiridan ko'proq qon olmoqchi bo'ldi.

– Zaharlangan harom qonni chiqarib yuborgaymiz, hazratim. Yana biror hafta qimirlamay yotmog'ingiz kerak.

Bobur bunga e'tiroz qildi. Busiz ham uning darmoni ketib qolgan edi. Agar tabib ko'p qon olsa, uzoq yotishi aniq. Holbuki, "Podshoh o'lim to'shagida yotgan emish!", "Umid yo'q emish!" degan ovozalar tarqalgan, qulay fursat kutayotgan g'animlar jonlanib qolgan edi. Beklar ham Boburning tezroq ko'pchilikka ko'rinishini istar edilar.

g'anim – dushman

Oradan yana ikki kun o'tgach, Bobur tantanali marosimlarda kiyadigan kiyimlarda devoniomga chiqdi. Baland taxtning ikki tomonida tizilib turgan yuzdan ortiq amirlar, sarkardalar, viloyat hokimlari ta'zim bajo keltirib bosh egdilar. Bobur taxtga shoshilmay chiqib o'tirgach, ikkita navkar malika Baydani poygahdagi eshikdan olib kirdi.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Kampir hali ham boshdan oyoq oq kiyib, o‘g‘li Ibrohimga aza tutib yurar edi. Faqat qaddi avvalgidan biroz bukchayganroq. Lekin ko‘zlari Boburning yuziga tushganda uning og‘ir kasalga o‘xshab sarg‘ayib qolganidan qanoat hosil qilganday mamnun yiltiradi.

Eshikog‘a Muhammad Do‘lday malikani so‘roqqa tutib, suiqasdga yana kimlar ishtirok etganini surishtira boshladi.

– Suiqasd emas, bu intiqom! – dedi malika. – Podshohingiz to‘kkan qonlarning qasosi bu! Menga yordam bergan oshpaz ham, Ahmad Choshnigir ham, kaniz ham botir qasoskorlar edi. Hammasi mardlarcha jon berdi. Endi navbat meniki. Men o‘g‘limning dog‘ida kuyib kul bo‘lganman. Endi qo‘llaringdan kelsa, kulimni ko‘kka sovuringlar!

Malika saroyda hamma tushunadigan forsiy tilda gapirmoqda edi. A’yonlar nafaslarini ichlariga olib, yerga qarashdi. Malika bir o‘limni bo‘yniga olib kelgan, endi har bir so‘zni o‘qqa aylantirib yoviga dadil otar, Boburning g‘azabga to‘lib, jallod chaqirishini, qurolsiz onaga qarshi barcha qurollarini ishga solishini istardi. O‘shanda ma’naviy g‘alaba malika tomonida bo‘lar, uning dovyurakligi og‘izdan og‘izga o‘tib, odamlarning ehtiromini qozonar edi. Buni Bobur ham sezdi-yu, o‘zini bosib, Malikdod Koroniyga qaradi.

– Bu qanday yosumanlik! – dedi Malikdod Koroniy Baydaga. – Shunchalik o‘ch olish niyatingiz bor ekan, a’lohazratning inoyatlarini nega qabul qildingiz?

– Niyatimga yetishim uchun shunday qilishim kerak edi!

– A’lohazrat sizni “Mo‘tabar onamizdek e’zozlang!” deganlarida yig‘lab minnatdorchilik bildirganingiz bizning yodimizdan chiqqan emas!

– Men u paytda nafratim zo‘ridan yig‘lagan edim! O‘g‘limning kushandasiga ona bo‘lishdan qiynalib, ko‘zim yoshlangan edi!

– Yo alhazar! Axir siz ham Muhammad ummatisiz, muslimasiz-ku! O‘g‘lingiz bularga qarshi necha barobar katta kuch bilan chiqqanini bilmasmisiz? Bular mag‘lub bo‘lsa, o‘g‘lingiz yovlarining ming jonlaridan birini ham tirik qo‘ymas edi. Siz sulton Ibrohimning qanchalik shafqatsiz bo‘lganini bilar edingiz. Agar sizda insof-u imon bo‘lsa, qo‘lida qilichi bilan ochiqchasiga jang qilgan sarkardaga yashiriqcha zahar bermas edingiz!

– Men ayol kishiman, qilich ko‘tarib jang qilolmayman! Ana o‘sha zahar – mening qilichim edi. Fotihlar Panipatda ming-ming odamlarning o‘limiga sabab bo‘ldi! Bu mamlakatning yana ko‘p joylariga ajal urug‘ini ekdi! Men kabi minglab onalar hozir motam tutib, ko‘z yoshi to‘kib yuribdi. Qancha-qancha kelinchaklar beva qolib, o‘zlarini erlarining jasadlari bilan birga olovda yondiryapti! Men bergan zahar ana o‘sha ajalning urug‘idan tayyorlangan edi! Unga beva-bechoralarning achchiq ko‘z yoshlari ham qo‘shilgan edi!

Bobur Hindistonga nima maqsadda kelgan edi? Malika Baydaning Boburni o‘ldirish bilan bog‘liq harakatlarini oqlaysizmi?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Malikaning so‘nggi so‘zlari fotih beklarga ham tegib ketdi. Sersoqol bir bek o‘rnidan sakrab turib, Boburga ta’zim bilan murojaat qildi:

– Hazratim, bu yalmog‘izning tilini og‘zidan sug‘urib olmoq kerak! Shunday mal’unligi ustiga yana buncha gap!

– Mayli, meni qiymalab tashlasinlar! – deb qichqirdi Bayda. – Men qo‘rqmayman!

Bobur Baydani beklar istagandek qiynoqlarga solib o‘ldirtirsa, el-ulus nima deyishini o‘ylar ekan, “lop” etib Hirotdagi Hadicha begim esiga tushdi. Makkorlikda u ham Baydadan qolishmas edi, nevarasi Mo‘min mirzoning o‘limiga sabab bo‘lgani ko‘pchilikka ma’lum edi. Shunga qaramay, Shayboniyxon uni Mansur baxshining ixtiyoriga topshirib, dahshatli qiynoqlarga solgani juda ko‘p odamlarning nafratini keltirgan edi. Boburning o‘zi bundan bir haftagina oldin xilvatxonada xotira yozib o‘tirganda Shayboniyxonning bu ishini jirkanib qalamga olgan edi. “...Besh kunlik o‘tar dunyoda Shayboniyxon mundoq ablahona ishlari bilan yomon ot qozondi” degan satrlarni o‘z umr kitobiga bitgan Bobur endi mana bu qurolsiz onaga qanday chora ko‘rishi kerak? Qanday qilsa, odamlarning nafratiga emas, hurmatiga sazovor bo‘ladi?

Bobur malika Baydaga qanday jazo tayinlaydi deb o‘ylaysiz?

Beklar hamon Baydaning o‘ldirilishini talab qilmoqda edilar.

Malikaga zimdan tikilib turgan Bobur so‘nggi takliflardan Baydaning rangi o‘chib, yuzi ko‘kimtir tusga kirganini ko‘rdi. Shunda Muhammad Do‘ldayning ishorasi bilan beklar jim bo‘ldilar. Bobur malika tushunadigan forsiy tilda:

– Janob beklar taklif qilgan jazolar barchasi asosli, – dedi. – Biroq xiyonatchi malikaga bularning hammasidan ham og‘irroq bir jazo bor. Bu xonimning gapiga qaraganda, hamma yetim-u yesirlar uchun joni achir emish, zaharni o‘shalarning ko‘z yoshlaridan tayyorlagan emish! Biroq buning o‘g‘li Ibrohim Lodi el-ulusga ozmuncha zulm o‘tkazganmi? Ozmuncha odamni yetim-u yesir qilganmi? Ibrohim sababchi bo‘lgan ichki urushlarda har yili qancha odam halok bo‘lgan edi, janob Koroniy? Siz bilsangiz kerak?

– Hazratim, menda hisoboti bor: so‘nggi uch yil davomida sulton Ibrohim boshlagan ichki urushlarda bizdan yuz yigirma ming odam halok bo‘lmishdir.

– Uch yilda bir yuz yigirma ming! – xitob qildi Bobur. – Ibrohim Lodi esa o‘n yildan ortiq taxtda o‘ltirgan! Hindistonda odam ko‘p. Yuz mingi ichki urushda halok bo‘lsa, Ibrohim yana yuz mingini pulga yollagan. Agar Ibrohimning onasi bo‘lmish bu xonim o‘lgan navkarlarga-yu ularning yetim-yesirlariga astoydil jon kuydirsa, nechun yuz minglab odamlarning behuda o‘lib ketishlariga yo‘l qo‘ygan? Nechun o‘g‘lini bunday nojo‘ya qirg‘inlardan qaytarmagan?!

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

– Men faqat ona edim, podshoh o‘g‘limga amr-farmon berolmas edim! – deb malika Bayda endi o‘zini himoya qila boshladi.

– Nojo‘ya ichki qirg‘inlarni to‘xtatishga amr-farmon bermoq uchun mana biz bel bog‘ladik! – dedi Bobur. – Tangridan umidimiz borki, bu ulug‘ mamlakat endi yagona markaziy davlat atrofiga jipslashgusidir. Biz Hindni obod-u qudratli qilmoq orzusidamiz. Bizga hamkor-u hamnafas hind beklari, fuzalolari, hunarpeshalari ko‘p. Bizni zaharlab o‘ldirmoqchi bo‘lgan bu makkor xonim uchun eng og‘ir jazo shuki, biz mana, tirikmiz! Bu xonimning o‘zi-yu o‘g‘li qilolmagan ulkan ishlarni biz qilmoqdamiz!

Malikdod Koroniy birdan yengil tortib:

– Hazratim lutf qildilar! – dedi.

– Bu malika, – deb davom etdi Bobur, – shu darajada bevabechoraga jonkuyar bo‘lsa... Abdukarimbek!

Baydaga yaqin bir joyda o‘tirgan shig‘ovul sakrab o‘rnidan turdi. Bobur unga buyurdi:

buq’ayi xayr – xayr-ehson uyi

– Bu malikaning barcha mol-u dunyosini musodara qilib, Jamna bo‘yida bir buq’ayi xayr qurdiring. Barcha xizmatkorlari o‘sha buq’ada xizmat qilsin, malikaning butun boyligi, mol-u dunyosini yetim-yesirga xayr-ehson qilib ulashsinlar.

– Bosh ustiga! – deb Abdukarim bu farmonni ta’zim bilan qabul qildi.

– Malikani to umri yetgunicha tirik saqlash ham sizga topshirilur, janob Abdukarimbek!

– Tirik?! – hayron bo‘lib so‘radi shig‘ovul.

Boshqa a’yonlar ham taajjublanayotganini ko‘rgan Bobur ovozini ko‘taribroq gapirdi:

– Malika bizning bundan keyingi zafarlarimizni ham ko‘rsin. Yomonlikka yaxshilik qilish mard kishining qo‘lidan kelishiga amin bo‘lsin. Agar malikada vijdon bo‘lsa, o‘g‘li qilmay ketgan ishlarni biz qilganimizni ko‘rib, vijdoni azoblansin. Agar vijdoni bo‘lmasa, ichida faqat baxillik chayonlari bo‘lsa, bu chayonlar o‘zini chaqib yotaversin. Malikaga bundan o‘zga jazo munosib emasdir!

tanti – mard

Bek va a’yonlarning pichir-pichirlari orasidan allakimning:

– Hazratim tantilik qildilar! – degan quvonchli xitobi eshitildi.

O‘z o‘limini ham o‘tkir bir qurolga aylantirmoqchi bo‘lib kelgan malika Bayda endi bu qurolidan ayrilganini sezdi. Shu paytgacha u ajali yetganiga shubha qilmas edi. Endi birdan yana yashash umidi paydo bo‘ldi. Malikaning o‘lim sovug‘idan muzlagan qalbiga hayotning iliq nafasi tegdi-yu, ko‘nglini bo‘shashtirib yubordi.

Malika yuzini qo‘llari bilan to‘sib, yelkalari silkina-silkina yig‘lay boshladi.

Malika Baydani qanday tasavvur qildingiz? U to‘g‘ri yo‘l tutdimi? Nega Bobur uni o‘limga hukm qilmadi? Boburning qaroridan keyin malika pushaymonlik hissini tuyadi deb o‘ylaysizmi?

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

MUHOKAMA QILAMIZ

1. “Yulduzli tunlar” romanidan tanlangan mazkur bob nega “Agra: yo hayot, yo mamot” deb nomlangan? Bob sizda romanning umumiy g‘oyasi haqida qanday tasavvurlar uyg‘otdi?

2. Bobda Boburga xos qanday xususiyatlarni kashf etdingiz? Fikringizni matn asosida dalillang.

3. Pirimqul Qodirov Bobur haqida shunday yozadi: “Amir Temur tajribasini eng chuqur o‘rgangan va davom ettirgan temuriyzoda, menimcha, Boburdir. Bobur butun hayoti davomida Amir Temurning tuzuklaridagi purma’no so‘zlardan juda ko‘p ibrat olgan. Daho darajasidagi talant nuqtayi nazaridan qaraganda, Amir Temurga irsiy voris va yaqin avlod Bobur Mirzo deb aytish mumkin”. Muallifning Bobur haqidagi qarashlari asardagi Bobur obraziga qanday ta’sir qilgan? Sizningcha, Bobur obrazida insonga xos kamchiliklarni ham kuzatish mumkinmi?

LOYIHA

“Yulduzli tunlar” romani asosida ishlangan “Bobur” videofilmidan Darveshgovning o‘limga hukm qilinishi lavhasini tomosha qiling. Darveshgovning o‘ldirilishiga rozilik bergan Bobur va malika Baydani o‘limga hukm qilishdan bosh tortgan Boburni solishtirib esse yozing.

BADIIY TAHLIL ASOSLARINI O‘RGANAMIZ: KONFLIKT

Badiiy asar odatda **konflikt** (ziddiyat, qarama-qarshilik) asosiga quriladi. Konflikt har xil bo‘lishi mumkin:

– bosh qahramonning boshqa qahramon (yoki qahramonlar) bilan ziddiyati;

– qahramonning tabiat kuchlariga yoki o‘zini o‘rab turgan muhitga nisbatan ziddiyati;

– qahramonning o‘ylari, his-tuyg‘ulari o‘rtasidagi ziddiyat.

Konflikt syujetdagi voqealarni harakatga keltiradi va asar g‘oyasi, qahramonlar xarakterini ochib berishga xizmat qiladi. Badiiy asar bir emas, bir necha konflikt asosida qurilishi ham mumkin.

Misol uchun, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida asar voqealari Anvar va Abdurahmon o‘rtasidagi ziddiyat asosida rivojlanadi va bu voqealar orqali o‘quvchi Anvar, Ra’no, Abdurahmon singari qahramonlarning xarakterini bilib oladi.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asarida esa Hoshimjonning “o‘qimasdan odam bo‘lish” istagi real voqelik bilan konfliktga kirishadi va natijada Hoshimjon turli kulgili vaziyatlarga tushib qoladi.

“Yulduzli tunlar” romanidan olingan bobda Boburning kim (yoki kimlar) bilan konfliktini kuzatish mumkin? Bu konfliktlar Bobur xarakterini ochib berishda qanday ahamiyatga ega?

MUSTAQIL O‘QISH UCHUN

Pirimqul Qodirovning “Ilinj” hikoyasini o‘qib chiqishingizni tavsiya qilamiz.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

FANLARARO ALOQA: ADABIYOT VA TARIX

Bu mavzuda biz:
– tarixchi, yozuvchi va shoirning tarixiy voqealarga yondashuvidagi farqlarni solishtiramiz.

Matnlarni o‘qing. Savollarga javob bering.

Shayboniyxon 1500-yilda Samarqandni egallagach, Bobur Mirzo unga qarshi yurish boshladi. Bu paytda Shayboniyxon Samarqanddan tashqarida edi. Bobur Mirzo qo‘shini shiddat bilan hujum qilib, Shayboniyxonning bu yerda qoldirib ketgan 600 kishilik askarini mag‘lubiyatga uchratdi va Samarqand taxtini ikkinchi marta egalladi.

Shayboniyxon bu orada chekindi va bo‘lajak hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko‘ra boshladi. 1501-yilning aprelida Zarafshon bo‘yida bo‘lib o‘tgan og‘ir jangda Bobur Mirzo yengiladi va Samarqandga chekinadi. Shayboniyxon Samarqandni qamal qilib, Bobur Mirzoga sulh taklif qildi. Sulh shartlari Bobur Mirzo uchun juda haqoratli bo‘lsa-da, og‘ir va nochor ahvolga tushib qolgan Bobur sulhga rozi bo‘ladi va Samarqandni tark etib, o‘zga yurtlarga ketishga majbur bo‘ldi.

“O‘zbekiston tarixi” darsligidan.
“O‘qituvchi”, 2014

* * *

Hijriy to‘qqiz yuz yettinchi yilning kech kuzida toj-u taxtidan mahrum etilgan Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo ko‘hna va azim Shoshning ustki tarafida, Chir vohasining tog‘li kentlarida yaqin bir oy o‘ttiz chog‘li yigiti bilan sarson-sargardon kezib yurardi.

Manglayidan mangu qor arimas Chotqol bag‘rida yashnab yotgan Farkat nomli so‘lim, mo‘jazgina bu kent Bobur Mirzoning ko‘ngliga xiliy ma’qul tushib, ikki haftadan buyon shu yerda xirgoh (chodir) tikib, turg‘un bo‘lib qolgan edi.

... Tun bo‘yi sharros quygan yomg‘ir kuni bilan tinmadi. Osmoni falakni to‘ldirib yuborgan qora bulutlar qahr bilan to‘lg‘anib, savalab sel quyardi. Bobur yelkasiga chakmon tashlab, toyg‘ana-toyg‘ana soy bo‘yiga tushib bordi. Tahorat olgach, chakillab suv tomib yotgan xirgohga qaytdi-da, bomdod namozidan so‘ng beklar, ishonchli yigitlar va ichkilarni kengashga chorladi. Xirgohga birinketin engil-boshlari shalabbo Xoja Husayn, Qaro barlos, Sulton Husayn arg‘un, Qo‘chbek, No‘yon ko‘kaltosh, Banda Ali, Gulda Qosimbek, Xoldor va eng so‘ngida mo‘g‘ul bashara, suyagi buzuq Mirshoh qavchin jam bo‘ldilar.

Xayriddin Sultonov,
“Oy botgan pallada” hikoyasidan

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

* * *

Otlar yelar shiddatdan terlab,
Yangrar xatar to‘la to‘qalar.
Hurkib ko‘kka sapchir patirlab,
Tun uyqusi – qora qarg‘alar.

Otlar yelar, tillarang xazon
Suvoriylar uzra sochilar.
Elas-elas yangraydi azon –
Tog‘lar uzra osmon ochilar.

Otlar yelar, yelar ko‘pirib,
Uyg‘otgancha mudroq yo‘llarni,
Go‘yo to‘g‘on bandin o‘pirib,
Toshqin quvib kelar ularni.

“Zahiriddin, qayga borursan,
Bobong taxtin, yurtingni tashlab?!
Qora taqdir seni qul kabi
Qayonlarga ketmoqda boshlab?!

Zahiriddin, bu qanday savdo,
Qora hijrat sari yuz tutmoq?
Yuragingni etar-ku ado –
Tirik turib Vatandan ketmoq?

Zahiriddin, ortga bir qara,
Ortga bir boq, toki sen omon,
Axir keyin tushlaringda ham,
Bu tuproqni ko‘rmog‘ing gumon”.

Ot pishqirib to‘xtar, chavandoz
Uzangiga tirar oyog‘in
Va bo‘g‘ziga to‘plar beovoz
Armon to‘la yurak titrog‘in.

Alam bilan yuragi urar,
Shivirlaydi titroq lablari:
“Hamma yerdan ko‘rinib turar
Samarqandning minoralari”.

Xurshid Davron, “Bobur”

1. Qaysi matn(lar)da asosiy e’tibor faktlarga qaratilgan? Qaysi matn(lar)da esa muallif(lar) faktlar bilan birga o‘z tasavvurlariga ham suyanishgan?

2. Qaysi matn(lar) tasvirlanayotgan voqealarni yaqqol tasavvur qilish imkonini beradi? Nima uchun?

3. Hikoyadan olingan parchada muallif asosiy e’tiborini nimaga qaratgan? She’rdachi? Qaysi matn sizga Bobur kechinmalarini his qilish imkonini berdi?

LOYIHA

Guruhlarga bo‘lining. O‘zingiz guvoh bo‘lgan biron voqeani avval “tarixchi”, so‘ng esa “yozuvchi” yoki “shoir” sifatida tasvirlab ko‘ring. Tuzgan matnlaringiz bir-biridan qanday farq qildi?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

TAKRORLASH

Matnni o‘qing. Savollarga daftaringizda yozma javob bering.

ABDULATIFNING ILK ISYONI

Ulug‘bekning birinchi o‘g‘illari yoshligida o‘lib ketishgan, ulardan keyin tug‘ilgan Abdulatif amakivachchasi Alauddavlaga nisbatan bir necha yosh kichikroq edi. Shu sababdan Alauddavla o‘zini sal katta olardi. Uning otasi Boysunqur Mirzo o‘ttiz uch yoshida ichkilikni ko‘p ichish oqibatida kasallanib, vafot etganidan keyin farzand dog‘ida kuygan ona Boysunqurga juda o‘xshaydigan Alauddavlaga ko‘proq e’tibor berardi.

To‘qqiz-o‘n yoshlarida ular yog‘ochdan yasalgan qilichlarini bir-biriga shaqshuq urib mashq qilishgan bo‘lsa, balog‘atga yetib, yigit bo‘lib qolgan kezlarida haqiqiy qilich bilan kuch sinashadigan bo‘ldi. Abdulatifning yoshi kichik bo‘lsa ham, bilagida kuchi ko‘p, otalig‘i uni “Qilichbozlikda sohibqiron bobokaloningizga tortgansiz”, deb maqtaydi.

Bir kuni qilichbozlikdan mashq o‘tkazayotganlarida Alauddavlaning qo‘lidagi qilichini Abdulatif chapdastlik bilan urib yerga tushirib yubordi. Qo‘li qattiq qayrilgan Alauddavla og‘riq zarbidan ingrab, o‘rtancha barmog‘ining qilich kesib ketgan joyini chap qo‘li bilan changalladi.

Shu voqeaning ustiga kelib qolgan Gavharshod begim Alauddavlaning barmog‘idan qon oqayotganini ko‘rdi-yu, qilich tutgan Abdulatifni jerkidi:

– Amirzoda, bunchalik beshafqatsiz!

– Uzr, noxosdan tig‘ tegganini bilmay qoldim!

– Noxosdan emas, ataylab tig‘ urdingiz! – dedi Alauddavla va momosiga yuzlandi. – Menga devonda katta lavozim berilgani uchun baxilligi kelib yurgan edi. Mana, alamini oldi!

– Baxil o‘zingiz, – dedi Abdulatif ham achchig‘lanib. – Mening otam Samarqand taxtida yigirma yildan buyon podshoh! Siz otangizning podshoh bo‘lolmay ketganidan armondasiz! “Endi taxt navbati meniki, bobom meni valiahd tayin etgay, siz mening xizmatimni qilgaysiz!” deb maqtanib yuribsiz!

– Voy, beandisha! – deb Gavharshod begim Abdulatifning so‘zini kesdi. – Bu so‘zlar Xoqoni Sayyidning quloqlariga yetib borsa, ne bo‘lishini bilurmisiz? Halitdan toj-u taxt da’vosini qilishga uyalmaysizlarmi?!

– “Valiahd bo‘lurmen” deb da’vo qilgan erkatoyingiz-ku! – deb so‘z qaytardi Abdulatif.

– Avvalo, siz chaqimchilik qilishdan uyaling!.. Ilkiga qilich urib yarador qilganingiz ustiga yana bunday beodob gaplar!.. Buning uchun Xoqoni Sayyid sizga jazo buyurmoqlari kerak!

Tug‘ilgan shahri Samarqandni sog‘inib, ota-ona mehrini qo‘msab yurgan, Hirotda o‘zini garovda ushlab turilganday sezadigan Abdulatif momosining so‘nggi gaplaridan qattiq xafa bo‘ldi va yig‘lamsirab o‘z ko‘shkiga qarab ketdi.

O‘sha kuni kechasi Abdulatif bo‘lgan voqeani Junaid Bo‘ta degan sirdosh bekiga aytib berdi-yu:

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

– Xo‘rlik bas, Samarqandga ketgaymiz! – dedi.

– Shunday qahraton qishda... Amudaryodan qanday o‘tgaymiz?

– Bu yerda o‘gay bola bo‘lib yashash jonimga tegdi! Alauddavla o‘z tug‘ilgan shahrida, hamma unga mehribon. Samarqandga borsak, hazrat otam menga mehrini ko‘rsatib, bironta lavozim bermasmidi?! Axir sohibqiron bobom otamni o‘n bir yoshida Toshkent-u Sayramlarga hokim qilib tayinlagan ekanlar-ku. Men o‘n yetti yoshdamen! Qachongacha momomga mute’ bo‘lib yurgaymen?

– Agar hazrat otangiz Toshkentnimi, Farg‘onanimi sizga bersalar... unda biz...

– Unda siz mening sohibixtiyor eshikog‘am, birinchi amirim bo‘lursiz!

Bunday katta lavozimlar oldida qish sovuqlari ham Junaid Bo‘taning ko‘ziga ko‘rinmay qoldi. Ikkovlari yo‘l tayyorgarligini ko‘rib, sodiq navkarlaridan o‘ttiz kishini yetovdagi otlari bilan Hirotdan yashirincha olib chiqdilar-da, Samarqandga jo‘nab ketdilar.

Nevarasi Abdulatifning Samarqandga arazlab ketib qolganini eshitgan Shohruh Mirzo Gavharshod begimni Bori Jahonorodagi xonayi xosga chaqirtirdi.

– Siz nechuk Abdulatifni xafa qildingiz, begim? – deb qahr bilan so‘radi.

– Ne qilay, hazratim, Abdulatif Alauddavlaning ilkiga tig‘ uribdilar!

– Siz nuqul Alauddavla deysiz! Ulug‘bek sizga o‘gaymi? O‘g‘li arazlab borsa, Ulug‘bek bilan oramiz buzilishi mumkinligini nechun o‘ylamaysiz? Alauddavla halitdan toj-u taxtga talpinarmish! Valiahd bo‘lmoqchi emish! Uni erka qilib hovliqtirgan siz emasmi?!

Xufiyalar allaqachon hamma gapni oqizmay-tomizmay Shohruh Mirzoga yetkazganini sezgan Gavharshod begim titroq qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yib:

– Men, zaifangiz, ko‘ngli bo‘shlik qilgan bo‘lsam, avf eting, – dedi. – Bevaqt vafot etgan farzandimiz Boysunqur Mirzodan yodgor bo‘lib qolgan Alauddavlaga mehr qo‘yganim rost. Lekin so‘zimga inoning, hazratim, Abdulatif bilan uning otasi Ulug‘bekka mening mehrim bundan ortiq bo‘lsa borki, kam emasdir!

– Kam emasligi... faqat og‘izdami yoki... amalda isboti bormi?

Bugun havo sovuq bo‘lgani uchun er-xotin ikkovi ham po‘stin kiyishgan, tashqarida qor yog‘ib, izg‘irin shamol esmoqda edi.

– Agar... mening so‘zlarimga isbot talab qilinsa... Xo‘p, ijozat bering, hozir qish chillasi bo‘lsa ham, Samarqandga yo‘l olay. Onalik mehrim qandaylig‘ini Mirzo Ulug‘bek oldida isbot etay, Abdulatifni Hirotga olib qaytay.

Pirimqul Qodirov,
“Ona lochin vidosi” romanidan

1. Alouddavla haqida quyida berilgan hukmlardan qaysisi to‘g‘ri?

A) Buvisi Gavharshodbegim uning erkaliklarini yoqtirmas edi.

B) U otasi Boysunqur mirzo vafotidan keyin valiahd etib tayinlangan edi.

C) Uning amakivachchasi Abdulatif bilan munosabatlari unchalik yaxshi emasdi.

2. Gavharshod begim nima sababdan Abdulatifni “beandisha” deb urushib berdi?

A) o‘zini valiahd sanagani uchun

B) kechirim so‘rashdan bosh tortgani uchun

C) Alouddavlani yomonlagani uchun

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

3. Abdulatifga Hirotda turish yoqmasligining sababi nima edi?
A) o‘zini o‘gay sezardi
B) bobosini sog‘inardi
C) shahar iqlimi yoqmasdi

4. Junaid Bo‘ta nima sababdan qish sovug‘iga qaramay, Abdulatif bilan birga ketdi?
A) Abdulatif unga mansab va’da qildi.
B) Ulug‘bek uni Samarqandga chaqirdi.
C) Abdulatifning arazlashini istamadi.

5. Gavsharshod begim nima uchun Samarqandga borishga qaror qildi?
A) Mirzo Ulug‘bek uni Samarqandga taklif qildi.
B) Shohruh Mirzo undan Abdulatifni qaytarib kelishni talab qildi.
B) Hamma farzandlariga munosabati bir xilligini isbotlamoqchi bo‘ldi.

6–8. Quyidagi parchalarni o‘qing. Ularning qaysi turga mansub ekanini toping.
A) epik B) lirik C) dramatik

6. Mehmonxona, o‘ngda kiradirgan eshik, so‘lda bir deraza, qoziqlarda chopon, salla, belbog‘ va shunga o‘xshash narsalar, mehmonxonaning ostiga namat solingan, Solih kichikroq ko‘rpacha ustida oldiga dasturxonda non, bir choynak choy qo‘yib, nondan yeb, choydan ichib o‘ltirar, birozdan so‘ng Abdurahim kirur.

ABDURAHIM – (kirar yo‘talib).

SOLIH – (Abdurahimga qarab, sakrab o‘rnidan turub) Assalomu alaykum, keling, amaki (Abdurahim tomonga uch-to‘rt qadam yurur).

ABDURAHIM – Vaalaykum assalom (qo‘l olishib, esonmi-omonmi so‘zlari bilan hol-ahvol so‘rashurlar).

SOLIH – Qani, amaki, ko‘rpachaga o‘ltiring! (qo‘li bilan ishorat qilur).

Abdulla Qodiriy

7. Qalb bo‘lganda yiroqda
Iroda ekan ojiz.
Do‘stlar ham ko‘p atrofda,
Ammo men yakka-yolg‘iz...
Birdan qalbim keksarib,
Qon ham qochdi yuzimdan.
Sen, sirdoshni axtarib,
Xayol ketar izingdan.

Zulfiya

8. Otam bu hikoyasini boshlagan vaqtda mening vujudimni qo‘rquv o‘rab olar edi-da, ichimdan: “Meni ham shunday jinlarga yo‘liqtirma”, deb Tangriga yolborib qo‘yar edim.

Kecha xolam bizning uyga mehmon bo‘lib kelgan edi. Kechasi oshdan keyin otam, oyim, xolam uchovlari choy ichishib o‘ltirar va o‘tgan-ketgandan so‘zlashar edilar. So‘z aylanib kelib yana o‘sha jinlar, parilar, devlar to‘g‘risida to‘xtadi. Otam bo‘lsa, o‘zi

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

ko‘rgan “jinlar bazmi”ni so‘zlashdan yana tiyilolmadi. Otamning bu hikoyasi, yuqorida so‘zlaganimcha, mening uchun ortiqcha vahimali bo‘lganidan darrov o‘rnimga kirib, ko‘rpamga burkanib yotib oldim. Otam menga bir kulib qaradi-da, “jinlar bazmi”dan so‘z ochdi ...

Abdulla Qodiriy

9–11. Alisher Navoiyning quyidagi she’rlarini o‘qing. Ularning janri va asosiy mavzusini (g‘oyasini) aniqlang.

bazl – in’om, hadya

9. *Bazl hayvonvashlar ilgidin agar istar ko‘ngul,*
O‘yladurkim orzu qilg‘ay bug‘u shoxida gul.

Janri: A) g‘azal B) qit’a C) fard
Asosiy mavzusi (g‘oyasi) _____

10. *Oqara boshladi bosh-u to‘kula boshladi tish,*
Safar yarog‘ini qilg‘ilki, tushti boshinga ish.
Yigitligim boribon, keldi boshima qarilig‘,
Fano yo‘lida bu yanglig‘ emish borish-u kelish.
... Ne qish nishoti manga qoldi, ne xazon, ne bahor,
Nahorima chu xazon qo‘ydi yuz, xazonima – qish.
... Navoiyo, tutar ahli fano najot yo‘lin,
Erishmak istar esang ishda, ham alarni erish.

nishot – xursandchilik

Janri: A) g‘azal B) qit’a C) fard
Asosiy mavzusi (g‘oyasi) _____

11. *Chu dushman o‘ldi qadimiy, ziyonidin hazar et,*
Agarchi nutqi ravonbaxshi jong‘a rohat erur.
Suv birla o‘t aro ziddiyat o‘ldi chun azaliy,
Agar hayot suyidurki, o‘tg‘a ofat erur.

Janri: A) g‘azal B) qit’a C) fard
Asosiy mavzusi (g‘oyasi) _____

12. Chistonni o‘qing. Javobini toping. Chiston ikki obyekt o‘rtasidagi qaysi o‘xshashlikka asoslanganini aniqlang.

Ul nadurkim, bir kelin o‘zi cho‘tir,
Yetti qat parda ichida misli hur.

Uvaysiy

Javob: _____
O‘xshashlik: _____

O‘zingizga baho bering. Nechta savolga javob bera oldingiz?

☺ 10–12 taga: juda yaxshi!

😐 7–9 taga: yaxshi, lekin sal ko‘proq ishlashim kerak!

☹ 7 tadan kam: yaxshi emas, ancha ishlashim kerak!

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

4-fasl.
TURFA QIYOFALAR

O‘lmas Umarbekov: “Qiyomat qarz”
Qamchibek Kenja: “Baliq ovi”
Saida Zunnunova:
“Asfaltni qoq yorib unibdi giyoh…”
Iqbol Mirzo: “Daraxtlar”
Anton Chexov: “Xameleon”

Adabiy tushunchalar:
– badiiy asarda detal
– yumor va satira

Fanlararo aloqa:
adabiyot va tasviriy san’at

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

O‘LMAS UMARBEKOV. “QIYOMAT QARZ”

Bu mavzuda biz:
– hikoyadagi milliy xarakterning badiiy talqinini muhokama qilamiz;
– badiiy tasvir vositalariga oid bilimlarimizni mustahkamlaymiz;
– asar syujetini tahlil qilamiz.

MUALLIF BILAN TANISHAMIZ

Yozuvchi, kinossenariynavis, tarjimon, davlat arbobi O‘lmas Umarbekov (1934–1994) Toshkentda tug‘ilgan. Dastlab o‘rta maktabda, so‘ng Toshkent davlat universitetida (hozirgi O‘zbekiston milliy universiteti) tahsil olgan.

Yozuvchi bolalik orzulari haqida shunday degan edi: “Men ham yoshligimda ko‘p narsalarga qiziqqanman. Keyinchalik uchuvchilikni orzu qilgan edim, bog‘bon ham bo‘lmoqchi bo‘lganman. Ammo adabiyot hamma orzularimdan kuchlilik qildi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, o‘rta maktabni tugatganimda, hech ikkilanmasdan, Toshkent dorilfununining filologiya fakultetiga kirdim. Endi bo‘lsa, adabiyotsiz, badiiy ijodsiz hayotimni tasavvur qilolmayman”.

O‘lmas Umarbekovning qator asarlari boshqa tillarga tarjima qilingan, o‘zi ham jahon yozuvchilari asarlarini o‘zbek tiliga o‘girgan. Yozuvchining ssenariylari asosida badiiy filmlar suratga olingan. Adib xizmatlari hukumat tomonidan e’tirof etilib, faxriy unvonlar bilan taqdirlangan.

ASARNI O‘QISHGA TAYYORLANAMIZ

Biz o‘qiydigan “Qiyomat qarz” hikoyasida e’tiqod, diyonat, va’daga vafo kabi masalalar Sarsonboy ota obrazi orqali ochib beriladi.

Siz “qarz” so‘zini qanday tushunasiz? Nega “qarz” va “qiyomat” so‘zlari birga qo‘llanyapti? Bu so‘zlar orasida qanday bog‘liqlik bo‘lishi mumkin?

Tasavvur qiling, do‘stingiz siz bergan omonatga xiyonat qildi. Bu holatda siz qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

QIYOMAT QARZ

Sarsonboy ota rayon markaziga kelganda quyosh yerdan endigina cho‘giri tilimidek ko‘tarilgan edi. Kim biladi, hali erta bo‘lgani uchunmi yo sovuq tushib, bozor-o‘char qiladiganlar kamayib qolganidanmi – odam siyrak, bozor kunlari bo‘ladigan g‘ala-g‘ovur, to‘polon yo‘q. Chol ichida xursand bo‘lib qo‘ydi: “Ha, tuzuk, bu gal kechikmadim. Avji bozor”.

U shunday deb otning jilovini tortdi. Quloqlarini osiltirib tin olayotgan to‘riq xuddi shuni kutib turgandek pastga, daryo tomonga yo‘rg‘aladi. Bu joylarni u egasi kabi yaxshi biladi. Ulg‘ayib, ustiga egar urilibdiki, har yakshanba kuni butun Hisorni oshib, shu yerga keladi. Tor taxta ko‘prikning yoniga omonatgina qurilgan choyxona etagida to‘xtaydi. Daryoning sel yuvib, beso‘naqay kengaygan shu yeri urush yillaridan beri – kech kuzdan erta bahorgacha – bozor. Chor atrofdan yig‘ilgan yigitlar frontga shu yerdan jo‘nashgan. Ustunlari chirigan choyxona ham o‘sha sertashvish yillardan nishona...

rayon – tuman

cho‘giri – qovunning bir turi

to‘riq – to‘q qizil, to‘q jiyron (malla) ot

Sarsonboy ota nima uchun: “Ha, tuzuk, bu gal kechikmadim. Avji bozor”, – dedi? U bozorga nima maqsadda keldi deb o‘ylaysiz? Nima uchun otaning hikoyadagi ilk nutqi mana shu jumla bilan boshlandi?

Sarsonboy ota otini ilgarilari shu ustunlardan biriga bog‘lab qo‘yardi. O‘zi esa yo bozor aylanardi, yo peshingacha choyxonada o‘tirardi. Bozor tugagach, peshin namozini o‘qib, iziga qaytardi. To‘riq uzoq vaqtgacha bunga ko‘nikolmadi, bir-ikki marta hatto tizginni uzib qochdi, butun bozor ahlini sarson qildi. Bir-ikki marta esa yarim yo‘lda tixirlik qilib, oyog‘ini tirab turib oldi, bo‘lmadi. Qamchi yedi. Endi ko‘nikib

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

qoldi. Sarsonboy ota endi uni bog‘lamaydi ham. Otning o‘zi shunday ustun tagiga kelib, uning tushishini kutadi-da, ko‘zlarini yumib, keyingi bir oyog‘iga dam berganicha, joyidan qimirlamay turaveradi...

Bu gal ham shunday bo‘ldi. Sarsonboy ota ustun tagida otdan tushib, choyxonaga kirib ketdi. To‘riq og‘ir xo‘rsinib, atrofiga qaradi. Ko‘prik tagida bir targ‘il sigir sovuqdan tuklari hurpaygan buzog‘ini erinchoqlik bilan yalardi. To‘riq unga qarab turib, zerikdi. Esnadi-da, ko‘zlarini yumdi.

targ‘il – sarg‘ish va qoramtir yo‘lli

Sarsonboy ota katta ko‘zi singan deraza yoniga cho‘kkaladi. Choyxona qurilibdiki, shu joy uniki. Birov o‘tirgan bo‘lsa ham, u kelganda bo‘shatib beradi. Shu yerdan bozor maydoni yaxshi ko‘rinadi, ko‘prikdan o‘tayotgan biror odam ham xato ketmaydi, hammasi ko‘zdan o‘tadi.

Sarsonboy ota nima uchun doim singan deraza yoniga o‘tiradi? Uning bozorga kelishdan maqsadi oydinlashdimi?

– Ha, Sarsonboy, omonmisan? – dedi choyxonachi choy keltirib qo‘yar ekan. – Yana kelibsan-da?

– Nima, senga og‘irligim tushdimi? – to‘ng‘illadi Sarsonboy ota oftob sarg‘aytirgan siyrak qoshlarini chimirib.

– Jazillama. Azbaroyi achinganimdan gapiraman. Kutgandan yomon narsa yo‘q.

Sarsonboy ota javob bermadi. Uning bugun go‘yo niyatiga yetadigandek kayfi chog‘ edi, lekin o‘rtog‘ining gapi bilan ko‘ngli buzildi. Bir: “Sening nima ishing bor? Choyingni sotsang-chi!” – demoqchi ham bo‘ldi, tili bormadi. Madumar akaning gapida jon bor edi. O‘g‘lidan qoraxat kelganidan keyin bechora o‘n yil kutdi. Xatsiz, xabarsiz xotini farzand dog‘ida ado bo‘lay dedi. O‘zi esa, cho‘p bo‘lib qoldi. Oxiri chidolmay aza ochdi. Ermagi – choyxona.

qoraxat – urushda halok bo‘lganlar haqida yuborilgan xat

“Shayxontohurdagi choyxona”. Rassom Yeremiy Bursev ishlagan surat

Madumar akaning bugungi gapida chindan ham jon bor edi. “Azbaroyi achinganimdan gapiraman...” Nahotki, uning ahvoli achinarli bo‘lsa?! Sarsonboy ota shunday o‘yladi-yu, yuragini nimadir timdalab ketganday bo‘ldi. Lablari titrab, tuproqdek sarg‘aygan soqoli tortildi. Nimadir tomog‘iga kelib tiqildi. Bo‘shashib ketayotganini sezdi-da, o‘shqirdi:

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

– Ahmoq, kutsam seni kutamanmi? Senga Azroildan boshqasi orzumand emas! Qayoqdan mulla bo‘lib qoldingki, menga o‘rgatasan?!

– Jazillama, – iljaydi Madumar aka. – Har bozor basharangni ko‘rsam, ko‘nglim ayniydigan bo‘lib qolibdi. Qir-piringda podangni boqib yuravermaysanmi? Kerak odam o‘zi topib oladi seni. Tag‘in o‘zing bilasan. Menga desa, shu yerda yotib ol. Yo‘lda yakka o‘zingsan, tag‘in o‘lib-netib qolmagin deyman-da, betamiz!

– O‘lsam bir musulmon topilar ko‘mgani, – dedi o‘zini bosib olib Sarsonboy ota. – Sendan Xudo o‘zi saqlasin. Choydan urgan – kafandan ham urib qolasan.

– Shunday demaysanmi? Mana, yangi damladim. Ich zaharingga!

Sarsonboy ota va Madumar aka o‘rtasidagi suhbatdan nimalarni angladingiz? Madumar aka aytganidek, otaning holati chindan ham achinarli edimi? Nima uchun?

Madumar aka yangi damlangan choynakdan choy quyib, o‘rtog‘iga uzatdi, odam kam bo‘lgani uchun o‘zi ham yoniga o‘tirdi.

– Hech gap eshitmadingmi? – so‘radi jiddiy ohangda Sarsonboy ota.

– Eshitsam, shu zahotiyoq senga odam yuborardim, eshitmadim...

Oraga jimlik cho‘kdi. Madumar aka o‘zini noqulay sezib, ichkisi kelmasa ham, xo‘rillatib bir-ikki choy ho‘pladi.

– Zebi qalay? Yuribdimi?

– Tuzuk, – dedi Sarsonboy ota derazaga bir qarab qo‘yib. – Bugun zo‘rg‘a yubordi. Bu yoqqa kelishimni bilib, yarim kechada otni dalaga haydabdi.

– So‘kmadingmi? – xavotirlanib so‘radi Madumar aka.

– Yo‘q, u sho‘rlikka ham qiyin. Endi so‘kmayman.

– So‘kma. Bechoraning sendan boshqa kimi bor?

– So‘kmayman. Lekin... – Sarsonboy ota birdan qiqir-qiqir kulib yubordi.

– Ha? – hayron bo‘ldi Madumar aka.

– So‘kmayman-u, lekin otni haydab nima qiladi? Piyoda bo‘lsa ham kelishimni biladi-ku! Buning ustiga to‘riq yo‘talimni eshitsa, oldimga yugurib keladi. Shuni biladi, nima qiladi haydab?

– Ha, endi achinadi-da, – dedi Madumar aka ham kulishga harakat qilib.

– Men achinmaymanmi? Men ham achinaman unga. Yolg‘izlik yomon. Buni o‘zing ham bilasan. Lekin nachora? Qiyomat qarz bu. Qarz bilan go‘rga kirmoqchi emasman. Tushunishi kerak-da. Innaykeyin...

– Assalomu alaykum-m-m!..

Odamlar kirdi. Gap uzildi. Madumar aka o‘rnidan turdi.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Zebi kim bo‘lishi mumkin? Nima uchun ikkalasi ham bu ayol haqida gapirmoqda? Nima uchun Zebi Sarsonboy otaning bozorga kelishini istamaydi?

dallol – sotuvchi va xaridor o‘rtasidagi vositachi

Ko‘p o‘tmay, bozorning odatdagi tashvishi, to‘poloni boshlandi. Bolalarning qiy-chuvi, sigir-buzoqlarning ma’rashi bilan dallollarning “Bor baraka”si qo‘shilib, yaqinginada osoyishtalik hukm surgan qaqroq daryoga bahor toshqinidek jon kirdi.

Sarsonboy ota yana derazaga tikildi. Ko‘prik o‘tgan-ketganning ko‘pligidan xuddi tuyadek lapanglardi. O‘shanda ham shunday lapanglab turgan edi.

...O‘g‘lini kuzatganda ham, Haydaralini kuzatganda ham...

Lekin unda odamlar bir tomonga qarab yurgan edilar. O‘shalardan ko‘pi shu ko‘prikdan qaytib o‘tmadi, biri o‘ldi, biri bedarak ketdi.

Yozuvchi ko‘prikni lapanglagan tuyaga o‘xshatishida qanday ma’no bor deb o‘ylaysiz? Nega o‘shanda ko‘prikdan hamma bir tomonga qarab yurgan?

O‘g‘lidan yarim yil hech qanday xabar bo‘lmay, birdan qoraxat keldi. O‘shanda u poda bilan Uzumlida edi. Qo‘ylarni soyning narigi sohilidagi o‘tlari endigina nish urgan yalanglikka haydab, o‘zi nurab-nurab devorlarigina qolgan Toshqal’a tagida o‘tirardi. Kun tik kelganda tushlik qilmoqchi bo‘lib, xurjundan suzma olganini biladi, qishloq tomondan ayol kishining uvvos solib yig‘lagani eshitildi. Yig‘i tog‘dan aks sado berib, shunday qattiq jarangladiki, Sarsonboy ota cho‘chib ketdi. O‘rnidan turib, pastga qaradi. Sochlari to‘zg‘igan bir ayol soy yoqalab, yuzini yumdalab kelardi. Sarsonboy ota avval tanimadi. Pastroq tushdi. Shunda uning havorang ko‘ylagidan tanidi. Tanidi-yu, yuragi shig‘ etib ketdi.

– Zebi! Men bu yoqdaman. Zebi, hoy! – deganicha pastga otildi.

Zebi xola uni ko‘rib, o‘zini tutolmay, o‘krab yubordi.

– Nega bo‘kirasan?! Nima bo‘ldi? – Sarsonboy ota uni bilaklaridan ushlab tortqiladi.

– G‘ofur... G‘ofurjon... – Zebi xola gapirolmadi, ho‘ngraganicha qo‘lidagi qog‘ozni eriga uzatdi.

Sarsonboy ota kichkina ko‘k qog‘oz parchasini ko‘rib, hammasiga tushundi. Madumar aka ham o‘g‘lidan shunday xat olgan edi... Sarsonboy ota o‘qimadi, qo‘l-oyog‘i muz bo‘lib, turgan joyida qotib qoldi. Xudo unga bir farzand bergan edi, shuni ham ko‘p ko‘rdi.

Zebi xola fojiasi sizda qanday tasavvurlarni uyg‘otdi? Uning dahshatli yig‘isi va tog‘ning aks sadosida qanday uyg‘unlik bor deb o‘ylaysiz?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Haydarali esa otasidan bir oy keyin jo‘naganicha, bedarak ketdi. O‘g‘lining o‘rtog‘ini o‘zi rayongacha kuzatib bordi. Kuzatadigan uning biron kimsasi ham yo‘q edi.

Jo‘naydigan kuni Haydarali eshakaravaga ortib, ikkita qo‘y olib keldi. Unda G‘ofurdan qoraxat kelganiga yil bo‘lgan edi.

– Amaki, shular sizda tursin, – dedi iymanib. – Dadam qo‘yni yaxshi ko‘rar edilar. Qaytganlarida to‘y-po‘y qilardik... Agar malol kelmasa...

– Xo‘p, bo‘tam, – dedi Sarsonboy ota. – Suruvning ichiga qo‘shib yuboraman. Malol keladigan joyi yo‘q.

Ko‘prik ustida xuddi o‘g‘lini kuzatayotgandek Haydarali bilan xayrlasha turib, butun vujudini titroq bosdi.

– Omon bo‘l, bo‘tam! – dedi-yu, yoshlangan ko‘zlarini ko‘rsatmaslik uchun xotini nimalardir solib bergan tugunni yuziga tutib uzatdi.

– Xolang berdi, ol.

– Rahmat.

– Imkoni bo‘lsa, G‘ofurning mozorini bir ziyorat qilib o‘t. Istalingradda.

Shovqin-suron ichida aytilgan bu gapni Haydarali eshitdimi, yo‘qmi, Sarsonboy ota bilmaydi, har holda, uning bosh qimirlatib, nimalardir deganini ko‘rdi.

suruv – qo‘y-echki podasi

Ikkinchi jahon urushining eng qaqshatqich janglaridan biri Stalingrad (hozirgi Volgograd) shahrida bo‘lgan.

Sarsonboy ota nima uchun Haydaralidan Stalingraddagi o‘g‘lining qabrini ziyorat qilishni so‘radi?

Mana, shunga yigirma yildan oshib ketdi. Haydarali na uning o‘g‘lini borib ko‘rdi, na o‘zi biror xabar yubordi. Tashlab ketgan ikkita qo‘yi qirqtadan oshdi. Boshqa qo‘ylarga aralashib ketmasin, kelib qolsa, topish qiyin bo‘ladi, deb Sarsonboy ota hammasining bo‘yniga qizil lat-

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

adres – manzil

ta bog‘lab chiqdi. Lekin kelmadi. Tirikmi, o‘lganmi – hech kim bilmaydi. Sarsonboy otaning bormagan idorasi, surishtirmagan odami qolmadi. Familiyasi, adresini bilmagandan keyin topish oson bo‘larmidi?

Haydarali nima uchun aynan Sarsonboy otaga ikkita qo‘yni omonat qoldirdi? Har ikkisi ishongan va umid qilgan narsa nima edi?

– Sarsonboy, shu endi, har qayoqqa borib, o‘zingni sarson qilma, – maslahat berdi oshnalaridan biri.

jahannam – do‘zax

– Shunday jahannamdan omon qaytgan odam qachongi ikkita qo‘yni surishtirib kelarmidi?! Xudoga shukur, to‘qchilik. Qo‘y kerak bo‘lsa, bozor to‘la. Sen yaxshisi, bozorga bor. Taniysan-ku, tirik bo‘lsa, shu yerda bo‘lsa, ko‘rinish beradi.

Bu gap Sarsonboy otaga ma’qul tushdi. Shundan beri bitta ham bozorni kanda qilmay qatnaydi. Boshqa kunlari qo‘y boqib, tog‘ma-tog‘, darama-dara yuradi. Horib-charchab, hafta oxiri uyiga qaytadi. Rais bir necha marta: “Bo‘ldi endi, ota, shuncha ishladingiz, yetar. Endi yoshlar ishlasin!” – dedi, lekin Sarsonboy ota quloq solmadi. Qanday qilib quloq solsin. Haydaralining qo‘ylarini baribir boqishi kerak-ku? Yetti yot begona odamning podasini kim boqardi? Boqsa ham qanday boqardi?

Sarsonboy otada Haydaralining qaytishiga ishonch va unga omonati – qo‘ylarini qaytarib berishga rag‘bat uyg‘otayotgan narsa nima edi? Uni nima umidvor bo‘lishdan qaytaradi deb o‘ylaysiz?

Lekin qarilik, qarilik ekan... Ilgarilari haftalab oyoqda tursa ham charchamasdi, endi yarim kunda madori quriydi, o‘tirgisi kelib qoladi. Bir kuni Uzumlining tepasida shunday horib o‘tirgan edi, soydan o‘q ovozi eshitildi. Tag‘in birorta qo‘yni otib qo‘yishmasin deb pastga tushdi.

Archalarga chirmashib ketgan tokning tagida to‘rt-besh yigit xarsangning ustiga shisha qo‘yib otishardi. Cholni ko‘rib, bittasi gap otdi.

– Boboy, nima, kaklikning hammasini otib, tuzlab qo‘yganmisizlar? Bittayam ko‘rinmaydi-ku?

– Kaklik ovi qishda bo‘ladi-da, bo‘tam. Ov qilgani keluvdinglarmi?

– Ha, bir bosh og‘ib keluvdik. Shu tomonda kaklik bo‘ladi, deyishuvdi.

– Bo‘ladi, ko‘p bo‘ladi, lekin qishda bo‘ladi.

– Boboy! – qichqirdi archa tagida o‘tirgan bir yigit. – Qani, bu yoqqa keling. Manavidan bir ichib yuboring biz bilan.

Yigit piyolani to‘latib aroq uzatdi.

– Ichmayman, bo‘tam, – dedi jilmayib Sarsonboy ota. – Hech ichgan emasman.

– Bir ichib ko‘ring. Keyin gap bor, – qistadi yigit va gandiraklab uning oldiga keldi. – Oling.

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

– Ichmayman, bo‘tam, – dedi Sarsonboy ota piyolani itarib. – Har qancha gapingiz bo‘lsa gapiring, eshitaman, lekin ichmayman.

– Mayli, zo‘rlama otani! – dedi miltiq o‘qlayotganlardan biri.

– Bo‘lmasa, o‘zim oldim, – yigit piyolani sipqarib, yengiga uhladi-da, dedi: – Boboy! Ov bahona bir dam olgani chiquvdik-da bu yoqqa. Qo‘ydan bittasini soting. Shu yerda u-bu qilib ketaylik.

Sarsonboy ota boshini quyi solib, jim qoldi. Keyin xijolatlik bilan jilmaydi:

– Attang, bo‘tam, sotolmayman-ku. Meniki emas. Qishloqqa o‘tsangiz, har bir xonadondan topishingiz mumkin. Men o‘zim ham beraman. Bular omonat. Bo‘lmasa, qo‘y sizlardan aylansin!..

– Shunday deng?

– Ha, shunday, bo‘tam.

– Hozir bittasini o‘zimiz tutib olsak-chi? – yigit iljaydi.

– Unday qilmaysiz. Omonat dedim-ku, bo‘tam.

– Juda ziqna ekansiz-da! – yigit achchiqlandi. – Bitta qo‘y nima, odamdan ham azizmi? Akbar?

– Nima deysan? – dedi yigitlardan biri.

– Yur, bittasini tutib kelaylik. Raisga o‘zimiz javobini beramiz.

Yigitlar Toshqal’a tomon yo‘l olishdi.

– To‘xtang! – qichqirdi Sarsonboy ota. – Musulmon bolasimisizlar, meniki emas, dedim-ku! Egasi yo‘q bu qo‘ylarning. Urushda bedarak ketgan, yigirma yildan beri boqib yuribman... Insof bormi?

Yigitlar to‘xtab qolishdi, keyin bitta-bitta orqaga qaytishdi.

– Kechiring, ota, bilmadik, – dedi kimdir.

Sarsonboy ota indamadi. Uning rangida qon qolmagan, lablari titrardi.

– Uzr, boboy!

Sarsonboy ota yana churq etmadi. Keyin ohista-ohista qadam tashlab, qal’a tomon ketdi.

Kaklik oviga kelgan yigitlar sizda qanday taassurot qoldirdi? Ular nima uchun qo‘yni olib ketish fikridan qaytishdi?

Shu voqeani Madumar akaga kuyinib aytib berganida, u ancha o‘ylanib qoldi. Keyin dedi:

– Xafa bo‘lma, bir gap aytaman.

– Xo‘sh?

– Shu qo‘ylarni kolxozga ber, yaxshisi. O‘zingni qiynama. Senda bo‘ldi nima-yu, kolxozda bo‘ldi nima. Kolxoz yeb ketarmidi? Haydaraling kelsa, qaytarib beradi.

Sarsonboy ota javob bermadi.

Mana, hozir ham u bozorga tikilib o‘tirar ekan, o‘rtog‘ining shu maslahati xayolidan ko‘tarilmas, lekin nima qilishini bilmasdi. Kun tikkaga

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

kelganda bozorda odam siyraklashdi. Moli sotilmaganlar, tomoshaga chiqqanlar qoldi, xolos. Sarsonboy otaning ertalabki kayfi chog'ligi yo'qoldi: Haydaraliga o'xshagan birorta odam bu gal ham uchramadi.

"Nahotki, o'lgan bo'lsa? – bu dahshatli fikr cholning xayoliga keldi-yu, qo'rqib ketdi. – Yo'q, shuncha o'lim bo'lishi mumkin emas. Bedarak ketganlarning ko'pi keldi-ku, ajab emas, u ham kelsa. To'y qilmoqchi edi. Bahona bilan men ham to'y ko'rib qolardim. O'zim qilib berardim to'yini..."

U shunday xayollar bilan yana ancha o'tirdi. Bozor tugadi. Deyarli hamma tarqaldi. Oshxona tomondan palovning hidi kela boshladi. Ammo chol joyidan qimirlamay o'tiraverdi.

– Sarsonboy!

Sarsonboy ota o'ziga kelib, o'girildi. Tepasida Madumar aka turardi.

– Bo'ldi endi. Men aytgan ishni qil. Cho'p bo'lib ketasan-ku, axir bunaqada.

Sarsonboy ota indamadi. Mahsisining qo'njidan bir so'm chiqarib, laganchaga tashladi-da, o'rnidan turdi.

– Ketasanmi? Osh damladim, yeb ket.

– Kelasi gal. – Sarsonboy ota karavotdan tushib, eshikka yo'l oldi. – Xayr!

Eshikka chiqib, nimadir esiga tushdi shekilli, qaytdi.

– Nahotki, sen ham tushunmasang?! O'zim olib qolganman, o'zim, o'z qo'lim bilan qaytarishim kerak...

Madumar aka javob qilmadi. Faqat o'rtog'i chiqib ketganda:

– Zebiga salom aytib qo'y! – deb qo'ya qoldi.

Qirov bosgan to'riq egasini ko'rib, quloqlarini chimirdi. Erkalanib, boshini bir-ikki siltadi-da, zinaga yaqinlashdi. Sarsonboy ota egarga chaqqon minib, jilovini qo'liga oldi:

– Ketdik.

To'riq tanish yo'ldan ildam yo'rg'alab ketdi. Uning yurishida ham egasining dilidagi kabi bir umid bor edi.

"To'riq tanish yo'ldan ildam yo'rg'alab ketdi. Uning yurishida ham egasining dilidagi kabi bir umid bor edi". Sizningcha, hikoya nega aynan shu jumlalar bilan yakunlanyapti?

MUHOKAMA QILAMIZ

1. Sizningcha, hikoya nima uchun bozor tasviri bilan boshlanadi? Asar voqealari rivojida va hikoyaning umumiy g'oyasini ochishda bozor qanday ahamiyat kasb etmoqda?
2. To'riq otning holati tasvirlangan o'rinlar Sarsonboy otaning xarakterini tushunishga qanday yordam beradi?
3. "Qiyomat qarz" so'zini birinchi bo'lib aytgan obraz kim edi? Nega bu so'z ilk bora aynan shu obraz tilidan aytildi?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

4. Sarsonboy ota va kaklik ovlashga kelgan yigitlar o‘rtasidagi ziddiyat nimaga xizmat qilmoqda?

5. Nima uchun “Qiyomat qarz” hikoyasida muallif retrospektiva usuliga murojaat qilgan? Asar voqealari xronologik tartibda bayon qilinsa nima o‘zgarardi?

6. Umidvorlik hissining yaxshi va yomon tomonlarini qanday izohlagan bo‘lardingiz? Fikrlaringizni hikoyadagi obrazlar misolida isbotlashga harakat qiling.

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

“Qiyomat qarz” hikoyasidagi voqealar orqali Sarsonboy otada milliy xarakterga xos qanday xususiyatlarni ko‘rishimiz mumkin? Bu voqealar orqali muallif nima demoqchi? Jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

Voqea	Bu voqea orqali Sarsonboy otaga xos qanday xususiyatni ko‘ramiz?	Muallif nima demoqchi?
Sarsonboy otaning Haydaralini qidirib har hafta bozorga kelishi		
Sarsonboy ota va Madumar aka suhbati		
O‘g‘lidan qoraxat olishi		
Haydaralining Sarsonboy otaga qo‘ylarini tashlab ketishi		
Kaklik ovlashga kelgan yigitlar bilan bo‘lgan voqea		

LOYIHA

Guruhlarga bo‘lining. Mahallangizdagi yoshi ulug‘ bobo yoki buvilar bilan qarz, omonatga xiyonat qilmaslik mavzularida suhbatlashing. Ular aytgan fikrlarni quyidagicha jadval tarzida daftaringizga yozib oling. Ularning qaysi fikrlari siz uchun kutilmagan bo‘ldi? Nima uchun?

Guruhimiz suhbatlashgan bobo yoki buvining ismi, yoshi	**Mavzu haqidagi fikrlari**	**Nima uchun bunday xulosaga kelgan?**

MUSTAQIL O‘QISH UCHUN

O‘lmas Umarbekovning o‘zbek xarakterini ochib beradigan yana bir asari – “Sovg‘a” hikoyasini o‘qib chiqishingizni tavsiya qilamiz.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

QAMCHIBEK KENJA. "BALIQ OVI"

Bu mavzuda biz:
– hikoyada ko'tarilgan muammolarni tahlil qilamiz;
– badiiy asarda portret yaratish to'g'risidagi bilimlarimizni mustahkamlaymiz.

MUALLIF BILAN TANISHAMIZ

Qamchibek Kenja 1946-yili Andijon viloyatida tug'ilgan. Toshkent davlat universitetini (hozirgi O'zbekiston milliy universiteti) tugatgan. Faoliyati davomida maktabda o'qituvchilik qildi, turli nashrlar va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida faoliyat olib bordi.

Qamchibek Kenjaning bir qancha she'riy va nasriy kitoblari, shuningdek, jahon adabiyotidan tarjimalari chop etilgan. U Bobur nomli xalqaro ekspeditsiya a'zosi sifatida Boburiylar va boshqa buyuk ajdodlarimiz izidan bir qancha mamlakatlarda ijodiy safarlarda bo'lgan hamda mazkur safar taassurotlari asosida hujjatli-ommabop filmlar yaratishda ishtirok etgan.

ASARNI O'QISHGA TAYYORLANAMIZ

Siz bilan Qamchibek Kenjaning "Baliq ovi" hikoyasini o'qiymiz.

Unda baliq ovlashni yaxshi ko'radigan, ammo baliq ovi sabab fojiaga yuz tutgan aka-ukalar taqdiri haqida hikoya qilinadi.

Hikoyaning kirish qismini o'qing. Voqea kimning nomidan bayon qilinyapti? Asar davomida qanday voqea sodir bo'ladi deb o'ylaysiz?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Hikoyaning Ernazar Yorbekov o'qigan audiovariantini tinglang

BALIQ OVI

Men birinchi sinfga qatnardim. Akam yettida o'qirdi. Otam xo'jalik mudiri edi. Uyimizga tez-tez mehmon kelib turardi. Har safar har xil kishilar: oriq, semiz, novcha, pakana, mo'ylovli, mo'ylovsiz... Ularning ko'pini tanimasam-da, o'zimda yo'q sevinib ketardim. Chunki mehmon kelsa, akam ikkimiz, albatta, baliq oviga jo'nardik. Qishlog'imizning kunbotar tomonida to'qay bo'lib, hali zovurlar qazilmagan, zaxob suvlar quritilmagandi. Katta-kichik buloqlarda, ayniqsa, Dimariqda (dimlanib oqqani uchun shunday deyilardi) baliq mo'l bo'lar edi. Suv ko'payganda hatto to'qay ichidagi sholipoyalarga ham baliq chiqib ketardi. Shanba-yakshanbada bu yerga bolalar to'lib ketardiki, kim qarmoq ko'targan, kim to'r sudragan...

Men akamning baliq tutishini ko'rishga ishqiboz edim. U baliq ovlashga usta edi. To'rdayam, sanchiqdayam bir zumda bir paqirini ilintirardi. Hatto qo'ldayam. Suv ostiga sho'ng'ib, baliqlarni o'z kamaridan tutib chiqardi. Hech narsadan, ilondan ham qo'rqmasdi. Ilon ko'rdimi, tamom, uni dumidan ushlab aylantirib-aylantirib otib yubormaguncha ko'ngli joyiga tushmasdi. Qirg'oqda kulcha bo'lib mudrayotgan ilonlar sharpamizni sezdi deguncha jilib qolishar yo o'zlarini suvga urishardi.

to'qay – qamish, changal singari o'simliklar o'sib yotgan zax yer

zaxob – zax yerlarda tuproq yuzasiga chiqadigan suv

zovur – zaxob yerlarni quritish uchun qazilgan ariq



sholipoya – sholi (guruch) ekiladigan joy

kamar – daryo yoki ariqning suv aylanib oqadigan chuqur joyi

Bolalarning baliq oviga zavqi, ayniqsa, akasining "baliq ovlashga usta"ligi sabablarini qanday izohlaysiz? Yon atrofingizda ham bolaning akasiga o'xshagan baliq ishqibozlarini uchratganmisiz?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

O‘rtoqlarimning havasi kelar, men kerilib, “akang qarag‘ayning akasi shunaqa”, deb ko‘kragimga urardim. Bolalar chuvullashib akamning izidan ergashib yurishar, undan ilon ushlab ko‘rsatishni so‘rab, yalinib-yolvorishardi. Akam ko‘pincha ularga yo‘q demasdi. Bunday vaqtda bolalar akamning qo‘lidagi ilonning havoda doira yasab, chirillab aylanishini uzoqdan, bir-birining pinjiga kirishganicha, qo‘rqa-pisa tomosha qilishardi. Ilon o‘ttiz-qirq qadam nariga shaloplab tushgach, o‘sha yoqqa chopishar, sulayib yotgan gazandaning o‘lganiga ishonch hosil qilishgandan so‘nggina unga yaqinlashishardi. Bironta yuraklisi (u ham iloji boricha o‘zini orqaroqqa olib) ilonning dumiga hadiksirab qo‘l uzatardi. Shundan keyin boshqalar, men bir aylantiray, men bir ushlab ko‘ray, deb talashib ketishar, so‘ngra murosaga kelishib, to‘qay o‘rtasidagi keng chimzor maydonda navbatma-navbat kim uzoqqa otar o‘ynardilar.

zog‘orabaliq

Akam ularga qo‘shilishimga ruxsat bermasdi. Birpas o‘ksinib turardim-u, akam sayoz joyga, quruqlikka irg‘itgan zog‘orabaliqning jon holatda sapchib-sapchib tushishini, suvning chuqurroq yeriga intilishini, tangalarining oftobda yalt-yult qilishini ko‘rib, arazni esdan chiqararardim. Keyin akam tol yo yulg‘undan kesib bergan ilmoqli chiviqqa baliqlarni tizib, sholipoyalarning ensiz polida langarsiz dorbozlarday lapanglab, akam qayoqqa borsa, orqasidan ko‘tarib yurardim. Ko‘p o‘tmay, bolalar suvni shaloplatib yugurib kelishar va yana xarxashasini boshlashardi. Akam tag‘in ilon qidirib ketar, lekin endi uni ushlab, bolalarni quvib qolardi. Ularning har yoqqa tiraqaylab qochishini ko‘rib, qotib-qotib kulardim.

Sizningcha, akaning ilonlarga munosabatini qanday baholash mumkin? Bu jasurlikmi yoki shafqatsizlik?

O‘shanaqa paytlarda men juda yayrab ketardim. Shuning uchun ham mehmonning qorasini ko‘rishim bilan irg‘ishlab, poxol yoyadigan kattakon ayri yog‘ochga ipdan to‘qilgan kichkinagina, bir kishilik to‘r turadigan baland so‘riga chopardim. Akam bo‘lsa, menga xo‘mrayib, biqinimga sekingina bir musht tushirar, takaga o‘xshab irg‘ishlama, deb jerkib berardi. Popugim pasayib, ko‘zimni yengim bilan ishqalagancha indamay uyning orqasiga o‘tib, o‘tirib olardim. Birpasdan keyin akamning o‘zi chaqirardi:

– Kom! To‘rni ol, ketdik.

To‘rni yelkamga tashlab, akamning oldiga tushardim.

Bilaman, baliq ovlash akamning joniga tegib ketgan. Shuning uchun eshikdan begona tovushni eshitsa, peshonasi tirishardi. Ammo to‘qaygacha sust borardi-yu, suvga tushdi deguncha hamma narsani unutib, ishga jon-jahdi bilan kirishib ketardi. U baliqni mehmonlarning soniga qarab tutar, chamasiga yetmaguncha suvdan chiqmasdi.

Mehmonlar odatda uchta-to‘rtta bo‘lib kelishardi.

Ko‘pincha ularni otam o‘zi boshlab kirar, biroq otamning yo‘g‘ida ham kelishaverardi. Faqat bir kishi hamisha otam bilan kelardi. Faqat

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

shu odamgina menga yoqmasdi. Gavdasi beso‘naqay, rangi sovuq, chaqchaygan ko‘zlariga qarashga yuragim dov bermasdi. Mo‘ylovi ham boshqalarnikiga o‘xshamas: labining ikki chetida osilib turardi.

Nima uchun bolaga har doim otasi bilan birga keladigan “gavdasi beso‘naqay, rangi sovuq” kishi yoqmasdi?

U menga doim hissiz, dag‘al ovozda: “Ha, Qoravoy, yuripsanmi?” deb qo‘yar, peshanamga tushgan kalta, tartibsiz pat-sochimni qo‘yning junini chamalab ko‘rganday g‘ijimlab, erkalagan bo‘lardi. Boshim zirqirab, ko‘zlarimdan yosh chiqib ketay derdi. Lekin sir boy bermas, gapiga ham javob qaytarmay, yerga qarab turaverardim. Keyin u qizlarning mayda sochiday ingichka o‘rilgan va uchi bog‘ichli qilib tugilgan, yulg‘un sopi yiltillab ketgan qamchinini: “Ma!” deb uzatardi. Men uni ayvon ustunidagi mixga ilib qo‘yardim. Baliqdan keyin palov ham yeyilib bo‘lgach, u meni chaqirardi: “Qoravoy, qani, qamchinni opke-chi”. U panjalari orasidan sizib tushayotgan yog‘ni qamchin dastasiga surtib-surtib, yana menga qaytarib bergach, kaftini charm etigining qo‘njiga ishqalay boshlardi. So‘ng tovoqqa choy quyardi-da, aylantirib-aylantirib bir ko‘tarardi va xo‘rda ichganday xo‘rillatib, simirib yuborardi. Hammasidan ham uning baliq yeyishini tomosha qiladigan edi. U baliqni ko‘p va juda tez yer, biroq kam nishxo‘rd chiqarardi. Nima balo, qiltanog‘ini ham yutib yuborarmikin, deb hayron bo‘lardim.

nishxo‘rd – qoldiq

Men otamning yonida o‘tirib, uning baliqni oshalab yeyishini hayrat bilan kuzatar, ayrim xatti-harakatlarini ko‘rganimda boshimni otamning panasiga egib, sekin kulib olardim. Kekirganida hiqildog‘i o‘ynab chiqar, uchi ingichka va uzun mo‘ylovlari baliq qiltanog‘iga ilashib hadeb og‘ziga kirib ketar, u chaynashdan to‘xtamagan holda bosh barmog‘i bilan chiqarib qo‘yardi.

Bu notanish mehmon sizda qanday taassurot qoldirdi? Uning xarakterini ochishda qaysi so‘zlar muhim ahamiyat kasb etmoqda? Nima uchun?

Dasturxonga fotiha o‘qishgach, otam: “Qani, Komronbek!” – derdi. Mehmonning orqamdan: “Shu o‘g‘lingiz epchil, chaqqon, uloqqa tushadigan yigit bo‘ladi-da”, deganini eshitib, qadamimni tezlatardim. Baliqxo‘r kishining oti darvozaxonamizda turardi. Egar qoshiga ilingan qora, yiltiroq korzinkani bir sakrashda olib, zum o‘tmay otamga yetkazardim. Otam pishirilmasdan olib qo‘yilgan baliqlarni qog‘ozga o‘rab, unga joylashtirardi. Men esam qamchinni olib, g‘izillaganimcha otni darvozaxonadan ko‘chaga yetaklab chiqardim.

Akamning-ku, uni ko‘rishga ko‘zi yo‘q edi-ya, hatto opam ham: “Yana kepti baliqxo‘r kishi”, – deb qo‘yardi. O‘choq boshidan jilmaydigan onam xursandmi yo xafami – buni bilolmasdim, to‘g‘risi, endi

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

eslasam, qiziqmagan ekanman. Faqat bir marta opam g‘udranib tandirga o‘t qo‘yayotganida uning: “Qovog‘ingni och, Salomat, otang sezib qolsa, hali hammamizni qaqshatadi, u otangning xo‘jayinlaridan”, degani qulog‘imga chalingan.

Nima deb o‘ylaysiz, oila a’zolarining “baliqxo‘r kishi”ga munosabati qanday edi? Otasi uni nima uchun tez-tez mehmonga chaqirardi?

“Baliqxo‘r” biznikiga oxirgi safar kelganida taxminan erta bahor edi. Qattiq kelgan qishning hali zahri ketmagandi. “Baliqxo‘r kishi” birinchi marta ko‘pchilik bilan keldi. Sheriklari ham o‘ziga o‘xshagan qorindor-qorindor-u, faqat mo‘ylovlari yo‘q edi, xolos.

Otam mehmonlarni katta uyga joylashtirib, tezda hammamiz tiqilib o‘tirgan dahlizga qaytib chiqdi-da, past ovozda ish taqsimlay ketdi:

– Onasi, darrov suyuq oshga urin, qo‘y yog‘idan ko‘proq to‘g‘ramchilab, jazla. Salomat, baland so‘ridagi uzum, anordan olib tush, qovundanam, eski chakmonga o‘rab qo‘yganman. Keyin qo‘shnilardan qatiq top, ko‘proq, ha, sariyog‘am. Bo‘la qol, oyog‘ingni qo‘lingga ol. Komil, ukangni boshla to‘qayga. Mo‘lroq tutib kelinglar. Sudralmay ildamroq qimirla.

Akam angrayib otamga, keyin ko‘zlarini mo‘ltillatib onamga qaradi.

– Shunday sovuqda-ya?.. – Onam akamdan ko‘z uzmay, yurak yutib, ammo jur’atsizgina dedi.

– Hech narsa qilmaydi, to‘rda ovlashadi. Ataylab baliqxo‘rlikka kelishgan. Qani, nonni opke, choyni tezlashtir! – Otam onamning oldiga bordi-da, uning qulog‘iga bir narsalar deb shivirladi. Bu gap onamga yoqmadi shekilli, peshanasini tirishtirdi.

Akam hamon joyidan qimir etmas, ko‘zlarini o‘choqda guvullab yonayotgan olovga qadagancha kiprik qoqmay turardi. O‘sha paytda uning xayolidan nimalar kechgani menga hozirgacha qorong‘i.

Nega ota sovuqqa qaramay o‘g‘illarini baliq tutishga jo‘natmoqchi bo‘ldi? O‘sha paytda akaning xayolidan nimalar kechgan bo‘lishi mumkin?

Katta uyga kirib ketayotgan otam qo‘lini eshik tutqichiga uzatguncha to‘xtab qoldi, kifti osha akamga qaradi va ancha silliqlashgan tovushda: “Issiqroq kiyinvol, o‘g‘lim”... dedi-yu, nigohini tezda qayirib, shahd bilan tutqichga yopishdi. Lekin ichkaridan eshikni ohista va zich yopdi. Nazarimda, u eshikka suyanib biroz turib qolganday tuyuldi.

Chovgumdan choynakka qaynoq suv quyayotgan onam: “Shu paytda zarilakanmi?.. Kimga nima qayg‘u... Sal kun iliganda kelishsayam bo‘lardi, to‘qayga o‘t tushib, baliq qirilib ketmasdi...” – deb g‘udrandi. Keyin u bizga zo‘rlab ikki piyoladan issiq choy ichirdi, qalin kiyintirdi.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Otaning tovushi, nigohi, harakatlari nima sababdan o‘zgardi? Ona nimadan norozi edi?

To‘g‘risi, shu paytda baliq oviga mening ham hech borgim yo‘q edi. Akam oyog‘iga ilashgan tosh-kesaklarni jahl bilan tepib ketar, o‘zicha ming‘irlar, men qunishgancha uning orqasidan indamay to‘r sudrab borardim.

Ariqlarning bo‘ylarida, marzalarda ko‘klam nishonasi – yalpizlar bodroq-bodroq bo‘lib chiqa boshlagan, baqalarning “vaq-vaqa”si avjida, chimzorlardagi kuzda o‘t qo‘yib kuydirilgan ajriqlarning tomirlaridan chiqqan yangi, ko‘m-ko‘k giyohlar yer bag‘ridagi hayotning qaytadan jonlanganidan dalolat berardi. So‘ppaygan qovjiroq qamishlar izg‘irinli ko‘klam shamolida bir-biriga urilib, noxush ovoz taratardi. Ikki labi ko‘karib qolgan Dimariq hali hech kim va hech nima loyqalatib ulgurmagani uchun tip-tiniq, bilinar-bilinmas, mayin chayqalib yotardi. Suv ostida onda-sonda mayda-chuyda baliqlar ko‘zga tashlanib qolardi.

marza – ekinzorlar o‘rtasida tuproq uyib hosil qilingan chegara; egat

Akam Dimariqning torroq joyiga to‘r soldi. Men ariqning teparog‘iga borib, uzun kaltak bilan baliqlarni hayday boshladim. Suv bir zumda qop-qora bo‘tanaga aylandi. Akam to‘rni ko‘tardi. Havoda bir necha mayda chavaq yalt-yult etdi-yu cho‘lp-cho‘lp qilib suvga tushib ketdi. Qaytadan to‘r soldik. Bu safar irimigayam bironta ilinmadi.

– Hali baliqlar kamaridan chiqmapti, – dedi akam to‘ng‘illab.
– Endi nima bo‘ladi?
– Nima bo‘lardi, kamarga tushaman-da.
– Sovug‘-u, aka, sovqotmaysizmi?
– Nima qilaman? Baliq topib borish kerak.

Tabiat va Komil kayfiyati o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor deb o‘ylaysiz? Bu tasvirlar asarning keyingi voqealari rivojida qanday ahamiyat kasb etishi mumkin?

Akam otamning gapini ikki qilmas, boshlagan ishini, albatta, oxiriga yetkazardi. “Falon narsa bitmay qoldi” yo “yo‘q ekan” deganini bilmayman. Bunday bo‘lishiga otam yo‘l qo‘ymasdi ham.

Yana bir marta urinib ko‘rganimizdan keyin akam to‘rni qo‘riqqa otib yuborib, yechina boshladi. Akamga Dimariqdagi, umuman, to‘qayning hamma buloq va ariqlaridagi baliq kamarlari besh qo‘lday ma’lum edi. U ariqning chuqurroq joyini, baliqning kamarini mo‘ljallab sho‘ng‘idi. Suv tiniq bo‘lgani uchun uning harakatlari aniq ko‘rinardi. To‘g‘ri borib po‘sti qolmagan, suv yalab o‘tayotgan yapasqi tol to‘nkasi ostiga qo‘l suqdi. Amfibiya odamday suv ostida har zamonda oyoqlarini siltab, muallaq holda ancha turib qoldi, keyin orqasiga tisarilib, suv betiga otilib chiqdi. Uning ikki qo‘lida bir yarim-ikki qarich keladigan ikkita zog‘orabaliq tipirchilardi. Akam baliqlarni qirg‘oqqa irg‘itib, yana sho‘ng‘idi. Keyin yana... Aftidan, ulgurji baliq topib olga-

amfibiya – suvda ham, quruqlikda ham yashaydigan jonivor

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

nidan u ham o'zida yo'q xursand, sovuqni ham unutgan edi. U har gal baliqni menga tashlayotib "Nechta bo'ldi?" deb so'rardi-yu, lekin javob kutmay sho'ng'ib ketardi. O'n beshtaga borganda akam suvdan chiqdi. Badani qorda ishqalanganday qip-qizarib ketgan, dag'-dag' qaltirar, tishlari bir-biriga tegib takillardi.

Uyga yetguncha yugurgilab keldik. Akam dahlizga kirdi-yu o'zini sandalga urdi. Onam: "Bechora bolam-ey", deb uning yuzlarini, ko'kraklarini, qo'llarini ishqaladi, issiq choy ichirdi, ustiga yakandozlardan tashladi, sandalga yana ikki xokandoz cho'g' soldi. Akam sovqotib ketyapman, junjikib ketyapman, deb biroz yotdi-yu uxlab qoldi.

yakandoz – bir qavatli uzun ko'rpacha

Komil o'z jonini xatarga qo'ymay, vaziyatni otasiga to'g'ri tushuntirishi mumkin edimi? Nega u bunday qilmadi? Uning bu harakatini qanday baholaysiz?

Baliqni opam ikkalamiz ayvonda tozalab berib turdik, onam qovurishga tushdi. Otam tayyor bo'lganini peshma-pesh ichkariga olib kirib ketardi. Mehmonlar juda xursand: xoxolashar, ayniqsa, "baliqxo'r kishi"ning kulgisi momaguldurakday uyning derazalarini zirillatib yuborardi.

– Bo'ronbekning o'g'li qishda muz teshib bo'lsayam baliq tutib beradi demadimmi sizlarga!

– Otasining o'g'li-da! Mard, ulfat odamning farzandiyam mard, ulfat bo'lishi kerak-da!

– Ha, hamma gap otasida.

Qiziq gap bo'lmasa ham qiyqiriq, kulgi ko'tarildi.

– Mana endi bundan bu yog'i baliq sayli, – yana "baliqxo'r kishi"ning ovozi eshitildi. – Qachon desanglar, kelaveramiz, xo'jalik mudirimizning hamisha eshigi ochiq.

Mehmonlar qorong'i tushganda qo'zg'alishdi Eshik taraqlab ochilib, ostonada "baliqxo'r" ko'rindi. U chayqalib ketishdan o'zini arang tutib turar, qulochini kerib, ikki qo'li bilan eshik kesakilaridan mahkam ushlab olgandi. Uning pashsha qo'nsa, sirg'alib ketadigan silliq boshida ter yaltirar, go'shtdor, qora yuzlari cho'g'day qizarib, ko'zlarining oqi jigarrang tusga kira boshlagandi.

– Kelin! Rahmat... Ammo baliqni zo'r qovuribsiz. Bu... bizzi qahramon ko'rinmaydi?.. Iye, uxlab qopti-da, ha, mayli, damini olsin...

U ehtiyotkorlik bilan qadam tashlab sandal yoniga keldi. Engashmoqchi bo'lgandi, azbaroyi to'yib ketganidan egilolmadi. Amallab qo'lini akamning jag'iga yetkazib, erkalagan bo'ldi.

– Shovvoz yigit, botir yigit... O'g'ildan xo'p berganda sizlarga... Mana shu Komilbek bor deb kelamizda biz... Yashavorsin, azamat. Baliqni zo'ridan tutibdi. Maza qildik...

Mehmonlardan biri uni qo'ltig'idan suyab tashqariga boshladi.

Bu paytda onam o'choq oldida boshini xam qilganicha yuzini yarim yashirib turar, otam esa pishirmay olib qo'yilgan baliqlarni qora korzinkaga joylash bilan band edi.

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

Mehmonlar telva-teskari bosishib ko‘cha tomon yurishdi. Pichan yeyotgan otlarini timirskilanib arang yechishdi-da, suvlig‘ini ham sol-may egarga yopishishdi.

Ot tuyoqlarining “taqa-tuq”i anchagacha eshitilib turdi.

Qaytib kirganimda uyning derazalari lang ochiq, onam og‘zini doka ro‘mol bilan to‘sib olib, dasturxonni yig‘ishtirardi.

– Komron, manavi savil qolgur shishalarni yo‘qot ko‘zimdan na-riroqqa! – deb baqirib qoldi u menga.

Xona dimiqib, papiros tutunlari shiftning to‘sinlari orasida siyrak bulutga o‘xshab suzib yurar, taxir, achimtir, qo‘lansa ta’mlar, baliq hidi, nos isi aralash-quralash bo‘lib ketgandi.

Mehmonlar sizda qanday tasavvur uyg‘otdi?

Uyni tozalab bo‘lib pechkani qaytadan yoqdik-da, uning yaqiniga joy qilib, akamni uyg‘otdik. Onam:

“Tur, tur, o‘g‘lim, ichkariga joy solib qo‘ydim, issiqqina, kirib yot”, deb elanar, akam bo‘lsa uning gaplarini eshitmaganday nuqul: “A, a, nima?..” derdi. Xullas, uni bir amallab turg‘azdik. Lekin u karaxt odam-day joyidan jilmas, qovoqlarini zo‘r bilan kerib ochgan ko‘zlari yumilib ketardi. Onam uning tirsagidan tutib ichkariga boshladi. Akam o‘ringa kirdi-yu ustiga ko‘rpani tortdi. Onamning: “Choy ichib olmaysanmi, ovqat yesang-chi”, degan iltijolari javobsiz qoldi.

Otam mehmonlarni kuzatib qaytganida biz hammamiz akamning boshida o‘tirardik. Onam uni ko‘rdi-yu tutaqib ketdi:

– Qaysi go‘rda qoldingiz? Yo‘q yerdan baliq topib siylaganingizam yetardi-yu, uylarigacha oborib qo‘ydingizmi?! Bola qiynalib ketdi! Do‘xtir topib kelish kerak!

Qamchinni etigiga urib kelayotgan otam taqqa to‘xtab, onamga g‘azab bilan tikildi, lekin ko‘zlari nursizlanib, rangi oqarib ketgan edi. Keyin shitob kelib akamning yoniga cho‘nqayib, kaftini uning mang-layiga qo‘ydi.

Onaga g‘azab bilan tikilgan otaning nega “ko‘zlari nursizlanib, rangi oqarib ketdi”?

– Komil! Komiljon!

Akam javob bermadi. U qisqa, ammo tez-tez nafas olardi. Otam onamga yuzlandi:

– Ovqat-povqat yedimi?!

– Tuz totgani yo‘q, bolam sho‘rlik, – deya javob berdi onam yig‘lamsirab.

Otam chiqib ketdi. Ko‘chada ot tuyoqlarining tasir-tusuri eshitildi.

Opam akamning oyoqlarini uqalab, piqillab yig‘lar, onam esa uning peshonasiga oq durrachani qayta-qayta ho‘llab bosar, men nima qi-lishimni bilmay, bir chekkada ularning xatti-harakatini, onamning

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

holatini kuzatib o‘tirardim. Onam har zamonda: “Voy, onaginang o‘rgilsin-ey, voy, tomog‘ingga qiltanoq tiqilgurlar-ey, biror safar baliq yemay ketishsa nima qilardi-ya, badani yonyapti buni, qo‘lni kuydiradi-ya”, deya uf tortar, akam bo‘lsa o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lib, isitma bilan olishar, alahlardi. U xayolida nuqul menga gapirardi: “Komish, topdim! Baliqning konini topdim! Ikki qarichli sazan... Ol! Ushla, suvga tushib ketmasin!.. Nechta bo‘ldi?.. Hozir, hozir chiqaman...”

Qachon, qanday uxlab qolganimni bilmayman. Ertalab tursam, akam endi tinchib orom olayotgan ekan. Kechasi doktor kelib ukol qilibdi, xavfli emas, sal sovuq o‘tibdi xolos, deb ketibdi. Chindan ham akamning isitmasi pasaydi, ozroq ovqat yegan ham bo‘ldi. Lekin baribir alahsirayverdi. Hammamiz uning atrofida parvona edik. Ayniqsa, otam oldidan bir qadam ham jilmadi, desam bo‘ladi. O‘zi majburlab ozgina sholg‘om sho‘rva, issiq choy ichirdi. Ustini birday o‘rab turdi. Bir-ikki marta kipriklarida nimadir yiltillaganini ko‘rib qoldim. Hammasidan ham opam ikkimizni “siz”lagani g‘alati tuyulardi. G‘ayrati terisiga sig‘maydigan, chapdast va jangari odam bir kecha-kunduzda cho‘kib, xasta, siniq qariyaga aylanib qoldi. Nazarimda, bir soatda bir enlik etidan tushayotganday edi.

Onam bo‘lsa, kun bo‘yi qovog‘ini ochmadi. Har zamonda o‘zicha g‘udranib qo‘yardi.

Ota nega o‘zgarib qoldi? Nima uchun farzandlarini sizlay boshladi?

Akam kunduzi tez-tez bezovtalanib yotdi-yu, kechga borib isitmasi yana ko‘tarilib ketdi. U o‘qtin-o‘qtin qaltirab-titrab ketar, lablari pirpirab uchib-uchib qo‘yar, tilini chapillatib tamshanardi. Alahsirashi kuchaydi. Uzuq-yuluq gaplaridan xuddi nimanidir quvalayotganday, kimdandir najot kutib, madad so‘rayotganday bo‘lardi. Yarim kechaga borganda tinchib uxlab qoldi. Shundan keyin biz ham yotdik.

Qattiq dod-voydan uyg‘onib ketdim. Onam bilan opam akamning ustiga yotib olishganicha ho‘ngrab yig‘lashar, otam bir qo‘lida akamning jag‘ini ushlab, ikkinchi qo‘li bilan hadeb uning qovoqlarini ishqalar, “hiq-hiq” qilganida yelkalari titrar, ikki ko‘zidan shovullab yosh quyilardi. Men avvaliga hech narsaga tushunmay angrayib qarab qoldim.

Keyin yuragim sovuq bir narsani sezib, akamning ustiga o‘zimni tashladim. Muk tushgancha, tushunibmi-tushunmaymi, uzoq yig‘ladim. O‘zimni tutolmas, nimadir meni yig‘lashga majbur qilardi. Lekin baribir bola edim-da. Birozdan so‘ng akam esimdan chiqdi. Hovlimizga kirayotgan odamlarning ko‘pligini ko‘rib og‘zim ochilardi. Hatto to‘yimda ham buncha odam kelganmas, deb o‘ylardim o‘zimcha.

Otam gangib qolganday, kim gapirsa, o‘shaning og‘ziga qarardi. U nuqul meni bag‘riga bosar, yonidan jildirmasdi.

Biz otam bilan darvozaxonamizda turardik. Ba’zilar otamni quchoqlab yig‘lashar, birov so‘rashib, boshqasi bosh qimirlatgancha indamay hovliga o‘tib ketardi.

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

Bir mahal kelayotganlar orasida “baliqxo‘r kishi” ko‘rinib qoldi. Men hozir sochimdan tortqilaydi, deb o‘zimni otamning orqasiga yashirdim. Agar qo‘l cho‘zadigan bo‘lsa, shartta qochib ketaman deb mo‘ljallab turdim. Lekin u menga e’tibor ham bermadi. Hatto boshini ham ko‘tarmasdi. Otamning oldiga kelib to‘xtadi-da, bir nimalar deb pichirladi. Men faqat “bandachilik-da, bandachilik...” deganini eshitdim. Otam teskari o‘girildi...

O‘shandan beri baliqni ko‘rsam, seskanib ketaman.

MUHOKAMA QILAMIZ

1. Hikoyada qanday muhim g‘oya (g‘oyalar) aks ettirilgan?
2. Komronning baliq oviga va otaning “baliqxo‘r kishi”ga munosabatining o‘zgarishi sabablarini matn asosida izohlang.
3. Oila boshiga tushgan musibatning asosiy sababchisi kim yoki nima? Fikringizni asar matni asosida dalillang.
4. Hikoya nima uchun “Baliq ovi” deb nomlangan? Bu sarlavha asar g‘oyasini qay darajada ochib beradi deb o‘ylaysiz? Siz hikoyaga qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lar edingiz?
5. Asardagi qaysi o‘rinlardan ko‘proq ta’sirlandingiz? Nima uchun?

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Guruhlarga bo‘lining. Matndan “baliqxo‘r” va Komil obrazlari tasvirlangan o‘rinlarni toping. Ularning qahramon xarakterini ochishdagi ahamiyatini aniq detallar misolida tushuntiring. Sizningcha, muallifning portret yaratish mahorati qaysi obraz tasvirida ko‘proq namoyon bo‘lgan?

LOYIHA ISHI

Guruhlarda ishlang. To‘rt obrazdan (Komil, Komron, Bo‘ronbek aka – Komilning otasi, “baliqxo‘r kishi”) birini tanlang. Tanlagan obrazingiz va unga munosabatingiz asosida “eydos konspekt” yarating.

** “Eydos konspekt” – rasm yoki chizma va uning izohidan iborat konspekt.*

MUSTAQIL O‘QISH UCHUN

Qamchibek Kenjaning «Lafz» hikoyasini o‘qib chiqishingizni tavsiya qilamiz.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

SAIDA ZUNNUNOVA. "ASFALTNI QOQ YORIB UNIBDI GIYOH..." IQBOL MIRZO. "DARAXTLAR"

Bu mavzuda biz:
– "Asfaltni qoq yorib unibdi giyoh..." va "Daraxtlar" she'rlarini qiyoslab tahlil qilamiz;
– badiiy tasvir vositalari yuzasidan olgan bilimlarimizni mustahkamlaymiz;
– badiiy matnda ramzlarni topishni o'rganamiz.

MUALLIFLAR BILAN TANISHAMIZ

Saida Zunnunova (1926–1977)

Saida Zunnunova Andijon shahrida oddiy xizmatchi oilasida tug'ilgan. Otasidan erta yetim qolgan. O'n besh yoshida Andijon o'qituvchilar institutida tahsil olgan. Yosh bo'lishiga qaramay, Andijondagi maktablarda o'qituvchilik qilgan. Keyinchalik adabiyotga mehri sabab O'rta Osiyo davlat universitetiga o'qishga kirgan. Turli adabiy nashriyotlarda faoliyat olib borgan. Saida Zunnunova o'zbek yozuvchisi Said Ahmadning rafiqasi bo'lgan.

Iqbol Mirzo (1967)

Iqbol Mirzo (Iqboljon Mirzaaliyev) Farg'ona viloyatida ziyolilar oilasida tavallud topgan. Shoir bolaligini shunday xotirlaydi: "Qishlog'imdan uchta ariq oqib o'tadi. Shu ariqlarda cho'milib, baliq ovlab ulg'ayganman. O'qituvchilar oilasi bo'lganidan, tabiiy, kitobga, adabiyotga alohida e'tibor qaratilardi. Esimda, beshinchida o'qiyotganimda Sergey Yeseninning "Zamin darg'asi" (ustoz Erkin Vohidov tarjimalarida) kitobini yod olganim uchun dadam mukofot tariqasida Qo'qon shahriga tomoshaga olib borgandi". Iqbol Mirzo o'rta maktabni oltin medal bilan tamomlab, Farg'ona davlat pedagogika institutiga (hozirgi Farg'ona davlat universiteti) o'qishga kirdi. Faoliyati davomida turli xil lavozimlarda xizmat qilib kelmoqda. Qator davlat mukofotlari bilan taqdirlangan.

MUTOLAAGA TAYYORLANAMIZ

Uyingiz atrofida yoki bog'ingizda qanday o'simliklar o'sadi? Ularni kuzatganingizda xayolingizdan nimalar kechadi?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Saida Zunnunova

* * *

Asfaltni qoq yorib unibdi giyoh,
Yo'lovchi ko'zini tortar dam-badam.
O'tgan ham, ketgan ham tashlaydi nigoh,
Bag'ritosh ham unga qo'ymaydi qadam.

Bo'stonda maysani jiz etmay bosgan –
Yurakka bu yerda to'ladi shafqat.
Shunchaki ko'katmas asfaltda o'sgan,
Bu – buyuk intilish, bu – hayot, qudrat.

MUHOKAMA QILAMIZ

1. Sizningcha, she'r nima haqida? She'rning umumiy g'oyasi haqida nimalar deyish mumkin?

2. Yo'lovchi nigohini tortadigan giyoh qanday giyoh bo'lishi mumkin? Asfaltda ham giyoh unishi mumkinmi? Nima uchun "bag'ritosh ham bu giyohga qadam qo'ymaydi", ya'ni uni toptamaydi?

3. *"Shunchaki ko'katmas asfaltda o'sgan,*
Bu – buyuk intilish, bu – hayot, qudrat"
satrlari bilan shoira nima demoqchi?

4. Asfaltda o'sgan giyohlarni qanday insonlarga o'xshatish mumkin? Nima uchun?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Iqbol Mirzo

DARAXTLAR

Bardoshingiz uchun qulluq, daraxtlar!
Bir joyda ko‘karib, yoydingiz quloch.
Chidadingiz bo‘ron quturgan vaqtlar,
Qahraton qahrida yupun, yalang‘och.

Chelaklab suv urdi kuzgi bulutlar,
Qora sovuq tig‘lab bag‘ringiz yordi.
Ba’zan poyingizga tutashdi o‘tlar,
Goh boshingiz chaqmoq urib yubordi.

Siz o‘saverdingiz qat’iy va o‘jar,
Yuksalaverdingiz matonat bilan,
Ko‘ksingiz o‘ysa ham duradgor qushlar,
Rizqingiz qiysa ham chirmoviq – ilon.

“Pushtirang manzara”.
Rassom O‘rol Tansiqboyev
ishlagan surat, 1933-yil

Qanoat qildingiz yil kelsa qurg‘oq,
Yaproqlar musht bo‘lib tutildi qator.
Tanangizni quchib bossalar quloq
Jannat arig‘ining shovurlari bor.

Mevalar to‘kasiz dasturxonlarga,
Tozalab berasiz achchiq havoni.
Suyanib sizdayin qadrdonlarga
O‘ylayman betiyiq, sayoq dunyoni.

Po‘stlog‘ingiz silab tomirimda nur,
Qo‘shig‘ingizda bor xushbo‘y daraklar.
Boringizga shukr, Sizga tashakkur,
Vatandosh daraxtlar,
yurtdosh daraxtlar!

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

MUHOKAMA QILAMIZ

1. “Daraxtlar” she’rini qanday tushundingiz? She’r kim yoki nima haqida bo‘lishi mumkin? Fikrlaringizni matn asosida dalillang.

2. Shoir nima uchun “bardosh” so‘zini daraxtga nisbatan qo‘llamoqda? “Quturgan bo‘ron” kim yoki nima bo‘lishi mumkin?

3. “Qo‘shig‘ingizda bor xushbo‘y daraklar” satrida lirik qahramon daraxtlarning qanday qo‘shiqlari va xushbo‘y daraklari haqida gapirmoqda?

4. Daraxtlar ham vatandosh, yurtdosh bo‘lishi mumkinmi? Muallif she’rning oxirgi misralarida nima demoqchi?

5. She’rda ishlatilgan badiiy tasvir vositalarini toping. Ularning asar g‘oyasini ochishdagi ahamiyatini izohlang.

SOLISHTIRAMIZ

1. Har ikki she’rni o‘qiganda nimalarni tasavvur qildingiz? Ko‘nglingizdan nimalar o‘tdi? Har ikki she’rga xos umumiylik va o‘ziga xoslik nimada deb o‘ylaysiz?

2. Har ikki she’rning mazmunini ochib berishga xizmat qiladigan obrazlar, so‘z va so‘z birikmalarini toping va izohlang.

3. O‘ylab ko‘ring: har ikki she’rdagi “giyoh” va “daraxt” kimning yoki nimaning ramzi? Nima uchun ijodkorlar tuyg‘ularini o‘simliklar vositasida ifodalamoqda?

IJODIY ISH

Guruhlarda ishlang. Quyida tasvirlangan o‘simliklardan birini tanlang. Siz bu o‘simlikni kimning yoki nimaning ramzi sifatida ifodalagan bo‘lardingiz? Tanlagan o‘simligingiz asosida ramz ishtirok etgan kichik matn (hikoya, ertak, she’r) tuzing.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

MUSTAQIL MUTOLAA VA TAHLIL UCHUN

Quyida berilgan Saida Zunnunova va Iqbol Mirzo she'rlarini tahlil qiling. Ularda qanday g'oyalar ilgari surilgan? Bu g'oyalarni ochib berish uchun mualliflar qanday vositalardan foydalanishgan? Qaysi she'rdan ko'proq ta'sirlandingiz va nima uchun?

Saida Zunnunova

* * *

Hayotdan nolisa birov, suymayman,
Ayniqsa, sog' bo'lsa qo'li, oyog'i.
Hayot siylar bizni quvonch, baxt bilan,
Ne ajab, bo'lsa goh alami, dog'i.

Kurashsiz, mehnatsiz shodlik, kulguni
O'g'irlik mol deyman, qilaman hazar.
Qalbimning parchasi singmasa agar
Rozimasman birov hadya etsa zar.

G'amimni aytmasam, toki o'zganing
Ko'ngliga bir on ham g'ashlik solmasam.
Baxtimni do'stlarga xushnud yoysam-u,
Lekin uni hech vaqt yig'ib olmasam.

Hayot to'lqinida bir xasdek ojiz,
Uvol atalishga qilmasman toqat.
Umrimning bir oni o'tmasa beiz,
Xuddi ana shunday yashasam faqat.

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

QOG‘OZ GUL

Tashqarida tinmay bo‘ralaydi qor.
Uy ichi bahorday,
hatto guldonda
Qog‘ozdan yasalgan guldasta ham bor.
Gullari rang-barang, nafis, chiroyli,
Biroq hidlamaydi hech qachon hech kim.
Bahorda yashnamas, kuzda so‘limas,
Suv ham so‘ramaydi havo bo‘lsa dim.
Na shabada o‘par yaproqlaridan,
Na ari bol yig‘ar yonoqlaridan,
Na kapalak qo‘nar,
na g‘uncha unar.
Yomg‘ir yuvib o‘tmas chang-g‘uborini,
Umrida bilmaydi bulbul zorini.
Subhidam bargida titramas shabnam,
Shoxidan uzmaydi biron gulparast,
Yonidan ming marta o‘tganida ham...
Tashqarida tinmay bo‘ralaydi qor.
So‘nggi xazonlarni uzib, uchirib,
Ninasin qo‘ltiqlab sovuq yuribdi.
Oynadan qarayman,
qor uyumidan
Egilmay chillaning yel-quyunidan
Quyoshni qidirib, bahorni kutib,
Ona yer issig‘in kaftida tutib,
Nimjon gul novdasi chiqib turibdi.
O‘ylayman,
mana bu chinakam umr.
Faqat o‘zini deb, o‘zin avaylab,
Birov havas qilmagan zaif baxtidan
Bir o‘zi quvonib va qilib huzur
Bir kichik xonaning bo‘lguncha naqshi,
Hayotning qishini,
yozini ko‘rib,
Qaynoq tomirida yonib, jo‘sh urib,
Bir bahor yashagan,
yashnagan yaxshi.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Iqbol Mirzo

GO‘YO

Bir daraxtni ko‘rdim – mag‘rur, barkamol,
Istagan faslida gullaydiganday.
Pisandiga yaqin kelmas qor, shamol:
Durkun bargi mangu so‘lmaydiganday.

Shul daraxtning oldida xor, g‘aribman,
Yo‘l yarmiga yetar-yetmas horibman,
Havodan kuz hidin olib turibman,
Bahor menga qaytib kelmaydiganday.

Bir irmoqni ko‘rdim – o‘jar irmoqni,
Surib xasni, loyqa qilib tuproqni,
Tashlab ketayotir bog‘ni, o‘tloqni –
Zum to‘xtasa, sira bo‘lmaydiganday.

Shul irmoqning huzurida kim bo‘ldim?
To‘xtab qoldim, til tishladim, mum bo‘ldim.
Hasrat keldi, ko‘z yoshimga lim bo‘ldim,
Eski ko‘ngil endi to‘lmaydiganday.

Bir dilbarni ko‘rdim – qoshi qaroli,
Qoshlaridan yurak-bag‘rim yaroli,
Bo‘lsam edi xizmatkori, qaroli,
Qul bo‘lmasam, baxtim kulmaydiganday.

Shul dilbarning qoshida bechoraman,
Yuragimdan nolib, qayga boraman.
O‘zim bilan olishib ovoraman,
Men ham unga parvo qilmaydiganday.

Bir kimsani ko‘rdim, aziz yoronlar,
Firib bersa, chap berolmas shaytonlar,
Yig‘mish dunyo, qurmish turli oshyonlar,
Go‘yo bu zot aslo o‘lmaydiganday.

Shul kimsaning yonida men nimaman?
Balki, uning yukin ortgan kemaman.
Siz nimasiz? Dard so‘yladim kimga man,
Kimligimni hech kim bilmaydiganday.

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

HORG‘IN ROHAT

Horg‘in rohat ichra yotibman tinglab,
(Ne baxt bu – hozircha tuproq tagimda.)
Mendan quvvat olib, sog‘lom gurkirab –
Beshiklar o‘smoqda tevaragimda.

Kapalakdek uchar rangin xayollar,
Asal bo‘layotir gullar g‘ubori.
Tepamda aridek turmang, savollar.
(Ne baxt bu – yotmoqlik yerdan yuqori.)

Mayli, men aldamchi o‘ylar bilan mast
Ruhimga taskinlar izlayotirman,
Shu lahza tegramda boshqa narsamas,
Beshiklar o‘sishin istayotirman.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

ANTON CHEXOV. "XAMELEON"

Bu mavzuda biz:
– "Xameleon" hikoyasidagi obrazlar xatti-harakatlarini tahlil qilamiz;
– yumor va satira o'rtasidagi farqlarni o'rganamiz;
– badiiy asarda detalning ahamiyatini tahlil qilamiz.

MUALLIF BILAN TANISHAMIZ

Jahon adabiyotining mashhur vakillaridan biri, rus yozuvchisi va dramaturgi Anton Pavlovich Chexov (1860–1904) Rossiyaning Taganrog shahrida tug'ildi. Gimnaziyada o'qib yurgan paytlaridan unda adabiyot va san'atga qiziqish paydo bo'ldi. Anton shahar teatriga tez-tez borib turar, gimnaziyadagi o'rtog'i Andreyning uyida tashkil qilinadigan spektakllarda qatnashardi.

Anton gimnaziyada adabiy jurnallar tashkil qildi, kichkina hikoyalar va sahna asarlari yozdi. Keyinchalik Moskva universitetining tibbiyot fakultetida o'qiyotgan paytida uning hikoyalari matbuotda chop qilina boshlandi. Gazeta va jurnaldagilar Chexovdan so'zlar belgilangan hajmdan oshib ketmasligini talab qilar, bu talabni bajarish uchun muallif hikoyalarini ayovsiz qisqartirishga majbur edi. Bu Chexovni asarlarida har bir so'zdan unumli foydalanishga o'rgatdi – uning hikoyalari kam so'zlar orqali katta ma'noni ifodalashi bilan ajralib turadi.

ASARNI O'QISHGA TAYYORLANAMIZ

Biz o'qiydigan hikoya "Xameleon" deb ataladi. Undagi voqealar XIX asr ikkinchi yarmida Rossiyadagi shaharchalardan birida bo'lib o'tadi. Hikoya bosh qahramoni – politsiya nazoratchisi, ya'ni jinoyatlarni tergov qilish bilan shug'ullanadigan xodim Ochumelov.

Xameleon (buqalamun) haqida eshitganmisiz? U qanday jonivor?

Ensiklopediyadan olingan quyidagi ma'lumotni o'qib chiqing.

Xameleonlar (buqalamunlar) – kaltakesaklar turkumi oilasi. 90 turi ma'lum. Afrika, Madagaskar oroli hamda Janubiy Yevropa, G'arbiy va Janubiy Osiyoda tarqalgan. Xavf sezganda ko'p havo yutadi va tana shakli o'zgarib, qo'rqinchli tus oladi. Rangi yorug'lik, atrof-muhit va boshqalar ta'sirida tez o'zgaradi.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasidan

Xameleon haqidagi ushbu ma'lumotda sizni hayratga solgan jihat nima bo'ldi? Sizningcha, hikoya nima uchun "Xameleon" deb nomlangan? Unda nima haqida so'z boradi deb o'ylaysiz?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Hikoyaning O‘zbekiston xalq artisti Amin Turdiyev o‘qigan audiovariantini tinglang

XAMELEON

Ustiga yangi shinel kiygan, qo‘lida tuguncha, politsiya nazoratchisi Ochumelov bozor maydoni o‘rtasidan yurib kelmoqda. Uning orqasidan qo‘lida musodara qilingan krijovnik to‘la g‘alvir ko‘tarib aft-angori sap-sariq gorodovoy qadam tashlab kelayotir. Tevarak jimjit... Bozor maydonida qimirlagan jon ko‘rinmaydi...

Do‘kon va qovoqxonalarning eshiklari och yirtqichning og‘ziday ochilib, huvullab turar edi; ularning oldida hatto gadoy ham yo‘q.

Bozor tasvirini yana bir marta o‘qing. Bu tasvir sizda qanday taassurot qoldirdi? Nima uchun?

Ochumelovning qulog‘iga birdan:

– Sen hali odamni tishlaysanmi, mal’un! Birodarlar, qochirib yubormanglar! Hozir birovni tishlashga ruxsat yo‘q! Ushla! A... e! – degan tovush eshitildi. Kuchuk vangilladi. Ochumelov atrofiga qarab, savdogar Pichuginning o‘tinxonasidan bir it uch oyoqlab, orqa-o‘ngiga qarab, chopib chiqib kelayotganini ko‘rib qoldi. Kuchukni chit ko‘ylak kiygan va nimchasining tugmalari yechilgan bir kishi quvlab kelmoqda edi. U kuchukning ketidan choparkan, o‘zini yerga tashlab, kuchukning keyingi oyog‘idan ushlab oldi. Kuchuk yana vangilladi va “qochirib yubormang” degan ovoz eshitildi. Do‘konlardan mudroq bosib o‘tirgan kishilar kallalarini chiqarib qarashdi va bir dam o‘tinxonaning oldiga, xuddi yer ostidan chiqqandek, xaloyiq yig‘ildi.

– Muhtaram afandim, bu tartibsizlik... – dedi gorodovoy.

Hozirgina jimjit bo‘lgan joyda nega birdaniga xaloyiq to‘planib oldi?

shinel – harbiylarning paltoga o‘xshagan ust kiyimi

krijovnik

gorodovoy – politsiyadagi eng kichik mansab

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Ochumelov so'lga burilib, odamlar yig'ilgan joyga qarab yurdi. O'tinxona darvozasi oldida, yuqorida tasvir qilingan, nimchasining tugmalari yechilgan kishi o'ng qo'lini yuqoriga ko'tarib, qonga bo'yalgan barmog'ini odamlarga ko'rsatib turardi. Uning shirakayf basharasi go'yo: "Senimi, qarab tur, la'nati!" deb turar va barmog'i ham g'alaba tug'iga o'xshardi. Ochumelov bu kishini tanidi: u zargar Xryukin edi. O'rtada oldingi oyoqlarini kerib, vujudi titrab, to'polonning sababchisi – tumshug'i uzun ola tozi turardi. Uning yoshlangan ko'zlari javdirardi.

Itning tasviriga e'tibor bering. Qaysi so'zlar hayvonning holatini tasavvur qilishga yordam beradi? Yozuvchi nima uchun aynan shu so'zlardan foydalangan deb o'ylaysiz?

Ochumelov odamlar orasiga yorib kirarkan:

– Nimaga yig'ildilaring, nima gap? Barmog'ingga nima qildi? Kim qichqirdi? – deb so'radi.

Xryukin mushtumini og'ziga tutib, yo'talib qo'yib so'z boshladi.

– Men, muhtaram afandim, o'z yo'limda ketayotgan edim... Mitriy Mitrich bilan o'tin to'g'risida gaplashmoqchi edim. Siz meni kechiring, men ish qiladigan odamman. Mening ishim mayda ish, menga tovon to'lasinlar, chunki kim biladi, balki, men bu barmog'imni bir hafta qimirlatolmasman. Muhtaram afandim, qonunda, mundaqa maxluq kishiga ozor bersin, deyilgan emas... Agar har narsa tishlayversa, u vaqtda dunyoda turmaslik yaxshiroq...

– Himm... yaxshi... – dedi Ochumelov jiddiyat bilan yo'talib va qoshlarini qimirlatib, – yaxshi... Kimning kuchugi? Men buni shunday qo'ymayman! Men sizlarga kuchuklarni bo'sh qo'yib yuborish nima ekanini ko'rsatib qo'yaman! Qarorlarga bo'ysunishni xohlamagan afandilarga ahamiyat berish vaqti keldi. Bu ablahga jarima solinsa, u vaqtda kuchuk va boshqa tentirab yuradigan hayvon nima ekanini biladi. Men unga ko'rsatib qo'yaman! Yeldirin, – dedi nazoratchi gorodovoyga qarab, – sen bu kuchukning egasini topib, bayonnoma yoz! Kuchukni yo'qotish kerak. Tezda! Quturgan kuchukka o'xshaydi... Bu kimning kuchugi o'zi!

– General Jigalovniki shekilli, – dedi kimdir.

– General Jigalovniki? Himm... Yeldirin, qani paltomni yechib ol: juda ham kun isib ketdi! Yomg'ir yog'sa kerak!.. Lekin men bir narsaga tushunolmadim, u seni qanday qilib tishlab oldi? – deb Ochumelov Xryukinga murojaat qildi. – Qanday qilib barmog'ingga bo'yi yetdi? U kichkina, sen bo'lsang kap-katta odamsan! Sen, balki, barmog'ingni mix bilan teshgandirsan, undan keyin kuchukni bahona qilib tovon olish fikri boshingga kelgandir. Sening kim ekaning hammaga ma'lum. Men sen la'natilarni bilaman.

Ochumelov itning kichkinaligini avval sezmagan deb o'ylaysizmi?

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

– Bu, muhtaram afandim, kulgi bo‘lsin uchun yonib turgan papirosini kuchukning tumshug‘iga tutdi, kuchuk ham ahmoq emas, g‘arch etib tishlab oldi... Bu odamning o‘zi tentak ekan, muhtaram afandim.

– Yolg‘on aytasan, qiyshiq! Ko‘rmaganingdan keyin nimaga yolg‘on gapirasan? Janoblari aqlli odamlar, kim yolg‘on gapirganini, kim Xudo oldida turgandek rost aytganini – hammasini biladilar... Agarda men yolg‘on gapirgan bo‘lsam, sud hukm qilsin... Hozir hamma barobar... Mening birodarim jandarmada ishlaydi. Agar bilgingiz kelsa...

jandarma – harbiy politsiya

Xryukin nega birodarini eslab qoldi?

– Tilingni tiy!

– Yo‘q, bu generalning kuchugi emas. Generalning bundaqa iti yo‘q: uning itlari ovchi itlar, – dedi gorodovoy ma’noli qilib.

– Sen buni aniq bilasanmi?

– Aniq bilaman, afandim.

– O‘zim ham bilaman. Generalning itlari qimmatbaho, zotli itlar, shu ham itmi? Buning aftini qara... Rasvo bir narsa... Shuni ham it deb saqlaydimi kishi?! Sizda aql bormi o‘zi? Bundaqa it Peterburg yoki Moskvada ko‘rinib qolsa, bilasizlarmi, nima bo‘lar edi? U yerda qonunga qarab o‘tirmasdan, o‘ldirib qo‘ya qolar edilar. Sen Xryukin, qancha azob ko‘ribsan, bu ishni shunday qo‘yib ketaverma!.. Adabini berish kerak! Vaqt keldi...

Ochumelovning Xryukinga munosabati nega yana o‘zgarib qoldi?

– Ehtimol, generalnikidir... – deb gorodovoy ovozini chiqarib qo‘ydi. – Uning tumshug‘iga yozib qo‘yilmagan-ku... Bir kuni generalning hovlisida shunday itni ko‘rgan edim.

– Albatta, generalniki bo‘lsa kerak, – dedi kimdir.

– Himm... Yeldirin, birodar, paltoni yelkamga tashla... Shamol turgandek bo‘ldi... Badanim uvushib ketdi... Sen itni generalning oldiga oborib so‘ra. Itni men topib, yuborganligimni ayt... Ko‘chaga chiqarmasinlar. Aytib qo‘y. Balki, u qimmatbahodir, har bir to‘ng‘iz uning tumshug‘iga papiros tegizaversa, it aynib qoladi. Kuchuk degan narsa nozik maxluq bo‘ladi. Ahmoqlik qilib, barmog‘ingni ko‘rsatib turishga hech hojat yo‘q! Ayb o‘zingda!..

Matnning avvalrog‘ida Ochumelov paltosini yechtirishi va keyin yana kiydirishi qandaydir sabablar bilan bog‘liq deb o‘ylaysizmi?

– Generalning oshpazi kelyapti, o‘shandan so‘raymiz... Hay, Proxor! Azizim, qani, bu yoqqa kel! Itni ko‘r-chi... Sizlarnikimi?

– Shu ham gap bo‘ldimi?! Biz hech qachon bunaqa it tutganimiz yo‘q.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

– Bu yerda so‘rab o‘tirishning hech hojati yo‘q, – dedi Ochumelov. – Bu o‘zi sayoq it! Nima keragi bor gapni cho‘zishning? O‘zim sayoq it deb aytdim-ku. Sayoq-da! O‘ldirish kerak, vassalom!

– Bu bizniki emas, – dedi oshpaz, – bu generalning yaqinda kelgan ukasiniki. Bizda bunaqa itni yoqtirishmaydi. U kishining ukalari bunaqa itni yaxshi ko‘radi...

– U kishining birodarlari keldilarmi? Vladimir Ivanovich-a? – deb Ochumelov so‘radi, iyib ketib og‘zi qulog‘iga yetdi. – Uni qara-ya. Men bilganim yo‘q, mehmon bo‘lib keldilar degin?

– Mehmon bo‘lib keldilar.

– Uni qarang, yo Xudo... Akalarini sog‘inib qolibdilar-da... Men bilganim yo‘q edi. Bu o‘sha kishining itlari degin? Juda xursandman... Ol, mana buning barmog‘ini tishla, xa-xa-xa... Nega titraysan? Ol, kish-kish! Ko‘rdingmi... jahli chiqadi-ya...

Oshpaz Proxor itni chaqirib, olib ketadi... To‘planib turgan odamlar Xryukinni masxara qilib, qahqaha uradilar.

– Shoshmay tur, men senga ko‘rsatib qo‘yaman! – deb Ochumelov Xryukinga do‘q qiladi va shineliga o‘ranib, bozor maydonidan yo‘lda davom etadi.

Abdulla Qahhor tarjimasi

MUHOKAMA QILAMIZ

1. Hikoya davomida Ochumelovning itga va Xryukinga munosabati necha marta o‘zgardi? Bu o‘zgarishlarga sabab nima va muallif ularni tasvirlashda qanday vositalardan foydalangan?
2. Xryukin sizda qanday taassurot qoldirdi? Uning, o‘zi aytganday, “hech kimga tegmaydigan”, “zahmatkash” kishi ekaniga ishonish mumkinmi?
3. Hikoyada xaloyiq (olomon) qanday rol o‘ynaydi?
4. Hikoya nima uchun “Xameleon” deb nomlangan? Muallif xameleon deb kimni (yoki kimlarni) nazarda tutgan? Hayotda ham “xameleon”larga duch kelganmisiz?

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Hikoyadan o‘zingizga yoqqan bir epizodni (lavhani) tanlang. Bu lavhani Ochumelov, Xryukin yoki Yeldirin nomidan bayon qilib yozing. Voqealar bayonida nimalar o‘zgardi?

IJODIY ISH

Asarni sahnalashtiring. Qahramonlarning xarakterini ularning ovoz ohangi va xatti-harakatlari yordamida ochib berishga harakat qiling.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

YUMOR VA SATIRA HAQIDA BILIB OLAMIZ

Ba'zi kishilardagi kamchiliklar yoki salbiy jihatlar, hayotdagi illatlarning badiiy asardagi tasvirida ikki xil yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin: **yumor va satira**.

Yumorda muallif hazil-mutoyiba, yengil kulgi orqali ayrim kishilarga xos nuqsonlarni ko'rsatar ekan, ularni tuzatishga da'vat etadi.

Satirada esa ko'p holatlarda jamiyatdagi xavfli illatlar fosh etiladi. Yozuvchi bu illatlarni keskin tanqid qiladi va ularni butunlay yo'qotishga chorlaydi.

Sizningcha, "Xameleon" hikoyasi satirik asarmi yoki yumoristik? Fikringizni asoslang.

BADIIY TAHLIL ASOSLARINI O'RGANAMIZ: DETAL

Detal – badiiy obrazning muallif tomonidan ajratib ko'rsatilgan muhim elementi bo'lib, qahramonlar va voqealarni yorqin tasavvur qilishga, asar g'oyasini tushunishga yordam beradi. Qahramonga tegishli biron buyum, shuningdek, uning tashqi ko'rinishi, nutqi yoki xatti-harakatlaridagi o'ziga xoslik detal bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Misol uchun, Chexov "Xameleon" hikoyasida Ochumelov va gorodovoyning bozor maydonidan o'tib borishini shunday tasvirlaydi: "Ustiga yangi shinel kiygan, qo'lida tuguncha, politsiya nazoratchisi Ochumelov bozor maydoni o'rtasidan yurib kelmoqda. Uning orqasidan qo'lida musodara qilingan krijovnik to'la g'alvir ko'tarib aft-angori sap-sariq gorodovoy qadam tashlab kelayotir".

Boshlig'ining orqasidan ketayotgan gorodovoyning qo'lida – musodara qilingan krijovnik to'la g'alvir. Kimdir ro'zg'orga ozgina foydasi tegsin, degan maqsadda bozorga sotish uchun krijovnik olib chiqqan, jinoyatchilarga qarshi kurashishi kerak bo'lgan mansabdorlar esa uni tortib olishgan (musodara qilishgan). Ochumelov qo'lidagi tuguncha ham, balki, bozorda kimdandir tortib olingandir? Bu detallar – krijovnik va tuguncha bizga Ochumelovning qanday shaxs ekanini tushunishga yordam beradi.

Hikoyani detallarga e'tibor bergan holda yana bir marta o'qib chiqing. Jadvalni daftaringizda to'ldiring.

Hikoyadagi obraz	Obrazni tasvirlovchi detallar	Detallardan maqsad
Ochumelov		
Xryukin		
Yeldirin		

MUSTAQIL O'QISH UCHUN

Anton Chexovning "Latta" hikoyasini o'qib chiqishingizni tavsiya qilamiz.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

FANLARARO ALOQA: ADABIYOT VA TASVIRIY SAN'AT

Bu mavzuda biz:
– adabiyot va tasviriy san'atdagi portretlarni solishtiramiz.

Eslang: badiiy adabiyotda portret deb nimaga aytiladi? O'ylab ko'ring-chi, badiiy adabiyot va tasviriy san'atdagi portretlarning qanday o'xshash va farqli jihatlari bo'lishi mumkin?

Matnni o'qing. Alisher Navoiyning tashqi ko'rinishi va ichki qiyofasini yaratishda muallif qanday vositalardan foydalanmoqda?

Shoirning boshida uchli ko'k taqyaga silliq o'ralgan ko'rkamgina salla. Egnida odmi shohi to'n, ustida yalang qo'ng'ir movut chakmon... Navoiy o'ttizdan oshmagan bo'lsa ham, yoshi ulug'lardek ko'rinardi. Qomati o'rtadan baland, ingichka, lekin gavdasi pishiq, barmoqlari uzun va nafis; qora va qisqa soqolli, xushbichim miyiqlari tekis va silliq; yonoqlari chiqiqroq, kenggina yuzida doimiy tafakkurning asl ma'nosi, ma'naviy qudrat va yengil, go'zallashtiruvchi bir horg'inlik jilvalanadi. Qabariqroq qovoqlari ostidagi qiyg'och ko'zlarida go'yo tafakkur va xayol bilan birga qandaydir iroda kuchi ifodalanadi.

Oybek, "Navoiy" romanidan

Alisher Navoiyning turli rassomlar tomonidan ishlangan portretlarini solishtiring. Bu portretlar qaysi jihatlari bilan bir-biriga o'xshash va qaysi jihatlari bilan farq qiladi? Ularda shoirning ichki dunyosi qay darajada ochib berilgan? Qaysi portret yuqoridagi Oybek tasvirlagan portretga yaqinroq deb o'ylaysiz?

Vladimir Kaydalov
ishlagan surat

Alisher Aliqulov
ishlagan surat

Georgiy Nikitin
ishlagan surat

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

Guruhlarda ishlang.

Quyidagi portretlardan birini tanlang va uni so‘zlar yordamida tasvirlang. Bunda tashqi qiyofa bilan birga kishilarning ichki kechinmalariga ham e’tibor bering.

“Mehnatkash portreti”.
Pavel Benkov (1940-yil)

“Opa-singillar”.
Rahim Ahmedov (1958-yil)

“Sholizorda”.
Nikolay Pak (1978-yil)

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

TAKRORLASH

Matnni o‘qing. Savollarga daftaringizda yozma javob bering.

QOPLON

Yangi hovli Tillayevga yoqdi. Yuklarni mashinadan tushirayotganda Qurbonboy bir gap aytib qoldi:

– Sizga endi bitta it lozim, o‘rtoq Tillayev. It uyning savlati. Albatta it boqing. O‘zim g‘alatisini topib beraman.

Tillayevning itga unchalik hushi yo‘q edi, indamay qo‘ya qoldi. Qurbonboy xotinlarning hayhaylashiga qaramay, polni ham o‘zi yuvdi, gilamni ham o‘zi ko‘chaga olib chiqib, qoqib keldi.

– Iya, iya, biz turganda nega endi siz pol yuvarkansiz, opa? O‘zimiz qotirib tashlaymiz. Men gilam qoqayin-u, siz tomosha qiling. Ammo-lekin itning g‘alatisini boqish kerak. Ko‘chadan kirgan odam kiroyi direktor bo‘lsang, shunaqa it boq, deb havas qiladigan bo‘lsin.

Qurbonboy uyni saranjom qilib bo‘lgandan keyin ham darrov keta qolmadi. Hovlida ancha aylanib yurdi. It bog‘laydigan joyni o‘zi belgiladi.

– Yo‘o‘q, o‘rtoq Tillayev, it masalasini bizga qo‘yib beravering. Mana, itning joyi shu. Kichkinagina, ixchamgina uycha qurib bersam, itning ham joni kirib qoladi. Xo‘p, biz ketdik.

Qurbonboy ketdi.

– Bu kishi kim bo‘ladilar? – dedi Tillayevning xotini uning orqasidan borib eshikni ilgaklab qaytarkan.

zavgar – garaj mudiri

– Judayam anig‘ini bilmayman, garajimizda ishlasa kerak. Ko‘chishga mashina so‘raganimizda, zavgar qarashib yuboradi, deb qo‘shib bergan edi, – dedi Tillayev.

– Durust odamga o‘xshaydi. Chaqqongina ekan.

Ertasiga Tillayev ishdan qaytib yuvinayotganida Qurbonboy kattakon it yetaklab keldi. U itni ayvonning ustuniga boylab, iljaydi:

– Oti Qoplon, Tillayev aka. Odamning yaxshisini darrov taniydi. Sizga tez o‘rganib ketadi. Ertaga yaxshilab uycha yasab berib ketaman.

U qo‘lini yuvib kelib, yarim soatcha itning ta’rifini qilib o‘tirdi.

– It hamma gapni tushunadi, faqat jonivorning tili yo‘q.

Qurbonboy bir so‘zli kishi ekan, aytganini qildi. Tillayev ishga ketganida zambilg‘altakda g‘isht olib kelib, itga uycha yasab ketibdi. Magazindan alyumin tog‘oracha olib, itga yaloq qilib beribdi. Tillayev idoradan chiqib, endi mashinaga o‘tiraman deb turganida, yugurib kelib qog‘ozga o‘rog‘liq narsa uzatdi.

– Xo‘jayin, Qoplonga nasiba. Kabobchi oshnamga tayinlab qo‘ygan edim, suyakni begona qilma, deb.

– Qurbonboyingiz odam ekan, – dedi xotini Tillayev uyga kelganda, – bechora jonini fido qivoraman deydi-ya. Bola-chaqali, kamxarj odamga

Respublika
ta'lim markazi
@edurtm_uz

o‘xshaydi. Imoratini yetti yildan beri bitkazolmasmish. Uncha-munchasiga qarashib yuboring.

Tillayev xotinining gaplariga parvo qilmay, choy ichardi.

Tillayev bilan Qurbonboy orasida yaqinlik paydo bo‘ldi. Bir kuni gap orasida u ro‘zg‘ordan orttirib, uchastkasining tomini yopolmayotganini aytib qoldi:

– Ayb o‘zimda, yoshligimdan shunaqaman, o‘zimga qaramayman, oshna-og‘aynilarning ishi bitsin, deyman. Ha, odam bolasidan shu qolar ekan. Bo‘lmasa, promkombinatda ham, raypoda ham oshnam bor, yuztagina shifer so‘rasam, yo‘q dermidi. So‘ramayman. Aslo so‘ramayman.

– Nechta shifer yetmayapti? – dedi Tillayev beparvo.

– Yo‘q, xo‘jayin, so‘ramang, skladga yuz ellikta shifer yozib bersangiz ham olmayman. Siz bilan shu maqsadda oshna bo‘lmaganman. Bunaqa gapni aytsangiz, uyingizga ikkinchi qadam bosmay ketaman.

Shu-shu bo‘ldi-yu, Tillayevning unga ixlosi oshib ketdi. Shundoq yaxshi odam garajda mashina yuvib o‘tirmasin, deb uni garaj mudiriga muovin qilib qo‘ydi. Uyiga bir yuz saksonta shifer, o‘ttizta tunuka tushirib berdi. Ammo Qurbonboy har tushlikda kelib, Qoplonni o‘ynatib kelishini tark qilmadi. Bu orada Tillayevning eski bod kasali tutib, yotib qoldi. Avvaliga Qurbonboy kelib, uning holidan xabar olib turdi. Doktorlar endi bo‘lmaydi, pensiyaga chiqing, deb maslahat berishgandan keyin Tillayev ministrlikka ariza yozib, ishdan bo‘shatishlarini so‘radi. Ministrlik uning talabini qondirib, o‘rniga boshqa direktor tayinladi. Qurbonboy o‘sha kuni kelib, Qoplonni aylantirgani olib chiqib ketdi-yu, qaytib kelmadi. Tillayev Qoplonga ancha o‘rganib qolgan ekan, to yarim kechagacha ikki ko‘zi ko‘chada bo‘lib, itni poyladi. Yo‘q, Qoplon bedarak ketdi. Qurbonboy ham qorasini ko‘rsatmay qo‘ydi.

Oradan anchagina vaqt o‘tdi. Tillayev hassaga tayanib ko‘cha aylanganini chiqdi. Bir mahal qarasa, ko‘chaning narigi betida Qurbonboy Qoplonni yetaklab yuribdi. Chaqirsa, it qaradi-yu, Qurbonboy qaramadi. O‘sha kuni yangi direktor o‘g‘lining tug‘ilgan kuniga o‘tirish qilib berayotgan ekan. Tillayevga mashina yuboribdi. Er-xotin borishdi. Darvozadan kirishlari bilan yo‘lakda yotgan Qoplon ularni ko‘rib, dumini likillatib erkalandi.

– Bizning it qalay? – dedi yangi direktor.

– Bu itni taniyman, – dedi Tillayev va nariroqda yangi direktorning charm to‘nini tuflab artayotgan Qurbonboyga bir qarab, uyga kirib ketdi.

Said Ahmad

uchastka – hovli uy

promkombinat – ishlab chiqarish bilan shug‘ullangan tashkilot

raypo – savdo-sotiq bilan shug‘ullangan tashkilot

sklad – ombor

muovin – o‘rinbosar

pensiya – nafaqa

ministrlik – vazirlik

Izoh:

SSSR davrida ko‘p narsalarni (ayniqsa sifatli mahsulotlarni) do‘konlarda topish muammo bo‘lgan. Biron mahsulot kerak bo‘lgan kishilar turli ishlab chiqarish yoki savdo tashkilotlarida ishlaydigan tanishlariga murojaat qilishga majbur bo‘lishgan.

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

1. Hikoyaning asosiy g‘oyasini bir gap bilan ifodalang.

_____
_____
_____

2. Hikoya syujetidagi voqealarni to‘g‘ri ketma-ketlikda qo‘ying.

Tillayev nafaqaga chiqdi. _____
Tillayev yuqori lavozimga tayinlandi. _____
Qurbonboy Tillayevga it olib kelib berdi. _____
Tillayev va Qurbonboy do‘stlashishdi. _____
Qurbonboy Tillayevga ko‘chishga yordam berdi. _____
Tillayev Qurbonboyni yuqoriroq lavozimga tayinlandi. _____
Tillayev Qurbonboyni yangi direktorning ziyofatida ko‘rib qoldi. _____
Qurbonboy itni aylantirishga olib ketib, qaytib kelmadi. _____

3. Qurbonboy Tillayevning xotini ko‘nglini olishga qanday muvaffaq bo‘ldi?

A) Yangi hovli topib berdi.
B) Uy ishlariga qarashdi.
C) It olib kelishga va’da berdi.

4. “Siz bilan shu maqsadda oshna bo‘lmaganman”. Qurbonboy “shu maqsad” deganda nimani nazarda tutdi?

A) kattaroq lavozimga tayinlanishni
B) o‘ziga kerakli narsalarni olishni
C) ro‘zg‘origa yordam berishni

5. Nima sababdan Qurbonboy itni olib ketib, qaytib kelmadi?

A) Tillayev kasalligi sababli itga qaray olmadi.
B) Tillayevning xotini itni yo‘qotishni talab qildi.
C) Tillayev itni yangi boshliqqa sovg‘a qildi.

6. Qurbonboyni xarakterlaydigan ikkita sifat yozing. Nega aynan shu sifatlarni tanlaganingizni izohlang.

Misol: _____
Izoh:
_____
_____
_____

Misol: _____
Izoh:
_____
_____

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

_____

7. Hikoyadagi qaysi detal Qurbonboyning xarakterini tushunishga yordam beradi? Javobingizni izohlang.

Javob: _____

Izoh:

_____

_____

_____

8. “– Bizning it qalay? – dedi yangi direktor.

– Bu itni taniyman, – dedi Tillayev va nariroqda yangi direktorning charm to‘nini tuflab artayotgan Qurbonboyga bir qarab, uyga kirib ketdi”.

Ushbu parcha haqidagi qaysi hukm to‘g‘ri?

A) Bu parchada zidlantirish (antiteza) hosil qilingan.

B) Bu parchadagi bir so‘zni turlicha talqin qilish mumkin.

C) Bu parchada Tillayev va yangi direktor munosabatlari ko‘rsatilgan.

9. Hikoyada qaysi yondashuv yetakchilik qiladi: satira yoki yumor? Javobingizni asoslang.

A) satira B) yumor

Izoh:

_____

_____

_____

O‘zingizga baho bering. Nechta savolga javob bera oldingiz?

☺ 7–9 taga: juda yaxshi!

😐 5–6 taga: yaxshi, lekin sal ko‘proq ishlashim kerak!

☹ 5 tadan kam: yaxshi emas, ancha ishlashim kerak!

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

LUG‘AT

Barmoq vaznlar tizimi – she’rning ohangdorligini ta’minlash uchun misralar va turoqlardagi (misraning pauzagacha bo‘lgan qismidagi) bo‘g‘inlar sonining tengligiga asoslangan tizim. Misol uchun:

Sal-qin sa-har-lar-da,	/	*bo-dom gu-li-da,*	6+5=11
Bi-naf-sha la-bi-da,	/	*yer-lar-da ba-hor.*	6+5=11
Qush-lar-ning par-vo-zi,	/	*yel-lar-ning no-zi,*	6+5=11
Bax-mal vo-diy-lar-da,	/	*qir-lar-da ba-hor.* (*Zulfiya*)	6+5=11

Detal (fransuzcha “tafsilot, mayda-chuyda” so‘zidan) – badiiy asarda obrazning ma’lum bir qirralarini, shuningdek, asar g‘oyasini ochishga xizmat qiladigan badiiy vosita. Asarda narsa-buyum, jihoz, kiyim-kechak detal bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Misol uchun:

“Otam daraxtga bolta yo qaychi urishga sira-sira ruxsat bermas, buni u og‘ir gunoh, shafqatsizlik, deb bilar edi. Bizdan sal uzoqroqda yashaydigan, doimo soyabonli kepka kiyib yuradigan Muhojir laqabli kishi bilan otam o‘rtasida nifoq ana shu daraxt tufayli kelib chiqdi. Muhojir qishlog‘imizga chetdan kelib qolgan, uning nasl-nasabini, kimligini, yurtini qishloqda birov bilmas, bu haqda o‘zi ham gapirmas edi”. *(Shodiqul Hamro, “Hovlidagi daraxt” hikoyasidan)*

Ushbu parchada Muhojirning “soyabonli kepka”si qishloqqa begona, chetdan kelib qolgan kishini yaqqol tasavvur qilishga yordam beradi.

O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidagi “Eng katta gunoh” hikoyasida tolqon hikoya g‘oyasini ochib beruvchi badiiy detal hisoblanadi.

Doston (poema) – she’riy yo‘l bilan yozilgan, biron-bir voqeani (yoki voqealarni) bayon qilish bilan birga, muallifning ularga munosabati, ular bilan bog‘liq o‘ylari va kechinmalari tasvirlanadigan asar. Misol uchun, Muhammad Alining “Gumbazdagi nur”, Erkin Vohidovning “Nido” asarlari doston janriga kiradi.

Epik tur – badiiy adabiyotning uch asosiy turlaridan biri. Epik turda asosan voqea-hodisalarni bayon qilish yetakchilik qiladi. Hikoya, qissa, roman kabi janrlar epik turga kiradi.

Fard (arabcha “yakka, yolg‘iz” so‘zidan) – mumtoz adabiyotda qo‘llangan janrlardan biri. Bir baytdan (ikki misra) iborat bo‘ladi. Misol uchun:

Ko‘rmas jahonda hargiz ko‘nglini shod Bobur,
Topmas murodi dilni, ey nomurod Bobur. (Zahiriddin Muhammad Bobur)

Hikoya – epik turga kiruvchi janrlardan biri. Unda qahramon hayotidan bitta yoki bir-biriga bog‘langan bir necha qisqa voqealar tasvirlanadi. Misol uchun, Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasida Qobil boboning ho‘kizi yo‘qolishi bilan bog‘liq voqealar tasvirlangan.

Konflikt (lotincha “to‘qnashuv” so‘zidan) – syujetdagi voqealarni harakatga keltiradigan ziddiyat, qarama-qarshilik. Konflikt qahramonlar o‘rtasida, qahramon va muhit o‘rtasida yoki ichki (qahramonning ichki holatlari ziddiyati) bo‘lishi mumkin. Asar bir emas, bir necha konflikt asosida rivojlanishi ham mumkin. Misol uchun, “Yulduzli tunlar” romanining “Agra: yo hayot, yo mamot” bobida Bobur va Xo‘ja Kalonbek hamda Bobur va Malika Bayda o‘rtasidagi konfliktlarni kuzatsak, Ernest Hemingueyning “Chol va dengiz” qissasida Santyago va u tutmoqchi bo‘lgan baliq hamda Santyago va dengiz (muhit) o‘rtasidagi konfliktni, Anton Chexovning “Xameleon” hikoyasida esa Ochumelovning ichki konfliktini (goh barmog‘i tishlab olingan Xryukinni aybdor sanashi, goh esa itni) ko‘rishimiz mumkin.

Lirik tur – badiiy adabiyotning uch asosiy turlaridan biri. Lirik turda his-tuyg‘ular, kechinmalar tasvirlanadi. She’r, g‘azal, qo‘shiq kabi janrlar lirik turga kiradi.

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

Qit'a (arabcha "bo'lak, qism, parcha" so'zidan) – mumtoz adabiyotda qo'llangan janrlardan biri. Ikki bayt (to'rt misra) va undan ortiq bo'lishi mumkin. Qit'ada har ikkinchi misra qofiyalanadi. Misol uchun:

Chun g'araz so'zdin erur ma'ni anga,
Noqil o'lsa xoh xotun, xoh er.
So'zchi holin boqma, boq so'z holini,
Ko'rma kim der oni, ko'rgilkim ne der. (Alisher Navoiy)

Ramz – bir obraz (tushuncha) orqali boshqa bir tushunchaning ifodalanishi. Ramz matndagi so'zni ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda talqin qilish imkonini beradi. Misol uchun:

Oq daryoni izladim,
Qora daryo duch keldi.
Qora buloq bag'rida cho'mildim, do'stlar,
Oq daryoga o'tguncha. (Azim Suyun)

Ushbu parchada qora va oq daryolarni o'z ma'nosida ham, ko'chma ma'noda ham (oq daryo – yorug' kunlar, orzu-umidlarning ushalishi, qora daryo – mashaqqatlar ramzi sifatida) talqin qilish mumkin.

Retrospektiva (retrospeksiya) – muallif asar voqealarini bayon qilishda ularning xronologik (vaqt bo'yicha) tartibini buzib, oldinroq bo'lib o'tgan voqealarga qaytishi. Misol uchun, Odil Yoqubovning "Muzqaymoq" hikoyasida bosh qahramon otasi unga muzqaymoq olib bermoqchi bo'lganida otasining qattiqqo'lligi bilan bog'liq voqeani eslaydi.

Roman – epik turga kiruvchi janrlardan biri. Boshqa epik asarlardan odatda hajmi kattaligi va qahramon hayotining katta davrida sodir bo'lgan voqealarni tasvirlashi bilan ajralib turadi. Misol uchun, Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanida Boburning o'n ikki yoshida Farg'onada taxtga o'tirishidan boshlab 47 yoshida Hindistonda vafot etishigacha bo'lgan davrdagi muhim voqealar tasvirlangan.

Satira – jamiyatdagi illatlarning keskin tanqid qilinishi. Muallif bu illatlarga o'z salbiy bahosini beradi va ularning bartaraf qilinishini istaydi. O'zbek adabiyotida Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Said Ahmad, Ne'mat Aminov kabi ijodkorlar satirik asarlar yaratishgan.

Syujet – badiiy asarda bayon qilingan voqealar. Misol uchun, bo'rilar to'dasining Kurrumpo vodiysi mollarini qiyratishi va to'da sardori Loboni tutish bilan bog'liq voqealar Ernest Seton-Tompsonning "Lobo" hikoyasi syujetini tashkil qiladi.

Chiston (forscha "u nima?" so'zidan) – mumtoz adabiyotda she'riy topishmoq. Misol uchun:

Ul nadurkim, bir kelin o'zi cho'tir,
Yetti qat parda ichida misli hur. (makkajo'xori) (Uvaysiy)

G'azal (arabcha "ayollarga xushomad qilish" so'zidan) – Sharq adabiyotida keng tarqalgan lirik janrlardan biri. Hajmi va mavzusi turlicha bo'lishi mumkin. G'azalning birinchi baytidagi misralar o'zaro qofiyalanadi, keyingi baytlarda esa har ikkinchi misra birinchi misraga qofiyadosh bo'lib keladi. Misol uchun:

Mehnat-u alamlarga mubtalo Uvaysiyman,
Qayda dard eli bo'lsa, oshno Uvaysiyman.
Istadim bu olamni, topmadim vafo ahlin,
Barchadin yumub ko'zni muddao Uvaysiyman.
... ...
Faqr borgohiga qo'ysa gar qadam har kim,
Bosh agar kerak bo'lsa, jon fido Uvaysiyman.
Vaysiy beriyozat deb sahl tutma, ey orif,
Ishq aro nihon dardi bedavo Uvaysiyman. (Uvaysiy)

Respublika
ta'lim markazi

@edurtm_uz

MUNDARIJA

Kirish. Badiiy tahlil asoslari 3

1-FASL. INSON, TABIAT, O‘ZLIK

Normurod Norqobilov. “Oqbo‘yin” 12
Zulfiya. “Sog‘inib”. Asqad Muxtor. “Oliy butunlik” 22
Ernest Seton-Tompson. “Lobo” 30
Ernest Heminguey. “Chol va dengiz” 42
Fanlararo aloqa: adabiyot va tabiatshunoslik 62
Takrorlash 64

2-FASL. KO‘ZIM QAROG‘IDASAN, OTAYURT!

Muhammad Ali. “Gumbazdagi nur” 70
Hamza. “Jonlarni jononi Vatan”.
Sirojiddin Sayyid. “Vatanni o‘rganish” 88
Nabi Jaloliddin. “Ota” 96
Sergey Yesenin. “Shahinam, o, mening Shahinam...”
Rasul Hamzatov. “Qushqanotli, hoy karvon...” 108
Fanlararo aloqa: adabiyot va musiqa 116
Takrorlash 118

3-FASL. O‘TMISHDAN SADOLAR

Alisher Navoiy. Qit’alar va fardlar 124
Jahon otin Uvaysiy. G‘azallar va chistonlar 130
Abdulla Qodiriy. “Mehrobdan chayon” 136
Pirimqul Qodirov. “Yulduzli tunlar” 148
Fanlararo aloqa: adabiyot va tarix 172
Takrorlash 174

4-FASL. TURFA QIYOFALAR

O‘lmas Umarbekov. “Qiyomat qarz” 180
Qamchibek Kenja. “Baliq ovi” 190
Saida Zunnunova. “Asfaltni qoq yorib unibdi giyoh…”
Iqbol Mirzo. “Daraxtlar” 200
Anton Chexov. “Xameleon” 208
Fanlararo aloqa: adabiyot va tasviriy san’at 214
Takrorlash 216

Lug‘at 220

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

O‘quv nashri

ADABIYOT

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
7-sinfi uchun darslik

Muharrir Xurshidbek Ibrohimov
Badiiy muharrir Sarvar Farmonov
Rassom Ilhom Xolxo‘jayev
Dizayner Kamola Ahmedova
Texnik muharrir Akmal Sulaymonov
Musahhih Orifjon Madvaliyev
Sahifalovchi Xurshidbek Abdulboqiy o‘g‘li

Bosishga __.__.2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8.
Georgia garniturasi. Kegli 12. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i ____. Nashriyot-hisob tabog‘i ____.
Adadi _____ nusxa. Buyurtma ___.

Respublika
ta’lim markazi

@edurtm_uz

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslik-ning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta’mir-langan. Ko‘chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.